

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**A. VAHOBOV, N. JUMAEV, U. BURXANOV**

**XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARI**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
tomonidan Darslik sifatida tavsiya etilgan

**TOSHKENT - 2003**

**Ilmiy muxarrir akademik**  
**M.Sh.Sharifxujaev**

**Takrizchilar:**

T. S. Malikov — Uzbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Davlat va jamiyat kurilishi akademiyasi dekani, i.f.d., professor.

N. X. Xaydarov — Uzbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Davlat va jamiyat kurilishi akademiyasi kafedra mudiri, i.f.n., dotsent.

Darslikda xalkaro moliya munosabatlarning predmeti, vazifalari va tarkibiy tuzilishi urganilgan. Shuningdek unda milliy xujalik va xalkaro moliya munosabatlarning axamiyati, jaxon valyuta tizimi va uning rivojlanish boskichlari, valyuta bozori, valyuta operatsiyalari, valyuta siyosati, mamlakatning tulov balansi, xalkaro savdo va uni moliyalashtirish, xalkaro xisob-kitoblar, xalkaro kredit va xorijiy investitsiyalar, xalkaro lizing, sugurta va solik munosabatlari keng yoritilgan. Xalkaro moliya munosabatlari kullaniadigan tushunchalarga ta'riflar, statistik ma'lumotlar jadvallar shaklida keltirilgan.

Darslik barcha iktisodiy yunalishda ta'lim olayotgan talabalar, aspirantlar va mutaxassis-amaliyotchilarga muljallangan.

## **KIRISH**

Mamlakatimizda bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan xujalik yuritishning muxim tarkibiy kismi bulgan xalkaro moliya munosabatlarining axamiyati yanada ortmokda. Xalkaro moliya munosabatlarining uziga xos jixati shundaki, ushbu munosabatlar uzida milliy va jaxon xujaligi muammolarini mujassamlashtiradi. Jaxon xujaligining globallashuvi va baynalmilallashuvi natijasida tovarlar xizmatlar va ayniksa, kapital okimlarining xalkaro darajadagi aylanmasi kengaymokda. Bu jaxon iktisodiyotini xarakatga keltiruvchi asosiy kuch sifatida yuzaga chikadigan - xalkaro moliya munosabatlarini nazariy jixatdan chukur egallash zaruratini oshirmokda.

Mazkur darslik iktisodiy yunalishlar buyicha ta'lim olayotgan talabalarga muljallangan bulib, u oliy ta'limning bakalavriat boskichida ukutilishi rejalashtirilgan "Xalkaro moliya munosabatlari" fani xamda magistratura boskichida ukutiladigan "Xalkaro moliya" fanining ukuv dasturlari asosida yozilgan. Shuningdek, darslikdan amaliyotchi-mutaxassislar, ilmiy tadkikotchilar, aspirantlar va ushbu soxa bilan kizikuvchilar xam foydalanishlari mumkin.

Dasrlik xalkaro moliya munosabatlari soxasidagi mamlakatimizda nashr etilayotgan ilk kitob bulib, u xalkaro moliya munosabatlarining turli yunalishlarini kompleks xolda uzida mujassamlashtirgan.

Dasrlik xalkaro moliya munosabatlarining moxiyati va tarkibi, xalkaro xujalikning milliy iktisodiyotga ta'siri, globallashuv va xududiy lashuv tushunchalarini yoritish bilan boshlanadi.

Xalkaro valyuta munosabatlari, uning rivojlanish boskichlari, valyuta operatsiyalari va valyuta bozori, valyuta siyosati xam nazariy jixatdan, xam amaliy jixatdan keng yoritib berildi.

Xalkaro moliya munosabatlarining muxim tarkibiy kismi bulgan mamlakat tulov balansi, uning tarkibi va Uzbekiston Respublikasida uni tuzish bilan boglik tushuncha va ta'riflar ifodalab berildi.

Darslikda shuningdek, xalkaro savdo, xalkaro xisob-kitoblar, xalkaro kreditlar va investitsiyalar, xalkaro lizing munosabatlari, xalkaro sugurta va tashki iktisodiy alokalarni solikka tortish nazariy jixatdan yoritib berilgan.

Mamlakatimizda iktisodiyotni erkinlashtirish buyicha amalga oshirilayotgan isloxotlarning xalkaro moliya munosabatlari ta' siri, milliy iktisodiyotning xalkaro xujalikka integratsiyalashuvi jarayoni, ushbu soxadagi mavjud muammolar va ularning echimlari ukuvchiga tushunarli tarzda yoritib berilgan.

Darslikni yozishda nafakat mavjud milliy va xorijiy adabiyotlardan foydalanildi, balki darslikni yozishda mualliflarning rivojlangan mamlakatlarning universitetlarida tuplagan xalkaro amaliy tajribalari xam keng kullanildi. Shuningdek, darslik internet tarmogi orkali olingan ma'lumotlar bilan xam boyitildi. Natijada, darsliklar tarkibini tuzishda uchraydigan amaldagi stereotipdan voz kechilib, uni ukuvchiga kizikarli bulgan amaliy ma'lumotlar aloxida keltirilgan.

Dasrlikning xar bir paragrafi sungida, ukuvchini bilimini mustaxkamlash xamda mustakil fikrlash kobilyatini rivojlantirish maksadida uzini-uzi tekshirish uchun savollar tuzildi.

Darslikni yukori saviyada chikishi uchun uz maslaxatlari bilan ishtirok etgan barcha iktisodchi olimlarga, xamkasblarimizga, shuningdek, ushbu darslik kulyozmasining takrizchilari T.Malikov va N.Xaydarovlarga uz minnatdor-chiligimizni izxor etamiz.

Mazkur darslik ilk bor nashr kilinmokda va unda ayrim kamchiliklarning uchrashi tabiiy. Shuni inobatga olgan xolda, ushbu darslikda uchraydigan kamchiliklar buyicha uz fikr-muloxazalarini bildirgan kitobxonlarga oldindan minnatdorchilik bildiramiz. Bu kelgusi nashrlarda mazkur darslikni yanada mukammal tarzda ukuvchilarga takdim kilishga yordamlashadi.

**Mualliflar.**

# **I BOB. MILLIY XO'JALIKNING RIVOJLANISHIDA XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARINING AHAMIYATI**

## **1.1. IKTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA TASHKI IKTISODIY ALOKALARINING XAMDA XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARINING ROLI VA AHAMIYATI**

XX asrning sunggi yillarida sobik Ittifoqning parchalanishi, mamlakatlar urtasida iktisodiy va siyosiy alokalarining sifat jixatdan yangi boskichga chikishi, milliy xujalik alokalarining integratsiyalashuvi bilan, globalizatsiya jarayonlarining jadallashuvi yuz berdi. Globalizatsiya natijasida jaxon xujaligining tarkibiy kismiga aylanib borayotgan mamlakatlarning soni ortib bormokda. Bu milliy darajadagi xukukiy, iktisodiy xamda texnologik tusiklar yukolishiga, uning urniga xalkaro iktisodiy xujalikning umumiy iktisodiy konuniyatlari va xalkaro xujalikning funksional alokalarini tatbik etilishiga olib kelmokda.

Mamlakatlar xayotidagi globalizatsiya - iktisodiy munosabatlardagi tovarlar, xizmatlar, kapital xamda fond bozorlaridagi savdo va siyosatga doir tartiblarning tobora erkinlashuvi orkali namoyon bulmokda. Tashki savdo alokalari erkinlashtirilayotgan mamlakatlar soni yil sayin ortib bormokda.

Jaxon iktisodiy va moliyaviy muxitining shakl-lanishiga ta'sir etgan sezilarli uzgarishlar sifatida kuyidagilarni kursatish mumkin:

1) 1957 yili Londonda Britaniya xukumatining funt sterling ustidan nazorat urnatishiga javob tarikasida evrodollar bozorining yuzaga kelishi;

2) 1958 yilda dastlab, "Umumiy bozor" deb atalgan Evropa Iktisodiy Xamkorligi (EIX) - xozirgi Evropa Ittifoqining (EI) tashkil topishi;

3) Amerika korporatsiyalari xorijiy faoliyatlarini kengaytirishga intilishi (1950 yillardan boshlab). Jaxon bozorida Evropa va Yaponiya korporatsiyalari faoliyatining sezilarli usishi, shuningdek, xalkaro maydonda Amerika korporatsiyalari bilan ushbu mamlakatlar urtasida rakobatning kuchayishi;

4) Utgan asrning 60-yillarida Yaponiya iktisodiyotini tez sur'atlar bilan usishi, Uzok Shark biznes faoliyatida yangi imkoniyatlarning ortishi;

5) 1971-1973 yillarda Brettonvud tizimini kulashiga olib kelgan jaxon moliya inkirozlari, valyutaning belgilangan kursi tizimidan, suzuvchi valyuta kurslariga utish;

6) 1971-1979 yillardagi birinchi va ikkinchi neft inkirozlari jaxon iktisodiy tizimiga bosim utkazishi. Ushbu sanalarda neft eksport kiluvchi mamlakatlar tashkiloti (OPEK) neft narxini sezilarli darajada oshirishi;

7) Rivojlanayotgan mamlakatlarning 1982 yilda tashki karzlarga xizmat kursatishi bilan boglik jaxon karzdorlik inkirozining boshlanishi;

8) 1980 yillarda Yaponiyaning xalkaro moliyaviy kuch va jaxon kapitalining manbasi sifatida etakchi mamlakatga aylanishi;

9) 1987 yilda ettita mamlakatning ("Katta ettilik") Parijda Luvr bitimini imzolashi. Ular uz valyuta kurslarining dollarga nisbatan tor tebranish doirasida sun'iy ravishda almashtirish orkali, kuchsizlanib borayotgan dollarni kullab-kuvvatlashni rejalashtirdilar. Shuningdek, ushbu mamlakatlar kelishilgan iktisodiy siyosat yuritishni muljalladilar;

10) 1987 yilda EIX yagona Evropa aktini kabul kilish orkali 1992 yilda yaxlit Evropa bozorini tashkil kilishni rejalashtirilishi. Bunda, mazkur tashkilotning Garbiy Evropa moliyaviy va iktisodiy xolatiga sezilarli ta'sir etishi kutildi;

11) 1989-1992 yillarda Sharkiy Evropa mamlakatlari uz siyosiy yunalishlarini uzgartirishi. Ularning kommunistik dunyokarashdan kup partiyaviylikka, markazdan rejalashtiriladigan iktisodiyotdan erkin bozor iktisodiyotiga utishi, jaxondagi siyosiy, iktisodiy va moliyaviy xolatga chukur ta'sir etdi;

12) 1992 yildan keyin yaxlit Evropa bozorining yuzaga kelishi, 1993 yil noyabr oyidan erkin savdo buyicha Shimoliy Amerika bitimining kuchga kirishi, 1993 yilda Osiyo-tinch okeani

iktisodiy xamkorligi konferentsiyasi va boshka jarayonlar, utgan asrning 90-yillarida xududiy rivojlanishni jadallashtirdi.

XXI asr busagasida jaxon iktisodiyotida turtta asosiy tarkibiy an'ana kuzatildi:

**birinchidan**, xom-ashyo eksportiga asoslangan xamda sanoati rivojlangan mamlakatlar urtasidagi munosabat-lardagi uzgarishlar. Xom-ashyo etkazib beruvchi mamlakatlar va sanoati rivojlangan mamlakatlar urtasida an'anaviy iktisodiy alokalar mavjud bulib, ularning uzaro munosabatlar modeli kuyidagicha edi: xom-ashyo etkazib beruvchi mamlakatlar, xom-ashyoni eksport kilib, olingan valyuta tushumlaridan sanoat maxsulotlari importini moliyalashtirganlar.

Utgan asrning 70-yillarida "Rim klubi" nomi bilan mashxur Garbiy Evropa olimlari "dunyo mikiyosida tez orada tabiiy resurslarning global takchilligi yuzaga keladi", deb bashorat kilgan edilar.

Ushbu muloxazalarga asoslanib kuppina xom-ashyo etkazib beruvchi mamlakatlar xom-ashyo sotish evaziga valyuta tushumini oshirish maksadida kartellarga birlashdilar. Ammo, sanoat texnologiyasi va kishlok xujalik soxasining keskin rivojlanishi, xom-ashyoga bulgan talabning kiskarishiga ta'sir kursatdi va natijada xom-ashyo baxosining pasayishi yuz berdi.

**ikkinchidan**, sanoati rivojlangan mamlakatlarda KUI mexnatiga asoslangan ishlab chikarishdan, bilim va malakaga asoslangan ishlab chikarishga utildi.

Jaxon iktisodiy tuzilmasidagi ushbu uzgarishlar natijasida bandlik tarkibida yukori malaka talab kiluvchi mutaxassislariga extiyoj ortib, nisbatan past malakali mutaxassislariga talab pasayib bordi. Axborot almashuvining osonligi - tadbirkorlik faoliyatini, kichik biznes va shaxsiy tashabbusni ragbatlantirdi.

Ilmiy-texnika progressi yutuklaridan foydalanish, bilimni va yukori malakani talab kildi, shuning uchun ishlab chikarish samaradorligi va rakobatbardoshlikni oshirish uchun, inson kapitaliga investitsiya kilish muximligi ortdi.

**uchinchidan**, jaxon savdosida xalkaro kapital xarakatining sezilarli darajada ortishi. Ushbu uzgarish xalkaro savdoga nisbatan xalkaro kapital xarakatining tez sur'atda usishi bilan yuz berdi. Xalkaro moliya statistikasining ma'lumotlariga kura, jaxon eksporti xajmi, 1981 yildagi 2000 mlrd. AKSh dollaridan 1991 yilda 3447 mlrd. AKSh dollari darajasigacha usgan. Shu vakt oraligida xalkaro obligatsiyalar emissiyasi 23 mlrd.dan 342 mlrd. AKSh dollariga usdi. Bundan tashkari, uchta etakchi xalkaro moliya bozorlarida kuplab xorijiy valyutalar aylanmasi sezilarli darajada usdi. 1986 yildan 1992 yilgacha Londonda xorijiy valyutaning kunlik urtacha aylanmasi 90 mlrd.dan 303 mlrd. AKSh dollarigacha ortdi. Shu davrda Nyu-Yorkdagi kunlik aylanma 50 mlrd.dan 192 mlrd.ga, Tokioda 48 mlrd.dan 128 mlrd. AKSh dollariga ortgan.

**turtinchidan**, transmilliy korporatsiyalar(TMK)ning kushma korxonalarini tashkil etish uchun xalkaro investitsiyalari va xamkorlik bitimlarida diversifikatsiya darajasining ortishi.

Bunda asosiy uzgarish sifatida TMKlar va ularning turli mamlakatlarda kushma korxonalari sonining usib borishini kursatish mumkin.

TMKlar uzlarining tashkiliy, ishlab chikarish va marketing tizimlarini chet mamlakatlar xududlariga yoyib, shu yul bilan tovar, xizmat, kapital va texnologiyalarini ishlab chikarishga jalb etib, ushbu mamlakatlar urtasidagi uzaro xarakatlarga ta'sir etdi. Kushma korxonalar xalkaro biznes integratsiyasining keng tarkalغان shakliga aylandi.

Shuningdek, jaxon iktisodiyotining integratsiyalashuv jarayonlarida xalkaro tashkilotlar rolini aloxida e'tirof etish zarur.

Xalkaro savdo tashkiloti (XST), Xalkaro valyuta fondi (XVF), Jaxon banki, Evropa tiklanish va tarakkiyot banki (ETTB), Iktisodiy xamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IXRT), Xalkaro mexnat tashkiloti (XMT) va shu kabi xalkaro institutlar xamda etakchi mamlakatlar boshliklari va moliya vazirlarining xar yili bulib utadigan uchrashuv-larining xalkaro munosabatlarni tartibga solishdagi axamiyati ortib bormokda. Texnologiyalar buyicha, atrof-muxitni asrash, moliya institutlarining faoliyati, buxgalteriya xisobotlari, milliy statistika (milliy xisoblar tizimi) va boshkalariga yagona andozalarni kullash kengaymokka. Ushbu andozalar ta'lim va madaniy soxalarga yoyilmokka.

Xalkaro tashkilotlar orkali makroiiktisodiy siyosatning yagona mezonlari tatbik etilmokka. Valyuta-kredit, solik, tashki iktisodiy siyosat, bandlik soxasi buyicha kuyiladigan talablarning birkillashuvi yuz bermokka, xalkaro rakobat koidalari ishlab chikilmokka.

Bu jarayonlar kanchalik jadal sur'atlarda amalga oshirlmasin, zamonaviy jaxon iktisodiyoti tula global xolatda faoliyat yuritayotgani yuk, balki u endi globallasuv jarayonlarining dastlabki boskichlarini boshdan kechirmokda.

Utish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatlarning jaxon bozoriga integratsiyalashuvi uzok muddatli jarayon xisoblanadi. Ba'zi milliy bozorlarning ochik, ba'zilarining kattik tartibga solinadigan bulgan hozirgi xolati bilan, globallasuvning asosiy tamoyillaridan bulgan erkinlashuv, bir-biriga nomuvofik bulgan kurinishni xosil kilmokda.

Xalkaro tovarlar, xizmatlar va kapitallar almashinuvining erkinlashish an'anasi kengayotgan bir paytda, xar bir davlat eksport va importni tartibga solishning ma'lum instrumentlarini saklab kolmokdalar. Ularning asosiy maksadi - tarkibiy kayta kurish va inkiroz davrining kiyinchiliklarini engib utish, milliy xavfsizlikni ta'minlash - takror ishlab chikarish uzluksizligini ta'minlovchi (energetika, transport, aloka va x.k.) va mamlakat mudofaa kobiliyati kabi strategik soxalarni moliyaviy ta'minlash, shuningdek, savdo sheriklardan munosib imtiyozlar olish, shuningdek, byudjet tushumlarini oshirishdan iborat bulmokda. Amaldagi bunday proteksionizm fiskal muammolarni xal etishdan kura, kuprok tarkibiy siyosat utkazish vositasi xisoblanadi.

Xozirgi sharoitda nafakat erkin savdo goyasi (erkinlashuv) bilan proteksionizm urtasida karama-karshilik yuzaga chikmokda, balki milliy xujalikni jaxon xujaligiga kirish samarasini maksimal tarzda ta'minlash maksadida, xujalikni tartibga solishning yukoridagi ikki instrumentining optimal aralashmasidan foydalanilmokda. Bunday aralashmaning shakl va nisbatlari, ma'lum vaktdagi pragmatik manfaatlardan kelib chikib aniklanadi.

Xalkaro iktisodiy munosabatlarda globalizatsiya bilan birga, integratsiya jarayonlarining yana bir shakli - ma'lum geografik joylashuvga asoslangan xududiy integratsiya (xududiy lashuv) yuz bermokda.

Usib boruvchi globallasuv, xududiy lashuv, iktisodiyotning transmilliy lashuvi va integratsiya natijasida, eski - davlatlararo tartibga solish mexanizmi tubdan uzgardi. Mamlakatlar urtasidagi iktisodiy alokalar ikkiyoklama munosabatlar chegarasidan chikib, kupyoklama tus olmokda.

Ammo, "milliy xujalik majmui", "mamlakatning milliy iktisodiy manfaatlari" tushunchalari uz ma'nosini saklab kolmokda. Milliy xujalik xamon ishlab chikarish, almashuv, taksimot va iste'mol, shuningdek, iktisodiy faoliyatning asosiy markazidir.

Xar bir davlatning yillar davomida shakllangan uz tarixiy, iktisodiy, ijtimoiy-madaniy rivojlanish xususiyatlari mavjud bulib, boshka mamlakatlarning tajribalarini kur-kurona kuchirib olish, yoki xalkaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etiladigan, iktisodiy rivojlanishning xamma uchun umumiy retseptlarini kullash, samarasiz va iktisodiy vaziyatni izdan chikarishi mumkin.

Jaxon xujaligiga kirishda ilgor mamlakatlarning boy tajribalariga taxliliy yondoshish va ushbu tajribalarni milliy xususiyatlar bilan eng optimal tarzda uygunlashtirish zarur.

Uzbekiston Respublikasi mustakillikka erishgandan sung, uzining mustakil tashki iktisodiy siyosatini olib borish imkoniyati yuzaga chikdi. Respublikaning tashki iktisodiy siyosati xalkaro moliyaviy munosabatlarda mamlakat milliy manfaatlarini ximoya kilishga karatilgan xolda amalga oshiriladi va u kuyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- mafkuraviy karashlardan kat'iy nazar tashki munosabatlarda oshkoralik;
- teng xukukli va uzaro manfaatli xamkorlik, boshka mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- uzining milliy-davlat manfaatlari ustuvorligida uzaro manfaatlarni xar tomonlama xisobga olish;
- respublika biron-bir davlatning ta'sir doirasiga kirmasligi tamoyiliga tula amal kilish;
- tula ishonch, xalkaro iktisodiy va moliyaviy tashkilotlar doirasidagi xamkorlikni chukurlashtirish asosida ikki tomonlama, shuningdek, kup tomonlama tashki alokalarni urnatish va ularni rivojlantirish;
- umume'tirof etilgan xalkaro xukuk me'yorlariga rioya etish.

Tashki iktisodiy soxa tarmoklari majmuini vujudga keltirmasdan turib, shuningdek, moliya, bank-kredit tashkilotlari, bojxona xizmati ishini xalkaro me'yorlar va talablar darajasida yulga quymasdan turib, xalkaro alokalarni rivojlantirish va mustaxkamlashni tasavvur etib bulmaydi.

Tashki savdo, iktisodiy, ilmiy va madaniy alokalarda kuyidagi yunalishlar ustuvor xisoblanadi:

**birinchidan**, respublikaning eksport kudratini rivojlantirish va yanada mustaxkamlash, eksportga yunaltirilgan iktisodiyotni shakllantirish;

**ikkinchidan**, eksport imkoniyatini kengaytirish, jaxon bozoriga kirib borish uchun, avvalo, kimmatbaxo xom-ashyoni kayta ishlash negizida tayyor maxsulot ishlab chikaruvchi kushma korxonalarini rivojlantirish;

**uchinchidan**, tashki iktisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, xujalik ishlarini yurituvchi sub'ektlarga xorijiy sheriklar bilan bevosita alokalar urnatishda, uz maxsulotlarini chet ellarda sotishda kuprok erkinlik berish, tovarlarni eksport va import kilishda birmuncha imtiyozli tartibni joriy kilish borasida anik maksadni kuzlab siyosat utkazish;

**turtinchidan**, xorijiy sarmoyalarni respublika iktisodiyotiga keng kulamda jalb etish uchun zarur xukukiy, ijtimoiy-iktisodiy xamda boshka sharoitlarni yaratish;

**beshinchidan**, xalkaro moliyaviy munosabatlarning tarkibiy majmuini vujudga keltirish;

**oltinchidan**, xalkaro xukuk va xalkaro moliyaviy munosabatlar soxasida malakali mutaxassislar tayyorlashni tashkil etish.

Integratsiya munosabatlari, manfaatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari xamda integratsiya turlari mavjudligiga asoslanadi. Uzbekiston bir vaktning uzida turli darajalarda - dunyo miqyosida va mintaka kulamida integratsiya jarayonlariga katnashsada, ammo bir muxim koidaga amal kiladi, ya'ni: bir davlat bilan yakinlashish boshka bir davlat bilan uzoklashish xisobiga bulmasligi lozim.

Uzbekiston Respublikasi iktisodiy jixatdan rivojlangan bozor tizimiga ega bulgan, demokratik davlat xakidagi xozirgi zamon tushunchalariga mos ravishda jaxon xamjamiyatiga kirishishi mumkinligiga asoslanadi.

Mamlakat jaxon xamjamiyati bilan xamkorlik urnatgan takdirdagina, ya'ni xalkaro mexnat taksimotida uzining munosib urnini topganda, mintaka va butun dunyo xavfsizlik tizimlarini barpo etishda faol ishtirok etgandagina uni iktisodiy jixatdan rivojlantirishning yangi sifat boskichga olib chikish imkoniyatlari kengayadi.

Uzbekiston Respublikasi rivojlanish va tarakkiyot yuliga kadam kuyib, iktisodiy xamkorlik soxasidagi kuppina nufuzli xalkaro tashkilotlarning teng xukukli a'zolari safiga kirib kelmokda. Kiska vakt oraligida respublika XVF, Jaxon banki, XMT, Jaxon soglikni saklash tashkiloti (JSST), Osiyo va Tinch okeani ijtimoiy-iktisodiy komissiyasi (OTIIK), ETTB, Xalkaro Moliya korporatsiyasi (XMK), Xamdustlikning mintakaviy iktisodiy tashkiloti (XMIT) va shu kabi kator xalkaro moliyaviy tashkilotlarga kabul kilindi.

Jaxon xamjamiyatidagi integratsiyalashuv xakida suz borganda, BMT faoliyatida Uzbekistonning ishtiroki e'tiborga loyik xodisa. Fakat BMTgina xavfsizlikni saklash va ta'minlashga karatilgan diplomatiyadan to tinchlik urnatishga karatilgan operatsiyalarda katnashishgacha bulgan vositalarga ega.

Jaxon xamjamiyatiga integratsiyalashuvning strategik maksadi - davlatlarning turli mintakaviy birlashmalari bilan alokalarni rivojlantirishdan iborat. Uzbekiston mintakaviy



xalkaro tashkilotlar: EI, Evropada Xavfsizlik va Xamkorlik tashkiloti (EXXT), Shimoliy Atlantika bloki (NATO), Kushilmaslik Xarakati va boshkalar bilan samarali xamkorlik kilmokda.

1996 yilning iyul oyida Florentsiyada Uzbekiston bilan EI Kengashi urtasida sherikchilik va xamkorlik tugrisida bitim imzolandi. Imzolangan ushbu bitim Uzbekistonning xavfsizligi va tarakkiyotini ta'minlashga karatilgan yana bir muxim xissa bulib, bu sherikchilik iktisodiy, madaniy, ilmiy soxalarni va siyosiy soxalarni kamrab oladi.

Jaxon banki bilan birgalikda Uzbekistonda milliy valyutani mustaxkamlash, tashki iktisodiy faoliyatni kengaytirish va tulov balansini kullab-kuvvatlash, iktisodiyotni tarkibiy kayta kurish va korxonalar darajasidagi isloxotlarni amalga oshirish uchun tiklanish karzi berish tugrisidagi masalalar kurib chikildi va amalga oshirilmokda.

## UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR

1. Xozirgi zamon iktisodiy globalizatsiyasi kandy kurinishlarda namoyon bulmokda?
2. Jaxon xujaligining kandy asosiy kuyi tizimlari mavjud?
3. Xalkaro moliya munosabatlarini tartibga solishda kaysi tashkilotlarning axamiyati ortib bormokda?
4. TMKlarning jaxon xujaligidagi urni kanaka?
5. Erkin savdo gosi nima?
6. Proteksionizm goyasining asl moxiyati kandy va u nimalarga asoslanadi?
7. Jaxon integratsiya jarayonlarida xududiy integratsiya-ning urni kanaka?
8. Uzbekiston Respublikasi xalkaro moliya munosabatlarida kandy tamoyillarga asoslanadi?
9. Uzbekiston Respublikasining tashki savdo, iktisodiy, ilmiy va madaniy alokalardagi ustuvor yunalishlarini kursating.
10. Uzbekiston Respublikasi bugungi kunda kandy xalkaro tashkilotlarga a'zo?

### TMKlar KANDAY FAOLIYAT YURITADI ?

TMKlarning muxim tavsifi	Bozorlar rivojlanmaganligidan TMKlar kandy foydalanadi?
1. Milliy iktisodiyotlar urtasidagi farqlardan foydalanish.	a) AKSh firmalari texnikalar yigishda xorijiy arzon ishchi kuchlaridan oydanadi. b) TMKlar evrobozorlardagi past foizli karzlardan foyda oladi.
2. Barcha bulinmalar tizim oldidagi umumiy maksadlar uchun faoliyat yuritadi.	a) Xarajatlarni minimallashtirish maksadida ishlab chikarish. b) Soliklarni minimallashtirish maksadida foydani filiallar urtasida taksimlash. v) Umumiy valyuta riskini pasaytirish maksadida ochik valyuta pozitsiyalarining filiallar urtasida taksimlanishi.
3. Firma uz ustun jixatlari buyicha xalkaro mikyosda ixtisoslashishi.	a) Firmaning mulki xisoblanadigan ishlab chikarish axborotidan, eng yaxshi maxsulot ishlab chikarish uchun foydalanish. b) Transport uskunalari ishlab chikaruvchi kompaniya turli davlatlardagi uzi filiallarida ishlab chikarish texnologiyalaridan foydalanadi. v) Neft-kimyoyo firmalar ishlab chikarishi yaxshilangan texnologik asoslarni yaratishda eng ustuvor texnologiyalardan foydalanadi.

## **1.2. MILLIY IKTISODIYOT VA XALKARO MOLIIYA MUNOSABATLARI**

Tashki iktisodiy alokalar majmuasining milliy iktisodiyotga ta'sir kursatishi muayyan miqdor va sifat kursatkichlarida baxolanadi.

Eng avvalo, respublikaning xalkaro iktisodiy munosabatlardagi ishtiroki va ularga jalb etilishining kanday ekanligini bilish muximdir. Bu eksportning YaIMga nisbati bilan belgilanadi xamda u mamlakatning eksport kvotasi deb ataladi. U kancha yukori bulsa, mamlakat xalkaro iktisodiy munosabatlarga shu kadar yukori darajada jalb etilgan buladi. Masalan, AKShning eksport kvotasi 10-15 foizga, Germaniya, Frantsiya, Italiya, Angliyada 25-30 foiz, Yaponiyada 18 foiz atrofida. Uzbekistonda eksportning YaIMdagi ulushi 10-12 foizni tashkil etmokda.

Birok, ushbu kursatkich xalkaro iktisodiy munosabatlarning sifat tuzilishini kursatmaydi. Shu sababli, mamlakatning xalkaro munosabatlardagi ishtirokini aks ettiruvchi yana bir kursatkich - eksportning mamlakat sanoat ishlab chikarishiga nisbatidan foydalaniladi. Rivojlangan mamlakatlar uchun mazkur kursatkich taxminan 40-50 foizga teng. Bu esa, ishlab chikarilgan sanoat maxsulotlarining yarmi tashki bozorga olib chikib ketilishini anglatadi. Mamlakatning tashki iktisodiy munosabatlarga jalb etilganligining yana bir kursatkichi - eksportning elastikligi (eksport va YaMM usish sur'atlarining nisbati) bilan xam belgilanadi. Elastiklikning birlikdan yukori bulishi mamlakatning xalkaro iktisodiy operatsiyalarda shuncha kup ishtirok etishini anglatadi. Tashki iktisodiy alokalardan keladigan samara juda kup mikdordagi eksport, import, kredit va boshka operatsiyalar, shuningdek, texnikaviy va boshka xizmatlar kursatish buyicha barcha ishtirokchilarning bu soxadagi faoliyati natijalaridan tarkib topadi.

Xozirgi boskichda xar kanday davlatning tez sur'atlarda rivojlanishini xorijiy investitsiyalarni jalb etmay turib ta'minlab bulmaydi. Tashki iktisodiy munosabatlar xam yangi sifatlarga ega bulib bormokda: ikki mamlakatning xujalik vakillari urtasida savdo va xizmat kursatishdan tashkari, aloxida ishlab chikarish, moliya va savdo-moliya alokalari xam rivojlanmokda. Bevosita chet el investitsiyalarining usib borishi, shuningdek, sotsialistik tizimning parchalanishi va bir kancha yangi mamlakatlarning jaxon bozorlariga kushilishi, sarmoya jalb kiluvchi mamlakatlar uchun yangi muxim jarayonlarni keltirib chikaradi. Bu jarayonlarga kuyidagilar kiradi:

Transmilliy korporatsiyalar (TMK) urtasida rakobat kurashi. Tashki iktisodiy alokalarining tobora baynalmilal-lashuvi va erkinlashuvi milliy kompaniyalarning "bandargoxida" xavfsizlikda yashashga tobora kamrok imkoniyatlar koldirmokda. Milliy kompaniyalarni iste'molchi va maxsulot sotish bozorlari uchun TMK bilan rakobat kilishga majbur etmokda. Natijada, TMKlar yanada "sezilarli" darajada maxsulotni arzonlashtirmokda va uning sifatini yaxshilash sari bormokda. Mazkur tamoyil rivojlanayotgan va utish davri iktisodiyotiga ega mamlakatlarning (tegishli sharoitlar mavjud bulganda) yukorida tilga olingan jarayonga uzining ilmiy va intellektual kuvvatini jalb etish imkoniyatlarini oshiradi.

Mamlakatlar urtasida investitsiyalar uchun rakobat kurashi. TMKlar tomonidan ajratilgan investitsiyalar xajmi usish sur'atlarining asosiy sabablaridan biri- ularning uzi bilan mablag, menejment, nau-xau kabi yakkol ajralib turadigan va sezilmaydigan juda kup aktivlar, shuningdek, jaxon bozorlarida ishlash tajribalarini va kunikmalarni olib kirishi bilan izoxlanadi. Natijada, keyingi yillarda nafakat rivojlanayotgan mamlakatlarning, balki rivojlangan mamlakat xukumatlarining xam investorlar uchun kulay muxitni shakllantirishga intilishi ortmokda. Ushbu, birinchi navbatda, xukukiy soxaga tegishli bulib, birgina 1991 yildan 1994 yilgacha bulgan vakt oraligida, dunyoda chet el investitsiyalari buyicha mavjud konun xujjatlariga 373 ta uzgartirishlar kiritilgan. Ulardan 368 tasi konunchilikni erkinlashtirishga bagishlangan. Utgan asrning 90-yillari urtalarida investitsiyalarni uzaro ximoya kilish buyicha 900 dan ortik ikki tomonlama bitimlar tuzilgan.

Xorijiy sarmoyadorlar, potentsial investorlar birinchi navbatda foyda olishdan manfaatdor, ammo investitsiyalar bilan boglik risklar ularni jiddiy xavotirga soladi. Investorlarni uziga tortadigan asosiy omillar: rivojlangan infratuzilma, ishonchli va malakali mexnat resurslari,

daromad va kapitalni chet elga utkazish, xukukiy kafolatlar, shuningdek, ijtimoiy va siyosiy barkarorlik kabilardan iborat.

Bugungi kunda bevosita investitsiya okimi foyda olishning yangi imkoniyatlariga chakkon yuz tutadi va shuning uchun xam, u ishlab chikarish, ish xaki potentsial mexnat unumdorligiga nisbatan past bulgan joylarga kuchmokda. Mamlakatga chet el mablaglarini TMKlar kuchok ochib foydalanishga tayyor turgan ichki bozordagi xomiylik xisobiga emas, balki okilona iktisodiy tamoyillar asosida jalb etish muximdir.

## UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR

1. Mamlakatning xalkaro iktisodiy munosabatlarda ishtirok etish darajasi kandy aniklanadi?
2. Eksportning elastikligi nima?
3. Chet el investitsiyalarining usib borishi va yangi mamlakatlarning jaxon bozorlariga kushilishi kandy jarayonlar kuchayishiga ta'sir kursatdi?
4. Jaxon xujaligiga kushilish jarayonida Uzbekiston Respublikasi oldiga kandy vazifalar kuyilgan?
5. Mamlakatimizni jaxon xujaligiga kushilishida mavjud ijobiy va salbiy omillarni sanab, ularni izoxlang.

## DUNYONING ENG YIRIK SANOAT KORPORATSIYALARI (1993y.)

Urin	korporatsiya nomlanishi	mamlakat	sotish xajmi, mln. doll.	xissadorlik kapitali, mln. doll.	ishlovchilar soni, kishi
1	Djeneral Motors (General Motors)	AKSh	133621,9	5597,5	710800
2	Ford Motor (Ford Motor)	AKSh	108521,0	15574,0	322200
3	Eksson (Exxon)	AKSh	97825,0	34792,0	91000
4	Royal dach/shel (Royal Dutch/Shell)	Buyuk Britaniya	95134,4	51505,6	117000
5	Toyota Motor (Toyota Motor)	Niderlandiya	85283,2	44593,1	109279
6	Xitachi (Hitachi)	Yaponiya	68581,8	28898,1	330637
7	Intl. Biznes Mashins (Intl Business Machines)	AKSh	62716,0	19738,0	267196
8	Matsushita Elektrik Indastrial (Matsushita Electric Industrial)	Yaponiya	61384,5	32118,6	254059

9	Djeneral Elektrik (General Electric)	AKSh	60823,0	25824,0	222000
10	Daymler-bents (Daimler-Benz)	Germaniya	59102,0	10108,7	366736
11	Mobil (Mobil)	AKSh	56576,0	16474,0	61900
12	Nissan Motor (Nissan Motor)	Yaponiya	53759,8	15427,7	143310
13	British Petroleum (British Petroleum)	Buyuk Britaniya	52485,4	14403,1	72600
14	Samsung (Samsung)	Janubiy Koreya	51345,2	7273,2	191303
15	Filip Morris (Philip Morris)	AKSh	50621,0	11627,0	173000
16	AyAAy (IRI)	Italiya	50488,1	-	366471
17	Simens (Siemens)	Germaniya	50381,3	11700,7	391000
18	Folksvagen (Volkswagen)	Germaniya	46311,9	6474,8	251643
19	Kraysler (Chrysler)	AKSh	43600,0	6836,0	128000
20	Toshiba (Toshiba)	Yaponiya	42917,2	10915,3	175000
21	Yuniliver (Unilever)	Buyuk Britaniya	41842,6	6948,9	302000
22	Nestle (Nestle)	Niderlandiya	38894,5	10524,2	209755

23	Elf Aktien (Elf Aquitaine)	Frantsiya	37016,3	14206,5	94000
24	Xonda Motor (Honda Motor)	Yaponiya	35797,9	9446,7	91300
25	I an ay (ENI)	Italiya	34791,3	9453,3	106391
26	Fiat (Fiat)	Italiya	34706,7	10660,8	260351
27	Soni (Sony)	Yaponiya	34602,5	12984,0	130000
28	Teksako (Texaco)	AKSh	34359,0	10279,0	32514
29	En I Si (NEC)	Yaponiya	33175,9	7637,3	147910
30	Ey Dyupon de Nimur (E.I. Du Pont De Nemours)	AKSh	32621,0	11230,0	114000
31	Cheveron (Cheveron)	AKSh	32123,0	13997,0	47576
32	Filips Elektroniks (Philips Electronics)	Niderlandiya	31665,5	5879,7	238500
33	Deu (Daewoo)	Janubiy Koreya	30893,4	7367,6	76986
34	Prokter end Gembel (Procter & Gabmle)	AKSh	30433,0	7441,0	103500
35	Reno (Renault)	Frantsiya	299748	5723,4	139733
36	Fudjitsu (Fujitsu)	Yaponiya	29093,9	10331,1	163990

37	Mitsubisi elektrik (Mitsubishi Electric)	Yaponiya	28779,8	7909,1	111053
38	Abb Esi Braun Boveri (Abb Asea Brown Boveri)	Shveysariya	28315,0	3528,0	206490
39	Xoest (Hoechst)	Germaniya	27844,8	6418,5	170161
40	Alkatel Alstom (Alcatel Alsthom)	Frantsiya	27599,4	10142,9	196500
41	Mitsubisi Motorz (Mitsubishi Motors)	Yaponiya	27310,9	3989,1	46000
42	Pemeks (PEMEX) (Petroleos Mexicanos)	Meksika	26572,9	34710,9	106951
43	Mitsubisi Xevi Indastris (Mitsubishi Heavy Industries)	Yaponiya	25804,0	10929,1	68057
44	Pejo (Peugeot)	Frantsiya	25669,1	8537,3	143700
45	Nippon Stil (Steel)	Yaponiya	25480,5	9491,0	50458
46	Amoko (Amaco)	AKSh	25336,0	13665,0	46317
47	Boing (Boeing)	AKSh	25285,0	8983,0	134400
48	Pepsiko (Pepsico)	AKSh	25020,7	6338,7	423000
49	Bayer (Bayer)	Germaniya	24797,1	10164,4	151900
50	Basf (BASF)	Germaniya	24531,9	8449,2	112020



### 1.3. XALKARO MOLIIYa TASHKILOTLARI VA ULARNING XALKARO MOLIIYa MUNOSABATLARIDA TUTGAN URNI

Davlatlararo xar tomonlama xamkorlikning bir kurinishi sifatida xalkaro tashkilotlar va fondlar yuzaga chikmokda. Ular siyosiy, iktisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy soxalarda umumiy tusdagi maksadlarga erishish uchun davlatlar, milliy institutlar, nodavlat assotsiatsiyalarini birlashtiradi. Xalkaro tash-kilotlar uz faoliyatini xar tomonlama muvofiklashtirish uchun uz fondlarini tashkil etadilar.

Davlatlararo kelishuvlar asosida ishtirokchi davlatlarning yagona moliya va kredit siyosatlarini amalga oshirish uchun pul mablaglarining davlatlararo maksadli fondlari tuziladi. Davlatlararo fondlar (tashkilotlar) daromadlarini shakllantirish usullari va moliyalashtirish tusiga kura bir kancha turlarga bulinadi.

**Birinchi** turga moliya-kredit tashkilotlarining davlatlararo va xalkaro fondlari kiradi. Ular nizom kapitalida ishtirok etuvchilarga maksadli kreditlar ajratadilar va maksadli fondlarni tashkil etadilar. Bu tashkilotlar faoliyati davomida olgan daromadlaridan ulushiga kura dividend tulaydilar xamda turli maksadlar uchun xazira fondlarini shakllantiradilar. Mazkur tashkilotlar jumlasiga Xalkaro Investtsiya bankini (XIB), Iktisodiy Xamkorlik Xalkaro bankini (IXXB), ETTB, XVFn kiritish mumkin.

Xalkaro banklar va fondlarning nizom kapitali shakllanishida, olingan daromadlarni taksimlab, turli fondlarni tashkil etish kabilarda moliyaning rolini kurish mumkin.

Milliy va xalkaro moliya-kredit institutlarining mablaglari, xalkaro ishtirokchi-tashkilotlar fondi, manfaatdor mamlakatlarning valyuta fondlari va byudjet mablaglari tulanadigan badallarning manbasi xisoblanadi.

Elida xam kator davlatlararo fondlar tashkil etilgan, jumladan, Elining byudjeti, Evropa Tarakkiyot fondi, Evropa Valyuta Xamkorlik fondi va boshkalar.

**Ikkinchi** tur tashkilotlar ishtirokchilarning xar yillik badallari evaziga byudjetlari tashkil etiladi.

Bunday tashkilotlarga ma'lum soxalardagi milliy tashkilotlar faoliyatini muvofiklashtirib turuvchi xalkaro va umumjaxon institutlari kiradi. Ularga: BMT, Xalkaro vakt byurosi, Atom energetikasi buyicha xalkaro Agentlik, Dengiz yuldosh alokasi buyicha xalkaro tashkilot, Ilmiy xizmatchilarning umumjaxon federatsiyasi va boshkalarni kiritish mumkin.

**Uchinchi** tur xalkaro tashkilotlarga vaktinchalik tusga ega bulgan ilmiy dasturlar va kongresslarni kiritish mumkin. Ularni moliyalashtirish katnashuvchi ishtirokchilar tomonidan amalga oshiriladi. Masalan, Xalkaro biologiya dasturi (1964-1974 yy.), Xalkaro geodinamik loyixa (1971-1980 yy.), Xalkaro osoyishta kuyosh yili (1964-1965 yy.), 1957 yildan boshlab xar ikki-uch yilda chakiriladigan Xalkaro tog kongressi va boshkalar. Ushbu tashkilotlar turli mamlakat olimlari bilan yaxlit ilmiy tadkikotlar olib boradi.

**Turtinchi** tur xalkaro tashkilotlar - xalkaro ilmiy laboratoriyalar, institutlar, ittifoklar, yaxlit va soxalar assotsiatsiyalari, ma'lum ilmiy soxalar buyicha byurolar. Ular mamlakatlarni, milliy ilmiy tashkilotlarni, assotsiyalarni, ilmiy tadkikotlar bilan shugullanayotgan aloxida olimlarni birlashtiradi va ular faoliyatini muvofiklashtiradi. Ushbu tashkilotlar yillik ulushli badallar, konferentsiyalarda ishtirok etuvchilarni ruyxatga olish badallari, yuridik va jismoniy shaxslarning xayriya mablaglari, davriy ilmiy nashrlardan daromadlar xisobidan tashkil etiladigan byudjetlar xisobidan moliyalashtiriladilar. Mazkur tashkilotlarga misol kilib, milliy va kushma dasturlar buyicha ishlaydigan Kuchli magnit maydonlari va past xarorat buyicha xalkaro fond, Xalkaro matematik markaz va boshkalarni kursatish mumkin.

**Beshinchi** tur xalkaro tashkilotlar faoliyatining ma'lum soxalariga kumaklashish va tadbirlarni moliyalashtirish uchun mablaglarni yigish bilan shugullanadilar. Masalan, Yovvoyi tabiat xalkaro fondi - davlat, jamoat tashkilotlari va xususiy shaxslardan yovvoyi xayvonlar va tabiatni kuriklash uchun mablaglarni yiguvchi nodavlat tashkilotdir. Ushbu tashkilot boshka tashkilotlar bilan xamkorlikda ma'lum tadbirlarni moliyalashtiradi. Fond uzining nashriga ega bulib, uni sotishdan olinadigan daromadlar fond byudjetining daromad manbalaridan biri xisoblanadi. "Olimpiya birdamligi" fondi rivojlanayotgan mamlakatlarning milliy olimpiya kumitalariga moliyaviy yordam kursatish uchun tuzilgan. Mazkur fond milliy olimpiya

kumitalarining badallari, xususiy kompaniya, firmalar va xususiy shaxslarning xayriyalari, Xalkaro olimpiya kumitasining investitsion va nashriyotchilik faoliyati natijasida olingan daromadlar xisobidan shakllantiriladi. Fondga olimpiya uyinlarini televizion yoritishdan olingan daromadlarning 1/3 kelib tushadi (ma'lumki, olimpiya uyinlarini televizion yoritishdan olingan daromadlar mos ravishda Xalkaro olimpiya kumitasi, "Olimpiya birdamligi" fondi va olimpiya sport turlari buyicha Xalkaro federatsiya urtasida taksimlanadi). Fondning byudjeti xar yili tasdiklanadi. Asosiy tadbirlarni amalga oshirish buyicha xududlarga yunaltiriladigan mablaglar xarajatlarining 75-85 foizini tashkil etadi. Ushbu tadbirlarga: yiginlar utkazish, xakamlar majlisini utkazish, sport buyumlarini sotib olish, Milliy olimpiya kumitalariga moliyaviy yordamlar kursatish va boshkalarni kiritish mumkin. Boshka mablaglar nashriyotchilik faoliyatiga va joriy xarajatlarni moliyalashtirishga yunaltiriladi.

Yukorida kurib utilgan fondlarni tarkibiy tuzilishi, maksadi, vazifalarini yanada chukurrok urganish maksadida, birinchi tur fondlar - moliya-kredit tashkilotlariga mansub, XVf xakida ma'lumotlar keltiriladi.

XVf: maksadi, tashkil etilishi va faoliyat yunalishi. XVf - bu BMTning maxsus tashkiloti. U 1977 yilda Bretton-Vudsdagi valyuta-moliya masalalari buyicha bulib utgan BMT konferentsiyasida tashkil topgan va 1945 yilning 27 dekabrda ushbu kelishuv kuchga kirgan. Amalda u uz faoliyatini 1946 yildan boshladi. Brettonvud kelishuviga muvofik, XVfning vazifasi unga a'zo bulgan mamlakatlarning oltin va AKSh dollarida ifodalangan valyuta zaxiralarini tartibga solish xamda a'zo-mamlakatlarning valyuta paritetlarining barkarorligini ta'minlashdan iborat edi.

Ushbu kelishuvga kura, a'zo-mamlakatlar uz valyutalarini belgilangan kurslar asosida xalkaro joriy operatsiyalar buyicha almashinuvlarini ta'minlashlari shart edi. Shuningdek, mazkur mamlakatlar valyuta operatsiya-larini chegaralash buyicha mavjud tusiklarni bekor kilishlari kerak edi (amalda 181 mamlakatdan atigi 60 mamlakat ushbu talabni bajargan).

XVfning nizom fondi a'zo mamlakatlarga urnatiladigan kvotalar asosida tulanadigan badallardan tashkil etiladi.

Kvotalar xar bir a'zo-mamlakatning: moliyaviy badal xajmini aniklash; proporsional ravishda XVf kreditlari xajmini aniklash; ovozlar sonini aniklash uchun xizmat kiladi.

Kvotalar xajmi mamlakatning iktisodiy rivojlanish darajasi va uning jaxon iktisodiyoti xamda xalkaro savdodagi roliga boglik buladi.

Kvota YaIM, import va eksport xajmi, oltin-valyuta zaxiralari xajmi kursatkichlari asosida xisoblanadi.

Kvotalar xajmi xar besh yilda kayta kurib chikiladi.

Kvotalar xajmidan kelib chikkan xolda, XVf boshkaruv organlarida ovozlar mamlakatlar urtasida taksimlanadi. Xar bir mamlakat 250 ta ovozga ega va xar bir kushimcha 100000 SDR uchun 1 ta ovoz kushib beriladi. Xozirda boshkaruv organida ovozlarining eng kupi AKShga tegishli -17,7 foiz.

### **Bugungi kunda XVFning asosiy maksadi quyidagilardan iborat:**

- valyuta siyosati soxasidagi xalkaro xamkorlikni kengaytirish;
- valyuta siyosati soxasida balanslashgan rivojlanishda xamkorlik kilish;
- yukori bandlik darajasi xamda real daromadlarni ta'minlash va ragbatlantirish, barcha-a'zo mamlakatlarning iktisodiy siyosatini asosini tashkil etuvchi, ishlab chikarish potentsialini rivojlantirish uchun jaxon savdosining balanslashgan usishini barkarorlashtirish;
- valyuta barkarorligini ta'minlash va a'zo-mamlakatlar urtasida valyuta munosabatlarini soddalashtirish, shuningdek, rakobat muxitini shakllantirish nuktai nazaridan kelib chikkan xolda, valyuta devalvatsiyasini oldini olish;
- kup tarmokli tulov tizimlarini tashkil eishda ishtirok etish, shuningdek, valyutani utkazish bilan boglik cheklovlarni bekor kilish;
- a'zo-mamlakatlar tulov balanslari takchilligini yukotish uchun mablaglar berish.

Oldiga kuyilgan maksad va vazifalarni bajarish uchun XVF uz funktsiya va tamoyillarini ishlab chikkan.

### **XVF tamoyillari:**

- tartibga solishdan chetga chikish maksadida, xalkaro valyuta tizimi yoki valyuta kursi manipulyatsiyasini ta'kiklash;
- valyuta inkirozlariga barxam berish maksadida valyuta bozorlarida intervensiyani amalga oshirish majburiyati;

### **XVFning funktsiyalari:**

- kodeksda kelishilgan munosabatlarga amal kilish xalkaro valyuta siyosati va davlatlararo tulovlar aylanmasi soxalarida xamkorlik;
- tulov balansi takchilligini engib utish uchun moliyaviy yordam;
- maslaxat va xamkorlik.

Uz vazifalarini amalga oshirish maksadida XVF uz va jalb kilingan mablaglar xisobidan xorijiy valyutada kreditlar yoki a'zo-mamlakat tulov balansini tenglashtirish maksadida SDR takdim etadi.

Moliyaviy operatsiyalar, fakatgina, a'zo-mamlakatning rasmiy organlari: xazinachilik, Markaziy bank, valyutani barkarorlashtiruvchi fondlar bilan birga amalga oshiriladi. XVF resurslarini olishni tartibga soluvchi koidalar barcha a'zo-mamlakatlar uchun bir xil. Joriy operatsiyalar buyicha xorijiy valyutaga extiyoj sezgan mamlakat, kreditning zarurligini isbotlashi shart. Bunday kreditlarning xajmlari quyidagi shartlar orkali tartibga solinadi: karzdor mamlakatning milliy valyutasi uning kvotasini yil davomida 25 foizidan va umumiy xisobda kvota xajmining 200 foizidan ortib ketmasligi kerak. Kreditlar buyicha foizlar xar bir moliya yili uchun daromad va xarajatlarni baxolash asosida amalga oshiriladi.

Bundan tashkari, XVF tarkibida aloxida kredit turlari buyicha bir-necha maxsus fondlar tashkil etilgan. Ushbu fondlardan aksariyat xollarda, bozor iktisodiyotiga utayotgan mamlakatlarda savdo va tulov tizimidagi kiyinchiliklarni bartaraf etishga kreditlar ajratiladi. Ushbu kreditlar odatda 4-10 yil muddatlarda kaytarilishi muljallanadi.

Keyingi yillarda XVFning daromadi past bulgan rivojlanayotgan mamlakatlardagi tarkibiy isloxotlarni kullab-kuvvatlash, shuningdek, urta muddatli makro-iktisodiy barkarorlashtirish dasturlariga ajratiladigan kreditlar salmogi ortmokda.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Davlatlararo maksadli fondlar kandyadbirlar uchun tuziladi?
2. Davlatlararo fondlarning nechta turi bor?
3. Milliy va xalkaro moliya-kredit institutlarining mablaglari kaysi manbalar xisobidan shakllanadi?
4. Milliy tashkilotlar faoliyati kaysi xalkaro va umumjaxon institutlari tomonidan muvofiklashtiriladi?
5. XVFningshkil etilishi va faoliyat yunalishini tushuntirib bering.
6. Uzbekiston Respublikasining yukorida nomlari sanab utilgan xalkaro tashkilotlarda ishtirok etish yunalishlarini kursating.

## II. BOB. JAHON VALYU TA TIZIMI VA UNING

### RIVOJLANISH BOSQICHLARI

#### 2.1. XALKARO VALYU TA MUNOSABATLARI VA VALYU TA IZIMI

**Valyuta munosabatlari** - tashki savdo, iktisodiy va ilmiy-texnik xamkorlik, xorijga kredit xamda karzlarni berish va olish, valyuta va valyuta aktivlarini sotib olish bilan boglik bitimlarni amalga oshirishda ishtirok etadigan, valyuta bilan boglik munosabatlardir.

Valyuta munosabatining ayrim elementlari - antik davrda - Kadimgi Gretsiya va Kadimgi Rimda - karzga pul tulashga berilgan tilxat va pul almashtirish shaklida paydo bulgan. Keyingi boskich bulib, Yapon, Antverpen va Garbiy Evropani boshka savdo markazlarida <veksel yarmarkalari> rivojlanishi bilan yuzaga chikkan. Bu davrda xisob-kitoblarni amalga oshirish, valyuta yordamida amalga oshirilgan. Feodalizm davrida va kapitalistik ishlab chikarish rivojlanishida, xalkaro xisob-kitoblarni amalga oshirish tizimi banklar orkali rivojlandi. Utgan asrga kelib esa, xalkaro munosabatlar uzining mutlako yangi kurinishini boshdan kechirdi.

Shunday kilib, xalkaro valyuta munosabatlari rivojlanishi, ishlab chikarish kuchlari rivojlanishi, jaxon bozori tashkil etilishi, xalkaro mexnat taksimotini chukurlashuvi, jaxon xujaligining tarkibiy tuzilishi xamda xujalik munosabatlari baynanmilalashuvining natijasidir.

Valyuta munosabatlari ishtirokchilariga kuyidagilar kiradi: davlat (xukumat, Markaziy va davlat banklari), xalkaro tashkilotlar, yuridik shaxslar (tijorat banklari, korxonalar: import va eksport kiluvchilar, birjalar) va jismoniy shaxslar (brokeralar, chaykovchilar va sayyoxlar).

Zamonaviy tashki iktisodiy alokalarda, shu bilan birga valyuta munosabatlarida siyosat va iktisodiyot, diplomatiya va tijorat, sanoat va savdo uygunlashib borayotganligini kuzatish mumkin.

Xalkaro valyuta munosabatlarining davlat tomonidan shakllantiriladigan xukukiy-tashkiliy shakli **valyuta tizimi** deyiladi. Milliy, xududiy va jaxon valyuta tizimlarini ajratib kursatish mumkin.

**Milliy valyuta tizimi** deganda ma'lum davlatni, boshka davlatlar bilan pulli xisob-kitoblarini amalga oshirishda kullaydigan usullari, instrumentlari va milliy organlarining umumiy yigindisi tushuniladi. Milliy valyuta tizimi nisbatan mustakil va faoliyat doirasi milliy chegaralardan chiksada, u mamlakat pul-kredit tizimining tarkibiy kismi xisoblanadi. Milliy va jaxon valyutalar tizimlari alokasi va rivojlanishi, ularning elementlarida namoyon buladi (1-jadval).

**Xududiy valyuta tizimi** - milliy va jaxon valyuta tizimlarining oralik elementi xisoblanib, u mamlakatlar xududiy guruxi integratsiyasiga xizmat kiladi. Bunga misol kilib, Evropa valyuta-iktisodiy ittifokini keltirish mumkin.

**Jaxon valyuta tizimi** - bu, aloxida olingan milliy iktisodiyotni jaxon xujaligi bilan boglovchi mexanizmdir.

**Milliy va jaxon valyuta tizimining asosiy elementlari**

<b>Milliy valyuta tizimi</b>	<b>Jaxon valyuta tizimi</b>
Milliy valyuta	Milliy valyutani konvertirlanish shartlari
Milliy valyuta pariteti	Milliy valyuta kursining tartibi
Valyutaviy chegaraning va nazoratning bor yukligi	Mamlakatning xalkaro valyuta likvidligini tartibga solish
Xalkaro kredit ayriboshlash vositalaridan foydalanishni tartibga solish	Mamlakatning xalkaro xisob-kitoblarini tartibga keltirish
Milliy valyuta bozori va oltin bozorining tartibi	Mamlakatni valyuta munosabatlarini boshkaruvchi va tartibga soluvchi milliy organlar
Xalkaro valyuta xisob-kitob birliklari valyuta zaxirasi	Valyutalarni uzaro konvertirlanish shartlari
Valyuta paritetini birxillashtirish tartibi	Valyuta kursining tartibining reglamentatsiyasi
Valyutaviy chegaralarning davlatlararo tartibga solish	Xalkaro valyuta likvidligini davlatlararo tartibga solish
Xalkaro kredit ayriboshlash vositalaridan foydalanish koidalarini yaxlitlashtirish	Xalkaro xisob-kitoblarning asosiy shakllarini yaxlitlashtirish
Jaxon valyuta bozori va oltin bozorining tartibi	Davlatlararo valyutaviy tartibga solishni amalga oshiruvchi xalkaro tashkilotlar

Xalkaro kelishuvlar, ikkiyoklama va kupyoklama shartnoma va aktlar, jaxon valyuta tizimining xukukiy asosini tashkil etadi.

Jaxon valyuta tizimining asosiy maksadi - eksport va import uchun tulovlarni, tovar, kapital, xizmatlar va boshka faoliyat turlarini amalga oshirishda xalkaro xisob-kitoblarni tashkil

etish orkali samarali vositachilik kilish, shuningdek, xalkaro mexnat taksimotini rivojlantirish uchun, mamlakatlar urtasidagi munosabatlarda kulay muxitni yaratishdan iborat.

Jaxon valyuta tizimi yordamida iktisodiy resurslarning bir mamlakatdan boshkasiga kuchishi yoki aksincha, ushbu jarayon chegaralanishi, milliy iktisodiyot mustakilligi cheklanishi yoki kengayishi, iktisodiy muammolarni (masalan, ishsizlik, inflyatsiya) bir mamlakatdan boshkasiga <kuchib utishi> mumkin.

Jaxon valyuta tizimi faoliyat yuritish va tartibga solishning aloxida mexanizmlariga ega va jaxon xujaligining global maksadlarini kuzlasada, u milliy pul va xududiy valyuta tizimlari bilan chambarchas boglangan.

Jaxon valyuta tizimi xalkaro pul munosabatlari tashkil topishining tarixiy shakli bulib, u davlatlararo shartnomalar orkali mustaxkamlangan.

Jaxon, xududiy va milliy valyuta tizimlari doirasida, quyidagi moliyaviy operatsiyalar amalga oshiriladi:

1) **Valyuta konvertirlanishi** - milliy valyutani xorijiy valyutaga almashtirish;

2) Tijorat banklari va birjalarda valyuta oldi-sotdi operatsiyalari. Bu **valyuta dilingi** deyiladi.

Xozirgi kunda, operatsiyalarning asosiy kismi nakd pulsiz xolda amalga oshiriladi. Bir bankdan boshkasiga pul utkazish vakillik xisobvaraklar orkali amalga oshiriladi. Banklararo amaliyotda LORO (Siz bizda) va NOSTRO (biz Siznikida) xisobvaraklari mavjud.

3) Tijorat banklarining depozit-kredit deb nom-lanuvchi, valyuta mablaglarini jalb kilish va joylashtirish bilan boglik operatsiyalari.

Bu operatsiyalar - uzaro kreditlash, uz va jalb kilingan mablaglarni joylashtirish, kreditlarni takdim etish, rasmiylashtirish va monitoring bilan boglik banklararo operatsiyalardir.

4) Tashki savdo operatsiyalarida, xalkaro amaliyotda kabul kilingan turli shakldagi xisob-kitoblarda bank xizmati kursatish;

5) Oltin va fond instrumentlari(mulkchilik titullari, obligatsiyalar, ikkilamchi moliyaviy instrumentlar va x.k.) sotish yoki sotib olish maksadida, moliya bozorida amalga oshiriladigan operatsiyalar. Bu operatsiyalarning barchasi investitsiya maksadlarida, shuningdek, chaykovchilik yoki xejerlash (sugurta) maksadlarida amalga oshiriladi. Banklar ushbu operatsiyalarni uz nomidan yoki mijoz topshirigiga kura amalga oshiradilar;

6) Kredit (debit) kartochkalarining egalariga xizmat kursatish bilan boglik operatsiyalar;

7) Bank xalkaro transfertlari (dividend, foiz, pensiya tulovi, aliment, xadyalar, sayyoxlarga xizmat kursatish va x.k.) amalga oshirish.

Zamonaviy valyuta tizimi, uning xam xududiy (geografik jixatdan), xam vakt jixatdan (kechayu-kunduz ishlovchi valyuta bozori), xam texnologik jixatdan (axborot texnologiyalari va tarmoklarining yaxlitligi) globallash-ganligi bilan tavsiflanadi.

**Zamonaviy valyuta tizimining globallashuvining uziga xos jixatlari quyidagilardan iborat:**

- valyuta kurslari va foiz stavkalarining kutilmaganda va keskin uzgarishi bilan tavsiflanadigan bozor mexanizmi;
- bir tomondan, oldindan kutilmagan vokealarga (neft falajlari yoki Germaniyaning birlashuvi kabi) tezda moslashishga zarurat, boshka tomondan, mamlakatlar xukumatlarining inflyatsion siyosat yuritishi va davlat karzdorligi usishi siyosatidan kafolatlovchi ma'lum xalkaro tartibga solish instrumentlarini yaratish.

Jaxon valyuta tizimining eng asosiy xususiyati shundaki, u xar doim uzgarib, rivojlanib turadi. Bu uzgarishlarning eng umumiy sabablari - jaxon xujaligini rivojlantirishdagi xalkaro xamkorlikning kuchayishi, tovar ishlab chikarish va bozorlarning baynalminal-lashuvidir. Bugungi kunda uni tartibga solish mexanizmlarining doimiy uzgarishi va valyuta tizimining barkarorligi, valyuta tizimining evolyutsiyasi bilan kanchalik mos tushishiga boglik.

Xalkaro valyuta tizimlarining ma'lum shakllari, ishlab chikarishning rivojlanishi, xalkaro alokalar, milliy pul tizimlari, jaxon maydonidagi kuchlar nisbatiga, etakchi mamlakatlarning manfaatlariga karab belgilanmokda.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Valyuta munosabatlari nima?
2. Kimlar valyuta munosabatlarining ishtirokchilari sanaladi?
3. Valyuta tizimi nima?
4. Milliy va jaxon valyuta tizimini asosiy elementlarini takkoslang.
5. Jaxon valyuta tizimining asosiy maksadi nimalardan iborat?
6. Jaxon, xududiy va milliy valyuta tizimlari doirasida kandy operatsiyalar amalga oshiriladi?
7. Valyuta dilingi nima?
8. Zamonaviy valyuta tizimining globallashuvining uziga xos jixatlarini kursating.



Jaxon valyuta tizimining asosiy xususiyati nimadan borat?

### **<KOKA-KOLA> - ENGIL ICHIMLIKLAR ISHLAB CHIKARUVCHI YIRIK KOMPANIYA**

Xalkaro bozorlarda engil ichimliklar ishlab chikaruvchi yirik kompaniyalardan biri - <Koka-kola> kompaniyasi bulib, uning bashkaruv organi AKShda joylashgan. <Koka-kola> kompaniyasi uz maxsulotlari bilan xalkaro engil ichimliklar bozorining 45 foizini egallagan. Kupgina xalkaro bozorlarda axoli jon boshiga iste'mol xajmining pastligi, demografik an'analarning usish tusini olishi va ommaviy axborot vositalarida kompaniya faoliyati xakidagi ma'lumotlarning keng yoyilishi bilan muvozanatlanmokda.

1992 yilda <Koka-kola> maxsulotlarini xalkaro iste'moli axoli jon boshiga yiliga 40 portsiyadan tugri kelgan (mamlakatlar buyicha ma'lumotlar jadval shaklida kuyida keltirilgan).

<Koka-kola> tizimi xakikatdan xam, xalkaro mavkega ega, u 160 dan ortik mamlakatda faoliyat yuritadi. Ushbu mamlakatlarning xar birida kompaniya ishonchli maxalliy xamkorlarga ega bulib, ular <Koka-kola> savdo markasi ostida ichimlik ishlab chikaradilar. Tizim uzida 1000 dan ortik ana shunday xamkorlarni birlashtirgan.

Mazkur yirik xalkaro tarmok - <Koka-kola>ni eng yirik engil ichimliklar ishlab chikaruvchiga aylantirgan. Ushbu kompaniyaning bozordagi ulushi, eng yakin rakobatchi-larinikidan xam 2 barobar kup. Engil ichimliklar ishlab chikarish - dunyoda eng tez usib borayotgan tovarxisoblanadi. Mana shunday istikbolli ishlab chikarish bozorida etakchilik kilish, moliyaviy kudratni va xissadorlarga yukori daromadni ta'minlaydi.

1992 yilda <Koka-kola> aktsiya egalari sonining kupligi jixatdan amerika kompaniyalari ichida 6 urinni egallagan; muomaladagi aktsiyalarning bozor baxosi esa, 54,7 mlrd. dollarni tashkil etgan (1992 y.).

Kompaniya uz maxsulotlarini 160 dan ortik mamlakatga tarkatadi va 40 dan ortik muomaladagi valyutadan foydalanadi. Giperinflyatsiya xukmronlik kilayotgan mamlakatlarda (masalan, Braziliya) funktsional valyuta sifatida AKSh dollaridan foydalaniladi. 1992 yilda kompaniya daromadining taxminan 78 foizi AKShdan tashkarida ishlab topilgan. Boshka valyutalarda (AKSh dollarida bulmagan) ifodalanadigan, kompaniya karzlari, usha mamlakatlardagi investitsiyalarni xejerlashda foydalanish uchun muljallangan.

#### **1992 yilda ayrim mamlakatlarda kompaniya maxsulotlarining axoli jon boshiga iste'mol (xar bir kishiga yillik 8-untsiyali portsiya)**

AKSh	296	Braziliya	81
Meksika	275	Italiya	94
Avstraliya	217	Buyuk Britaniya	89
Norvegiya	228	Koreya	61
Kanada	169	Yaponiya	124
Germaniya	189	Frantsiya	56
Argentina	171	Tailand	44
Ispaniya	159	Tayvan	31
Kolumbiya	104	Indoneziya	4
Filippin	87	Xitoy	1

## 2.2. JAXON VALYUTA TIZIMINING RIVOJLANISH BOSKICHLARI

**Parij jaxon valyuta tizimi (1867-1914y.)** Pulning xalkaro almashuvi, xuddi pulning uzi singari kadimiy bulsada, xozirgi shaklda valyuta bitimlarining paydo bulishi XIX asr oxiriga borib takaladi. Birinchi jaxon valyuta tizimi - 1865 yilda turtta Garbiy Evropa mamlakatlari tomonidan tashkil etilgan va <Oltin andozasi> asosida faoliyat yuritgan - Lotin tanga ittifoki xisoblanadi. Mazkur valyuta tizimi, rasmiy ravishda 1867 yilda Parij konferentsiyasida tan olindi va dunyoning 30 dan ortik mamlakati tomonidan maxsus xalkaro shartnomaga imzo chekildi. Bu valyuta tizimi <Oltin andozasi>ga ya'ni, oltinni etalon (mezon) metall sifatida kabul kilishga asoslangan milliy pul tizimlarini birlashtirdi. Shuning uchun xam Parij valyuta tizimi <Oltin tanga andozasi> deb yuritila boshlandi. Bunga muvofik, jaxon puli oltin tangalar va oltinga konvertirlanadigan pullardan tashkil topgan edi.

Oltin andoza tartibi boskichma-boskich uch shaklni boshdan kechirdi. 1914 yilgacha oltin tanga boskichi, 1922 yildan 1929 yilgacha oltin kuyilma andozasini, 1944 yildan 1971 yilgacha oltin deviz andozasi. Oltin tanga andozasi davrida zarbxonalar oltin kuyilmalardan oltin tangalar ishlab chikarish xukukiga ega edilar. Bu erkin tarzda va deyarli tekin amalga oshirilgan, shuning uchun xam, bu tangalar pul massasining asosini tashkil kilgan. Kogoz pullar xuddi oltin tangalar katori muomalada bulgan va ular oltinga tula konvertirlangan. Oltin bilan konvertirlanganlik doimo ta'minlanishi uchun, kogoz pullar emissiyasi chegaralangan. Yangi tizimning dunyo buylab keng tarkalishi bilan, unga bulgan ishonch ortdi. Bu amalda, xalkaro xisob-kitoblarda tulov vositasida oltin va boshka shu kabi kimmatbaxo metallarni olish yoki berish urniga, xorijiy schetni debitlash yoki kreditlash orkali tulovni amalga oshirishga olib keldi. Valyuta dilerlari kulida telegraf, telefon, teletayp kabi vositalarning paydo bulishi, xalkaro valyuta savdosini professional darajada yuritishga imkoniyat berdi.

Parij valyuta tizimi birinchi jaxon urushigacha amalda buldi. Uning asosiy xususiyati, paritetlari oltinga nisbatan urnatiladigan, belgilangan valyuta stavkalarida edi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan bulib, <valyutaning oltin pariteti> yoki <valyutaning oltin tarkibi> deb nom oldi. Oltin tanga andozasi davrida, oltin xisobiga ikkiyoklama funktsiya amalga oshirilgan. Mazkur funktsiyalar: xalkaro xisob-kitoblarda tan olingan tulov vositasi sifatida xamda bir vaktning uzida, ichki bozorda yagona kabul kilingan almashuv va tulov vositasi edi.

**Oltin ushbu funktsiyalarni ta'minlashi uchun, kuyidagi shartlar bajarilishi shart bulgan:**

1). Markaziy bank oltinni, belgilangan kurs buyicha, chegaralangan mikdorda sotishni va sotib olishni kafolatlashi.

2). Oltin egasiga, davlat zarbxonasida tayyorlangan oltinni tanga va kuyma shaklida xar kanday mikdorda saklashi. Oltin zaxiralarni saklash jarayoni esa, tezavratsiya degan nom olgan.

3). Oltinning import va eksporti chegaralanmaganligi. Ushbu shartlarning bajarilishi, tangani metall qiymati va nominali xar doim bir xilda bulishi ta'minlangan. Uz-uzidan, oltin tanga andozasi sharoitida, likvidlilik - sanoat maksadlari uchun zarur bulgan oltinni ishlab chikarish tezligi va oltinning mikdori bilan aniklangan.

Barcha valyutalar va oltin urtasidagi yakin bogliklik, xalkaro xisob-kitoblarni amalga oshirishda, ma'lum ta'sirini utkazdi.

Oltin andozasining avtomatik faoliyati deb ataladigan jarayon kuyidagicha amalga oshdi: tulov balansida takchillik mavjud mamlakat, ma'lum mikdordagi oltinni chet elga olib chikishi shart bulgan. Bu muomaladagi pul massasini kamaytirib, deflyatsiyaga olib kelgan (**deflyatsiya** - muomaladagi pul massasi usishini chegaralash jarayoni, inflyatsiyaning teskarisi). Va aksincha, bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga oltinning olib kelinishi, ikkinchisida inflyatsiyani keltirib chikargan. Shu yul bilan xosil kilingan narxlar urtasidagi fark, oltin olib chikilgan mamlakat uchun foydali xisoblangan. Eksportni kengaytirish, importni kiskartirish orkali, bunday mamlakat tulov balansini yaxshilagan.

Shuningdek, tartibga solish jarayonida pul (oltin) takchil bulgan mamlakatda xisob stavkalarini oshirish va aksincha, pul (oltin) ortikcha bulgan mamlakatda xisob stavkasini tushirish kullanilgan. Yukoridagilar natijasida yuzaga keladigan kapital kuchishi, ikki mamlakat urtasidagi tulov xolati balanslanishiga yordam bergan.

Oltin andozasi sharoitida, birja almashuv kurslari juda tor chegarada + 1% ga tebranishi mumkin edi. Bu xolat yukori va kuyi <oltin nuqtalari>, deb nom oldi. Rasmiy paritetdan bunday ogishishni, oltin oldi-sotdisi paytida frax va sugurta bilan boglik xarajatlarning kelib chikishi, tashiladigan oltin qiymatining +1%ini tashkil etganligi bilan tushuntirish mumkin. Agar, ma'lum valyutaning almashuv kursi, uz paritetidan yukori bulsa, xorijiy valyutani sotib olishdan, oltinni tashib keltirish arzon xisoblangan. Debitor uz pulini oltinga almashtirib, karz tulagan. Boshka tomondan, agar valyuta kursi tushsa, kreditor karzni oltin bilan tulanishini talab kilgan. Bu tizimda valyuta munosabatlari davlatning aralashuvidan xolis tarzda amalga oshirilganligidan xamda almashuv kursining tebranishi sezilarsiz bulganligidan, valyuta riski past edi. Mazkur tizim 1914 yilgacha amalda buldi. Birinchi Jaxon urushi yillarida yuzaga chikkan iktisodiyot uchun yirik xajmdagi zaruriy mablaglar, fakatgina kushimcha pul chikarish yuli bilan kondirilishi mumkin edi. Ichki bozorga salbiy ta'sirini inobatga olib, kuppina mamlakatlar oltin andozasiga asoslangan koidalarni bekor kiluvchi chora-tadbirlarni kulladilar. Bu esa, Parij Jaxon valyuta tizimini amalda parokandalikka olib keldi.

**Genuya jaxon valyuta tizimi (1922-1929y).** Ikkinchi jaxon valyuta tizimi 1922 yilda utkazilgan xalkaro Genuya konferentsiyasi karorining natijasi edi. Bu tizim - oltin andozasiga taallukli bulib, uning yangi kurinishi <oltin kuyilma andozasi> xisoblanadi. Oltin kuyilma andozasi amal kilgan sharoitda, muomaladagi pullar yoki kisman, yoki tulik kogos pullar edi. Xukukiy jixatdan, mazkur kogos pullarni xoxlagan paytda emission bankdan oltinga almashtirish mumkin bulgan. Amalda esa, ushbu pullarning ma'lum kismini shu yul bilan almashtirish mumkin bulgan. Emission bank, albatta, pulni tulik ta'minlash uchun zarur bulgan oltinni saklashi shart emas edi. Belgilangan ta'minot (oltin) kanchalik oz bulsa, davlatning kushimcha kogos pullarni chikarish imkoniyati shunchalik kup bulgan. Shu sababli, muomaladagi kogos pul mikdori saklanadigan metall pul mikdoridan yukori bulgan. **Oltinga almashina-digan valyutalar sifatida dollar, frantsuz franki va funt sterling tanlandi.**

Genuya valyuta tizimi atigi 1929 yilgacha amalda buldi. Ushbu tizimning parokandalikka uchrashiga asosiy sabab, urushdan keyingi inflyatsiya ta'sirida valyuta pariteti norealligining usib borishi buldi. Aksariyat mamlakatlarda inflyatsiya sur'atlarining turli darajada bulishi, xalkaro narxlarga bogliklikda nomutanosiblikning kuchayishiga olib keldi. Masalan, 1925 yilda funt sterling dollarga nisbatan 44 foizdan past bulmagan baxolanishga ega bulgan. Kuppina mamlakatlarda, iktisodiyotning ichki va tashki soxalarida dollar orkali muvofiklashtirish sezilarli darajadagi inflyatsiyani keltirib chikardi. Bitta valyutaning almashinuv kursining pasayishi, boshkalarining xam kayta baxolanishiga olib keldi. Oldingi paritetni tiklash maksadida, almashuv kursi kutarilgan mamlakatlarda xam inflyatsiya yuz berdi. Natijada, yuzaga kelgan devalvatsiya barcha asosiy valyutalarga ta'sir etdi.

Ikki jaxon urushi oralgida xalkaro pul tizimi barkarorligini buzilishiga sabab bulgan omillar, fakatgina inflyatsiya va devalvatsiya emas edi. 1931 yildan boshlab, butun jaxon iktisodiyotini falaj axvolga solib kuygan inkiroz tufayli, valyuta nazorati joriy kilindi. Asosiy extiyojlarni kondirish bilan boglik, joriy tulovlarni amalga oshirishga etarli xorijiy valyuta zaxirasini ta'minlash, nazorat kilishning asosiy vazifasi edi.

Buning uchun, xukumatlar xorijiy valyutaning importi va eksporti ustidan nazoratni amalga oshirishlariga tugri keldi. Xakikatda, tizim uchta valyuta blokiga ajraldi: dollar, funt streng va frank xududli. Bular Ikkinchi jaxon urushigacha amal kildi. Shuni aloxida ta'kidlash joizki, frank xududi, Afrikaning frantsuz tilida suzlashuvchi mamlakatlarda evro muomalaga chikkinga kadar faoliyat yuritdi.

**Brettonvud jaxon valyuta tizimi (1944-1972 yy.).** 1943 yilga kelib, AKSh xamda Buyuk Britaniya erkin va barkaror valyuta tizimini barpo kilish uchun dastlabki kadamlarni kuydi. 1944 yilning iyul oyida Bretton-Vuds shaxrida bulib utgan konferentsiyada, AKSh oltin andozasiga asoslangan kontseptsiyaga utish tashabbusi bilan chikdi. Shu vaktning uzida, yangi xalkaro valyutani tartibga solish tizimi faoliyatini nazorat kilish uchun, Xalkaro valyuta fondi (XVF)ni tashkil etish tugrisida karor kabul kilindi.

Yangi tartibning asosiy maksadlari kuyidagilardan iborat edi: barkaror almashuv kurslariga ega bulgan, xalkaro valyuta tizimini tashkil etish; kattik valyuta nazorati bekor kilinishi va barcha valyutalarning konvertirlanishiga erishish.

### **Brettonvud tizimining asosiy tomonlari quyidagi tamoyillarni uz ichiga oladi:**

- mamlakatlar urtasidagi xisob-kitoblarda oltin uzining **oxirgi pul** funksiyasini saklab koldi;
- Amerika dollari zaxira valyuta sifatida kabul kilindi. U oltinga tenglashtirilib, boshka mamlakatlarning valyuta qiymatini ulchash xamda xalkaro kredit tulovi vositasi sifatida kabul kilindi;
- boshka mamlakatlarning Markaziy banklari va xukumatlari dollarni, AKSh xazinachiligidan 1 tr. untsiyasi (31,1 g.) uchun 35 doll. kurs buyicha almashishi mumkin edi. Bundan tashkari, xukumat organlari va xususiy shaxslar oltinni xususiy bozorlardan xarid kilishlari mumkin edi. Oltinning valyuta baxosi rasmiy kurs asosida belgilanib, u 1968 yilgacha sezilarli darajada tebranmagan;
- valyutalarning bir-biriga tenglashtirilishi va ularni uzaro almashtirish, oltin va dollarda ifodalanadigan rasmiy valyuta paritetlarida amalga oshirilgan;
- barcha mamlakatlar xar kandy olingan boshka mamlakat valyutasiga nisbatan, uz valyuta kursi barkarorligini saklashi shart edi. Valyutaning bozor kursi, oltin yoki dollarda belgilangan paritetdan 1 foizdan ortik u yoki bu tomonga ogishi mumkin emas edi. Paritetlarning uzgarishi, tulov balansidagi buzilishlar barkaror tus olsagina, mumkin xisoblanardi. Dollardan foydalanish kulamining tangar tus olishi bilan, oltindan foydalanish xajmi keskin pasaydi;
- valyuta munosabatlarini davlatlararo tartibga solish, asosan, XVF tomonidan amalga oshiriladigan buldi.

Utgan asrning 60-yillariga kelib Brettonvud tizimi, usib kelayotgan jaxon xujaligining baynalmilallashuvi, TMKlarning valyuta soxasidagi chaykovchiligining boshlanishiga karshilik kilardi.

Oltin tartibidagi dollar andozasi tizimi, amalda asta-sekin dollar andozasi tizimiga aylanib bordi. Utgan asrning 60-yillariga kelib, AKSh iktisodiyotidagi orkaga siljish, va asosan, Garbiy Evropa va Yaponiya iktisodiy kudratining usishi natijasida dollarning kadri sezilarli darajada tushdi. AKShdan tashkarida bulgan dollar zaxiralari yirik evrodollar bozorini tashkil kildi. Tulov balansidagi yirik takchillik, 1 untsiya uchun dollar narxini 35 dollarga oshishiga olib keldi.

Valyuta tizimining larzaga kelishiga, shuningdek, turli mamlakatlarda turlicha iktisodiy usish yuz berganligi xam uz ta'sirini utkazdi. 1961 yil martida yuzaga kelgan sezilarli darajadagi ijobiy tulov balansi natijasida, nemis markasi va golland guldenining revalvatsiyasi yuz berdi.

Bir paytning uzida, 1963 yildan boshlab, funt sterling kattik bosim ostida koldi.

Kursatilgan barcha yordamlarga karamasdan, uch yillik inkiroz davrida, 1967 yilga kelib, funt sterling pariteti 2,80 dan 2,40 dollargacha devalvatsiya kilindi. Buning natijasida oltinga bulgan talab ortdi. Bularning barchasi oltinning kamayishiga olib keldi. Markaziy banklarni 1968 yilda oltin puli (ingl. )dan voz kechishga va oltin bozorining amerika sektoriga jamlanishiga olib keldi.

1960 yillarga kelib, AKSh tulov balansidagi takchillik, oltin zaxirasini 18 mlrd. dollarga, 1970 yillarda esa, 11 mlrd. dollarga kamaytirdi. Bir vaktning uzida, AKShga nisbatan xorijiy kreditorlarning talabi ancha usib, 1970 yilda u AKSh ixtiyoridagi oltin zaxiralardan ikki marotaba kup edi. 1971 yilning iyuniga kelib AKSh dollarni oltinga rasmiy baxoda almashtirishdan bir tomonlama bosh tortdi. Bu Brettonvud tizimining amalda bekor bulishini bildirardi.

**Yamayka jaxon valyuta tizimi (1976y.-xozirgi paytgacha).** 1976 yili Kingstonda (Yamayka) bulib utgan XVFning navbatdagi yigilishida yangi valyuta tizimiga asos solindi. Yamayka bitimining yuriklari asosida, xalkaro valyuta mexanizmini tashkil etish tamoyillarini quyidagicha keltirish mumkin:

- oltinning qiymatni ulchash sifatida va valyuta kurslarini xisoblash vositasi sifatidagi tangar funksiyasi bekor kilindi.

Oltin erkin narx belgilanadigan oddiy tovarga aylandi. Bir vaktning uzida u, yukori likvidli aktiv sifatida maxsus tovar bulib kolaveradi. Kerak bulib kolganda, oltin sotiladi va undan olingan valyuta tushumidan tulov uchun foydalaniladi.

Muomalaga SDR andozasi (Special drawing rights - SDR) - <maxsus karzdorlik xukuki> kiritildi. Bundan kuzlangan maksad, ushbu valyutalarni asosiy zaxira avuari kilib, boshka zaxira valyutalarni, birinchi navbatda, AKSh dollari rolini pasaytirish edi.

Mamlakatlarga valyuta kursi tartibini tanlash xukuki berildi. Mamlakatlar urtasida amaldagi valyuta munosabatlari, ular milliy pul birliklarining suzib yuruvchi kursiga asoslana boshladi. Kurslarning tebranishiga, asosan, ikkita omil ta'sir kursatar edi:

- a) valyutaning mamlakat ichki bozoridagi xarid kuvvati, real kiymat nisbatlari;
- b) xalkaro bozorlarda, milliy pulga bulgan talab va taklif.

Utgan asrning 90-yillariga kelib, suzib yuruvchi kurs omillarini tatbik etish natijasida, xalkaro valyuta tizimini tashkil etishning kuyidagi elementlariga asoslangan murakkab chizmasi paydo buldi;

1) munosabatlarni saklash kerak bulgan aloxida milliy valyutalar, asosiy tayanch birliklar sifatida tanlanadi, anikrogi, uz valyuta kursini boshka valyutaga boglash;

2) valyuta kurslarining tebranish darajasi bir xil emas, shuningdek, tebranish oraligi keng. Bunda, valyuta kursi, ayrim valyutalarga nisbatan ma'lum oralikda ushlab turiladi, boshka valyutalarga nisbatan esa, erkin almashiladi. Boshkacha suz bilan aytganda, milliy valyuta pariteti, asosan, SDRga nisbatan ushlab turiladi. Amalda mamlakatlarning valyuta tartibini e'lon kilishlari turlichadir.

1988 yilda 58 mamlakat uz valyuta kursini, bitta asosiy xamkor mamlakat valyutasiga nisbatan urnatishi xakida karor kabul kilindi: amerika dollariga (39 mamlakat), frantsuz frankiga (14 frank xududi mamlakatlari) va boshka valyutalarga (5 ta mamlakat).

Yamayka bitimiga asosan, jamoa zaxira valyuta birligi sifatida SDR tan olindi.

SDRning kiymati dastlab, oltinga kura belgilangan ( $SDR=0,888671$  sof oltin) bulsa, 1974 yil 1 iyundan boshlab, SDR kursi <valyuta savati>ga nisbatan aniklana boshlandi.

SDR buyicha depozitlar foiz keltiradi. Agar XVFDa SDRdagi avuarlar assignovaniyadan ortikcha bulsa, mamlakat foiz oladi, aksincha, SDRdagi avuarlar assignovaniyadan kam bulsa, foiz tulaydi. U, a'zo mamlakatlarga XVFDa ajratilgan kvotalar asosida XVFDagi maxsus xisobvaraklarda olib boriladi. Ushbu kvotalar, tulov balansidagi takchillikni moliyalashtirish uchun, zaruriy valyutani sotib olishga ishlatiladi. Ammo, SDRning xalkaro xisob-kitoblardagi ulushi 6 foizga yakin. Kupchilik iktisodchilarning fikricha, SDRga zaxira valyutasi sifatida emas, balki kuprok darajada kredit sifatida karash kerak. Lekin, SDR xam zaxira, xam kredit valyutasi xisoblanadi.

Shunday kilib, jaxon valyuta tizimining uchta kurinishi amal kilgan va oldinma keyin bir-birini urnini almashtirgan. **Ulardan birinchisi** - <oltin tanga andozasi> tizimi - konuniy jixatdan asosiy pul shakli rolini bajaruvchi oltinga asoslangan. Milliy birliklarning kursi oltinga kattik boglangan bulib, valyutalar bir-biriga oltin bilan ta'minlanganligi orkali, kattik kurs buyicha takkoslangan. Valyuta kurslarining e'lon kilingan nisbatlardan ogishi + 1% dan ortmagan va <oltin nuktalar> chegarasida bulgan.

**Ikkinchi tizim** - bu <oltin deviz andozasi> (Brettonvud valyuta tizimi) bulib, u AKSh dollariga nisbatan valyutaning kattik kursini urnatish (ogishishlar chegarasi + 1% oralikda) orkali amal kilgan. AKSh dollarining kursi oltinga nisbatan kattik urnatilib, dollar shu kurs buyicha oltinga konvertirlangan. Tizimning uzi esa, <oltin deviz andozasi> degan nom oldi. Genuya tizimini, oltin tanga va oltin deviz andozalari urtasidagi oralik tizim deyish mumkin.

**Uchinchi jaxon valyuta tizimi** - Yamayka valyuta tizimi, suzib yuruvchi, almashuv kurslariga asoslangan bulib, <kup valyutali andoza>, yoki boshkacha - SDR andozasi deb nomlanadi. Mamlakat belgilangan, suzib yuruvchi yoki aralash valyuta kurslarini tanlashi mumkin. Bu, shuningdek, valyuta inkirozlarini keltirib chikarish xususiyatiga xam ega.

Jaxon valyuta tizimlarining rivojlanish boskichlarini kuyidagi 2-jadval va 1-chizmalar orkali kurish mumkin.

## 2-jadval

**Jaxon valyuta tizimining (JVT) tarkibiy elementlari  
(takkoslama taxlil)**

JVT elementlari	JVT turlari			
	Parij	Genuya	Brettonvud	Yamayka
zaxira valyuta	oltin	devizlar va oltin	AKSh dollari (oltinga almashinadigan) ing.funt sterlingi	SDR
uzaro konvertatsiya shartlari	valyutalar uzaro va oltinga erkin almashtiriladi	oltin tarkibi asosida valyuta konvertatsiyasi	USD da va oltin tarkibiga asoslanib ifodalanadigan paritetlar asosida almashish	SDR asoslanib ifodalanadigan paritetlar asosida almashish
valyuta paritetlarining birxillashirilgan tartibi	oltin tarkibi asosida valyuta konvertirlanishi	oltin tarkibi asosida valyuta konvertirlanishi	USD da asoslanib ifodalanadigan paritetlar asosida valyutani almashish va uni oltinga almashish	SDR asoslanib ifodalanadigan paritetlar asosida almashish
valyuta kurslari tartibi reglamentatsiyasi	<oltin> nuktalar chegarasida erkin suzuvchi valyuta kurslari	erkin tebranuvchi valyuta kurslari	USD ga karab belgilanadigan valyuta kurslari	valyuta kursi tartibini tanlash imkoniyati
xalkaro valyuta likvidligini davlatlararo tartibga solish	milliy oltin zaxiralari	maxsus barkarorlashtiruvchi fondlar	davlatlarning oltin valyuta zaxiralari, XVF zaxira kvotasi	davlatlarning oltin valyuta zaxiralari, XVF zaxira kvotasi
xalkaro kreditlashning asosiy shakllarini birxillashtirish	odatlar	odatlar, 1930-1931 yy.dagi veksel konuni buyicha Jeneva konventsiyasining karori		odatlar, 1930-1931 yy.dagi veksel konuni buyicha Jeneva konventsiya-sining karori, XST karori
xalkaro xisob- kitoblarning asosiy shakllarini	odatlar	xujjatlashtirilgan akkreditivlar uchun odatlar va yaxlitlashtirilgan koidalar. Inkasso buyicha yaxlitlashtirilgan koidalar, chek konuni		

birxillashtirish				
oltin bozorlari va jaxon valyuta bozorlari tartibi	jaxon oltin va valyuta bozorlari bir-biriga boglik	AKSh, Buyuk Britaniya, Frantsiya oltin baxosini belgilaydi	amalda oltinning ikkita parallel bozori mavjud: belgilangan baxoda va erkin shakllanadigan baxolarda	oltin bozorlarining aksilmarkazlashuvi, oltinni sotish buyicha kimoshdi savdolari
valyutani tartibga soluvchi xalkaro tashkilotlar	davriy konferentsiyalar		XVF	XVF, <katta sakkizlik> yigilishi, BMTning iktisodiy va moliyaviy tashkilotlari, xalkaro xisob-kitoblar banki (Bazel kumitasi)

**Xalkaro valyuta tizimlari va XVF rolini uzgarishi**

1816y Buyuk Britaniyada oltin andozai kabul kilinishi

Buyuk Britaniya atrofida xalkaro valyuta tizimini rivoji

**Buyuk Britaniyani oltin standartdan voz kechishi**

1831y

**Ikkinchi joxon urushigacha**

**urushgacha valyuta siyosati**

- Har kaysi davlatda aloxida valyuta siyosati utlazilishi
- valyuta almashtirishda va erkinlik uchun cheklovlar ustidan kattik davlat nazorti

**Ikkinchi joxon urushiga aloxida sababchi bulgan davlatlararo karama-karshilikni yuzaga kelishi**

**ustinlikni Buyuk Britaniyadan AKSHga utishi**

1944 v

**Ikkinchi joxon urushidan soeng**

**urushdan sung = erkin**

- valyuta kursini barkarorlashuvi va erkin savdoni rivojlanishi;
- xalkaro valyuta almashinuvi yunalishiga (xalkaro valyuta tizmiga).


**dollarga asoslangan Bretton-Vud (belgilangan)**

**XVF rolini uzgagishi**

**1944 y.=Bretton-Vud tizimi**  
oltin baxosini 35\$ga 1tr. untsiya darajasida taminlash; dollarga nisbatan valyutalar kurslarini belgilash (Yaponiyada: 1\$=360ien)







## UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR

1. Parij valyuta tizimi paydo bulishining asosiy sabablari nimada?
2. Parij valyuta tizimi nima uchun <oltin tanga andozasi> deb ataladi?
3. Oltin andozasining avtomatik faoliyati kandy amalga oshirilgan?
4. Kandy sabablarga kura Parij jaxon valyuta tizimi inkirozga uchradi?
5. Ikkinchi jaxon valyuta tizimining uziga xos jixatlarini sanab bering.
6. Ikkinchi jaxon valyuta tizimi, birinchisidan kandy farkli xususiyatlarga ega?
7. XVf kachon, kaerda, nima maksadda tashkil etilgan?
8. Brettonvud valyuta tizimining kandy uziga xos tomonlari mavjud?
9. Yamayka valyuta tizimida oltinning kandy funktsiyalariga chek kuyildi?
10. Utgan asrning 90-yillariga kelib, xalkaro valyuta tizimini tashkil etishning kandy elementlari yuzaga chikdi?
11. SDRning asosiy funktsiyasi nimadan iborat?
12. 2-jadval va 1-chizmada keltirilgan ma'lumotlarni takkoslama taxlil kiling va xulosalaringizni yozing.

### 2.3. EVROPA VALYUTA TIZIMI

Evropa valyuta tizimi - bu jaxon (xududiy) valyuta tizimi bulib, u iktisodiy integratsiya doirasida amal kiladigan iktisodiy munosabatlarning umumiy yigindisi; <umumiy bozor> mamlakatlari integratsiya jarayonlarini ragbatlantirish va valyuta kurslarini barkarorlashtirish maksadida valyuta munosabatlarini tashkil etishning davlat-xukukiy shaklidir.

Evropa valyuta tizimi - jaxon valyuta tizimining (Yamayka) kuyi shaklidir. Garbiy Evropa integratsiya majmuining uziga xos jixatlari, uning Yamayka valyuta tizimidan farkanuvchi kuyidagi tarkibiy tamoyillari bilan tavsiflangan edi:

- Evropa valyuta tizimi, evropa valyuta birligi - EKYuga asoslanadi;
- Oltinning amaldagi zaxira aktivlar sifatida ishlatilishi;
- Valyuta kurslarining tartibi belgilangan, uzaro tebranishlar doirasidagi valyutalarning <evropa valyuta iloni> shaklidagi suzishiga asoslanishi;
- Evropa valyuta tizimida valyutaning davlatlararo xududiy tartibga solinishi, markaziy banklarga valyuta intervensiyasi bilan boglik bulgan tulov balanslarining vaktinchalik takchilligini koplashga kreditlar ajratish yuli bilan amalga oshiriladi.

EKYu bilan SDRning takkoslama tavsifi, ularning umumiy va farkli jixatlarini ochib beradi. Umumiylik ularning: xalkaro xisob-kitoblarda jaxon kredit pullar sifatidagi kurinishida; banknotlarda emas, balki nakd pulsiz shaklda amal kilishida; ular shartli kiymatini aniklashda valyuta savati usulidan foydalanishda; schetlarda chegaradan ortik saklagani uchun emitentni mamlakatlarga foiz tulashi zarurligi kabilarda namoyon buladi. EKYu va SDRning farkli jixati sifatida kuyidagilarni ajratib kursatish mumkin:

1. EKYuning emissiyasi, SDRnikidan farkli ravishda, Evropa valyuta ittifokiga a'zo mamlakatlar oltin va dollardagi rasmiy zaxiralarning 20 foizini birlashtirish orkali ta'minlangan edi;
  2. EKYuni emissiyasi SDRnikiga karaganda egiluvchan edi. EKYuni chikarish summasi oldindan rasmiy belgilan-magan edi va u Evropa valyuta ittifokiga a'zo mamlakatlar oltin-dollar zaxiralarning uzgarishiga karab tartibga solingan; EKYuni emissiya xajmi SDRnikidan ancha yukori edi;
  3. Valyuta savati nafakat EKYuning kursini aniklashga xizmat kilgan, balki u birorta xam xalkaro valyuta birligi bajarmagan xisob-kitoblarda valyutaning paritet setkasi vazifasini bajargan;
  4. EKYuning kurs tartibi, uzaro tebranishlar doirasida (<evropa valyuta iloni>) birgalikda suzishga asoslangan edi. Bu EKYu va boshka evropa valyutalarning barkarorligini ta'minlardi;
  5. SDRdan farkli ravishda, EKYu nafakat rasmiy, balki xususiy sektorda xam kullanilgan. EKYu faoliyat doirasining kengayishiga kuyidagi sabablar bor edi:
- EKYu valyuta savati va <evropa valyuta iloni>, valyuta riskini pasaytirardi;
  - xar kandy bank EKYuni valyuta savatiga mos ravishda <nazorat kila olardi>. Bank uz mijozi bilan kelishgan xolda valyuta savatiga valyuta kushishi yoki undan olishi mumkin edi;
  - EKYu barkaror valyuta sifatida, mukobil jaxon valyutasi xisoblangan nobarkaror dollardan kura kuprok jaxon xujaligining extiyojlarini kondira olardi.

Bir-necha yil davom etgan kizgin tortishuvlardan sung, 1987 yilda valyuta integratsiyasining rivojlanishida muxim rol uynagan, Yagona evropa akti imzolandi. 1991 yil <Delor rejasi> asosida, valyuta-iktisodiy ittifokni boskichma-boskich shakllantirishni kuzda tutuvchi, Evropa ittifoki tugrisidagi Maastrixt shartnomasi ishlab chikildi. 1992 yilning fevralida Maastrixtda (Niderlandiya) 12 ta mamlakat tomonidan Evropa ittifoki shartnomasi ruyxatdan

utkazildi va 1993 yilning 1 noyabridan ishga tushdi. Keyinchalik EIGA Avstriya, Finlandiya, Shvetsiya kushildi.

Maastricht shartnomasiga asosan, iktisodiy va valyuta ittifoki uchta boskichda amalga oshiriladi.

**Birinchi boskich** (1990 yil 1 iyul - 1993 yil 31 dekabr) - EI iktisodiy va valyuta ittifokining tashkil topishi. EINI tashkil etish buyicha barcha tayyorgarlik ishlari ishlab chikildi. Shuningdek, bu davrda EI ichida va EI bilan boshqa uchinchi mamlakatlar urtasida kapitalning xarakatlanishi buyicha barcha tusiklar olib tashlandi. EIGA a'zo mamlakatlar iktisodiy rivojlanish kursatkichlarini yakinlashtirish buyicha, shuningdek, inflyatsiyaga karshi va davlat byudjeti siyosatini muvofiklashtirish buyicha kator chora-tadbirlar ishlab chikildi.

**Ikkinchi boskich** (1994 yil 1 yanvar - 1998 yil 31 dekabr) a'zo-mamlakatlarni evroni kabul kilish buyicha xarakatlari yanada aniklashtirildi. Ushbu boskichda, Evropa Markaziy bankining(EMB) xukukiy, tashkiliy, moddiy-texnik xolatini belgilash uchun Evropa valyuta instituti tashkil etildi.

**Shuningdek, mazkur boskichda:**

- a'zo mamlakatlarning markaziy banklari tomonidan davlat sektori korxonalariga yordam kursatish xamda davlat karzlarini sotib olishni ta'kiklovchi konunlar kabul kilindi; Xuddi shu ta'kiklar EVI tashkil etilishining uchinchi boskichiga kelib, EMBga tegishli buldi;
- davlat sektori korxonalarining moliya institutlarini mablaglaridan foydalanishdagi imtiyozlari bekor kilindi;
- a'zo mamlakat davlat sektorining majburiyat-larini boshqa mamlakat yoki EI tomonidan olinishi ta'kiklandi; Bu tadbir <kafolatlashdan bosh tortish tugrisidagi kelishuv> degan nom oldi;
- ishtirokchi-mamlakat davlat byudjetidagi takchillikning me'yoridan (davlat byudjeti takchilligi YaIMga nisbatan 3 foiz, davlat karzlari YaIMga nisbatan 60 foizdan) oshirmasligi talabi kuyildi;
- zarur bulganda, markaziy banklarga xuddi EMB kabi makom va mustakillik berish kabul kilindi.

1998 yil 2 mayda Evropa Ittifoki EVIning uchinchi boskichida kaysi mamlakatlarga evroga utishga ruxsat berish xakidagi karorni kabul kildi.

**Uchinchi boskichda** (1999-2002yy.)1999 yilning 1 yanvaridan boshlab, evro xududiga kiruvchi ishtirokchi mamlakatlarning milliy valyutalari evro kursiga nisbatan belgilandi, evro ularning umumiy valyutasi buldi. U EKYuni xam 1:1 nisbatda almashtirdi. Ishtirokchi-mamlakatlar uchun yagona pul-kredit siyosatini yurituvchi EMB uz faoliyatini boshladi.

Yagona pul-kredit siyosatining instrumentlari orkali, tijorat banklari va yirik kompaniyalarni evroda operatsiyalarni amalga oshirishi ragbatlantirildi.

1999 yilning 1 yanvaridan boshlab, xisob-kitoblar uchun, evro xududiga kiruvchi mamlakatlarning milliy valyutalarini evroga nisbatan kattik kursi belgilandi:

<b>Valyuta</b>	<b>1 evroga teng bulgan milliy valyutalar birligi</b>
Belgiya franki	40,3399
Nemis markasi	1,95583
Ispan pesetasi	166,386
Frantsuz franki	6,55957
Irlandiya funti	0,787564
Italiya lirasi	1936,27
Lyuksenburg franki	40,3399
Gollandiya guldeni	2,20371
Avstriya shillingi	13,7603
Portugaliya iskudosi	200,482
Finlandiya markasi	5,94573

1999-2002 yillarda uzaro nakd pulsiz xisob-kitoblarda evro va unga boglangan milliy valyutalardan foydalanildi, xududning barcha davlat xamda xususiy sektor aktiv va passivlari evroda nominatsiya kilina boshladi. Evro ittifokni yagona pul-kredit va valyuta siyosati yuritila boshlandi xamda EIning umummilliy bank institutlarining faoliyati boshlandi.

2002 yilning 1 yanvarida muomalaga evro banknoti va tangalari chikarildi, u milliy pul birliklari bilan parallel ravishda faoliyat yuritdi va milliy pullarni evroga almashtirish amalga oshirila boshlandi.

2002 yilning 1 iyulidan milliy valyutalar muomaladan chikarilib, ishtirokchi mamlakatlarning xujalik aylanmasi butunlay evroga utdi. Lekin, evro xududiga Buyuk Britaniya, Shveysariya va Daniya mamlakatlari kirishni xoxlamadilar.

**EIning yagona valyuta va kredit bozorida kator moliya operatsiyalarining davlat tomonidan tartibga solinishini birxillashtirish va erkinlashtirish kutilmokda, xususan:**

- sugurta va pensiya fondlari endilikda, evro xududida investitsiya faoliyati bilan shugullanishda bir xil xukukka ega buladilar. Bu ularni majburiy tarzda davlat kimmatbaxo kogoslarini sotib olishga bulgan amaldagi tartibdan kutulib, uz portfellarini diversifikatsiya kilish imkoniyatini beradi;
- davlat kimmatbaxo kogoslarini joylashtirish buyicha birlamchi dilerlar, chegaralangan milliy ustunligini yukotadilar;
- ayrim mamlakatlarda, xozirgi kunda maxsus ruxsat talab etiladigan va kuchmas mulk garovi evaziga beriladigan kreditlar, evro xududida erkin va tez kuchib utuvchi tus oladi;
- xozirgi kunda, milliy pul-kredit siyosatining manfaatlarini kuzlab, uz xududida xamkor-mamlakat banklari faoliyatini nazorat kilish amaliyoti bekor buladi;
- EIda solik tizimlarining integratsiyasi jadallashadi.

Umuman, mutaxassislarning fikricha, evroning muomalaga kiritilishi bilan xalkaro iktisodiy, jumladan, moliya munosabatlarida sezilarli uzgarishlar amalga oshishi bashorat kilinmokda. Evro xududida pul va kapital bozorida taklifning kengayishi kutilmokda, chunki evro xududi mamlakatlari valyuta zaxiralarini oldingi xajmda saklashga extiyoj bulmaganligidan, valyuta zaxiralari xajmini kiskartirish amalga oshirilmokda. Bu xolat, mazkur bozorlarni yanada erkin va dinamik bulishiga olib keladi, unda asosiy xal kiluvchilik roli davlatdan, xususiy karz beruvchilarga utadi. Investitsiyalarning asosiy okimi esa, davlat majburiyatlariga emas, balki korxonalar kimmatbaxo kogoslarini sotib olishga yunaltiriladi. Bu, fond bozori bilan ishlab chikarishni boglab, kapital aylanmasini tezashtiradi.

Evroni kiritilishi banklar uchun EIda yagona bank xizmati bozorini, shuningdek, yagona davlat va korporativ kimmatbaxo kogoslar bozorini vujudga kelishini bildiradi.

Sanoat korxonalarini uchun, evroning kiritilishi, undan baxo va tulov vositasi sifatida foydalanish, shuningdek, xisob-kitoblar xamda valyuta riskini sugurtalash bilan boglik xarajatlar pasayishini bildiradi. Bu ayniksa, moliya korxonalarini soglomlash-tirishda muxim rol uynaydi. Ular aktsiyalarining daromadligi oshadi va nisbatan yaxshi rivojlanmagan Janubiy Evropa davlatlari iktisodiyotini Shimoliy davlatlar darajasiga tenglashishini tezashtiradi.

Jaxon moliya markazlari masalasida esa, agar Buyuk Britaniya evro xududiga kushilmasa, unda etakchilik mavkei Londondan Frankfurt-Mayn va Parijga utishi kutilmokda. EIning valyuta va iktisodiy birlashuvi, kelgusida jaxon xujaligida kuchlar nisbatini <yangi Evropa> foydasiga karab uzgarishiga xamda AKSh va Yaponiyaning jaxondagi mavkeining kuchsizlanishiga olib kelishi mumkin.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Evropa valyuta tizimiga tavsif bering.
2. EKYu va SDR bir-biridan kandy farkli jixatlariga ega?
3. Yagona evropa akti kachon imzolandi va ushbu aktning Evropa ittifokini tashkil etilishiga kandy ta'sir etdi?
4. Maastrixt shartnomasining asosiy shartlari nimalardan iborat?
5. EIning yagona valyuta va kredit bozorida kaysi moliya operatsiyalarini davlat tomonidan tartibga solinishini nazarda tutilgan?
6. Evroning muomalaga kiritilishi bilan jaxon moliya markazlarida kandy uzgarishlar kuzatilmokda?

## 2.4. XALKARO VALYUTA MUNOSABATLARIDA OLTINNING AXAMIYATI

Tarixan jaxon puli funksiyasini oltin va kumush bajarib kelgan bulsada, Parij valyuta tizimi (1867yil) doirasida fakatgina oltin jaxon puli sifatida kabul kilingan. Birok, demonetizatsiya natijasida oltinning axamiyati bir muncha kamaydi. **Oltin demonetizatsiyasi** - bu oltinning pul funksiyalarini bajarishdan asta-sekin maxrum etish jarayonidir. Demonetizatsiya jarayoni, XIX asr oxirigacha bir necha yuz yil davom etgan kumush demonetizatsiyasi kabi uzok muddatli jarayondir.

Oltin demonetizatsiyasi ob'ektiv va sub'ektiv sabablar bilan izoxlanadi:

- oltin pullar zamonoviy tovar ishlab chikarish talablariga javob bermaydi;
- kredit munosabatlari rivojlanishi bilan, kredit pullar - banknota, veksel, cheklar asta-sekin oltinni avval ichki pul muomalasidan, keyin esa, xalkaro valyuta munosabatlaridan sikib chikardi;
- oltin muomalasining davlat tomonidan tartibga solinishi - uning demonetizatsiyasini tezlashtiradi;
- sub'ektiv omillar sifatida AKShning valyuta siyosatini kursatish mumkin.

AKSh valyuta siyosatining strategiyasi dollarning xalkaro mavkeini mustaxkamlash maksadida, oltinni jaxon valyuta tizimining asosi sifatida diskreditatsiya kilishga yunaltirilgan edi. Birinchi Jaxon urushidan sung, moliya markazi Evropadan Amerikaga kuchdi va bu AKSh dollarining etakchiligiini kuchaytirdi. Ikkinchi Jaxon urushidan keyin, AKSh uzining yirik valyuta-iktisodiy potentsialiga tayanib, <dollar oltindan yaxshirok> shiori ostida, dollar xukmronligi uchun kurashni boshlab yubordi. Oltin demonetizatsiyasini tezlashtirish yuli bilan dollar etakchiligini mustaxkamlashga yunaltirilgan AKSh taktikasi, anik vaziyatga boglik ravishda uzgarar edi. Urushdan keyingi vayrongarchilik sharoitida Garbiy Evropa va Yaponiyada oltinning axamiyati oshdi va AKSh uzining yirik oltin zaxiralaridan (1949 yilda 24,6 mlrd. doll. yoki kapitalistik dunyo rasmiy oltin zaxiralarining 75 foizi) tayanch sifatida foydalandi. Chet el Markaziy banklarida dollarning oltinga almashtirilishi yulga kuyildi, bu esa, uning kursini barkarorlashishiga imkon berdi. AKSh ta'siri ostida, dollarning etakchi mavkeini saklab kolish maksadida 35 yil davomida (1934-1971) rasmiy baxolar masshtabida xamda valyuta pariteti uchun baza sifatida xizmat kilgan oltinning pasaytirilgan rasmiy baxosi (31,1035 grammga teng bulgan 1 untsiya oltin 35 dollarga teng) ushlab turildi. Davlat aralashuvi ta'sirida oltinning rasmiy baxosi va xakikiy baxosi urtasida sezilarli fark xosil buldi. XV Nizomida dollarning oltin tarkibini va uning zaxira valyutasi sifatidagi mavkeini saklab kolish maksadida, a'zo davlatlarni oltin bilan xukumat operatsiyalarini fakat rasmiy baxoda amalga oshirishga majbur kilindi. Shu maksadda, tarixda birinchi marta 1961-1968 yillarda oltin puli (ing. orkali oltinning bozor baxosini davlatlararo tartibga solish amalga oshirildi. Utgan asrning 70-yillaridan AKShning xalkaro mavkei nisbatan pasaydi. AKSh dollarining kadsrizlanishi, oltinning real zaxira aktivi sifatidagi mavkei usishiga imkon berdi. Shunday bir sharoitda, XV AKSh ta'siri ostida AKSh dollarining rakibi-oltin demonetizatsiyasini tezlashtirish siyosatini kuchaytirdi.



Oltin demonetizatsiyasining ikki jixati farqlanadi: yuridik va xakikiy. Yamayka valyuta isloxoti natijasida demonetizatsiyaga yuridik yakun yasaldi. XVFnning uzgartirilgan nizomida valyuta kursi va paritetini aniklashda oltinga ixtiyoriy tayanish istisno kilingan, oltin pariteti va oltinning rasmiy baxosi bekor kilindi. Oltinning rasmiy baxosi bekor kilinishi munosabati bilan Markaziy banklarga oltin zaxiralarining 31 avgust 1975 yil xolatiga bulgan darajasini ikki yil davomida oshirish ta'kiklab kuyildi. Birok, XVFnizomida oltin xalkaro zaxira aktivi sifatida tugridan tugri rad kilinmagan. Xakikatda, oltin demonetizatsiyasi yakunlan-magan. Oltinning axamiyati tugrisidagi masala konuniy aktlar va kat'iy qarorlar bilan emas, balki tovar ishlab chikarish, jaxon xujaligi va valyuta munosabatlarining real sharoitlari bilan echiladi.

Oltin demonetizatsiyasi jarayonining davomliligi va karama karshiligi, uning baxolar darajasida xilma-xillikni vujudga keltiradi. Ayrim iktisodchilar <demonetizatsiya yuz berayotgani yuk va oltin pulning klassik funksiyalarini bajarishda davom etmokda>, deb xisoblashmokda. Boshkalari esa, <oltin butunlay demone-tizatsiyalangan va fakatgina kimmatbaxo xom-ashyo kurinishidagi tovar bulib kelmokda>, deb xisoblashadi. Yana boshkalari <oltin demonetizatsiyasi shiddatli davom etayapti, ammo tugallanmagan> deb xisoblashmokda.

Ushbu muloxazalardan kelib chikib, valyuta muxitidagi oltinning axamiyatidagi uzgarishlarni kurib chikamiz:

Birinchiidan, kredit pullar oltinni ichki va xalkaro muomaladan sikib chikardi. Oltinning tugridan-tugri tovarlarga ayirboshlanishi tuxtatildi, baxolarni oltinda belgilash bekor kilindi. U tovar ishlab chikaruvchilar iktisodiy alokalarida tulov va muomala vositasi sifatida tugridan-tugri xizmat kila olmadi. Ammo, oltin iktisodiy aylanmasdagi uzining muxim axamiyatini: favkulodda jaxon pullari, xalkaro kreditlar ta'minoti, boylik manbai sifatida saklab kolmokda. Oltinning xalkaro valyuta munosabatlaridagi ishtiroki kredit pullar almashgan xolda, uning xakikiy ayirboshlanishi amalga oshiriladigan maxsus bozorlar - oltin bozorlarida yigilgan.

Ikkinchiidan, oltinning muomaladan chikishi bilan, pulning xazina funksiyasi yangi xolatlar bilan tavsiflanadi. Xazinalar vaktinchalik pul muomalasini tartibga soluvchi sifatida ishlatilmay kuydi. Chunki, oltin kredit pullar kabi, avtomatik tarzda, xazinadan muomalaga va aksincha xarakatlana olmaydi. Lekin, bu uzgarishlarga karamasdan, oltinning bu funksiyasi sunib kolmadi: muxim uzgarishlarga karamasdan, oltinning ichki va jaxon bozori bilan alokasi saklanib koldi. Xazina davlat (1998 yil iyul xolatiga 33,8 ming t.) va aloxida shaxslar (25,4 ming t., XVFn baxosi buyicha), Markaziy banklar, davlatning moliyaviy organlarida va xalkaro valyuta kredit tashkilotlarida jamlangan rasmiy oltin zaxiralari, xalkaro aktivlar sifatida millatlararo axamiyatga ega. Oltin demonetizatsiya-sini tezashtirish siyosatiga karamay, AKShning oltin zaxiralari eng kup mikdorda bulib (8,138 ming t.), rasmiy zaxiralar buyicha keyingi uch urinda turuvchi mamlakatlar (Germaniya, Shveytsariya va Frantsiya) zaxiraloriga teng. Oltin zaxiralarining xajmi mamlakatning valyuta-moliyaviy mavkeini kursatadi va uning kreditga layokatliligini aniklovchi asosiy kursatkichlari-dan biri bulib xizmat kiladi.

Etakchi davlatlar <unligi> oltinni (jaxon oltin zaxiralarining 85 foizini) asosiy saklab turuvchilari bulib xisoblanadi. Oltin zaxiralari notekis (AKSh- 8,138 ming t., FRG- 3 ming t., Shveytsariya - 2,6 ming t., Frantsiya-2,5 ming t., Italiya - 2 ming t.) taksimlangan. AKShning rasmiy oltin zaxiralaridagi xissasi 1950 yilda 75 foiz (20,3 ming t.)dan 1998 yilda 28 foiz (8,138

ming t.)ga tushdi, G'arbiy Evropa mamlakatlari, ayniksa Elining xissasi esa 16 foizdan (4,8 ming t.) 52 foizga (15 ming t.) usdi. Yaponiya juda kam oltin zaxiralariga ega bulsada, 1948-1992 yillar davomida 3 t.dan 754 t.ga kupaydi va shu darajada saklanib kelmokda (1998y.). Yaponiyada 1974 yilda oltin importi, 1978 yilda uning eksporti konuniylashtirilgan, 1982 yilda esa, oltin bozori tashkil etilgan. Rasmiy oltin zaxiralarining bir kismini xalkaro tashkilotlarda (XVF-3,2 ming t., Evropa valyuta instituti (1998 yildan Evropa Markaziy Banki) - 2,86 ming t.ga yakin, Bazeldagi Xalkaro xisob- kitoblar banki - 0,21 ming t.) saklash doimiy xolga aylanib koldi. Jaxon xamjamiyati rasmiy oltin zaxiralarining 18 foiz(4,9 ming t.)ga yakini 120 dan ortik rivojlanayotgan mamlakatlar xissasiga tugri keladi. Utgan asrning 70-yillari urtalarida neft baxosining kutarilishi munosabati bilan, neft eksport kiluvchi davlatlar (OPEK) tashkiloti a'zolarining oltin zaxiralari bir muncha usgan bulsada, ammo keyingi yillarda bu kursatkichning sezilarli kiskarishi kuzatilmokda. Kupchilik rivojlanayotgan mamlakatlar juda kam oltin zaxiralariga ega.

Garb mamlakatlarida davlatlar va shaxsiy xazinalar xajmi (60 ming t. dan ortik) yarim asrdan kuprok vakt davomida kazib chikarilgan oltinga teng. Bunday katta xajmda yigilgan birorta xam tovar yuk, shuning uchun, oltin zaxiralarini nizolarsiz ayirboshlash kiyin. Shuning bilan birga, zamonaviy tovar ishlab chikarish oltin urniga xazina funktsiyasini bajaruvchi urinbosar topa olmadi. Oltinning tabiiy xossalari - bir xillik, bulinuvchanlik, chidamlilik, uzok saklanuvchanlik - jaxon pullariga kuyiladigan talablarga kuprok mos keladi.

Va nixoyat, oltinning jaxon puli sifatidagi funktsiyasida xam uzgarishlar yuz berdi:

- oltin bilan buladigan xalkaro xisob-kitoblarni cheklash jarayoni, uning bu soxada tugridan-tugri ishlatilish zarurati yukolishiga olib keldi. Shunisi kizikki, oltin andozasi sharoitida xam, xalkaro xisob-kitoblarda kredit vositalari keng kullanilgan, oltin fakatgina tulov balansining passiv koldigini koplash uchun xizmat kilgan;
- oltin jaxon puli sifatida yuzaga chikmokda, shu bilan birga uning uch belgisini saklab kelmokda - umumiy sotib oluvchi bulib xizmat kilish, tulov vositasi bulib xizmat kilish va umumxalk boyligining moddiylashuvi. Oltin xozir xam, jaxon bozorlarida umumiy tovar bulib xisoblanadi. Oltinga ega bulib, oltin bozorlarida zarur valyutani sotib olsa buladi, unga esa, istalغان tovarni sotib olish yoki uni tulash orkali karzni uzish mumkin. Tanglik xolatida favkulodda jaxon puli sifatida oltinning axamiyati oshadi. Valyuta tangligining yuzaga kelishi, <oltin jazavasi> shaklida, barkaror bulmagan valyutadan oltinga <kochish>ga olib keladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar badallarini kaytarib olish tartibida XVFdan 46,5 tonna oltin olib, tashki karzlarni koplash uchun 20 t. oltinni sotib yuborishdi.

Oltinning yuridik demonetizatsiyasiga karamay, u xalkaro valyuta-kredit munosabatlarida muxim axamiyatga ega:

**Birinchi**dan, oltin zaxiralarining axamiyatini xisobga olgan xolda, davlatlar iktisodiy, siyosiy, xarbiy kiyinchiliklar uchun oltin zaxiralarini ma'lum bir darajada ushlab turishga intilmokdalar. 1970-yillar urtasida, kupchilik mamlakatlar bozor darajasiga moslab davriy ravishda uning baxosini oshirib yubordi. Fakatgina, AKSh eng kup oltin zaxiralariga ega bula turib, uni baxolashda bekor kilingan baxo (1 untsiya uchun 42,22 doll.)ni kulladi. Markaziy

banklar 1973 yildan oltin zaxiralarini deyarli uzgarmas xolda saklab kelmokda, ularning ayrimlari (Frantsiya, Shveytsariya) davlat zaxiralarini tuldirish maksadida kimoshdi savdolarida oltin xarid kilishdilar. Utgan asrning 80-yillarida, ayrim OPEK mamlakatlari (Eron, Irok, Liviya, Indoneziya) xam jaxon bozorlaridan oltinni xarid kilishdilar.

Jaxon oltin bozorlariga oltinni eng kup etkazib beruvchi davlatlar katorida Janubiy Afrika Respublikasini aloxida ajratib kursatish mumkin. Rasmiy ma'lumotlarga kura, Janubiy Afrika Respublikasi xozirgi kundagi xajmda yana 25 yil mobaynida oltin etkazib berib turishi mumkin.

Uzbekiston Respublikasi dunyodagi eng kup oltin kazib chikaruvchi 10 mamlakatlardan biri xisoblanadi. Respublikaning yillik oltin kazib chikarish kuvvati 75 - 80 tonnani tashkil etadi. Xolbuki, bu kursatkich Kozogiston Respublikasida 35 - 40 tonnani, Armaniston Respublikasida esa atigi 2,5 - 3,0 tonnani tashkil etadi.

Yaponiya, Avstriya, Italiya kabi mamlakatlar oltinni jaxon bozorlaridan sotib oluvchilar bulib ishtirok etadilar. Chunki, oltin inflyatsiyaga karshi samarali jamgarish vositasi xisoblanadi.

**Ikkinchidan**, uzlarining oltin zaxiralaridan <svop> bitimlari uchun, tulov balansi takchilligini koplash maksadida xalkaro kreditlar (1970-yillar urtasida Italiya, Portugaliya, Urugvay, 1980-yillarda rivojlanayotgan mamlakatlar)ni ta'minlash va tashki karzlarni tulash uchun ishlatadilar. Ba'zi xollarda, oltinning bir kismi valyuta zaxiralarini tuldirish uchun sotilmokda (masalan, Angliya banki, XVF XX asrning sungi yillari va XXI asrlar busagasida).

EVliga a'zo mamlakatlarning 20 foiz oltin zaxiralari EKYu emissiyasiga kisman ta'minot bulib xizmat kilgan. Oltin evro emissiyasini 1999 yildan amalga oshirayotgan EMBining aktivlari (10-15 foiz mikdori)da saklanib kolgan.

**Uchinchidan**, demonetizatsiya siyosatiga karshi oltinning Markaziy banklar, 1994 yildan Evropa valyuta instituti, 1998 yildan EMB urtasida kisman ishlatilishi uchun Evropa valyuta ittifoki tashkil kilingan. Shu tarzda oltin zamonaviy sharoitlarda xam, metall valyutaning ma'lum sifatlarini, ya'ni favkulodda jaxon pullari vazifasini saklab kelmokda.

## UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR

1. Oltin demonetizatsiyasi nima va uning sabablari nimada?
2. Dollarning oltin tarkibini va uning zaxira valyutasi sifatidagi mavkeini saklab kolish uchun XVF kandy yul tutdi?
3. Valyuta muxitida oltinning qiymatida kandy uzgarishlar ruy berdi?
4. Kaysi mamlakatlar eng kup oltinni saklab turuvchilar xisoblanishadi va nima sababdan?
5. Oltinning jaxon puli sifatidagi funktsiyalarida kandy uzgarishlar yuz berdi?
6. Jaxon oltin bozorlariga eng kup oltin etkazib beruvchi davlatlarni sanang.
7. Jaxon bozorlaridan eng kup oltinni sotib oluvchi mamlakatlar, ushbu faoliyatdan kandy maksadlar kuzda tutiladi?
8. Uzbekistonning jaxon oltin bozoridagi mavkei va ishtiroki xususida fikr yuriting.

### FOLKSVAGEN AMERIKADA

Koll-opsionning xaridori oldindan belgilangan narx buyicha muayyan tovarni sotish xukukiga ega buladi. Ushbu «xukuk» xaridorga anik tovarni sotib olish yoki sotish uning uchun foyda keltirmaydigan bulgan xolda undan voz kechish imkoniyatini beradi. Masalan, koll-opsionning xaridori 1 AKSh dollariga 80 sum nisbatdagi kurs buyicha 100 AKSh dollarini sotib olish xukukiga ega buladi. Put-opsionning xaridori esa, xuddi usha shartlarda oldindan belgilangan muddatda, masalan, joriy oyning 30 sanasiga kadar ushbu narxlar buyicha AKSh dollarini sotish xukukiga ega. Opsiionning sotuvchisi koll-opsion xolatida opsiionni bajarishi, ya'ni sotishi lozim. Put-opsion xolatida esa, opsiion xaridori buni talab kilsa, muayyan tovarni sotib olishi shart, «xisob-kitob» opsiioni bajarilgan xolda foyda (zararlar) pul shaklida xisoblanadi.

Optionsni amal qilishi tugrisida anik tasavvurga ega bulish va opsiyon strategiyalarini taxlil kilish foyda(zararlar) diagrammasidan foydalaniladi. Ushbu diagrammalar bu opsiyon yoki bir necha opsiyonlar (optionslar portfeli) tovarlarga xar xil narx kuyilgan vaktida kancha foyda (zarar) keltirishi mumkinligini kursatadi. 1 AKSh dollari uchun 1200 ros.rubli nisbatidagi kurs buyicha valyuta sotib olingan yoki sotilgan xolatda foyda va zararlarining uzgarishi 2-chizmada kursatilgan.

2-chizma



Abstsiss uki buyicha AKSh dollarining vujudga kelishi mumkin bulgan kursi kursatilgan. Ordinats uki buyicha esa, valyutani xarid kilish va sotish operatsiyasi keltirishi mumkin bulgan foyda va zararlar aks ettirilgan. Ikkinchidiagrammada AKSh dollari kursi 10 bandga oshgan xolatda investor xar bir xarid kilingan dollar uchun 10 rubl foyda kurishi, kurs 10 bandga tushganda esa, xar bir dollar uchun tegishli ravishda 10 rubldan ziyon kurishini aks ettirgan.

Valyuta opsiyonlari valyuta riskini kamaytirish va oldini olish maksadida foydalaniladi va ulardan kuyidagi xollarda foydalanish maksadga muvofik xisoblanadi:

- valyuta tushumi (tulovi) ning vakti va mikdori anik bulmaganda. Agar bitim amalga oshmasa, opsiyon bozorda sotilishi (agar uning kandaydir bir kiymati bulsa) mumkin, yoki daromad bilan bajarilishi (agar bajarilish narxi «spot» kursga nisbatan ancha muvofik bulsa) mumkin;
- chet el valyutasida baxolangan tijorat taklifi xisoblangan xorijiy shartnomani ragbatlantirish uchun;
- chet el valyutasidagi uz maxsulotlarining narx-navosini chop etishda;
- narxga nisbatan uta sezgir bulgan eksport va import tovarlarini ximoya kilishda.

Agar ayirboshlanish kursining yaxshi tomonga uzgarishi yuz bersa, opsiyon import kiluvchi (eksport kiluvchi) undan daromad olish imkoniyatini tugdiradi (bunda u forvard valyuta bitimlaridan import kiluvchi(eksport kiluvchi)ning kat'iy belgilangan kursga boglanib kolishining oldini oladi). Bu shuni anglatadiki, daromad import kiluvchi (eksport kiluvchi)ning mijozlariga tayinlangan narxlarda aks etadi.

Kompaniya ma'lum bir belgilangan valyutaning xolatini (riskini) bilmasdan chet el valyutasini sotish xakida forvard valyuta bitimi tuzmaydi. Masalan, Malibu kompaniyasiga Germaniyada evroda tayinlangan narx buyicha bitim tuzish taklif etilgan. Malibu kompaniyasi taxminicha, bitim 1850000 funt sterling kiymatida turadi. Bu bitimga takliflarning kupligi va



rakobatning kuchliligini e'tiborga olib, kompaniya bu bitimni 2 mln. funt sterlingga baxoladi. Bitim vaktida 1 funt sterling 2,80 evroni tashkil etishini xisobga olib, u 5600000 evro miqdoridagi taklifni urtaga tashlaydi. Bitim olti oy muddatdan oldin tuzilmaydi.

Shuningdek, opsiyonlarning amerika va evropa turlari mavjud.

**Amerika opsiioni** deb, odatda, opsiionni xarakat muddatini xoxlagan vaktida bajarilishiga aytiladi. Shuning uchun, opsiionni xarakat muddati uning birinchi va oxirgi xisob-kitob sanasi orasida urnatiladi.

**Evropa opsiioni** deb, odatda opsiionning fakat xisob-kitobning ma'lum bir oxirgi anik davrida bajarilishiga aytiladi. Opsiion bitimi buyicha xisob-kitobni amalga oshirish uchun ikki ish kuni olinadi va shuning uchun, valyuta opsiioni uning egasi tomonidan xisob-kitob kuzda tutilgan kundan ikki kun oldin bajarilishi shart. Masalan, agar opsiion egasi uni bajarilishini istasa, evropa opsiioni xisob-kitob sanasigacha ikki kun oldin bajarilishi shart.

Valyuta opsiionlari turli moliya institutlarida rasmiylashtirilishi mumkin:

- a) ular bankning mijozlari uchun yoziladi — birjadan tashkari opsiionlar;
- b) ularni opsiion birjalaridan sotib olish mumkin — birja opsiionlari.

**Birjadan tashkari opsiionlar** odatda bank tomonidan ishbilarmon mijozga mos keluvchi tijorat shartnomasiga yoziladi. Ular mijozning talabidagi summasi, baxosi (ya'ni, ayirboshlash kursi) bilan birga, uning bajarilish sanasiga xam anik moslashtirilgandir.

Bu turdagi opsiionlarning eng asosiy kamchiligi — ular muomalasining yukligi xisoblanadi. Mijoz opsiionni bajarilish sanasigacha ushlab turishi yoki uni bajarishi, yoki uning muddatini utib ketishiga yul kuyishi kerak.

**Birja opsiionlari** — bu valyuta opsiion bitimlarining jamlangan summasi va vaktning davriy yigindisidir.

Bitimni bajarilish sanasi va summasi birjadan birjagacha uzgaradi, lekin, masalan, Filadelfiyada xar bir sterling bitimining bajarilish baxosi (ayirboshlash kursi) 12 500 funt sterling summasida tuziladi va mart, iyun, sentyabr va dekabrda muddatiga besh tsent ulchamida kotirovka kilinadi.

Bu opsiionlarni muomaladaligi uzining orkasidan kuyidagicha katta extimollikni olib keladi, bunga muvofik savdoning asosiy xajmi mos keluvchi tijorat bitimlarida kayd kilinmaydi, balki chaykovchilik tusiga egadir. Koida buyicha, bu kabi opsiionlarda buyurtmaga nisbatan narxlarning diapozoni nisbatan kamrokdir. Birja opsiionlarining kamchiligi bulib, uni tugallash va kerakli summani anik "moslash"ni iloji yukligi xisoblanadi.

Valyuta opsiionlarining ommabopligi usib, undan foydalanish borgan sari kengayib bormokda. Banklar uz mijozlariga ularni sotishda faol katnashishga xarakat kiladilar.

Lekin, valyuta opsiionlarining kuyidagi kamchiliklari mavjuddir:

a) Baxo. Valyuta opsiionlari kompaniyalarni nafakat yomon xolatlardan, xatto, valyuta risklaridan xam ximoya kiladi, balki ularga valyuta kurslarining "ijobiy" uzgarishidan foydalanish imkoniyatini beradi. Bu xizmat suzsiz kimmatli xisoblanadi. Mukofotning baxosi valyuta bilan koplangan umumiy summaning 5 foiz atrofini tashkil kiladi, shunday bulsada, summaning anikligi kutilayotgan kursning ayirboshlanishi uzgarishiga boglikdir.

b) "Oldindan" tulovning zarurligi. Valyuta opsiion-lari uning tuzilish vaktida tulanadi. Bu barcha kompaniyalarga yokmaydi, chunki ular opsiionni amalga oshirishni istasalar xam, ular xar doim nakd pulga ega bulmaydilar.

v) Savdo opsiionlarini barcha valyutalarga nisbatan olib bulmaydi, shunday bulsada, birjadan tashkaridagi opsiionlar xar kanday erkin konvertirlanadigan valyutaga erkin tarzda sotiladi.

g) Birjadan tashkari opsiionlarning muomalasi mavjud emasligi.

Xulosa kilib aytadigan bulsak, muddatli operatsiyalar tijorat banklari uchun risk darajasi kam xisoblanadigan operatsiyalardan biri xisoblanadi. Chunki, ular mazkur operatsiyalarni xejerlashlari, ya'ni sugurta kilish imkoniyatiga egadirlar.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Muddatli bitimlar nima va uning kandy turlari bor?
2. Forvard valyuta bitimi va uning uziga xos jixatlari nimada?
3. Kat'iy belgilangan va opsiyonli forvard bitimlarining farki nimada?
4. Forvard bitimini sundirish kaysi xolatlarda amalga oshiriladi?
5. Forvard bitimining kursi kandy aniklanadi?
6. Moliyaviy fyuchers bitimlariga ta'rif bering.
7. Valyuta opsiyoni nima va uning kandy turlari bor?
8. Amerika va evropa opsiyonining kandy farqlari mavjud?
9. Valyuta opsiyonlarining kandy kamchiliklari bor?

### 3.5. XALKARO MOLIIYA MUNOSABATLARIDA VALYUTA RISKINI BOSHqARISH

Bozor iktisodiyoti korxonalar, jamoalar tashkilotlari, kooperativlar, banklar va fuqarolarga tashqi iktisodiy faoliyatni va valyuta xujaligini mustakil tarzda amalga oshirish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Xech kimga sir emaski, bozor iktisodiyoti risk bilan bogliq. U bilan banklar xam, tadbirkorlar xam, axoli xam tuktashadi. Birok, kuppina xollarda riskni kamaytirish, oldini olish, va xattoki undan kochish mumkin. Moliyaviy risklarni kamaytirishda banklar muxim urin tutadi. Tashqi iktisodiy faoliyatning kayta kurilishi, xalkaro alokalarining kengayishi bevosita tashqi iktisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalar va tashkilotlar faoliyatini muvofik ravishda uzgartirishlarini takozo etadi. Ularning xujalik faoliyatlariga valyuta kurslarining tebranishi sezilarli ta'sir kursatadi.

Bank tizimini erkinlashtirish, aloxida olingan korporativ banklar faoliyatini universallashtirish sharoitida, aloxida olingan bank risklarini xisoblash va baxolash muammosi amaliy axamiyatga egadir. Shu sababli, tijorat banklari faoliyatida doimo uchrab turadigan valyuta risklari xususida tuxtab utish maksadga muvofik xisoblanadi.

Valyuta risklarining mavjudligi — valyuta bozorlarida valyuta operatsiyalar amalga oshirilishi, transmilliy korxonalarini barpo etish orkali, bank operatsiyalari bozori baynalmilallashuvi, shu jumladan, ular faoliyatini diversifikatsiyalash bilan bogliq.

Shu sababdan, riskka bir kator omillar sezilarli ta'sir kursatadilar. Bularga misol kilib, geografik, siyosiy, iktisodiy, xukukiy, demografik va boshqa omillarni kursatish mumkin.

**Valyuta riski** deganda, tashqi iktisodiy faoliyat jarayonida ayirboshlash kurslari uzgarishidan yoki boshqa turli valyuta operatsiyalari amalga oshirilishida yuzaga kelishi mumkin bulgan yukotishlar (yoki daromad olish) tushuniladi. Valyuta risklari yuzaga kelishining asosiy sababi — valyuta kurslari uzgarishi xisoblanadi. Bunday uzgarishlar xamma shaxslarga: ishbilarmon firmalar va davlat tuzilmalariga xam ta'sir kursatadi. Kuppina xollarda, ularning faoliyati eksport-import operatsiyalari bilan bogliq va shu sababli, kreditorlar va karz oluvchilar, investorlar va chaykovchilar, xujalik sub'ektlari uz bizneslarini milliy valyutaga nisbatan xorijiy valyutalarda amalga oshirishni ma'kul kuradilar.

Valyuta riskiga — tashqi savdo, kredit, valyuta operatsiyalari, xamda fond va tovar birjalarida amalga oshirilayotgan operatsiyalarda, milliy valyuta kursiga nisbatan xorijiy valyutani kursi uzgarishi bilan bogliq valyuta yukotishlari xavfi kiritiladi.

Valyuta riskining xajmi, valyutaning sotib olish kobilyatining pasayishi bilan bogliq, shu sababli u bitim imzolangan va tulovni amalga oshirish muddati urtasidagi vakt oraligining farkiga tugridan-tugri boglikdir.

Eksport kiluvchi (sotuvchi) uchun kursdan yukotishlar tulov valyutasi kursini tushishigacha bulgan muddatda bitim imzolab kuygan bulsa yuzaga keladi, chunki olingan tushum mablaglariga eksport kiluvchi kamrok milliy pul mablaglarni olishi mumkin. Import kiluvchi (xaridor) esa, baxo valyuta kursi oshishidan zarar kurishi mumkin, chunki xarid kilib olishi uchun, endi kuprok milliy valyuta mablaglarini xarajat kilish lozim buladi.

Xalkaro amaliyotda yuzaga keladigan xar kanday risk eksport kiluvchi (sotuvchi)ning buyniga tushadi.

Milliy moliya bozorlarida risklarni ma'lum bir sezilarli mikdorda taxmin kilish mumkin. Xududiy va xalkaro moliya bozorlarida esa, bundan farkli ularok, risk darajalarini taxminlashtirish sezilarli darajada mushkul xisoblanadi.

### **Valyuta riskini uch turga bulish mumkin:**

1. **Pul utkazishda yuzaga keladigan risk** — xorijiy valyutada ifodalangan (misol uchun, xorijdagi filialning xisobotlari) firma yoki bankning moliyaviy xisobotlari natijalarini milliy valyutaga utkazish (misol uchun, firmaning moliyaviy xisobotlarini jamlash vaktida);

2. **Tranzaktsiya (bitimlar) riski** – tulovni kelajakdagi bir sanada amalga oshirishda, milliy valyuta qiymatining yoki bitim daromadligining noanikligini aks ettiradi. Bunga misol kilib, import kiluvchiga kredit takdim etilgan xolda, import kiluvchi valyutasida tovarlarni eksport qilishi uchun xizmat kiladi;

3. **Iktisodiy risk** — kelajakda valyuta ayirboshlash kurslarining uzgarishi natijasida, xorijiy valyutada ifodalangan firma aktiv va majburiyatlarining milliy valyutadagi qiymatining uzgarishidir. Bunga misol kilib, firmaning xorijiy bulinma va filiallarining aktivi va majburiyatlarini kursatish mumkin.

Pul utkazishda yuzaga keladigan risk — bu xisob-kitob amaliyotida yuzaga kelib, xorijiy valyutada ifodalangan firma yoki bankning aktiv va majburiyatlarining milliy valyutaga utkazishda, davriy ravishda ayirboshlash kursining uzgarib turishidir. Agarda, milliy valyutada ifodalangan xorijiy valyuta kimmatlashsa, u xolda firma yoki bankning xorijiy valyutadagi aktivlari, majburiyatlari va mol-mulki xam, milliy valyutaga nisbatan qiymat jixatidan oshadi. Xorijiy valyuta ayirboshlash kursining kadsizlanishi yukoridagi xolatning aksi bulib chikadi.

Tranzaktsiya (bitimlar) riski tulashga yunaltirilgan yoki tulovga kabul kilingan xorijiy valyutada ifodalangan xisob bilan boglik moliyaviy riskdir. Ayirboshlash kursi tranzaktsion kurinishga tegishli ravishda xejerlash (sugurtalash) orkali barxam berilmagunga kadar, firmaning daromadiga, milliy valyutada tulovlarni kabul kilish va tulash uzgarishiga tugridan-tugri ta'sir kiladi. Barkaror siyosatni amalga oshirish maksadida, tijorat banklari doimiy ravishda uz mijozlaridan ayirboshlash kursining kutilmagan uzgarishlaridan yuzaga keladigan zararlarning oldini olishi uchun, ularni xejerlashni tavsiya kiladilar.

Banklar uz mijozlari katori risklarni minimallashtirish manfaatini kuzlaydilar. Foiz risklari xolatida xalkaro banklar va firmalar, odatda, ayirboshlash kursining taxminlashtirishga juda kup vahtlari va xarakatlarini sarflaydilar. Ayirboshlash kurslarini taxminlashtirish milliy (ichki) foiz stavkalarini baxolashdan ancha murakkab xodisa ekanligini isbotlab berdi. Bunga asosiy sabab bulib, xar kandy davlatda ichki foiz stavkalariga nisbatan, ayirboshlash kurslarining juda kup mikdordagi murakkab uzgaruvchanlik xususiyatiga ega ekanligidir.

Ayirboshlash kurslari va foiz stavkalarini taxminlashtirishga kizikish, va uz navbatida, xorijiy valyutalar pozitsiyasini «ochik» koldirish (xejerlamalik) korporativ xazinachilikda yukori bulib turibdi, bu esa, ba'zida salbiy natijalarga olib keladi.

Tijorat banklaridagi valyutani ayirboshlash bulinmalari xam, odatda ochik pozitsiyalarni ushlab turishga xarakat kilishadi: «uzun» pozitsiyani (xorijiy valyuta zaxiralarini kupaytirish) yoki «kiska» pozitsiyani (xorijiy valyuta zaxiralarini kamaytirish) koldiradilar. Bu xolat, odatda, bank iktisodchisi yoki bosh valyuta dileri tomonidan tayyorlangan va yukori raxbariyat tomonidan ma'kullangan «boglik» valyuta taxminlashtirishga asoslangan, maksadli risklarni kabul kilishdir. Bu esa, uz navbatida, bank uchun katta xatar keltiradi. Shunday kilib, valyuta savdosida bank menejmenti uchun eng samarali siyosat bulib kuyidagilar xisoblanadi:

a) mijozlar tashabbusi bilan amalga oshiriladigan tijorat tranzaktsiyalari (savdo bitimlari asosida bulgan) uchun valyuta bitimlarini cheklash;

b) korporativ mijozlar tomonidan doimiy ravishda talab kilinadigan valyuta kassalari uchun overnayt amaliyotiga kattik cheklovlar urnatish, xamda asosiy konvertirlanadigan valyutalar uchun limitlarni belgilash;

v) bankning valyuta savdosida aktiv bulgan barcha korporativ va boshka mijozlar uchun, bankning ish vakti va overnayt vaktida, valyutani ayirboshlashga limitlar, shuningdek, ularning faoliyati ustidan monitoring urnatish.

Iktisodiy risk — mazkur valyuta riskining uchinchi kurinishi bulib, multimilliy firma uchun eng muxim risk xisoblanadi va firmaning aktiv qiymatiga ayirboshlash kursi uzgarishining uzok muddatli ta'sirini ulchaydi.

Valyuta-iktisodiy riskni ulchanishi mushkul vazifadir. Chunki, valyuta kursining uzgarish samarasini bir vahtning uzida nisbiy inflyatsiya sur'atlari (uning asosida yotgan va xar bir valyuta bilan boglik) pul okimlariga ta'sirining oldini olish tulakonli taxlilsiz mumkin emas.

Firmaga valyuta kurslari uzgarishlarining iqtisodiy ta'siri, inflyatsiya sur'atlaridagi kurs uzgarishlari farqlarining tulik koplanganligiga bog'lik. Agar (narx nazoratiga, tangar siyosat uzgarishiga va boshk.) xakikiy valyuta kursi (uz navbatida, nisbiy narxlar) uzgarsa, u xolda nisbiy narxlar uzgarishi oxir-okibatda firmaning uzok muddatli rakobatli riskini aniklab beradi. Bunda kat'iy belgilangan valyuta kursi tartibi, suzib yuruvchi kurslar tartibiga nisbatan valyutaning katta rakobatli riskiga olib kelishi mumkin.

Shunday kilib, banklar xar bir aloxida amaliyot buyicha (valyuta kelishuvi, ximoya kelishuvi, oltin kelishuvi, multivalyuta kelishuvi, kafolatlar kullanilishi, forvard bitimlari va svop bitimlari) valyuta risklarini tartibga solishda turli uslublarni kullash yuli bilan, valyuta amaliyotlaridan zararlar riskini kamaytirishga xarakat kilishlari zarur.

Valyuta kurslari uzgarishlarini anikrok prognozlash-tirish, valyuta risklarini sugurtalash (xejerlash) dan foydalanish zarurdir.

Banklar barkaror siyosatni ishlab chikishlari, ya'ni xorijiy valyutada barcha aktiv va majburiyatlar mikdori xamda muddatlariga limit urnatishlari xamda xar bir aloxida valyuta limitlari buyicha doimiy monitoring va davriy kuzatishni amalga oshirishlari zarur. Bunday siyosat buyicha kurilayotgan chora-tadbirlar va limitlar bankning kredit siyosatida mukammal belgilanishi shart.

Shuni xam kayd etib utish lozimki, xozirgi kunda vakolatli banklar valyuta amaliyotlarini kullash doirasini jaxon tajribasiga muvofik kengaytirishga yordam beradigan shart-sharoitlar yaratishlari lozim. Uzbekiston valyuta bozorini erkinlashtirish buyicha chora-tadbirlar amalga oshirilishini xisobga olgan xolda, manfaatdor idoralarga xalkaro valyuta bozori faoliyat yuritish uslublarini diqqat bilan urganish xamda mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sirlarga yul kuymaslik maksadida, valyuta risklarini tartibga solish instrumentlarini kullashni kengaytirishlari kerak.

Xozirgi vaktida, tijorat banklarining valyuta bozoridagi faoliyatini Markaziy bank tomonidan tartibga solinishi, bank tizimidagi eng muxim va dolzarb masalalardan biri bulib turibdi. «Uzbekiston Respublikasi Markaziy banki tugrisida»gi konunning 40-moddasiga muvofik, Markaziy bank valyutani tartibga solish va valyutani nazorat kilish buyicha davlat organi bulib xisoblanadi.

Bu masalaning dolzarbli, asosan, kuppina yirik vakolatli banklar aktivlarining asosiy kismini valyuta soxasiga yunaltirilganligi, ya'ni xorijiy valyutadagi aktivlardan iboratligi bilan izoxlanadi. Uzbekiston Respublikasi xududida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tamoyillari va valyuta kimmatliklari bilan ishlash tartibi Uzbekiston Respublikasining 1993 yil 7 maydagi «Valyutani tartibga solish tugrisida»gi Konuni bilan aniklanadi. Ushbu konun talablariga muvofik, Uzbekiston xududida xorijiy valyuta bilan bog'lik barcha xisob-kitoblar fakat vakolatli banklar orkali, ya'ni Uzbekiston Respublikasi Markaziy bankining valyuta operatsiyalarini utkazishga ruxsat beruvchi litsenziyasiga ega bulgan tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladi. Bunday litsenziyaga ega bulgan tijorat banklari, vakolatli banklar xisoblanadilar.

Tijorat banklarining valyuta faoliyatlarini tartibga solishda ochik valyuta pozitsiyasining yuritilishi xakidagi xisobot muxim urin tutadi. Bu xisobot taxlil kilinishining zarurati, Markaziy bank tomonidan respublikadagi mavjud vakolatli banklarning valyutaviy risklarini kamaytirishga karatilgan siyosati bilan izoxlanadi. Chunki, Markaziy bank tomonidan vakolatli banklarga chet el valyutasi bilan bog'lik operatsiyalarga limit urnatiladi. Bu tartib buyicha bankning uz mablag'lariga nisbatan 20 foizgacha valyuta sotib olishi va sotishiga ruxsat bor. Bir valyuta turi buyicha bu kursatkich 5 foiz kilib belgilangan. Limit urnatishning asosiy sababi, vakolatli banklarning valyutaviy risklarini kamaytirishdir. Chunki, vakolatli banklar barcha aktivlarini chet el valyutalariga kuysa, va bu valyutalarning kursi jaxon valyuta bozorida tushib ketsa, bank aktivlari kamayishi va xatto bank bankrot bulishi mumkin (bu uz navbatida, mamlakat iqtisodiyotining sekin-astalik bilan inkirozga yuz tutishiga olib keladi). Shuning oldini olish maksadida, bu limit barcha vakolatli banklar uchun joriy kilingan.

Valyuta pozitsiyasiga limit, xar bir davlatda, uning iqtisodiyotining xolati va mamlakatning moliyaviy tizimining uziga xosligidan kelib chikib urnatilishi ma'lum. Kuyida keltirilgan ma'lumotlar bunga yorokin dalil buladi.

Dunyoning ayrim davlatlarida ochik valyuta pozitsiyasi kuyidagicha miqdorda belgilangan:

1. Avstriya: (1997 yil 31 dekabr xolatiga) bir valyuta turi buyicha kun davomida 30 foiz va umumiy valyuta pozitsiyasi buyicha 50 foiz kilib belgilangan.

2. Xitoy: (1998 yil 31 yanvar xolatiga) kun davomida moliya institutlari xorijiy valyutani oldi-sotdi kilishlarida kapitalga nisbatan 20 foiz xajmdan oshirmasliklari lozim. Shu bilan birga, kunning oxirida, ya'ni valyuta pozitsiyalarini sundirishda kapitalga nisbatan 1 foiz miqdorda ochik limit saklashiga ruxsat etilgan.

3. Buyuk Britaniya: (1997 yil 31 dekabr xolatiga) bu erda ochik valyuta pozitsiyasiga kat'iy limit urnatilmagan. Lekin, fakat foizsiz depozitlarning 0,35 foizi Angliya bankida saklanishi kuzda tutilgan.

4. Avstraliya: (1998 yil 31 mart xolatiga) 1998 yil 27 martdan ochik valyuta pozitsiyalariga limitni urnatish tashki valyuta bozorida ishtirok etuvchi dilerlarga vakolat berilgan.

5. Shvetsiya: (1997 yil 31 dekabr xolatiga) bir valyuta turi buyicha kun davomida 15 foiz va umumiy valyuta pozitsiyasi buyicha 30 foiz kilib belgilangan.

6. Vetnam: (1997 yil 31 dekabr xolatiga) kapitalga nisbatan umumiy valyuta pozitsiyasi buyicha 15 foiz limitbelgilangan.

7. Litva: (1997 yil 31 dekabr xolatiga) bir valyuta turi buyicha ochik valyuta pozitsiyasi bankning kapitaliga nisbatan 20 foiz va umumiy valyuta pozitsiyasi buyicha 30 foizdan oshmasligi belgilangan.

8. Evropaning ba'zi davlatlarida: (1997 yil 31 dekabr xolatiga) ochik valyuta pozitsiyalari Evropa Xamjamiyatining direktivalari bilan tartibga solinadi.

Uzbekiston Respublikasida xozirgi vaktida amalda Markaziy bank boshkaruvining 1998 yilning 28 martida 392- son bilan kabul kilingan «Ochik valyuta pozitsiyasini yuritilishi koidalari» amal kiladi.

Yukorida kayd etilgan tartibda, bir kator uz echimini topmagan masalalar uchraydi. Xususan, koidaning 2-bandi buyicha: ochik valyuta pozitsiyasining limit miqdori juda kam urnatilgan. Ya'ni, barcha xorijiy valyuta pozitsiyasi buyicha 20 foiz, anik bir valyuta turi buyicha esa, 5 foiz. Ushbu foiz miqdorlarini kayta kurish kerak. Chunki, respublika vakolatli banklari asosan, ikki valyuta (evro kiritilishigacha bulgan davrda asosan bitta — AKSh dollari) bilan ishladi. Demakki, ular uz valyuta pozitsiyalarini maksimal darajada 10 foiz kiladilar. Yana boshka bir valyutalar inobatga olinsa, bu kursatkich eng kupi bilan 12-14 foizni tashkil kiladi. Ya'ni, ularning pozitsiya imkoniyatlari cheklanadi. Mazkur vaziyatni yaxshilash uchun: **birinchidan**, umumiy valyuta pozitsiyasi miqdorini yana 5-10 foizga oshirish kerak. Chunki, joriy operatsiyalar buyicha konvertirlash masalasi tula xal kilinsa, banklar, jumladan ularning mijozlari xisoblangan korxon va tashkilotlar (mulk shaklidan kat'iy nazar) xalkaro jaxon bozoriga, ya'ni integratsiya jarayoniga jadal kirishib ketadilar. Demakki, umumiy pozitsiyaning miqdorini kamligi bu jarayongaxalakit berishi mumkin; ikkinchidan, xar bir valyuta turi buyicha pozitsiya limitini yana 5 foizga oshirish kerak.

Mazkur tartib buyicha xisobot bir oyda bir kunda tuzilishi xam maksadga muvofik emas. Chunki, joriy valyuta operatsiyalari buyicha mavjud cheklashlar olib tashlansa, banklar ushbu limitni buzmaslik uchun xisobot tuzilishi sanasida kiska pozitsiya kilishlari, va aksincha boshka kunlar mobaynida pozitsiyani uzun kilib limitni buzishlari mumkin. Shu sababli, mazkur xisobotni takdim etilish muddatini yana bir bor kayta kurish kerak yoki ushbu chegarani vakolatli banklar xar kuni ushlashlarini belgilab kuyish lozim.

Shu masala xal kilinmasa, ichki valyuta bozori anchagina likvid mablaglardan maxrum bulishi va fakat oyning bir-ikki kuni davomida juda katta miqdorda likvid mablaglarga ega bulishi mumkin. Bu xakkoniy valyuta bozorining shakllanishiga uzining salbiy ta'sirini kursatadi xamda me'yoriy faoliyat kursatishi buzilishiga olib keladi.

Agar bankning mijozlari uchun valyuta resurslarini sotib olishni talab kilsada, va 5 kun muddat ichida mazkur valyutani sotib olmasa, ushbu valyuta resurslarining miqdori bank uchun uzun valyuta pozitsiyasi xisoblanishi maksadga muvofik. Chunki, mijoz xorijiy valyutani uz vaktida sotib olmasa, risk tugridan-tugri bankning buyniga tushadi.

## UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR

1. Valyuta riski nima va unga kandy omillar ta'sir kursatadi?
2. Xalkaro amaliyotda yuzaga keladigan risk kimning zimmasiga tushadi?
3. Valyuta riski turlarini sanang.
4. Valyuta siyosati yuritilishida bank menejmentining nimalarga e'tibor berishi, samarali siyosat xisoblanadi?
5. Valyuta bilan operatsiyalarda, riskni pasaytirishda Markaziy bank kandy rol uynaydi?
6. Turli mamlakatlarda valyuta pozitsiyasi buyicha kandy limitlar urnatilgan?

### BANKLARARO BOZORDA ISHTIROK ETUVCHI BANKLARNING RISKI

Banklar — banklararo bozor ishtirokchisi sifatida kuyidagi risklarga duch keladilar:

1. **Tulamaslik riski.** Bank yoki karzdor-korporatsiyaning olingan karzlar va ular buyicha foizlarni tulay olmaslik extimoli mavjud. Ushbu bozordagi karzlar va depozitlar ta'minot talab kilmaydi.

2. **Bozor riski.** Foiz stavkalarining kutilmagan tebranishlari bankning mablaglar manbasiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Banklararo bozor, suzuvchi foiz stavkalariga asoslanganligi uchun, karzdorlar kreditlarni kaytarishga kiynalib koladi (Londondagi banklararo depozitlar buyicha taklif stavkalari nobarkaror xisoblanadi, ayniksa, inflyatsiya sharoitida).

3. **Ma'lum mamlakatda faoliyat yuritish riski.** Mamlakat uz banklariga xorijiy banklardan olingan karzlar va depozitlarni tulab berishni takiklashi mumkin (masalan, 1919 yilda Rossiyadagi inkilob paytida,

1961 yilda Kubada). Tulov balansi xolatining yomonlashuvi va xalkaro zaxiralarning keskin kiskarishi, debitorlarni sinditsirlashgan karzlar va ular buyicha foizlarni tulashiga xalakit kiladi.

4. **Valyuta riski** — valyutaning almashuv kurslarini keskin uzgarishi, bankning aktiv va passivlarini boshkarishni kiynlashtiradi. Masalan, 1985-1987 yillarda amerika dollari kursining pasayishi va Yapon ienasi kiymatinnig oshishi, kuplab xalkaro banklarning tarkibi va foydasiga jiddiy salbiy ta'sir kursatdi.

5. **Likvidlilik riski.** Banklar tomonidan banklararo depozitlarning ma'lum bankdan talab kilinishi, ushbu bankning uz aktivlarini sotish va zarar kurishga majbur kiladi.

6. **Inkirozning yuzaga kelish riski.** Kachonki, 1974 yildagi (Xermtatt Bank va Frenklin Neyshil Benk) kabi jaxon moliya inkirozi, yoki 1982 yildagi rivojlanmagan mamlakatlardagi karzdorlik inkirozi (Meksika va Braziliya), yoki 1984 yildagi maxalliy banklar inkirozida (Kontinental Illinoys) — xar doim xam "domino" kurkuv ta'siri yuzaga keladi.

7. **Siyosiy risk.** 1979 yilda AKSh xukumati Eronning AKSh dollaridagi aktivlarini, 1985 yilda Liviyaning AKSh dollaridagi aktivlarini muzlatdi.

### **3.6. UZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VALYUTA OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI**

Uzbekiston Respublikasida xam rivojlanayotgan boshka davlatlar kabi ma'lum bir valyutaviy cheklashlar mavjud. Ularning eng asosiysi bulib, milliy valyutani erkin konvertirlanadigan valyutalarga tulakonli konvertirlash-ning yukligidir. Bu kuyidagilarda namoyon buladi: rakobatbardosh maxsulotlar ishlab chikarmokchi bulgan korxonaning tarkibini yaxshilashga, yangi texnologiyalar kiritishga, malakali mutaxassislariga extiyoj sezadi. Bunga amalda erishish uchun, rivojlangan mamlakatlarning tajribasini urganish, ulardan yangi texnologik asbob-uskunalarni sotib olish, uz mutaxassislarini chet ellarda ukitish yoki chetdan jalb kilishi kerak. Buning uchun, chet el valyutasidagi mablaglar zarur buladi.

Xozirgi kunda, respublikada bozor munosabatlari rivojlanayotgan davrda, chet el investitsiyasini jalb kilishga extiyoj yuzaga chikmokda. Milliy valyutani erkin konvertirlanishiga erishish kiyin masala xisoblanadi va u iktisodiyotni tarkibiy jixatdan kayta kurish, tashki iktisodiy faoliyatni kengaytirish xamda pul-kredit va valyuta siyosatini takomillashtirishni talab kiladi. Chunki, dunyoning xamma mamlakatlari xam erkin konvertirlana-digan valyutaga ega emas. Milliy valyutaning kadrini oshirish uchun, xar bir davlat uz xududida valyutani tartibga solish usullari bilan (chet el valyutasini milliy nakd va nakd pulsiz aylanmasiga ta'sirini kamaytirgan xolda) milliy valyutani boshka valyutalarga erkin ayirbosh-lanishini ta'minlaydigan barcha shart-sharoitlarni yuzaga keltirishi shart. Bir kator davlatlarning tajribasi shuni kursatadiki, erkin konvertatsiyaga fakatgina iktisodiyotning ma'lum bir rivojlanish boskichida erishiladi.

Xatto Yaponiya, Janubiy Koreya va Janubiy-Sharkiy Osiyoning boshka rivojlanayotgan davlatlari kabi mamlakatlar uzok vakt mobaynida turli shakldagi valyutaviy cheklashlarni kullashga majbur bulganlar.

Uzbekiston Respublikasida valyutani tartibga solish tizimining shakllanishi mustakillikka erishilgandan sung, 1991 yilda «Tashki iktisodiy faoliyat tugrisida» va «Uzbekiston Respublikasida chet el investitsiyalari tugrisida»gi konunlar kabul kilinishi bilan keyin yuzaga keldi. 1992 yildan xozirgi kungacha Markaziy bankning faoliyati asosiy yunalishlar sifatida milliy valyutani muomalaga kiritish uchun shart-sharoitlar yaratish va milliy valyutaning kadrini oshirish tanlandi. 1993 yilda «Valyutani tartibga solish tugrisida» Uzbekiston Respublikasi konuni kabul kilinishi bilan Markaziy bank tomonidan valyutani tartibga solish buyicha kaytadan amaliy me'yoriy-xukukiy bazani yaratildi. Bu konun Markaziy bank milliy valyuta kadrini oshirish uchun valyuta zaxiralarini tashkil etishi va sumning ichki konvertatsiyasini ta'minlash uchun ichki valyuta bozorini rivojlantirishini belgilab berdi.

Valyuta zaxiralarini shakllantirish nixoyasiga etmagan sharoitda, valyuta bozorini rivojlantirish maksadida Markaziy bank, Moliya vazirligi bilan birgalikda 1994 yili respublika korxonalarining eksportdan tushgan tushumlarining 15 foizini majburiy sotishni tasdiqladi. Bu vaktida mazkur majburiy sotuvdan tashkari eksportdan tushgan tushumdan olinadigan 15 foizli solik xam mavjud edi.

Bundan keyingi kadam bulib, solikning bekor kilinishi va uning urniga korxonaning eksportidan tushgan tushumdan olinadigan majburiy sotuvning 30 foiz kilib belgilanishi buldi. Ushbu chora-tadbirlar korxonalarni eksportga kizikishlarini yanada oshirdi. Chunki, endi ular foydasining bir kismi majburiy tarzda olinmasdan, balki chet el valyutasidagi tushumining bir kismi milliy valyutaga ayirboshlanib, korxonaning uziga kaytarilardi. Bu tushgan tushum Markaziy bankning valyuta zaxirasini oshirishga karatilgan edi.

1994 yil 1 iyuldan respublika milliy valyutasi — sumning kiritilishi bilan uning kadrini kuchaytirish uchun zaruriy chora-tadbirlar utkazishga extiyoj sezildi. Bunga ichki bozorni tuyintirish, korxonaning faoliyatini eksport potentsialini kengaytirishga karatilgan chora-tadbirlarni kullash kul keldi. Shuning uchun, 1994 yil 7 oktyabrda Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Uzbekiston Respublikasi valyuta bozorini rivojlantirish buyicha kushimcha chora-tadbirlar tugrisida»gi karori milliy valyuta barkarorligini ta'minlashdagi muxim boskich



buldi. Chunki, ushbu karorda birinchi bulib, respublika xududida konuniy yagona tulov vositasi — sum rasman e'lon kilindi.

Shu bilan birga, nakd pulsiz chet el valyutasida import kiluvchi korxonalar talabini ta'minlash uchun, chet el valyutasidagi zaxiralarga kushimcha extiyojni kondirilishini ta'minlash zarurati yuzaga keldi. Va okibatda, 1995 yilda markazlashgan barcha eksport tushumi va davlat resurslari Markaziy bankka majburiy sotilishi belgilab kuyildi. Ma'lumki, 1997 yilda paxta tolasini eksporti jami eksport xajmining 40 foizini, elektroenergiya esa, yokilgi maxsulotlari eksportdan tushayot-gan barcha tushumning 6 foizini tashkil kildi.

Xozirgi vaktida import urnini bosuvchi yoki eksportga yunaltilgan ishlab chikarish texnologiyasini va respublikaga birinchi darajali xalk iste'moli mollari olib kelinishini ta'minlaydigan korxonalariga ichki valyuta bozorini rivojlantirish maksadida, korxonaning sumdagi mablaglarini erkin ayirboshlanadigan valyutaga ustuvor tarzda konvertirlashning ishlab chikilgan mexanizmi amal kilmokda.

Bundan tashkari, respublika xukumatining karoriga muvofik, chet el investitsiyasi ishtirokidagi eksportga yunaltilgan va import urnini bosuvchi maxsulotlar ishlab chikaruvchi korxonalariga sumdagi mablaglarini erkin ayirboshlanadigan valyutaga uz vaktida konvertirlash, shu jumladan, chet el ta'sischilariga tegishli ulushning foydasini va dividendining konvertirlanishi kafolatlangan.

Valyuta operatsiyalarini va valyuta bozorini rivojlantirishdagi keyingi kadam bulib, korxonalarining valyuta tushumidan Markaziy bankka 30 foizlik majburiy sotish bekor kilindi, va buning urniga valyuta bozorini erkinlashtiruvchi, birjadan tashkari valyuta bozori yuzaga keltirildi. Bu — vakolatli banklarga talab va taklifdan kelib chikib, mustakil ravishda ayirboshlash kurslarini urnatish imkoniyatini yaratdi. Vakolatli banklarning birjadan tashkari valyuta bozorida operatsiyalar utkazishining manbasi bulib, korxonalarining 30 foizlik majburiy sotishidan tashkari, ularning uz resurslari xamda mijozlarining chet el valyutasidagi depozitlari va boshka jalb kilingan mablaglari xisoblanadi.

Valyutani tartibga solish soxasi buyicha olib borilgan chora-tadbirlar korxonalarining valyuta resurslaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirdi. Buni kuyidagi ma'lumotlardan kurish mumkin: respublika valyuta bozorida operatsiyalar xajmi 1995 yilgi 1,3 mlrd. AKSh dollaridan 1997 yili 3,6 mlrd. AKSh dollariga etdi. 1998 yilda bu kursatkich 2,2 mlrd. AKSh dollari mikdorini tashkil etdi. Keyingi yillarda ichki valyuta bozorida xorijiy valyutalarning sotilish xajmi kamayishining asosiy sababi, korxonalar va tashkilotlar tomonidan eksport shartnomalarini tuzilishi va bajarilishi bilan boglik ishlarning konikarsiz axvolda bulganligi tufayli, valyuta tushumidan majburiy sotish buyicha rejadagi topshiriklarning bajarilmasligi, aloxida eksport tovarlarining rakobatbardosh emasligi va eksport kilinayotgan maxsulotlarga jaxon bozorida narxlarning tushishi xisoblanadi. Shu bilan birga, Janubiy-Sharkiy Osiyo va Rossiya Federatsiyasida yuz bergan inkirozlar xam mamlakat oltin-valyuta zaxiralarning shakllanishiga salbiy ta'sir etdi.

Xulosa kilish mumkinki, respublikada amalga oshirilayotgan valyuta operatsiyalarining xajmi sekin-asta bulsada, barkaror xolatda rivojlanish an'anasiga ega. Birok, sumning tulik konvertirlanishiga erishish uchun bir kator birinchi darajali vazifalarni xal etish lozim: eksport va ishlab chikarish tarkibini yaxshilash, texnologik koloklikni bartaraf etish, ishlab chikarilayotgan maxsulotning sifatini va mexnat unumdorligini oshirish zarur. Bu vazifalarni echish uchun ma'lum vakt kerak. Shu bilan birga, milliy valyutani tulik konvertirlagan xolda rakobatbardosh iktisodiyot bilan jaxon bozoriga kirish sharaflidir. Demakki, sumni ichki konvertirlash asosiy maksad bulmay, balki milliy iktisodiyotni jaxon bozoriga teng xukukli integratsiyasi uchun kuyilgan bir vosita xolos.

Uzbekistonda katta xajmda forward operatsiyalarini rivojlantirish istikbollari va valyuta opsiioni xamda valyuta fyuchersi operatsiyalari bilan Evropa bozoriga chikish imkoniyatlari mavjuddir. Respublikada spot bozorining rivojlanmaganligi muddatli bitimlarning rivojlanishiga tuskinlik kilmokda.

Bugungi kunda Uzbekiston Respublikasining fakatgina bir nechta tijorat banklarigina etakchi chet el banklari bilan vakillik munosabatlari urnatilgan. Bundan tashkari, MDX davlatlari banklarida vakillik xisobvaraklar ochish buyicha turli xil cheklovlar mavjuddir. Masalan, sobik Ittifokning xamma davlatlari bilan xalkaro kelishuvlarning mavjud emasligi

sababli, tijorat banklari xoxlagan banki bilan milliy valyutada vakillik munosabatlar urnatolmaydi. Tabiiyki, tashki savdo uchun zarur xisoblangan chet el banklari bilan vakillik munosabatlarni rivojlantirish kerak.

Uzbekiston Respublikasi tijorat banklari valyuta operatsiyalarining yana bir muxim yunalishlaridan biri bulib, xalkaro xisob-kitob shakllarini rivojlantirish xisoblanadi. Bu birinchi navbatda, xujjatlashtirilgan akkreditiv va tulov topshiriknomasiga tegishlidir. Lekin, bugungi kunda chet ellik sheriklar akkreditivni koplash summasini va yukori komission tulovlarni talab kilmokdalar, tulov topshiriknomalari bilan amalga oshiriladigan xisob-kitobda esa, yukori xajmda oldindan tulash talab etilmokda.

Shu bilan birga, respublikada valyuta operatsiyalarini rivojlantirish uchun valyuta ayirboshlash operatsiyalarini rivojlantirish kerak. Buning uchun, axolidan nakd chet el valyutasini jalb kilib, sotib olinishi va erkin tarzda sotilishi kerak. Bu turdagi valyuta operatsiyalariga kattik valyuta cheklovini joriy kilish tijorat banklariga bulgan ishonchning yanada pasayishiga va chet el valyutasiga bulgan fetishizmning rivojlanishiga olib keladi (masalan, dollar fetishizmi).

Xozirgi vaktida respublikada bir kator kushma va chet el banklari faoliyat yuritmokda. Ular bir necha un yillik xorijiy tajribalarni bizda kullashga va respublikadagi bank rakobatchiligi rivojlanishiga kumaklashmokda.

Ushbu banklarga:

- **UT-Bank.** Uzbekiston tomonidan – «Uzpaxtabank», Turkiya tomonidan – «Ziraat bank» ta'sischi bulib katnashgan. Bankning asosiy faoliyati ikki respublika urtasida faol rivojlanayotgan savdo-iktisodiy munosabatlarga bank xizmatini kursatish, bank faoliyatini tashkil etishning yangi usullarini joriy etishdan iborat.
- 1994 yilning mayida "**Uzprivatbank**" xususiylashtirish va investitsiya buyicha uzbek Xalkaro banki respublika ichkarisidan va tashkarisidan moliya mablaglarini jalb kilishni ta'minlash maksadida tashkil etilgan. Bankning ta'sisчилari bulib, Davlat mulk kumitasi, «Foton» IChB va boshkalar xisoblanadilar. Gollandiya tomonidan esa, «Inter Republik Xolding» va «Mis Pirson N.V.» Gollandiya banki katnashgan.
- va boshka kushma banklar. Bularga «**ABN Amro bank Uzbekiston MB AJ**» uzbek-gollandiya banki, «**UzDEUbank**» uzbek-koreya banki va «**Markaziy Osiyo rivojlanish va tarakkiyot banking Toshkent sh.**» shu'ba bankini misol kilib keltirish mumkin.

Bunday kushma banklar respublikaga bush kapitallarni, investitsiyalarni va xalkaro kreditlarni jalb kilish orkali iktisodiyotning turli soxalarini kreditlashi, ishlab chikarishni ragbatlantirishi mumkin.

XMK, ETTB, ORB, Yaponiyaning «Eksimbanki», Markaziy Osiyo-Amerika tadbirkorlikni kullab-kuvvatlash fondi, Germaniyaning «Rivojlanish kredit agentligi» tomonidan kichik va urta tadbirkorlikni rivojlantirishga doir loyixalarni amalga oshirish uchun Uzbekiston Respublikasining vakolatli banklariga kredit liniyalari ochildi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishini xisobga olib, umuman keltirilgan xamma ma'lumotlar taxlil kilinsa, respublikada tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini rivojlanish istikbollari etarli ekanligi kurinadi. Iktisodiy isloxotlarni amalga oshirishning hozirgi boskichida valyuta operatsiyalarini rivojlantirish uchun kuyidagi ishlarni amalga oshirish maksadga muvofik:

- valyuta kursini erkinlashtirish;
- valyuta va tashki savdo tizimini yanada erkinlashtirish;
- vakolatli banklarning imkon kadar erkin ayirboshlanadigan valyutada kushimcha resurslar jalb kilishga, shu jumladan, jismoniy shaxslarning xorijiy valyutadagi jamgarmalarini ragbatlantirish orkali xarakat kilishlariga erishish lozim.

Mazkur maksadlarga erishish uchun birinchidan, valyuta soxasidagi xizmat turini kupaytirish kerak, ikkinchidan, xizmat xarajatlarini kamaytirish zarur, uchinchidan, xorijiy valyutadagi depozitlar uchun bank tomonidan tulanadigan foiz stavkalarini kayta kurib chikish kerak.

Milliy valyutadagi vakillik alokalarini rivojlan-tirish bevosita xalkaro savdo alokalarida milliy valyuta — sumdan keng miqyosda foydalanishga asos buladi. Xususan, Uzbekiston Respublikasi bilan erkin savdo tizimi va eng yukori darajada kulayliklar yaratilishini kuzda tutuvchi bitimlar imzolangan davlatlarning xujalik yurituvchi sub'ektlari bilan milliy valyutada tovarlar (bajarilgan ishlar, kursatilgan xizmatlar)ni eksport va import kilish uchun respublika korxon va tashkilotlari tomonidan shartnomalar imzolanishini maksadga muvofik xolda amalga oshishini ta'minlash xalkaro moliya munosabatlari tizimining ajralmas kismi bulgan valyuta operatsiyalarining samarasini oshirishga imkoniyat beradi.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Uzbekiston Respublikasida valyutani tartibga solishning xukukiy asoslari kandy?
2. Mamlakatimizda valyuta operatsiyalarini rivojlantirishning kandy istikbollari mavjud?
3. Faoliyat yuritayotgan kushma banklarni sanab bering va ular faoliyatidagi ayrim farkli jixatlarini izoxlang.
4. Milliy valyuta barkarorligini oshirish uchun zarur bulgan tadbirlar nimalardan iborat deb xisoblaysiz?

## **IV BOB. XALKARO MOLIIYa MUNOSABATLARIDA MAMLAKAT VALYUaTA SIYoSATINING URNI VA AHAMIYATI**

### **4.1. MAMLAKAT MILLIY VALYUaTA SIYoSATINING IKTISODIY MAZMUNI**

Bozor iktisodiyoti bilan boglik jarayonlarni boshkarishda, milliy valyutaning xalkaro mavkeini belgilashda va mamlakatning joriy xamda kelajakdagi iktisodiy munosabatlari tizimida valyuta siyosati muxim rol uynaydi. U «kup kirrali bashorat» (iktisodiy rivojlanish barkarorligini ta'minlash, ishsizlikning oldini olish va inflyatsiyani jilovlash, tulov balansining aktivligini saklab turish) muxiti xisoblangan iktisodiy siyosatning asosini egallashda, etakchi urin egallaydi.

Valyuta siyosatining shakli va urni, mamlakatning valyuta-iktisodiy xolati, jaxon xujaligining evolyutsiyasi, jaxon maydonidagi urni bilan aniklanadi. Tarixiy rivojlanishiga nazar soladigan bulsak, birinchi navbatda, xar kandy valyuta siyosatining asosiy maksadlari kuyidagi shakllanib kelmokda: valyutaviy inkirozni bartaraf etish va valyuta kiymatining ta'minlanganligi, valyutaviy cheklashlar, valyutaning erkin almashinuvi, valyuta operatsiyalarini erkinlashtirish va boshkalar. Mamlakatlar-aro munosabatlarda valyuta siyosatining asosiy jixati: xamkorlik va kelishuv, ya'ni rivojlanayotgan mamlakatlarni ichki siyosatiga moliyaviy va maslaxat xizmatlari orkali kumak berish.

Valyuta siyosati xukukiy jixatdan valyutaviy konunlar asosida tartibga solinadi. Bularga xukukiy darajadagi chegaralarning urnatilishi, mamlakat ichkarisida va mamlakat tashkarisida valyuta kimmatliklari bilan buladigan munosabatlarni tartibga solish, yana valyutaviy muammolar buyicha ikki tomonlama va kup tomonlama, mamlakatlararo valyutaviy kelishuvlarni tuzish kiradi. Yamayka valyutaviy kelishuv XVF nizomining uzgartirishi bilan, yangi jaxon valyuta tizimi yunalishini aniklab berdi.

Valyuta siyosati amalga oshirilishining asosiy yullaridan biri, davlatning xalkaro xisob-kitoblari bajarilishini boshkarish va milliy, mamlakatlararo, xududlararo valyuta munosabatlarini amalga oshirishdan iborat. Valyutani tartibga solishning bevosita yuli konuniy xujjatlar va xukumatning ijro organlari orkali amalga oshirilishi xisoblansa, bilvosita yul bilan bozor agentlarining iktisodiy xarakatlanishiga, iktisodiy usullar, xususan, valyuta-kredit usullari bilan ta'sir etiladi. Xujalik alokalari umumiyashtirilishi, davlatlararo valyuta boshkarilishining rivojlanishiga sabab buldi. U kuyidagi maksadlarni uz oldiga kuyadi: ayrim mamlakatlar valyuta siyosatini muvofiklashtirish, kelishgan xolda valyuta inkirozini bartaraf etish, rivojlangan mamlakatlar valyuta siyosatining boshka mamlakatlarga mos kelishi. Xududiy valyutaviy boshkarish iktisodiy integratsiya birlashmalari chegarisida amalga oshiriladi.

**Valyuta siyosati** — valyuta muammolarini xal etish buyicha karorlar tayyorlash, kabul kilish va tadbik etishdan iboratdir. Valyuta munosabatlarini tartibga solish bir necha pogonalardan iborat:

- xususiy firmalar, birinchi navbatda, valyuta munosabatlarida aktiv ishtirok etayotgan va yirik valyuta mablaglariga ega bulgan milliy va xalkaro banklar xamda korporatsiyalar kiradi;
- xalkaro davlatlar katoridagi milliy davlatlar (Moliya vazirligi, Markaziy bank, valyuta nazorati tashkilotlari).

Xalkaro tartibga solishda valyuta, kredit va moliya siyosati kuyidagi sabablar bilan shakllangan:

1. Milliy iktisodiyotda valyuta, kredit va moliya munosabatlarining bir-biriga uzaro bog'liqligi.
2. Xujalik munosabatlarini erkinlashtirish sharoiti-da bozor va davlat boshkaruvining bozor tomon yuz tutishi.
3. Ikkinchi jaxon urushidan sung, jaxon siyosiy va iktisodiy maydonida asosiy kuch xisoblangan AKSh urnida uchta asosiy xamkorlik va karama-karshi markazlarning tashkil topishi: AKSh, Garbiy Evropa va Yaponiya.
4. Jaxondagi etakchi valyutalar, kredit va moliya bozorlari, ya'ni suzib yuruvchi kurslar, foiz stavkalari, birja inkirozlari va boshkalar uzgarishining barkaror emasligi.
5. Ichki milliy iktisodiy siyosatning, shuningdek, valyuta, kredit, moliya, bir-biriga uzaro bog'lik bulmagan va ularning xalkaro xujalikdagi integratsiyalashuvi.

Mamlakatlararo valyutani boshkarish tashkiloti bulib XVF xisoblanadi. Utgan asrning 70-yillaridan boshlab valyuta siyosatini muvofiklashtirish buyicha yigilishlar bulib utdi. Jumladan, 1975 yil Rambuyeda (Frantsiya) oltita etakchi mamlakatlar ishtirokida; 1975 yil Parijda Xalkaro iktisodiy xamkorlik tugrisida; 1976 yildan «Katta ettilik»ni (AKSh, Yaponiya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Kanada) yillik amaliy yigilishlarini sanab utish mumkin.

Valyuta siyosati maksad va shakliga kura **tarkibiy va joriyga** bulinadi. **Tarkibiy valyuta siyosati** — jaxon valyuta tizimi tarkibini uzgartirishga karatilgan uzok muddatli tadbirlar majmuidir. Ular barcha mamlakatlarning maksadlariga tugri keladigan, aloxida valyutalarni shakllantirishga karshi karatilgan valyuta tadbirlari orkali amalga oshiriladi. Tarkibiy valyuta siyosati, joriy valyuta tizimiga uz ta'sirini kursatadi. **Joriy valyuta siyosati** — valyuta kursi, valyuta operatsiyasi, valyuta bozorining faoliyati va oltin bozorini kiska vaktida tezkorlik bilan boshkarishdir.

**Valyuta siyosatining kuyidagi shakllari mavjud: diskont, deviz siyosati va uning kurinishlari — valyuta intervensiyasi, valyuta zaxiralarini diversifikatsiya kilish, valyutaviy cheklashlar, valyutaning almashuv darajasini boshkarish, valyuta kursining tartibi, devalvatsiya, revolvatsiya.**

**Diskont (foiz stavkasi) siyosati. Foiz stavkasi** — ssuda kapitalining yillik daromadini uning mutlok kattaligiga nisbatidan kelib chikadi.

Foiz uzining iktisodiy ma'nosi buyicha, ssuda kapitalidan foydalanganlik uchun tulanadigan kushimcha kiymatdir. Foiz stavkalari odatda foyda me'yori orkali aniklanadi, lekin amaliyotda foiz stavkasi darajasi ssuda kapitallariga buladigan talab va taklifdan kelib chikadi. Bu talab va taklif bir kancha fundamental iktisodiy xamda boshka omillarga bog'lik, ya'ni: davr boskichidan, inflyatsiya darajasidan, iktisodni davlat tomonidan monopol boshkaruvidan, Markaziy bank siyosati va boshkalardan.

Foiz stavkasi darajasiga ta'sir etuvchi omillarni bir necha guruxga bulish mumkin. Masalan, bozordagi talab va taklifga tugridan-tugri ta'sir etuvchi omil bu — davlat tomonidan talab (davlat byudjetining takchilligi mikdori bilan aniklanadi) xamda savdo, ishlab chikarish kompaniyalari va axoli urtasidagi talab va taklif.

Ichki omillar xam muxim urin tutadi. Bular jumlasiga xorijiy, milliy va xalkaro bozordagi stavkalar darajasi, kapitallar xarakterini cheklashlar, tulov balansini axvoli kabilarni kursatish mumkin. Va nixoyat, bir kancha omillar borki, ular stavkalarining usishiga tezrok ta'sir etadi. Ammo, ular talab va taklifga, kutilayotgan inflyatsiyaning oldini olishga, xavf-xatarlar, soliklar, valyuta kursi tushishi an'anasiga va shu kabilarga ta'sir etmaydi.

Foiz stavkalarining joylashish jarayoni shu kadar murakkablashdiki, ssuda kapitallari bozoridagi xolatlarni yoki foiz stavkalarini tugri prognozlashni tushuntirib berish murakkabdir.

Shu bilan birgalikda, foiz stavkalarining tarkibi etarli darajada egiluvchandir.

Foiz stavkalari tarkibi asosida ob'ektiv tarzda pul bozori stavkasi yotadi. Ya'ni, juda keng tarkalgan va likvidli kiska muddatli operatsiyalar stavkalari tijorat banklari uz kredit faoliyatini kayta moliyalashtirishda kullaniladi.

Stavkalar tarkibi asosida pul bozorining rasmiy xisob stavkasi (kayd kilingan) yoki Markaziy bankning operatsiyalari buyicha joriy stavkalari yotadi. Bu stavkalar xar doim pul bozori stavkalaridan past buladi, chunki Markaziy bank tomonidan kayta xisobga olingan tijorat veksellari, valyuta kursi xavf-xatarlaridan xolirok buladilar.

Shunday kilib, banklar Markaziy bank tomonidan odatiy xolda kayta moliyalashtirilishlari mumkin. Davlat uchun rasmiy xisob stavka kursi valyuta-pul bozorini tartibga solishning asosiy yullaridan biridir. Shuning uchun, veksellarning barchasini kayta xisobga olishda foydalanilmaydi (aktseptlovchi banklar soni chegaralangan).

Pul-valyuta bozorining stavkalar tarkibini ikkinchi asosiy elementlariga xazina veksellari stavkalari kiradi. Ba'zan bu aloxida mamlakatlar (Kanada, Italiya, Shvetsiya, Yaponiya)da rasmiy foiz stavkasidan past buladi. Chunki, xazina veksellariga kafolatlovchi sifatida xukumatning uzi turganligidir. Shuningdek, xukumatning uzi kafolat beruvchi sifatida turganligi uchun bu veksellar eng likvidli aktivlar toifasiga kiradi.

Pul-valyuta bozorining uchinchi asosiy elementlariga banklararo depozitlar va unga yakin depozit sertifikatlari stavkalari kiradi. Bu stavkalar rasmiy kurs stavkasidan kam, xazina veksellari stavkasidan esa, xamisha yukori turadi.

Xududiy valyuta bozorlarning rivojlanishi bilan foiz stavkalarining muayyan turlari kupaymokda. Masalan, **LIBOR (London Interbank Offered Rate — LIBOR)** — London banklararo mablaglarga taklif stavkasi yuzaga keldi va juda keng kullanilmokda. LIBOR uzida London banklarining bir-biriga ta'minlanmagan ssudalar (1 oydan 1 yilgacha) berishning urtacha foiz stavkasidir. LIBOR AKSh dollarida kullanilishi keng tarkalgan, lekin bu LIBORni boshka evrovalyutalarda kullanilmasligini anglatmaydi.

Xalkaro ssuda kapitallari bozorining rivojlanishi bilan LIBOR stavkasiga uxshash boshka stavkalar paydo buldi: PIBOR (Parij), SIBOR (Singapur), NIBOR (Nyu-York, Norvegiya), KUBOR (Kuvayt), LYUKSIBOR (Lyuksem-burg) va shu kabilar.

Bularning barchasida valyutadagi foiz stavkalari «tenglashish» an'anasiga ega, chunki ular Evrobozorda xududiy markaziy yakinlikdadir. 1985 yildan Frankfurt-Maynda FIBOR (Germaniya markasi uchun), Amsterdamda AIBOR (gulden uchun) stavkalari kullanila boshlangan.

**Deviz siyosati. Valyuta intervensiyasi.** Markaziy bankning deviz siyosatining eng keng tarkalgan shakli, valyuta intervensiyasi xisoblanadi.

Markaziy bankning milliy valyuta kursiga ta'sir etish maksadida valyuta bozorida chet el valyutalarini sotib olish yoki sotishiga **valyuta intervensiyasi** deyiladi.

Xozirgi davrda valyuta intervensiyasidan kuzlangan maksad — valyuta kursining kiska vakt oraligida, kutil-maganda yuzaga keladigan keskin tebranishlarga barxam berish xisoblanadi. Markaziy banklar valyuta kursini istalgan darajada uzgartirish imkoniyatiga ega emas, chunki ular valyuta bozorlarida tijorat banklari bilan rakobat kila olmaydilar. Shu sababli, valyuta intervensiyasidan maksad valyuta kursining keskin tebranishlari okibatlarini yumshatish xisoblanadi.

Valyuta intervensiyasi rasmiy oltin-valyuta zaxiralari yoki Markaziy banklarning banklararo «SVOP» bitimlari xisobiga amalga oshiriladi.

Valyuta intervensiyasi XIX asrdan boshlab kullanila boshladi. Masalan, Gollandiya Markaziy banki, Avstriya-Venger banki milliy valyuta kursini barkaror tarzda ushlab uchun undan foydalanishgan. Oltin monometallizmi bekor kilingandan sung, valyuta intervensiyasidan foydalanish keng tarkaldi. 1929-1933 yilgi jaxon iktisodiy inkirozi yuzaga kelgan sharoitda, Markaziy banklar valyuta dempingiga kumak berish uchun uz valyutalari kursini tushirish maksadida valyuta intervensiyasidan foydalandilar.

Valyuta intervensiyasi utkazishning moddiy bazasi vazifasini, 1930-yillarda AKSh, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Italiya, Kanada va boshka mamlakatlarda tashkil kilingan, maksadli valyuta fondlari — oltin, chet el va milliy valyutalarda tashkil etilgan davlat fondlari utadi. Xozirgi sharoitda bu fondlarning roli va yunalishi ayrim davlatlarda aloxida xususiyatga egadir. Masalan, Frantsiyada bu maksadli valyuta fondi mamlakat rasmiy oltin-valyuta zaxiralarning

summasi mikdorida ajratilgan fondir. Frantsiya Markaziy banki uzing intervensiya operatsiyalari xajmini va xarakterini oshkor kilmaslik uchun uning ulchov kursatkichlarini matbuotda e'lon kilmaydi. AKShda maksadli valyuta fondi xakikiy axamiyati va zaruratini yukotdi (uning xajmi 2 mlrd. AKSh dollari bulib, u 1934 yil tashkil topgan vaktan beri uzgarmasdan kolmokda). Chunki, Federal Zaxira banklari valyuta intervensiyasini, asosan, chet el Markaziy banklarining «SVOP» bitimlari asosidagi kreditlari xisobiga amalga oshirilmokda. Buyuk Britaniyada maksadli valyuta fondi, mamlakatdagi oltin-valyuta zaxiralarini uzida mujassamlashtirgandir.

Brettonvud tizimi doirasida valyuta intervensiyasi, asosan, kat'iy belgilangan kurslar kadrini ushlab turish maksadida utkazilardi. Intervensiyani utkazishda asosiy valyuta AKSh dollari bulgani uchun, AKSh boshka davlatlarga uning kursini ma'lum darajada ushlab yuzasidan majburiyat kuydi. Yamayka tizimida suzib yuruvchi valyuta kurslariga utligandan sung, valyuta intervensiyasi, asosan, kurslar tez tebranishining oldini olish maksadida utkazilardi. AKSh dollarini zaxira valyuta sifatidagi roli pasayishi okibatida, valyuta intervensiyasida AKSh dollari bilan bir kator nemi markasi xamda bir kator Garbiy Evropa va Yaponiya davlatlari valyutalari kullanila boshlandi.

Xozirgi vakt, xar kandy intervensiyaning oxirgi maksadi, valyuta bozoridagi vaziyatni barkaror ushlab xamda valyuta kurslari tez tebranishining oldini olishdan iborat. Valyuta bozoridagi barkaror xolat, birinchi navbatda, tashki iktisodiy alokallarni, shu jumladan, butun iktisodiyotni rivojlanishini ta'minlaydi.

Valyuta intervensiyasining uzok muddatli maksadlari sifatida, xukumat tomonidan bozordagi xolatni, mamlakatning asosiy iktisodiy kursatkichlari bilan moslash, xususan, milliy valyuta kursining oshib yoki tushib ketishining oldini olish, iktisodiyotni xalkaro valyuta-kredit kon'yunkturasi salbiy ta'siridan saklash-larini kursatish mumkin. Ba'zan, davlat uz valyuta kursini real bulmagan kurs darajasida saklashga xarakat kiladi.

Kupgina Markaziy banklar mamlakatning oltin-valyuta zaxiralari bilan utkaziladigan operatsiyalarga extiyotkorlik bilan yondoshmokdalar va kamrok xarajat talab kiladigan usullardan foydalanishga intilmokdalar.

Oxirgi yillar davomida, etakchi mamlakatlar bir necha marta muvofiklashgan valyuta intervensiyasini utkazdilar. Ularning asosiy maksadi bulib, AKSh dollari kursini tushirish yoki xech bulmaganda uning kursi usishining oldini olish edi. Birok, utkazilayotgan operatsiyalar summasi nisbatan kam bulganligi sababli, sezilarli yutuklarga erishilmadi. Shunday bulsada, shu narsa anik buldiki, aloxida mamlakatlarning shartli intervensiyasiga nisbatan muvofiklashgan intervensiyaning natijasi ta'sirchanrokdir.

**Devalvatsiya** — milliy valyutaning chet el valyutalariga yoki xalkaro xisob-kitob pul birliklariga nisbatan kadrining tushishidir.

Devalvatsiyaning kelib chikishiga sabab bulib, inflyatsiyaning kuchayishi va mamlakat tulov balansining salbiy koldikka ega bulishi xisoblanadi.

Devalvatsiya siyosati mamlakat tulov balansini yomonlashganda va mamlakatga import okimi sezilarli darajada kupayganda amalda kullash iktisodiyotga ijobiy ta'sir etadi.

Demak, devalvatsiyani kullash shart-sharoiti yuzaga kelganda, uni darhol amalga oshirish lozim, aks xolda sun'iy ravishda kursning kat'iy ushlab turilishi, butun iktisodiyotga sezilarli darajada talofat etkazishi mumkin.

**Revalvatsiya** — milliy valyutaning chet el valyutalariga yoki xisob-kitob pul birliklariga nisbatan kadrini oshirishdir. Revalvatsiya kadri kuchli valyutalarga nisbatan kullaniladi.

Inflyatsiyaning nixoyatda past darajada bulishi, uzok vakt davomida mamlakat tulov balansining aktiv bulishi, xamda milliy firma va kompaniyalarning jaxon savdo bozorida rakobatbardoshligining ortishi, revalvatsiyani keltirib chikaradi. Revalvatsiya devalvatsiyaga nisbatan jaxon amaliyotida kamrok kullaniladi.

Odatda, **valyutaviy cheklashlar** deganda, chet el valyutasi xamda valyuta kimmatliklari bilan buladigan operatsiyalarga davlat tomonidan cheklashlarni joriy kilishga aytiladi. Xozirgi vakt, deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda valyutaviy cheklashlar mutlako olib tashlangan, ayrimlarida esa, uning zaif kurinishini kuzatish mumkin. Masalan, Buyuk Britaniyada 1979 yildan buyon valyutaviy cheklashlar mutlako yuk.



Valyutaviy cheklashlar mamlakatlar xududidan oltin va valyuta kimmatliklari chikib ketishining oldini olishda, shu asosda, chet el valyutalariga bulgan talabni tartibga solish maksadida kullaniladi.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Mamlakat valyuta siyosatining iktisodiy mohiyati nimadan iborat?
2. Valyuta, kredit va moliya siyosati kaysi sabablarga kura shakllangan?
3. Tarkibiy valyuta siyosati nima?
4. Joriy valyuta siyosati nima?
5. Valyuta siyosatining shakllarini sanab bering va ularni izoxlang.
6. LIBOR foiz stavkasini tushuntirib bering.

## 4.2. UZBEKISTON RESPUBLIKASI VALYUTA SIYOSATINING ASOSIY JIXATLARI

Davlat mustakilligiga erishilishi bilan, Uzbekiston Respublikasi oldida inflyatsiya jarayonlari va ishlab chikarish tushkunligiga barxam berish, bozor talablariga javob beradigan moliyaviy tizimni vujudga keltirish, xalkaro valyuta va savdo tizimiga integratsiya kilinishga yunaltilgan makroiqtisodiy isloxlarni amalga oshirishga oid murakkab masalalar paydo buldi.

Ushbu kursatkichlarga erishishni ta'minlashda, Uzbekiston Respublikasi Markaziy banki asosiy urinlardan birini egallamokda. Chunki, pul muomalasini tartibga solish, kredit-bank soxasini nazorat kilish, kat'iy pul-kredit va valyuta siyosatini amalga oshirish uning funksiyalariga kiradi. Valyuta tartibotlari, xalkaro valyuta bozorlari, rivojlanayotgan va sanoati rivojlangan mamlakatlarda kabul kilingan valyuta kurslarini kullash uslublari masalalariga bagishlangan bir kator tadkikotlar mavjud. Bu esa, ma'muriy-buyrukbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga utish jarayoni kabi uziga xos bir xodisani boshidan kechirayotgan Uzbekiston Respublikasi uchun katta kizikish uygotadi.

Uzbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan valyuta siyosati, bevosita xukumat tomonidan ishlab chikilgan isloxtlar strategiyasiga muvofik xolda olib borilmokda. Davlat tomonidan valyutaviy xukuklarni ximoyalashga doir mustaxkam konunchilik va institutsional asosni yaratish buyicha chora-tadbirlarni kurgan xolda — davlat bosh isloxtchi sifatida faoliyat kursatmokda. Bu shuningdek, valyuta bozori infratuzilmasini yaratishga doir anik maksadga yunaltilgan siyosatning amalga oshirilishida xam namoyon bulmokda. Shu tarzda, davlat isloxtlarning murakkab boskichlarida isloxtlarni amalga oshirishga kodir bulgan etakchi kuch ekanligini kursatmokda. Davlat shuningdek, bir kator maxsus davlat organlarini tashkil etish yuli bilan isloxtlarni tartibga solishni amalga oshirmokda. Albatta, Markaziy bank davlat banki sifatida bu borada muxim urin tutadi.

Uzbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish tugrisida»gi konuniga muvofik, kuyidagilar **valyuta nazorati organlari** xisoblanadi: jumladan, Markaziy bank, Moliya vazirligi, Tashki iqtisodiy alokalar vazirligi (xozirda Tashki iqtisodiy alokalar Agentligi (TIAA)), Davlat solik kumitasi va Davlat bojxona kumitalaridir. Ularning xar biri uz vazifa va funksiyalariga egadir. Vakolatli banklar esa, **valyuta nazorati agentlari** xisoblanadi.

Valyuta siyosati makroiqtisodiy siyosatning tarkibiy kismidir. Lekin, ularning nisbatini belgilash juda murakkabdir. Klassik iqtisodiyotning zamonaviy iqtisodiyotdan farklaridan biri, zamonaviy iqtisodiyotda valyuta siyosati iqtisodiy isloxtlarning markaziy masalalaridan biri xisoblanadi. Shu tufayli, respublika xukumati ushbu masalaga juda katta e'tibor karatmokda.

Valyuta siyosati Uzbekiston Respublikasi Markaziy banking pul-kredit siyosati bilan uzviy boglikdir. Ularning ikkalasi xam davlat iqtisodiy siyosatning ajralmas kismidir.

Bugungi kunda, Uzbekiston Respublikasi Markaziy banki davlatning makroiqtisodiy maksadlarining ustuvor yunalishlaridan kelib chikkan xolda, valyuta siyosatini tartibga solish va valyuta siyosatini muvaffakiyatli amalga oshirish uchun barcha tegishli xukukiy asoslar va shart-sharoitlarga egadir.

Shu tarzda, Uzbekiston Respublikasi xukumati, Markaziy bank va valyuta nazoratining boshqa organlari tomonidan iktisodiy islohotlar mobaynida kurilgan chora-tadbirlar kuyidagi natijalarga erishish imkonini berdi:

- valyuta siyosatining xukukiy asosini vujudga keltirish;
- samarali valyuta nazorati va tartibga solish tizimini tashkil etish;
- iktisodiy agentlar urtasida chet el valyutasini samarali kayta taksimlash mexanizmlarini tashkil etish;
- tulov balansini tartibga solishning zamonaviy uslublarini kullash;
- birja va birjadan tashkari valyuta bozorlari faoliyatini yanada takomillashtirish;
- nakd va nakd pulsiz tarzda valyuta operatsiyalarini amalga oshirish koidalarini, valyuta risklari oldini olishning savdo va nosavdo operatsiyalari mexanizmini belgilash;
- xorijdan mablag jalb kilishning taktika va strategiyasini belgilash;
- davlatning oltin-valyuta zaxiralarini samarali boshkarish;
- xalkaro moliya tashkilotlari bilan uzaro foydali xamkorlikni amalga oshirish;
- valyuta kursini samarali tartibga solish;
- milliy valyutaning ichki konvertirlanishini ta'minlash;
- respublikamiz tulov balansi joriy operatsiyalari buyicha milliy valyuta konvertirlanishini boskichma-boskich joriy etilishi buyicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chikish.

Shu bilan birga, respublikamizda amalga oshirilayotgan valyuta siyosatini umumlashtirish va unga tavsif berishda uning kuyidagi uziga xos jixatlarini ta'kidlab utish maksadga muvofikdir:

1. Tashki salbiy omillar ta'siridan ximoyalanish va iktisodiyotni, shu jumladan moliya-pul tizimini milliy manfaatlardan kelib chikkan xolda mustaxkamlash yuzasidan chora-tadbirlar kurish. Ma'lumki, davlatning iktisodiy va moliyaviy asosiga putur etganda u kulab tushishi mumkin. M.Fridman, uzining «Kapitalizm va erkinlik» asarida yozganidek, «umumiy e'tirofga kura, pullar ustidan nazorat kilish, iktisodiyot ustidan nazorat kilishning muxim vositasi bulishi mumkin». Uzbekiston ximoyalanish chora-tadbirlariga kat'iy amal kilgan xolda, Janubiy-Sharkiy Osiyo, Rossiya Federatsiyasidagi global valyuta-moliyaviy tangliklar ta'sirini kamaytirishga muvaffak buldi.

2. Iktisodiyotni samarali va teng xukukli asosda jaxon xujaligiga integratsiya kilinishini ta'minlash yulini tanladik. Eksport bazasi ancha sust bulgan shart-sharoitda ichki valyuta bozori erkinlashtirilishini sun'iy tarzda tezlashtirish samarali integratsiya jarayonlarini rivojlantirishga salbiy ta'sir kursatishi mumkin edi. Ushbu vazifani xal etish, ichki ishlab chikarish imkoniyatlarini xisobga olish va mamlakatimizdagi tovar ishlab chikaruvchilarning rakobatbardoshligi xisobga olinib, chukur uylangan davlat strategiyasi kabul kilinishini talab etadi.

3. Iktisodiy usish jarayonlarini ta'minlash. Ushbu vazifani xal etishda, birinchi urinda valyuta mablaglaridan faoliyat yurituvchi ishlab chikarish korxonalarini zamonaviylashtirish va texnikaviy kayta tashkil etishda, kushimcha kiymatning yukori ulushini ta'minlaydigan yangi ilgor korxonalarini vujudga keltirishda foydalanish valyuta siyosatining eng asosiy vazifasidir. Iktisodiy nuqtai-nazardan karaganda, ushbu vazifalar yukorida kayd etilgan ikkita masalaga nisbatan bazis vazifadir. Chunki, davlat uzining strategik vazifalari nuqtai-nazaridan ilgor sanoatlashgan jamiyatlar tomonidan ishlab chikilgan zamonaviy texnologiyalarni import kilishi, kayta ishlashi va uz shart-sharoitiga moslashtira olishi uning iktisodiy tarakkiyoti ta'minlanishini belgilab beruvchi muxim omildir.

Milliy valyuta sumning muomalaga kiritilishi va moliyaviy soxada islohotlarni chukurlashtirish vazifasi uning xukukiy bazasini yanada rivojlantirishni, bozor talablariga muvofik ravishda banklar faoliyatining barcha jixatlarini tartibga soluvchi aloxida konunni ishlab chikishni talab kilar edi.

«Uzbekiston Respublikasi Markaziy banki tugrisida»gi konunning kabul kilinishi Markaziy bankning pul-kredit siyosati vositalari yordamida iktisodiyotni tartibga soluvchi organ sifatidagi makomini shakllantirishda muxim vokea buldi. 1996 yilda «Banklar va bank faoliyati

tugrisida»gi konunning yangi taxrirda kabul kilinishi banklarning makomi, maksad va vazifalari xamda faoliyat kursatish shartlarini anik belgilagan xolda tijorat banklarining barkaror faoliyat kursatishi uchun xukukiy asos yaratdi.

Uzbekistonning kuchli bank tizimini shakllantirishda mamlakat xukumati banklarning bozor iktisodiyotida tutgan urnini chukur tushungan xolda ushbu soxaga e'tiborini aloxida kayd etib utish lozim. Isloxotlarning dastlabki davridan boshlab, banklar 4 yil muddatga bir kator soliklardan ozod etila boshlandi. Soliklardan ozod etilgan mablaglar banklarga zamonaviy infratuzilmani shakllantirishga imkoniyat yaratdi.

1993 yil may oyida Uzbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish tugrisida»gi konuni kabul kilinishidan sung, Markaziy bank valyutani tartibga solish masalalari buyicha yangi me'yoriy-xukukiy bazani ishlab chikdi.

Valyuta operatsiyalari buyicha konun bazasini tashkil kilish va amalga oshirishda kiska vakt mobaynida Uzbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan bir kancha ishlar amalga oshirildi. Valyutani tartibga solish muxitini xukukiy bazasini tashkil kilish joriy iktisodiy axvolini taxlili natijalarida amalga oshirilayotganligini uning uziga xos xususiyati bulib ajralib turadi.

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan xorijiy valyutaning oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshirish koidalari; ichki valyuta bozorini mexanizmini ishlab chikish; respublika xududida xorijiy kapital ishtirokida xorijiy banklarni tashkil kilish, ruyxatdan utkazish va akkreditatsiyalash koidalari; xorijiy valyutada operatsiyalarni amalga oshirish uchun tijorat banklariga litsenziya berish koidalari; rezident va norezident – yuridik va jismoniy shaxslarning xorijiy valyutada xisobvaraklarini ochish va ishlash koidalari; xukukiy va jismoniy shaxslarga Uzbekiston xududidan tashkarida xisobvaraklarini ochish koidalari; respublika xududida valyuta operatsiyasi bilan boglik kassa operatsiyalarini amalga oshirish koidalari; bank tashkilotlarida valyuta kimmatliklari bilan boglik kassa operatsiyalarining tartibi va boshka savollarni uz ichiga olgan me'yoriy xujjatlarni taxlil etish natijasida ekanligini ta'kidlash — Uzbekiston Respublikasi Markaziy banki, uz valyuta siyosatini davlat manfaatlaridan kelib chikkan xolda, valyuta munosabatlarini va valyuta bozorini erkinlashtirishga boskichma-boskich amalga oshirayotganligi kurinadi. Xozirgi kunga kelib, mamlakatdagi iktisodiy jonlanishini inobatga olgan xolda, va ayniksa, mamlakatga chet el investitsiyalarini jalb etish jarayonini rivojlantirish maksadida mavjud valyuta cheklashlarni kamaytirish yuli bilan valyuta munosabatlarini va valyuta bozorini erkinlashtirish lozim. Valyuta bozorini erkinlashtirish va vakolatli banklarni valyuta munosabatlarini rivojlantirishdagi amalga oshiriladigan vazifalarini anik belgilab olish — milliy valyutaning tula konvertirlanishiga olib keladigan asosiy chora-tadbirlardan biridir.

Keyingi yillarda, Uzbekiston Respublikasi Markaziy bankning tashki alokalari doirasi ancha kengayib, xalkaro moliya tashkilotlari va yirik xorijiy banklar bilan uzaro foydali xamkorlik yanada rivojlandi. Xususan, XVF tomonidan xalkaro andozalarga mos ravishda bank konunchiligini yaratish, buxgalteriya xisobining yangi xisobvaraklar rejasini ishlab chikish, yangi xisob va xisobotlarni kiritish, shuningdek, tulov tizimini takomillashtirish masalalari xamda mutaxassislarni ukitish va kasbiy malakasini oshirish buyicha yordam berildi.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Uzbekiston Respublikasida valyuta siyosati va uning dastlabki natijalari kanday?
2. Uzbekiston Respublikasi valyuta siyosatining uziga xos jixatlari nimada?
3. Mamlakatimizda valyutani tartibga solish va valyuta siyosatini amalga oshirishning kanday xukukiy asoslari mavjud?

### **4.3. VALYUTA SIYOSATI DOIRASIDAGI ASOSIY OPERATSIYALAR VA UNING XUKUKIY ASOSLARI**

Valyuta siyosatini amalga oshirish uchun ob'ektiv asos bulib, tashki savdo, kapitallar va kreditlarning xarakati xizmat kiladi. Xalkaro mexnat taksimotining yuzaga kelishi va rivojlanishi eksport-import operatsiyalarining yuzaga kelishiga va takomillashishiga asosiy sabab buladi.

Valyuta operatsiyalarining keng kulamda rivojlanishi markaziy banklarga ushbu bozorda erkin xarakat kilishga va ayni vaktda ularni tartibga solishga imkon yaratdi.

Markaziy bankning valyuta operatsiyalarini amalga oshirishga imkon beruvchi bir kator asoslar mavjud bulib, ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ajratib kursatish mumkin:

a) Markaziy bankning etarli mikdorda oltin-valyuta zaxiralarga ega bulishi.

Amaliyotdan ma'lumki, kupchilik rivojlangan davlatlarda, xususan, AKSh, Germaniya, Avstriya, Buyuk Britaniyada davlatga tegishli barcha oltin-valyuta zaxiralari Markaziy (Federal Zaxira) bankning balansiga utkazilgan. Markaziy bankning vazifasi ushbu zaxiralardan okilona foydalanish bilan birgalikda ularning xajmini oshirib borish xisoblanadi. Demak, u uz balansida chet el valyuta zaxiralarga suyangan xolda, xukumat tomonidan belgilangan valyuta siyosati doirasidagi barcha operatsiyalarni amalga oshiradi. Masalan, valyuta intervensiyasini amalga oshirish uchun valyuta kursining keskin tebranishlariga barxam bera oladigan mikdorda likvidli mablaglarga ega bulishi lozim (Angliya Markaziy banki ana shu maksadga xizmat kiluvchi 40 mlrd. AKSh dollaridagi zaxiraga ega).

b) Markaziy bankning xorijiy mamlakatlarning banklari bilan keng tarmokli vakillik munosabatlarining mavjudligi.

Markaziy bankning xalkaro valyuta bozorlaridagi barcha operatsiyalari uning uz milliy va xorijiy valyutalardagi vakillik xisobvaraklari orkali amalga oshiriladi. Xar bir valyuta turiga bittadan vakillik xisobvaragi ochiladi va Markaziy banklar boshka mamlakatlarning Markaziy banklarida uz xukukiy xolatidan kelib chikkan xolda, erkin tarzda vakillik schetlarini yuritishga xaklidirlar.

Xozirgi kunda, Markaziy banklar xalkaro valyuta bozorlarida tijorat banklari bilan rakobat kila olmaydilar. Tijorat banklari, xar yili ulkan mikdordagi mablaglarni valyuta kursining uzgarishini chamalash, valyuta risklarini boshkarish maksadlariga sarflaydilar. Buning ustiga, Markaziy banklar bevosita tijorat tizimlari bilan kredit, xisob-kitob xizmati kursatish operatsiyalarini rivojlantirish imkoniyatini cheklaydi. Bunga sabab, ular tijorat tuzilmalariga xizmat kursatmaydilar.

Markaziy bankning dilerlariga, odatda, vakillik xisobvaraklarining koldigi minimal bulishi kerak, degan majburiy shart kuyiladi. Yukorida keltirilgan omillarning mavjudligi ana shu shartlar bajarilishini takozo kiladi.

v) Markaziy bankka valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibini belgilab beruvchi me'yoriy xujjatlarning mavjudligi.

Respublikada «Uzbekiston Respublikasining Markaziy banki tugrisida»gi, «Valyutani tartibga solish tugrisida»gi Uzbekiston Respublikasi Konunlari, Prezident Farmonlari va Vazirlar Maxkamasining karorlari, Markaziy bankning valyuta operatsiyalarini amalga oshirish uchun xukukiy asos bulib xizmat kiladi. Xususan, «Uzbekiston Respublikasining Markaziy banki tugrisida»gi Konunning VI bobida valyutani tartibga solish va xalkaro zaxiralarni boshkarish masalalari belgilab berilgan. Ushbu me'yoriy xujjatlarga muvofik, Markaziy bank rasmiy valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi davlat organi sifatida faoliyat kursatadi. U uz balansidagi rasmiy oltin-valyuta zaxiralarni mustakil tarzda boshkarish xukukiga ega va, ayni vaktde, ularni samarali tarzda boshkarish yuzasidan xam javobgardir.

g) Chet el valyutalari bilan savdo kilishda mavjud bulgan savdo an'analariga rioya kilish.

Xalkaro valyuta savdosidagi konunlarda yoki shartnomalarda belgilab kuyilmaydigan, ammo xamisha unga rioya kilinadigan ma'lum an'analar yuzaga keldi. Kundalik amaliyotda kulllaniladigan ana shunday muxim an'analar toifasiga kuyidagilarni kiritish mumkin:

1) Spot bitimlari buyicha valyutalarni 2 ish kuni mobaynida utkazish. Ushbu muddatda ulgurmagan tomon, albatta, jarima tulaydi.

2) Kotirovkalarni e'lon kilish.

Diler valyuta sotmokchi yoki sotib olmoqchi bolsa, avvalo, uzining bankidagi xalkaro ma'lumot tizimidan foydalanadi. U kompyuterning displeyidan xalkaro valyuta bozorlaridagi kotirovkalarni kuzatishi mumkin. Shundan keyingina valyuta kursi uziga ma'kul bulgan bankka murojaat kiladi. Kabul kilangan koida shundan iboratki, xech kaysi diler xech kachon birdan valyutani sotmokchi yoki sotib olmoqchi ekanligini aytmaydi. Fakat sotish yoki sotib olish kursini suraydi. Kurslar tugrisidagi ma'lumotni olgandan sung, uz fikrini izxor kiladi. Bunda bozorda kabul kilangan minimal bitimlar summasi albatta, e'tiborga olinishi kerak. Masalan, 500 ming AKSh dollari, 1 mln. evro, 1 mln. shveysariya franki bulishi mumkin. Amalda valyuta savdosi minimal summadan bir necha barobar yukori summada amalga oshiriladi.

3) Bitimni yozma tarzidagi shartnomalarsiz amalga oshirilishi.

Valyuta savdosi asosan telefon yoki telegraf orkali amalga oshirilgan kelishuvlar asosida amalga oshiriladi. Birjada esa ogzaki tarzda bitimlar tuziladi. Ammo, ularni bajarish tomonlar uchun majburiy bulib, ular suzsiz bajariladi. Gap yirik summalar ustida ketayotganligi sababli, bitimlarning imzolanishi darhol xujjatlar bilan tasdiklanadi. Bu esa ularning ishonchliligini oshiradi.

Bitimning imzolanishi quyidagilarni uz ichiga olishi kerak:

- almashinadigan valyutalarni aniklash;
- kurslarni belgilash;
- yirik, ixchamlashtirilgan bitim summasini belgilab olish;
- valyutada tulash, deviz;
- valyuta utkazilishi lozim bulgan manzilni kursatish.

Uzbekiston Respublikasi Markaziy bankining valyuta operatsiyalari, xozirgi kunda, respublika Oliy Majlisi va xukumat tomonidan aniklangan tangar siyosatning asosiy yunalishlariga muvofik amalga oshirilmokda. Ta'kidlab utish joizki, valyuta savdosida maksadlilik va ustuvorlilik tamoyiliga kuprok e'tibor berilmokda. Ushbu maksadlarga quyidagilar kiradi:

- eksport uchun maxsulot ishlab chikarish bilan mashgul bulgan korxonalar;
- chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarning Uzbekistonda ishlab chikarish faoliyati natijasida olgan foydalari va dividendlari;
- respublika iktisodiyotining etakchi tarmoklaridagi ustivor loyixalarda katnashayotgan korxonalarning sum mablaglari;
- xalkaro turizm xizmati, xalkaro alokalar buyicha xizmat, xizmat safari va xorijda ta'lim olish bilan boglik xarajatlar.

Ushbu maksadlar uchun, valyuta savdosini amalga oshirish tartibi fakat Uzbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

Shunday kilib, Uzbekiston Respublikasi Markaziy banki valyuta operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur bulgan barcha asoslarga ega.

Shu narsani aloxida ta'kidlab utish joizki, mamlakat oltin-valyuta zaxiralarning Markaziy bank balansida turishi, mamlakat Markaziy bankining moliyaviy jixatdan barkarorligini namoyon kiladi. Chunki, odatda, Markaziy bank davlatning tashki karzini tulash bilan boglik barcha operatsiyalarga uz vaktida xizmat kursatish, shuningdek, xalkaro operatsiyalar buyicha xisob-kitoblarni ta'minlash uchun ma'sul.

Uzbekiston Respublikasi Markaziy bankining valyuta siyosati doirasida amalga oshiradigan asosiy vazifalardan biri mamlakatda tijorat tusidagi valyuta operatsiyalarini rivojlantirish uchun kulay muxit yaratish xisoblanadi. Xozirgi kunda, muddatli operatsiyalarni rivojlantirish juda dolzarb va murakkab masala bulib kolmokda. Buning uchun esa, valyuta bozorini rivojlantirish zarur. Chunki, xar kanday turdagi valyuta operatsiyasi — svop, forvard, valyutaviy optsionlar va fyucherslar bilan boglik operatsiyalar, pirovardida, spot bozorining likvidliligiga boglik. Agar, valyuta birjasida va birjadan tashkari valyuta bozorida erkin ayirboshlanadigan valyutalar buyicha tulik likvidlilik ta'minlansa, ya'ni barcha talablar



muvofiq ravishda uz vaktida kondirilsa, bu milliy valyuta — sumning kadrini oshirishga xizmat kiladi. Bunda, shu narsani aloxida ta'kidlab utish joizki, respublikada ichki valyuta bozorini rivojlantirish uchun xukumat tomonidan tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, kabul kilingan kararlarga muvofiq, 1997 yil 1 yanvardan boshlab, korxonalar va tashkilotlarning markazlashmagan eksportdan tushgan valyuta tushumining muayyan kismini majburiy sotuvi vakolatli banklarga sotila boshlandi. Birjadan tashkari valyuta bozorida operatsiyalar amalga oshirish uchun asosiy manba bulib, majburiy sotuvdan tushgan mablaglardan tashkari vakolatli banklarning erkin ayirboshlanadigan valyutadagi uz mablaglari, shu jumladan, taksimlanmagan foyda, mijozlarning depozitlari va boshka jalb kilingan mablaglar xisoblandi. Shu bilan birga, Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 1 iyuldagi «Birjadan tashkari valyuta bozorini liberallashtirish va yanada rivojlantirish buyicha chora-tadbirlar tugrisida»gi Farmonining chikishi birjadan tashkari valyuta bozorida operatsiyalarning rivojlanishiga sabab buldi. Mazkur Farmonning chikishigacha bulgan davrda, respublika valyuta bozorida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish xukukiga ega bulgan korxonalar sumdagi mablaglarini erkin ayirboshlanadigan valyutaga konvertatsiya kilganlarida Markaziy bank tomonidan urnatilgan rasmiy valyuta kursi buyicha 12 foiz mikdorida marja undirib olinardi. Ushbu Farmon chikkandan keyin birjadan tashkari valyuta bozorida konvertirlash jarayoni talab va taklif orkali aniklanadigan kurs orkali amalga oshiriladigan buldi.

Shu bilan birga, xali birjadan tashkari valyuta bozorini yanada rivojlantirish buyicha bir kator xal kilinishi nixoyasiga etmagan masalalar turibdi. Xususan, birjadan tashkari valyuta bozorining likvid mablaglarga bulgan extiyoji tula kondirilmayapti. Ushbu muammoni xal etish uchun vakolatli banklarning eksportga ishlovchi korxonalar xisoblanadigan mijozlari tomonidan valyuta tushumlarini kuplab respublikaga olib kelishlari uchun ularning faoliyatini maksimal darajada ragbatlantirish lozim.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Markaziy bankning valyuta operatsiyalarini amalga oshirishga imkon beruvchi kandy asoslar mavjud?
2. Markaziy banklar, tijorat banklari bilan valyuta bozorlarida rakobat kilaoladilarmi? Va nima uchun?
3. Xalkaro valyuta savdosida amal kiladigan kandy an'analar bor?
4. Bitimlarning imzolanishi kaysi elementlarni uz ichiga oladi?
5. Uzbekiston Respublikasi Markaziy bankining valyuta siyosatidagi asosiy maksadlari nimalardan iborat?
6. Valyuta siyosatining kandy vazifalari bor?
7. Birjadan tashkari valyuta bozorining kandy kamchiliklari mavjud?

#### 4.4. VALYUTA KURSINING NAZARIY ASOSLARI

Valyuta ayirboshlash kursi mamlakat iqtisodiyotini boshka mamlakatlar bilan boglovchi asosiy omillardan biridir. Nominal va real ayirboshlash kursi kabi ikkita ayirboshlash kursi mavjud. **Nominal ayirboshlash kursi** — bu ikki mamlakat valyutasining nisbiy narxidir. **Real ayirboshlash kursi** — bu ikkita mamlakatda ishlab chikarilgan tovarlarning nisbiy narxi. Real ayirboshlash kursi nominal kurs va tovarlarning milliy valyutadagi narxiga boglik bulib quyidagi formula buyicha xisoblanadi:

$$R = e \cdot P / P^*$$


Bunda,  $e$  — nominal ayirboshlash kursi,  $P$  — bitta mamlakatdagi narxlar darajasi,  $P^*$  — esa boshka mamlakatdagi narxlar darajasini ifodalaydi. Bunda :

$$e = R \cdot P^* / P$$

Erkin suzib yuruvchi ayirboshlash kursi shart-sharoitidagi valyuta bozorini kurib chikamiz. Bunda masalan, real ayirboshlash kursi 1 ga teng buladi, chunki valyutaga bulgan talab va taklif erkin rakobat konunlari xisobiga tartibga solinadi. Ushbu modelning sofligi uchun xalkaro kreditlash, xorijdan mablag jalb kilish va shuningdek, valyuta chaykovchiligi mavjud emas, deb tasavvur kilaylik.

Ushbu talab, xorijiy valyutadan fakat tovar va xizmatlarni eksport va import kilishga oid savdo bitimlarida foydalanilishini nazarda tutadi. Maxsulot import kiluvchilar uzlarining xorijdagi tulovnomalari buyicha tulovni amalga oshirish uchun chet el valyutasini olishlari lozim. Xususan, import, xorijiy valyutaga bulgan talab manbai buladi. Eksport esa, bundan farkli ravishda uni taklif etish manbaidir. Bozorda eksport tomonidan bulgan taklif, importga bulgan talab bilan tuknashadi. Bunga asosan, ayirboshlash kurslari urnatiladi. 3-chizmada chet el valyutasi bozorining muvozanat xolati kursatilgan.

3-chizma



$Y$  uki buyicha biz ayirboshlash kursini kursatamiz. Yoki, xorijiy valyutaning, ushbu xolatda AKSh dollarining sumdagi narxini kursatamiz. Tegishli tarzda, ushbu chizmadagi ayirboshlash kursining usishi milliy valyutaning arzonlashuvi, kursning pasayishi esa, milliy valyutaning kimmatlashuvini bildiradi.

$X$  — uki chet el valyutasi mikdorini aks ettiradi.


$S$  — uning taklifi esa, eksportdan tushgan milliy valyutadagi daromadlarning umumiy qiymatini aks ettiradi.

$M$  — talab esa, importning milliy valyutadagi umumiy qiymatini aks ettiradi.

Erkin suzib yuruvchi valyuta kursi — valyuta bozorini muvozanat xolatiga keltiruvchi narx buladi (3-chizmadagi E nukta).

Ichki va tashki narxlar darajasi doimiy bulsa, mamlakat valyutasi arzonlashgan xolda xorijda mamlakatning maxsulotlariga bulgan narxlar tushib ketadi va ularga bulgan talab oshadi. Tegishli ravishda eksport xarajatlari xam oshib ketadi. Import xarajatlari esa, kamayadi. Xususan, milliy valyuta kursining boshka mamlakatlar valyutalariga nisbatan kursining pasayishi maxsulot eksport kiluvchilar uchun foydalidir, kursning oshishi esa, import kiluvchilarga foydali buladi.

Mamlakatning YaIM xajmi usib borayapti, deb tasavvur kilaylik. Bu esa, axoli daromadlari mikdori va shu bilan birga importga bulgan talabning xam oshishiga olib keladi. Bunda M egri chizigi M<sub>1</sub> xolatiga uzgaradi (4-chizma). Ushbu xolatda boshlangich ayirboshlash kursida importga bulgan talab E<sub>1</sub> nuktasiga utadi.



4-chizma

Ammo, eksportdan kelayotgan daromadlar xali xam E nuktasiga muvofik keladi. Import xarajatlari va eksportdan olingan daromadlar E<sub>2</sub> urtasidagi farqlar chet el valyutasiga bulgan talabning ortikchasini aks ettiradi. Agarda, Markaziy bank ushbu jarayonga aralashmasa, bu xolda valyuta kursi mustakil ravishda tartibga solinadi. U usib borgan xolda E<sub>2</sub> nuktasida yangi muvozanatga keladi.

Valyuta siyosati valyuta kurslari tizimini tanlash va valyuta operatsiyalari amalga oshiriladigan kursni belgilashdan iboratdir. Mamlakatda amalga oshiriladigan valyuta siyosati, unda mavjud bulgan maxalliy valyutada ifodalangan narxlar tashki bozorlarda sotilishi mumkin bulgan tovarlar (eksport maxsulotlari) va ichki bozor extiyojlariga (eksportga muljallanmagan tovarlar)ni ishlab chikarish uchun muljallangan tovarlar urtasidagi narxlar nisbatiga ta'sir kursatadi. Bundan tashkari, ushbu siyosat ichki bozordagi narxlarning umumiy darajasiga ta'sir kursatadi. Shu tufayli, tanlangan valyuta kurslari tizimi va belgilangan valyuta kursi narxlarni ragbatlantiruvchi omil sifatida mamlakat iktisodiyotiga keng darajada ta'sir kursatadi.

Valyuta siyosatini belgilashda mamlakat iktisodiyoti tuzilmasi va unda mavjud tizimlarning uziga xos xususiyatiga katta e'tibor karatilishi lozim. Shu tufayli, jaxon tajribasidan kelib chikkan xolda Markaziy banklar valyuta kurslari tartibining kuyidagi turlaridan foydalanishadi:

- kat'iy belgilab kuyilgan valyuta kursi (yagona valyuta yoki valyuta savatchasi asosida aniklanadi);
- talab va taklif ta'siri ostida sun'iy (stixiyali) ravishda vujudga keladigan erkin suzub yuruvchi valyuta kursi;
- «pogonali» valyuta kursi;
- kup xilli valyuta kurslari tizimi;
- ikkiyoklama valyuta kursi.

1993 yilning noyabr oyida Uzbekiston Respublikasi muomalaga sum-kupon — uz milliy valyutasiga utilish davrida foydalanishga muljallangan oralik pul birligini kiritdi. Muomalaga sum-kupon kiritilishi bilan valyuta kursi siyosatini amalga oshirish zaruriyati tugildi. Iktisodiy isloxlarning boshlangich davrida va usha vaktida mavjud bulgan iktisodiy shart-sharoitlarni xisobga olgan xolda boshkariladigan suzib yuruvchi tartibotda boskichma-boskich devalvatsiya kilish varianti Uzbekiston uchun eng optimal usul deb topilgan edi. Ayirboshlash kursini belgilashda muomaladagi pul massasi xajmi va boshka makroiiktisodiy kursatkichlar xisobga olingan edi.

Xozirgi kunda, valyuta kurslarini tartibga solishda bir kancha muammolar mavjud bulib, ular yagona valyuta kursining mavjud emasligi bilan boglikdir. Jumladan, chet el valyutasidagi operatsiyalarni amalga oshirishda kuyidagi kurslar yuzaga kelganligini kurish mumkin:

- Uzbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy kursi. Buxgalteriya xisobi, bojxona va va boshka tulovlar maksadida, shu jumladan, maxsulot eksport kiluvchi korxonalar tomonidan Markaziy bankka va vakolatli banklarga chet el valyutasidagi tushumdan majburiy tarzda sotuvni amaga oshirishga doir operatsiyalarda kullaniladi.
- Uzbekiston Respublikasi Valyuta birjasi savdolarida belgilanadigan birja kursi. Ushbu kurs buyicha markazlashgan valyuta manbalari xisobidan xukumatning valyuta kreditlari va xukumat kafolati ostida olingan chet el valyutasidagi kreditlarni tulash, elchixonalariga sarflanadigan xarajatlar, xalkaro tashkilotlarga a'zolik badallarini tulash, xukumat topshiriklari bilan chet elga xizmat safari xarajatlari uchun sum mablaglarini erkin ayirboshlanadigan valyutaga konvertirlashishi ta'minlanadi.

**Uzbekiston Respublikasida mavjud valyuta ayirboshlash kurslari urtasidagi nisbat va uning uzgarishi**

Yillar, oylar	1 AKSh dollarining sumdagi urtacha kursi		Kurslar urtasidagi nisbat, marta			
	rasmiy	parallel bozor				
	yillik urtacha	yillik urtacha	yillik urtacha			
1994y.	10,15	23,94	2,36			
1995y.	29,86	40,2	1,35			
1996y.	40,35	61,6	1,53			
1997y.	66,36	146,3	2,21			
1998y.	94,50	271,1	2,30			
1999y.	124,51	513,2	4,12			
2000y.	237,24	769,82	3,24			
2001y.	423,96	1069,73	2,52			
2002y.	<b>oylik</b>	<b>choraklik</b>	<b>oylik</b>	<b>choraklik</b>	<b>oylik</b>	<b>choraklik</b>
Yanvar	689,40	692,39	1521,90	1477,69	2,21	2,13
Fevral	693,55		1492,14		2,15	
Mart	694,23		1419,03		2,04	

April	701,38		1433,33		2,04	
May	718,87	720,22	1381,61	1325,65	1,92	1,84
Iyun	740,41		1162,00		1,57	
Iyul	756,11		1197,10		1,58	
Avgust	767,39	771,92	1219,10	1177,77	1,59	1,53
Sentyabr	792,27		1117,10		1,41	
Oktyabr	847,34		1159,03		1,37	
<b>10 oylik urtacha</b>	<b>740,10</b>			<b>1310,23</b>	<b>1,77</b>	

Shuningdek, korxonalar tomonidan investitsiya loyixalarini amalga oshirish bilan bogliq zamonaviy chet el texnologiyalari, asbob-uskunalar, butlovchi kismlar va extiyot kislarni sotib olish xam shunga kiradi.

- Vakolatli banklar tomonidan urnatiladigan ayirboshlash kursi. Ushbu kurs buyicha birjadan tashkari valyuta bozorida bush valyuta resurslarining sotuvi amalga oshiriladi. Markaziy bank litsenziyalari egalari bulgan — korxonalar va ayirboshlash shoxobchalari orkali jismoniy shaxslarga chet el valyutasi sotuvi xam ushbu kurs buyicha amalga oshiriladi.
- Parallel bozordagi — nazorat kilinmaydigan bozorda jismoniy shaxslar tomonidan valyuta-ayirboshlash operatsiyalari amalga oshirilganda kullaniladigan norasmiy kurs.

Valyuta kurslari urtasidagi fark katta bulsa, kup xilli valyuta kurslari tartiboti (rasmiy, tijorat, parallel) valyuta daromadlarini notekis tarzda kayta taksimlanishiga olib keladi (ayni paytda respublikada amalda yukoridagi kurslarning uchtasi mavjud). Yukorida keltirilgan 3-jadval ma'lumotlarida Uzbekistondagi rasmiy valyuta kursi bilan parallel bozor kursi farki aks etirilgan.

Ushbu muammoning bir kator masalalar bilan boglikligi va uni xal etishning murakkabligi shu bilan ifodalanadiki, unga kura rasmiy kursni devalvatsiya kilish asosida kup xilli valyuta kurslarini tugatish texnikaviy kayta kurish va kayta tashkil etish vaktida asbob-uskuna, butlovchi kismlar va xom-ashyo importiga kattik boglanib kolgan korxonalarining moliyaviy axvolini kiyinlashtirib kuyishi mumkin. Ushbu xol sanoatlashish va kiska xamda uzok muddatli istikbolda kutilayotgan iktisodiy usish sur'atlarini susaytirib kuyishi mumkin. Ayirboshlash siyosatining tutgan urni shuningdek, bozor tizimlari va moliyaviy bozorlarning rivojlanganligiga boglikdir. Agarda, moliyaviy bozorlar yaxshi rivojlanmagan bulsa, ushbu xolda chet el valyutasi bozorlari xam kutilgan darajada samarali faoliyat kursata olmaydi va yirik dilerlarning manipulyatsiyalarga ta'sirchan buladi. Natijada, Markaziy bank interventsia siyosatini amalga

oshirishga majbur buladi va oxir-okibatda oltin-valyuta zaxiralari kamayishi xavfi tugiladi. Ushbu shart-sharoitlarda tartibga solina-digan ayirboshlash kursi doirasidagi makrosiyosat yuritish, valyuta bozorini erkinlashtirishga doir kushimcha chora-tadbirlarni kurish maksadga muvofikdir. Ayni paytda, valyuta kursining birxillastirilishi muxim axamiyat kasb etadi. Milliy valyuta konvertirlanishini joriy etish va mamlakat eksport saloxiyatini oshirish nuktai-nazaridan ushbu vazifa muxim axamiyatga egadir.



## UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR

1. Nominal va real ayirboshlash kurslari urtasida kanday fark mavjud?
2. Milliy valyuta kursini boshka mamlakatlar valyuta kursiga nisbatan pasayishi kanday okibatlarga olib kelishi mumkin?
3. Valyuta siyosatini belgilashda nimalarga e'tibor karatish lozim?
4. Uzbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda kanday kurslar mavjud?
5. Bugungi kunda, mamlakatimiz valyuta siyosatining oldiga turgan muxim vazifalar nimalardan iborat?

### **XALKARO JORIY OPERATSIYALAR BUYICHA MILLIY VALYUTANI KONVERTIRLANISH TALABLARI**

Xalkaro valyuta fondi xakidagi Kelishuvining VIII moddasi ushbu tashkilot azolariga kuyidagi talablarni kuyadi:

- XVFGa a'zo birorta mamlakat, Fondning tasdigisiz, xalkaro joriy operatsiyalarni amalga oshirish buyicha tulovlarga cheklov urnatmaydi;
- xar kanday a'zo-mamlakat valyutasini ishlatish bilan amalga oshiriladigan valyuta shartnomalari, mamlakat valyuta operatsiyalari koidaloriga zid bulsa, mazkur Kelishuvga kura, XVFGa a'zo-mamlakatlarining xech biri xududida bunday operatsiyalarni amalga oshirish ta'minlanmaydi;
- XVFGa a'zo birorta mamlakat va uning fiskal agentlari xech kanaka diskriminatsion valyuta kelishuvlarida ishtirok etmaydi xamda turli xil almashuv kurslari amaliyotini kullashga ruxsat bermaydi;
- fond XVFGa a'zo-mamlakatdan uz ishini yuritishda zarur bulgan axborotlarni talab kilishi mumkin. Jumladan, mamlakat xakida kuyidagi minimum pozitsiyalar buyicha ma'lumotlarni:
  - mamlakat va xorijdagi rasmiy avuarlar (oltin va xorijiy valyutadagi);
  - oltinni kazib olish, olinadigan va yunal-tiriladigan mamlakatlar buyicha eksport va importi;
  - olinadigan va yunaltiriladigan mamlakatlar buyicha eksport va import umumiy xajmi;
  - tashki tulov balansi va boshkalar.
- XVFGa a'zo-mamlakatlar ishtirokida uzaro manfaatdor tuzatishlar kiritish maksadida konsultatsiya kilish orkali, XVFGa a'zo-mamlakat aloxida olingan, yoki vaktincha yuzaga kelgan ayrim xolatlarda, valyuta operatsiyalarini amalga oshirish buyicha cheklovlarni kiritish yoki saklash vakolatini kulga kiritishi mumkin;
- xar bir a'zo-mamlakat Fond va boshka a'zo-mamlakatlar bilan, mazkur mamlakatning zaxira aktivlari nisbatan siyosati, xalkaro likvidlik va xalkaro valyuta tizimlarining xalkaro zaxira aktivlari

xolatini, xalkaro nazoratini amalga oshirishni takomillashtirish vazifalariga zid kelmasligini ta'minlash buyicha majburiyat oladi;

Joriy tulovlar buyicha konvertirlash majburiyatini olgan mamlakat, kapital utkazmalaridan farklanuvchi kuyidagi maksadlarda utkaziladigan tulovlar buyicha ta'kiklarni urnatish xukukiga ega emas (fond tasdigisiz):

- tashki savdoni amalga oshirish buyicha barcha tulovlar, boshka joriy faoliyat, shu jumladan, xizmatlar, shuningdek, kiska muddatli bank mexanizmlari bilan boglik odatiy ishlar;
- ssudalar buyicha foiz kurinishidagi tulovlar va boshka investitsiyalardan sof daromadlar kurinishidagi tulovlar;
- ssudalarni kaytarish xisobvaragi buyicha me'yoriy summalar, yoki tugri investitsiyalarning amortizatsiya xisobvaragiga tulovlar;
- xorijdan oilaning joriy xarajatlari uchun me'yoriy xususiy utkazmalar summasi.

Manfaatdor a'zo-mamlakatlar bilan utkaziladigan konsultatsiyalardan sung, Fond ma'lum operatsiyalarni joriy operatsiyalarga, yoki kapital bilan boglik operatsiyalarga tegishligini urnatadi.

XVFGa a'zo-mamlakatlar VIII modda buyicha majburiyatlarni olmasdan oldin, XIV modda buyicha imkoniyatdan foydalanishlari mumkin. Unga muvofik, mamlakat Fondga a'zo bulib kirgunga kadam, uzgaruvchan xolatga muvofik ravishda xalkaro joriy operatsiyalar buyicha, mablaglarni utkazish va tulash buyicha cheklovlarni saklab kolishlari mumkin. Bunday xolatlarda, mamlakat valyuta tartibini yomonlashtirmaslik va kushimcha valyuta cheklovlarini joriy kilmaslik majburiyatini oladi.

**Manba:** ekonomicheskoe obozrenie, avgust 2002. [WWW.CER.UZ](http://WWW.CER.UZ) (doklad TsEI "Analiz sostoyaniya valyutnogo rinka i perexod k tekushchey konvertiruemosti natsionalnoy valyuti").

#### **4.5. VALYUTA SIYOSATI VA UNING ASOSIY SHAKLLARIDAN PUL MUOMALASINI TARTIBGA SOLISHDA FOYDALANISH**

Markaziy bankning valyuta siyosati pul-kredit siyosatining asosiy klassik instrumentlaridan biri xisoblanadi. Jaxon banklari amaliyotidan shu narsa ma'lumki, Markaziy bankning valyuta siyosati, asosan, quyidagi: xisob stavkasini uzgartirish, valyuta intervensiyasi, devalvatsiya, revalvatsiya, valyuta zaxiralarini diversifikatsiya qilish shakllarida namoyon buladi.

Xar bir davlat, uz iktisodiy sharoitlaridan, xalkaro iktisodiy munosabatlarining «ochiklik» darajasidan kelib chikib valyuta intervensiyasini, uz vazifalariga moslab amalga oshiradi.

Eng kiska muddatli sharoitda, Markaziy banklar xar kungi valyutaviy tebranishlarning oldini olish maksadini bozorning texnik kursatkichlari xolatiga yunaltirilgan xolatda amalga oshiradilar (masalan, sotuvchi va xaridor kurslari urtasidagi fark).

Kiska muddatli istikbolda xukumat, kupincha «shamolga tayanch» (lean against the wind) taktikasini kullaydi, bu taktika chegaralangan boshkaruvchilik karama-karshiligida namoyon buladi. Masalan, shu narsa anik belgilangan bulishi mumkin: kursni biror ma'lum soat va kun davomida uzrapishi karama-kapshi operatsiya utkazishni talab kiladi. Ba'zan, xukumat intervensiya yordamida muxim iktisodiy masalani xal kilishda yoki saylov oldi tadbirlarida yutib chikishda foydalanadi.

Valyutaviy karama-karshilik (nomutanosiblik)ning kuchayishi, valyuta kursini intervensiya yordamida tartibga solishning samarasiz urinishlari va shu kabi xolatlar, xatto rivojlangan mamlakatlar, masalan, Janubiy-Sharkiy Osiyo mamlakatlarida bulib utgan moliyaviy inkirozlar — bu davlatlar tomonidan XVFinii kayta kurish buyicha yangi takliflar kiritishga sabab bulmokda. Kupgina davlatlar (asosan rivojlanayotgan mamlakatlar) valyuta-moliya masalalari buyicha yukori darajadagi konferentsiya utkazishni talab kilmokdalar. XVFGa doimiy ravishda xamma tomonlarning kizikishlarini e'tiborga olgan xolda uning mexanizmlarini uzgartirish xakidagi takliflar kiritilmokda. Masalan, kiritilayotgan takliflardan biri etakchi valyuta kurslarini urtacha tortilgan indeksi tebranishlari chegarasini urnatishdir.

Valyuta soxasidagi xamkorlik buyicha katta vokea sifatida yil Parijdagi «Luvr kelishuvi»ni kursatish mumkin. Etakchi rivojlangan mamlakatlar valyuta barkarorligiga erishish va birinchi galda AKSh dollari bilan boglik muammoni xal etish masalasiga kattik kirishganliklarini bildilar. Umuman olganda, 1987 yil valyuta intervensiyasini utkazish darajasi buyicha rekord kursatkichni namoyon kilgan yil buldi. Bu intervensiyalar Garbning yirik Markaziy banklarining kelishuvi asosida va aloxida yakka uzlari utkazgan intervensiyalardan iborat edi. Bu vaktida, endi gap AKSh dollari kursini ushlash xakida ketmokda edi, sababli, amerika valyutasi faol sotib olinmokda edi. Buning natijasi sifatida 1986 yilning avgust oyidan 1987 yilning avgustigacha Germaniya, Yaponiya va Buyuk Britaniya oltin - valyuta zaxiralarining 63 mlrd. AKSh dollariga usganini kursatish mumkin (75 foiz - usish). Bu vaziyat kuzga kurinadigan yutuk va foyda olib kelmadi, 1987 yilning kuzida ruy bergan birja inkirozi esa, markaziy banklarning xamma urinishlarini yukka chikardi.

**Oltin-valyuta zaxiralari yirik xajmda bulgan ba'zi bir davlatlar ruyxati (mlrd. AKSh dollarida)**

	Chet el valyutasi			Valyuta va oltin		
	1990	1996	1997	1990	1996	1997
<b>Rivojlangan mamlakatlar:</b>	<b>589,1</b>	<b>789,2</b>	<b>777,2</b>	<b>895</b>	<b>1065,5</b>	<b>1023,4</b>
Yaponiya	78,5	216,6	221,1	87,8	225,6	229,2
AKSh	72,3	64,0	56,8	173,1	160,7	144,3
Germaniya	67,9	83,2	80,8	104,5	118,3	112,6
Ispaniya	51,2	57,9	63,4	57,2	63,7	68,6
Italiya	62,9	45,9	42,2	88,6	70,6	64,5
Shveysariya	29,2	38,4	35,0	61,3	69,2	62,9
Frantsiya	36,8	26,8	29,0	68,3	57,0	56,4
Gollandiya	17,5	26,8	27,7	34,4	39,6	36,1
Norvegiya	15,3	26,5	28,5	15,8	27,0	28,8
Avstriya	9,4	22,9	20,6	17,2	26,8	24,0
<b>Rivojlanayotgan mamlakatlar:</b>	<b>318,2</b>	<b>780,1</b>	<b>842,4</b>	<b>373,3</b>	<b>838,6</b>	<b>895,0</b>
Xitoy	29,6	107,0	122,8	34,5	111,7	127,1
Tayvan	72,4	88,0	90,0	77,7	93,0	94,6
Singapur	27,7	76,8	80,7	27,7	76,8	80,7
Gonkong	24,6	63,8	67,6	24,6	63,8	67,6
Braziliya	7,4	58,3	55,8	9,2	59,7	57,2
Janubiy Koreya	14,8	34,0	34,0	14,9	34,2	34,2
Tailand	13,3	37,7	31,4	14,3	38,6	32,2
Indiya	1,5	20,2	25,7	5,6	24,9	30,0
Malayziya	9,8	27,0	26,6	10,7	27,9	27,4
Meksika	9,9	19,4	23,8	10,2	19,5	23,9

«Luvr kelishuvi» iqtisodiyot va pul-kredit siyosatini muvofiklashishiga olib kelmadi, chunki unda xisob stavkasini uzgartirish kelishuvi doirasidan chetga chikilmadi xamda AKSh davlat byudjeti takchilligi muammosini xal etish masalasi va xalkaro tulovlarni balanslashtirilmaganligiga erishilgani yuk.

Oxirgi yigirma yil davomida valyuta siyosatidagi barkaror xolatni olib borish maksadida xamda uz valyutalarining kuchli pozitsiyasini ushlab uchun bir kancha rivojlangan va shunisi kizikarliki, rivojlanayotgan mamlakatlar xam yigayotgan oltin-valyuta zaxiralarning kupayishi bilan izoxlash mumkin. Oltin va valyuta zaxiralarning etariligi bir kancha Janubiy-Sharkiy Osiyo mamlakatlarida yuz bergan moliyaviy inkizoz paytida intervensiya kilishga asosiy manba bulib xizmat kildi.

Uzbekiston Respublikasi Markaziy banki xakidagi konunning 42-moddasida xalkaro zaxiralar tugrisida kuyidagicha kayd etib utilgan:

«Markaziy bank uzining balans xisoblarida Uzbekiston Respublikasining xalkaro zaxiralarini shakllantiradi. Bu zaxiralar kuyidagilarni:

- oltin va boshka kimmatbaxo metallarni;
- nakd chet el valyutasini;
- chet el banklarida, xalkaro moliya tashkilotlarida xisobvaraklar va depozitlarda bulgan chet el valyutasi koldiklarini;
- chet el xukumatlari, banklari va xalkaro moliya tashkilotlari chikargan yoki kafolatlangan chet el valyutasidagi kimmatli kogoziarni uz ichiga oladi.

Markaziy bank Uzbekiston Respublikasining monetar xamda valyuta siyosatini amalga oshirish uchun, shuningdek, xalkaro operatsiyalar buyicha xisob-kitoblarni ta'minlash uchun etarli bulgan darajada xalkaro zaxiralalar saklab turilishiga yordam beradi.

Mamlakat valyuta siyosatini takomillashtirish kuyidagi vazifalarni samarali bajarishga kup jixatdan boglik:

1. Markaziy bankning pul-kredit instituti sifatida iktisodiyotdagi mavkei avvalo, uning banknota emissiyasi soxasidagi monopol mavkei va pul-kredit siyosatining ta'sirchanligi bilan belgilanadi. Bu esa, uz navbatida, xal kiluvchi darajada Markaziy bankning xukumatdan mustakilligiga boglik.

2. Markaziy bankning valyuta siyosati doirasidagi bajaradigan barcha operatsiyalarini 3 asosiy turi mavjud, ya'ni:

- a) valyuta intervensiyasini boshkarish bilan boglik operatsiyalar;
- b) rasmiy oltin-valyuta zaxiralarni boshkarish bilan boglik operatsiyalar;
- v) xukumatning tashki karzini tulash bilan boglik operatsiyalar.

Yukoridagi paragraflarda amalga oshirilgan taxlil natijalari shuni kursatadiki, Uzbekiston Respublikasi Markaziy bankining ta'sirchanligini oshirish borasida bir kator muammolar mavjud va ularni xal kilish dolzarb masalalardan biri bulib turibdi.

Markaziy bankning valyuta siyosatining ta'sirchan-ligini oshirish maksadida kuyidagi vazifalarni xal kilish lozim:

1. Xukumatning tashki karzini tulash bilan boglik operatsiyalarni tulik Markaziy bank ixtiyoriga berish.

Ushbu masala xal kilinmasa, Markaziy bank valyuta mablaglari xarakatini pul massasiga ta'siri bilan boglik jixatlarini tulik nazorat kilish imkoniyatiga ega emas.

Shu narsa yakkol kurinib turibdiki, Markaziy bank xukumatning tashki karzini tulash bilan boglik valyuta mablaglarining xarakatida bevosita ishtirok etish xukukiga ega emas. Xukumatning uzini moliyalashtirish manbalariga ega ekanligi markaziy bankning ushbu jarayondagi ishtirokini cheklab kuyadi. Buning ustiga, xukumatning tashki karzini tulashda manba bulib xizmat kiluvchi Respublika Valyuta Fondi Tashki iktisodiy faoliyat Milliy bank xuzuridadir.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda, xususan, AKSh, Germaniya, Avstriya Markaziy bankning xukumatning tashki karzini tulashdagi ishtiroki kattaligini kurish mumkin.

2. Uzbekiston Respublikasi Markaziy bankining valyuta siyosati doirasida amalga oshiradigan asosiy vazifalaridan biri — mamlakatda tijorat tusidagi valyuta operatsiyalarini rivojlantirish uchun kulay muxit yaratish xisoblanadi. Xozirgi kunda muddatli operatsiyalarni rivojlantirish juda dolzarb va murakkab masala bulib turibdi. Buning uchun esa, joriy bozorni rivojlantirish zarur. Avvalo, Respublika Valyuta Birjasini likvidli-ligini tulik ta'minlash zarur. Chunki, xar kandy turdagi muddatli valyuta operatsiyasi - «svop», «Forvard», valyutaviy opsiyonlar va fyucherslar bilan boglik operatsiyalar pirovard natijada SPOT bozorining likvidliligiga boglik.

Markaziy bank «GOLD-SVOP» operatsiyalari vositasida SPOT bozorining likvidliligini ma'lum vakt mobaynida ta'minlab turishi mumkin. Ammo, bunda SPOT bozoridagi likvidlilik doimiy tusga ega bulishi lozim. Aks xolda «GOLD-SVOP» operatsiyalari jiddiy zarar keltirishi mumkin. Bunda SPOT bozorining likvidliligi yanada pasayib ketishi mumkin.

3. Uzbekiston Respublikasi Markaziy banki valyuta siyosatining ta'sirchanligini oshirish bilan boglik muxim masalalardan biri, iktisodiyotni chet el valyutalarida kreditlash jarayoniga kumaklashish mumkin.

Iktisodiyotni tarkibiy jihatdan kayta kurish davom etayotgan xozirgi sharoitda chet el valyutalarida kredit olishga talab kuchli. Bu talab esa, uz navbatida, tijorat banklari tomonidan «spred» darajasini yukori belgilashga imkon beradi. Bu esa, investitsiya faolligini ma'lum darajada bugib kuyishi mumkin. Lekin, tijorat banklari yukori darajada foyda olishga erishadilar. Sababi shundaki, ular kichik «spred» bilan kredit oladilar va yukori darajadagi talabga asoslangan xolda «spred» darajasini oshiradilar.

Ana shu xolatga barxam berish maksadida Markaziy bank garovli kreditlar mexanizmidan foydalanish kerak. Buning afzalligi shundaki, Markaziy bank tijorat banklarining vakillik xisobvaraklari koldiklarini ma'lum kismini garov sifatida olib, bozor darajasidan past stavkada xorijiy valyutada kredit berish mumkin. Bunda berilgan kredit summasiga egalik kilish Markaziy bank tasarrufida koladi. Shu yul bilan Markaziy bank chet el valyutasidagi kreditlarning foiz stavkasiga ta'sir kiladi. Asosiy masalalardan biri, bu erda, garovga olingan summalarga foiz tulash xususida buladi. Sababi shundaki, bu summalarga bozor stavkasida foiz tulash kerakmi yoki, undan past stavkada foiz tulash zarurmi, degan savol tugiladi.

## UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR

1. Mamlakatlar valyuta intervensiyalarini kanday amalga oshiradilar?
2. «Luvr kelishuvi»ning maksadi nimadan iborat edi?
3. Uzbekiston Respublikasining xalkaro zaxiralari nimalardan iborat?
4. Mamlakat valyuta siyosatini takomillashtirish uchun kanday vazifalarni bajarish lozim? Valyuta siyosatining ta'sirchanligi oshirish uchun-chi?
5. «GOLD-SVOP» operatsiyalarining moxiyati nimadan iborat?

### ATAMALARDA TIL MUAMMOSI

Turli mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan TMKlar uz maxsulotlarini turli xil tillarda «jarangdor» nomlanishiga erishishga xarakat kiladilar, Masalan, «Djeneral Motors» kompaniyasi modellarni «Nova» deb nomlanishi Lotin Amerikasi bozorlarida oson kabul kilinadi, deb uylangan edi. Chunki, ushbu suz ispan tilida «yulduz» degan ma'noni anglatar edi. Ammo, axoli ushbu modellarni «no va» deb kullay boshladi va bu u ispan tilida «ishlamaydi» degan tushunchani keltirib chikardi. «Koka-kola» kompaniyasi uz firma tovarlarini global kenglikda kullashga xarakat kilardi. Ammo, tez orada «Dayet-Kouk» termini nemis va italyan tillarida kasallar uchun ishlatiladigan dieta, ya'ni u «dieta uchun Koka-kola ichimligi» degan ma'noni bildirishi ma'lum buldi. Shu sababli, ushbu marka AKSh tashkarisida «Koka-kola Layt» (Engil Koka-kola) nomini oldi.

Bir necha yillar davomida Buyuk Britaniyada «Maraton» va «Snickers» plitkali shokolad ishlab chikaruvchi «Mars» kompaniyasi, ushbu maxsulotlar nomlanishini birlashtirib, yagona xalkaro markani yaratish ustida boshkotirdi. Shuningdek, bu choraga «Snickers» nomlanishini kupchilik xollarda, Angliyada ayollarning ichki kiyimini bildiruvchi «nikers» suzi kabi talaffuz kilinishi xam turtki berdi.

Talaffuz bilan boglik yana bir kancha muammolar yuzaga chikishi mumkin: savdo markasini nomlanishidagi tovush boshka mamlakat tilida umuman yuk bulishi, yoki u ba'zan muomalada kullanilmaydigan axloksiz suzni bildirishi mumkin.

«Ronald Mak-Donald» Yaponiyada uzini «Donald Mak-Donald» deb ataydi. Chunki, Yaponlar R xarfini talaffuz etishda kiynalishadi. Marsel Bich (Macel Bich) uzining firmasi tomonidan ishlab chikariladigan avtoruchkalarda uz familiyasidagi oxirgi h xarfini yozishdan voz kechdi.

Aks xolda, ushbu suz ingliz tilida noxush ma'no beruvchi suzga aylanib kolardi.

Frantsiyaning alkogolsiz xoratbaxsh ichimliklar ishlab chikaruvchi mashxur «Perve» (Perrier) firmasining ingliz tilida «Pshit»(Pschitt) deb talaffuz kilinadigan maxsulotlari, xaridorlar ishtaxasini ancha tushirib yubordi.

«Yunilever» firmasiga koyil kolsa buladi. U muammoning echimini topganga uxshaydi. «Yunilever» uz trikotaj maxsulotlarini yumshatishda kullaniladigan maxsus tovarni kadoklayotganda xech kanaka nom emas, balki uzining firma belgisi - uyinchok ayikcha suratini tushirdi. AKShda «Snaggl» (Snuggle) deb nomlana boshlagan ushbu maxsulot, Germaniyada Kyushelvyaysh (Kuschelwiech) Frantsiyada «Kajolin» (Cajoline), Italiyada «Kokkalino» (Coccolino), Ispaniyada «Mimosin» (Mimosin) degan nom oldi. Xattoki, ingliz tilida suzlashuvchi Avstraliyada «Snaggl» boshkacharak ma'noni berardi va shuning uchun firma uni «Xaggi» (Huggy) degan nom bilan almashtirdi.

Kizik... agar Uzbekistonda ishlab chikarilayotgan tovarlar chet ellarda xam ishlab chikarila boshlansa, yoki sotilsa, xorijiy tillarda ular kanday ma'nolarni berarkin?

## V BOB. MAMLAKT TULOV BALANSINING XALKARO MOLIIYa MUNOSABATLARDAGI ROLI

### 5.1. TULOV BALANSINING IKTISODIY MOXIYATI

Barcha mamlakatlar zamonaviy jaxon xujaligining a'zosi bulib xisoblanadi xamda ular jaxon xujaligining iktisodiy tizimi orkali tashki iktisodiy alokalarga ega bulmasdan, aloxida faoliyat yurita olmaydilar. Mamlakatning uz xamkorlari bilan bulgan tashki iktisodiy alokalari uning jaxon xujaligidagi alokalari bulib, milliy iktisodiyotni xalkaro xujalik bilan boglab turadi. Shu sababli xam, «tashki iktisodiy va xalkaro alokalar xamda operatsiyalar» va «jaxon xujaligi alokalari» atamalarini sinonim sifatida kabul kilish mumkin.

Jaxon xujaligi alokalari uz rivoji davomida ma'lum bir boskichlarni bosib utgan xolda rivojlanib, mazmun va moxiyatan boyib boradi: savdo va xizmatlar kursatishdan – kapital olib chikish va xalkaro ishlab chikarishni yulga kuyish, keyinchalik esa — valyuta, kredit, kimmatli kogozi bozori yagona jaxon bozori darajasiga kutarilmokda.

Jaxon xujaligi alokalarining evolyutsion generatori bulib, dunyoning rivojlangan mamlakatlari xizmat kiladi. Xalkaro iktisodiy alokalarining sifat jixatdan yangi boskichga kutarilishi, mazkur davlatlarning integratsiya-lashuvi natijasida kelib chikmokda. Mamlakatlar urtasida iktisodiy alokalardan tashkari siyosiy, xarbiy, madaniy va boshka turdagi alokalar mavjud bulib, ular natijasida pulli tulovlar xamda xisob-kitoblar yuzaga keladi. Davlatning kup kirrali alokalarining yigindisini, uning xalkaro operatsiyalari buyicha balans xisobvaragida kurish mumkin. Bu xujjat tulov balansi deb nomlanadi.

**Tulov balansi** — xalkaro operatsiyalarning balans xisobvaragi, ya'ni bu — davlatning tovarlar, xizmatlar, kapitallarni olib kirish xamda olib chikish kursatkichlarining nisbati kurinishidagi barcha xalkaro alokalari majmuining puldagi ifodasi. Xalkaro operatsiyalarning balans xisobvaragi uz moxiyati jixatdan mamlakatning tashki iktisodiy alokalarining kulami, tarkibi va tusi jixatdan mikdoriy va sifat kurinishini xamda uning xalkaro xamjamiyatdagi urnini belgilaydi. Amaliyotda «Tulov balansi» deb ataluvchi termindan foydalanishga kunikma xosil kilingan bulib, barcha operatsiyalar buyicha valyuta okimlariga kiruvchi va chikuvchi kurinishlarda farqlash kelishib olingan.

Nashr kilinadigan tulov balanslaridagi ma'lumotlar fakat tulangan va ma'lum muddatga tulinishi shart bulgan kismdan iborat bulibgina kolmay, balki xalkaro darajadagi talablar va majburiyatlar tugrisidagi kursatkichlarni xam uz ichiga oladi. Bu esa, kuplab iktisodiy alokalar, kredit asosida amalga oshirilgan-ligidan dalolat beradi.

Sunggi paytlarda, tulov balansiga kushimcha ravishda, **mamlakatning xalkaro aktivlari va passivlari tugrisidagi balans** xam nashr etilmokda. Bu esa, mamlakatning jaxon xamjamiyatiga integratsiyasi kanday darajada ekanligidan dalolat beradi. Bu xujjatda, mamlakatning bergan va olgan kreditlari, investitsiyalari va boshka moliyaviy aktivlarining kursatkichlari nisbiy kurinishlarda ifoda etiladi. Bu borada ma'lum bir mamlakatlar olgan mablaglar yuzasidan ustunlikka ega bulsa, boshka birlari esa, berilgan mablaglar yuzasidan ustunlik kiladi. Ayrim mamlakatlarda esa, xar ikkala kursatkich xam bir xilda yukori darajada. Bu borada AKSh xorij moliyaviy resurslarini netto-import kiluvchi sifatida yukori urinlarda turadi. Xalkaro moliyaviy xolat va tulov balansi kursatkichlari uzaro alokador buladi.

Uz iktisodiy mazmuniga kura, ma'lum bir vaktga nisbatan va ma'lum bir davr davomida tuzilgan tulov balanslari farqlanadi. Tulov balansini ma'lum bir vaktga nisbatan mukim xolda aks ettirish kiyin, chunki undagi xolat vakt sayin, tulovlar va olinadigan tushumlar buyicha uzgarib turadi.

Buxgalteriya nuktai nazaridan, tulov balansi doimo tenglashgan kurinishda bulishi lozim. Ammo, xakikatda esa, uning asosiy elementlari, bulimlari buyicha tushumlar tulovlardan ortik — **aktiv koldik**; tulovlarning tushumlar-dan ortik bulishi — **passiv koldik** xolatlar kuprok yuzaga chikadi. Shu sababli xam, tulov balansini tuzish xamda koldiklarni aniklash, aloxida axamiyat kasb etadi. Tulov balansini tuzish nazariyasi va amaliyoti jaxon xujaligidagi uzgarishlarga boglik xolda uzgarib bormokda. Xozirgi kunda tulov balansi turli kurinishlarda aks ettirilmokda.



**Tulov balansining tarkibi.** Tulov balansi quyidagi asosiy bulimlardan tashkil topgan:

- savdo balansi, ya'ni tovarlarning olib kirilishi va olib chikilishi urtasidagi nisbat;
- xizmat va notijorat tulovlar balansi;
- uz ichiga tovarlar, xizmatlar va bir yoklama tulovlar xarakterini oluvchi joriy operatsiyalar balansi;
- kapital va kreditlar xarakterining balansi;
- rasmiy valyuta zaxiralari buyicha operatsiyalar.

**Savdo balansi.** Tarixiy nuqtai nazardan olib karaganda, tashki savdo — xalkaro iktisodiy munosabatlarning ilk kurinishi bulib, milliy xujaliklarning jaxon xamjamiyatiga alokasini ifodalaydi. Xalkaro savdo orkali, dunyoda mexnat taksimotiga binoan, mamlakat istikboli belgilab beriladi.

Tashki savdo kursatkichlari tulov balansida uziga xos axamiyat kasb etadi. Tovarlar eksporti va importi kursatkichlari savdo balansi asosini tashkil etadi.

Xar bir davlatning aktiv yoki takchil koldigi, uning dunyo xamjamiyatiga bulgan integratsiyasiga chambarchas boglik. Ayrim rivojlangan mamlakatlar (Yaponiya, GFR va boshkalar) uz aktiv koldiklarini kapital eksporti, xorijda kushimcha iktisodiyotni yulga kuyish kabi masalalarga safarbar etadi.

Passiv savdo balansi, mamlakatning xalkaro jixatdan kuchsizrok ekanligini bildirib, unga ega bulish maksadga muvofik emas. Bu xol esa, valyuta tushumlariga muxtoj bulgan ayrim mamlakatlar uchun tugri xisoblanadi. Sanoat ishlab chikarishga ixtisoslashgan mamlakatlar uchun, bu kursatkich boshka bir moxiyat kasb etadi. Masalan, mamlakat savdo balansidagi takchilik, mamlakat bozoriga chetdan keladigan rakobatchilar sonini oshiradi.

**Xizmatlar balansi** uz ichiga transportli tashuvlar, sugurta, elektron, telekosmik, telegraf, telefon, pochta va boshka aloka turlari buyicha, xalkaro turizm, ilmiy-texnik va ishlab chikarish malakasining almashinuvi, ekspert xizmatlari, diplomatik, savdo va boshka vakolatxonalarini xorijda saklash xarajatlari, ma'lumotlar uzatish, madaniy va ilmiy almashinuvlar, turli komission yigimlar, reklama, yarmarkalar xamda boshkalar buyicha tulov va tushumlarni oladi. Xizmatlar xozirgi kunda dunyo iktisodiy alokalarining eng dinamik xolda rivojlanayotgan kismi bulib, uning tulovlar va tushumlar xajmiga bulgan ta'siri doimo usib bormokda. Odatiy xisoblangan xizmatlar (transport, sugurta) savdo tashuvlarining xajm va shakl jixatdan kayta shakllanishi, ulardagi yarim tayyor maxsulotlar urnining oshishi, xalkaro kooperatsiya va ixtisoslashuvning rivojlanishi tufayli tubdan kayta tiklanmokda. Rivojlangan mamlakatlarda yashash darajasining usishi bois, xalkaro turizm kulamlari, buning tarkibida ishlab chikarishning xalkaro tus olib borishi tufayli, ishbilarmon tashriflar xam keskin ortib bormokda.

Xalkaro ishlab chikarish, ilmiy-texnika inkilobi va boshka baynalmilallashuv omillar, litsenziyalar, nou-xau, boshka kurinishdagi ilmiy-texnik va ishlab chikarish tajribasi, lizing xizmatlari (uskunalar ijarasi), ishbilarmon maslaxatlar xamda boshka ishlab chikarish va shaxsiy tusdagi xizmatlar savdosi kun sayin rivojlanib bormokda. Xalkaro statistika koidalariga binoan, «xizmatlar» deb ataluvchi bulimda xalkaro kreditlar foizlari va investitsiyalar daromadlari buyicha tushumlar xisobga olinib kelinmokda, vaxolanki, bu tulovlar uz iktisodiy mazmuniga kura, kapital xarakteriga kuprok yakinligi mavjud.

XVF uslubiga kura, **bir tomonlama utkazmalarni** aloxida bir element kilib kursatish kabul kilingan. Bularning tarkibiga quyidagilar kiradi: 1) davlat operatsiyalari — boshka davlatlarga beriladigan iktisodiy yordam kurinishidagi subsidiyalar, davlat nafakalari, xalkaro tashkilotlarga beriladigan badallar; 2) xususiy operatsiyalar — ishchi, mutaxassis, karindoshlarning uz vataniga kiladigan pulli kuchirmalari. Bu turdagi operatsiyalar katta iktisodiy axamiyat kasb etadi. Italiya, Turkiya, Ispaniya, Gretsiya, Portugaliya, Pokiston, Misr va boshka davlatlar uz fukarolarining xorijda ishlashiga ijobiy nazar bilan karashadi. Chunki, ular mamlakatga valyuta okimini olib keladilar. GFR, Frantsiya, Buyuk Britaniya, AKSh, Shveysariya, JAR kabi mamlakatlar tulov balanslarida bu modda takchil xisoblanadi, chunki bu mamlakatlarga xorijiy ishchilar kelib, uzlari bilan ishlab topgan mablaglarini olib chikib ketadilar.

Yukorida nomlari keltirib utilgan: investitsiyadan olinadigan daromadlar xarakati, xarbiy tUSDagi bitimlar va bir tomonlama utkazmalarini «**kurinmas**» operatsiyalar deb atashadi, chunki ularning moddiy boyliklar xarakatiga xech kanday ta'siri yuk.

**Joriy operatsiyalar** buyicha tulov balansni tarkibiga savdo balansni va «kurinmas» operatsiyalar kiradi. Tulov balansni tuzishning ayrim uslublari davlatning bir tomonlama utkazmalarini aloxida modda buyicha ifoda etishni va uning koldigini joriy operatsiyalar buyicha koldikka kushmaydi. Bu operatsiyalarning joriy operatsiyalar deyilishiga sabab, dunyodagi tovarlar va xizmatlar savdosini moliyaviy resurslar xarakatidan ajratib, aloxida ravishda takdim etishdan iborat.

**Kapital va kreditlar xarakati balansida** xususiy va davlat kapitallarining olib kelinishi yoki olib ketilishi, olingan yoki berilgan xalkaro kreditlarning uzaro nisbatlari ifoda etiladi. Uz iktisodiy mazmuniga kura, bu operatsiyalar 2 kategoriyaga bulinadi: tadbirkorlik va ssuda kapitalining xalkaro xarakati.

**Tadbirkorlik kapitali** tugridan-tugri, bevosita xorijiy investitsiyalar (korxonalarini xorijda sotib olish yoki kurish) va portfel investitsiyalar (xorijiy kompaniyalarning kimmatli kogozlarini sotib olish) ni uz ichiga oladi. Bevosita investitsiyalar uzok muddatli kapitalni olib chikib ketishning eng muxim shakllaridan biri bulib, tulov balansiga sezilarli ta'sir kursatadi. Ular karz majburiyatini anglatmaydi, chunki bunday operatsiyalar, odatda, mulk sotib olish bilan boglik buladi. Bunday investitsiyalar natijasida, xalkaro ishlab chikarish rivojlanib, milliy iktisodiyotlarni dunyo xujaligiga boglanishi mustaxkamlanadi. 1997 yilga kelib, barcha mamlakatlarning bevosita investitsiyalari yigindisi bilan xisoblanganida 3 trln. AKSh dollarini tashkil kilgan edi. Tadbirkorlik kapitalining olib chikib ketilishi, ishlab chikarish va tashki savdo rivojiga nisbatan tezrok rivojlanmokda. Bu esa, uning baynanmilalashuv va globalizatsiya jarayonidagi urni yukoriligidan dalolat beradi.

Bevosita xorijiy investitsiyalarning ikkidan uch kismidan kuprogi rivojlangan davlatlarning uzaro kapital kuyilmalari buyicha almashinuvidir. Bu esa, rivojlangan mamlakatlarning uzaro iktisodiy alokalari boshka davlatlar bilan bulgan alokalarga nisbatan mustaxkamrok tus olib borayotganidan dalolat beradi.

**Xalkaro ssuda kapitali** uz muddatliliigi bilan turli kurinishlarda tasniflanadi:

Uzok muddatli va urta muddatli operatsiyalar bir yildan ortik muddatga takdim etilgan, davlat va xususiy zayom va kreditlarni uz ichiga kamrab oladi. Davlat zayom va kreditlarini oluvchi mamlakatlar bulib, iktisodiy rivojlanish darajasi buyicha etakchi mamlakatlardan birmuncha orkarokda bulgan davlatlar maydonga chikmokdalar. Rivojlangan davlatlar esa, asosiy kreditor sifatida faoliyat yuritmokdalar. Keyingi yillarda, xususiy zayom va kreditlar bilan buladigan vaziyat uzgacharok tus olmokda. Bu erda xam, rivojlanib kelayotgan mamlakatlar, rivojlangan davlatlarning korxonalaridan, kredit-moliya institutlari-dan karz olishga majbur bulishi kuzatilmokda. Rivojlangan davlatlarning korporatsiyalari uz obligatsiyalarini dunyo bozorlariga kuyishi natijasida, kuplab mikdorda kapital yigib oladilar.

Kiska muddatli operatsiyalar uz ichiga bir yilgacha bulgan xalkaro kreditlarni, milliy banklarning xorijiy banklardagi joriy xisobvaraklari (avuarlar), kapitalning banklararo xarakatini aks ettiradi.

Oxirgi 20 yil ichida banklararo kiska muddatli kreditlar bilan boglik operatsiyalar keskin uzgarishga uchradi. Agarda, utgan asrning 60-70 yillarida «issik» pullarning xarakati ustunlik kilgan va Brettonvud valyuta tizimining inkiroziga olib kelgan bulsa, 80-90 yillarda esa, kiska muddatli kapital okimlari, asosan, evrovalyuta bozorlari orkali amalga oshadigan buldi.

Tulov balansiga ma'lumot yigish va ularni statistik kayta ishlash uslubiyatlarining mukammalashib borishiga karamasdan, ayrim xato va kamchiliklar xali xam sezilib turibdi. Shu boisdan xam, «**Xato va kamchiliklar**» moddasi maxsus kiritilgan bulib, unda statistik xatolar va nazardan chetda koldirishlar xisobga olib boriladi. Mutaxassislarining ta'kidlashlaricha, kiska muddatli kapital xarakati, ayniksa inkiroz davrlarida xisobga olish borasida ayrim kiyinchiliklarni yuzaga chikarmokda.

Tulov balansining eng oxirgi moddalarida, likvid valyuta aktivlari bilan boglik operatsiyalar aks ettirilib, bu erda davlatning valyuta organlari xam ishtirok etadi va natijada rasmiy oltin-valyuta zaxiralarning mikdori va tarkibining uzgarishiga olib keladi.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Jaxon xujaligida kandy alokalar mavjud?
2. Mamlakatning tulov balansini nima?
3. Tulov balansining aktiv va passiv balans koldiklari nimani bildiradi?
4. Tulov balansining tarkibiy tuzilishini tushuntiring.
5. Savdo balansini uzida nimalarni aks ettiradi?
6. Xizmatlar balansini kaysi moddalardan tashkil topgan?
7. Bir tomonlama utkazmalar kandy aks ettiriladi?
8. «Kurinmas» operatsiyalar kandy operatsiyalar?
9. Joriy va kapitallar xamda kreditlar balansining farkli jaxatlari nimada?

## 5.2. XORIJIY VALYUTA VA VALYUTA OPERATSIYALARI

1993 yilda kabul kilingan Uzbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish tugrisida»gi konunida, **xorijiy valyutaga** quyidagicha ta'rif berilgan:

- xorij davlatlarida muomalada yuruvchi va konuniy tulov vositasi xisoblanadigan pul birliklari, shuningdek, muomaladan olinayotgan yoki olingan bulsada, respublikamiz pul birliklariga ayirboshlanishi kuzda tutilgan banknotlar;
- chet el davlatlarining pul birliklari va xalkaro pul birliklarining xisobvaraklardagi va depozitlardagi mablaglari.

Mazkur konun, shuningdek, «valyuta kimmatliklari» va «valyuta operatsiyalari» tushunchalariga xam anikliklar kiritadi. Unga muvofik, valyuta kimmatliklari quyidagilardir:

- xorijiy valyuta;
- xorijiy valyutadagi kimmatbaxo kogoslar — fond kimmatliklari (aktsiya, obligatsiya va boshkalar);
- xorijiy valyutadagi tulov xujjatlari (chek, veksel, akkreditiv va boshkalar);
- kimmatbaxo metallar — oltin, kumush, platina va platina guruxiga kiruvchi metallar (palladiy, iridiy, rodiy, ruteniy va osmiy) xar kandy kurinishda, shuningdek, lom kurinishida (xar xil yuvelir kurinishidagilar bundan mustasno);
- tabiiy kimmatbaxo toshlar — olmos, rubin, zumrad, sapfir va aleksandirtlar (palladiy, iridiy, rodiy, ruteniy va osmiy), xamda gavxarlar xar kandy kurinishda, shuningdek lom kurinishida (xar xil yuvelir kurinishidagilar bundan mustasno).

«Valyuta operatsiyalari» esa, quyidagilardir:

- valyuta kimmatliklaridagi mulkka egalik xukuki bilan boglik operatsiyalar, shu jumladan, xorijiy valyutadan tulov vositasi sifatida foydalanish bilan boglik operatsiyalar xamda Uzbekiston Respublikasi milliy valyutasidan tashki iktisodiy faoliyatda foydalanish bilan boglik operatsiyalar;
- xorijdan Uzbekiston Respublikasi xududiga olib kirilayotgan va junatilgan xamda Uzbekiston Respublikasi-dan xorijga olib chikilayotgan va junatilayotgan valyuta kimmatliklari;
- xalkaro pul utkazmalari.

Yukorida kayd etilgan valyuta operatsiyalarini tijorat banklaridan fakatgina «vakolatli banklar» nomini olganlari amalga oshiradilar. Vakolatli banklarga Uzbekiston Respublikasi Markaziy bankining valyuta operatsiyalarini amalga oshirish xukukini beruvchi Bosh litsenziyasini olgan xissadorlik-tijorat, tijorat, kooperativ va xususiy banklar, shu jumladan, chet el ishtirokidagi kushma banklar (filiallar, vakolatxonalar) xam kirishi mumkin.

Xorijiy valyutadagi operatsiyalar ikki turga, ya'ni **joriy va kapital xarakati** bilan boglik valyuta operatsiyalariga bulinadi.

### **Joriy valyuta operatsiyalari:**

- tovarlarni (bajarilgan ishlar, kursatilgan xizmatlar) eksport va import kilish buyicha xisob-kitoblar, valyuta kimmatliklarining oldi-sotdisi, intellektual mulkka egalik xukukini sotish, karz mablaglarini jalb kilish yoki takdim etishni kuzda tutmagan, kechiktirilmaydigan tulovlar buyicha xisob-kitoblar;
- bank omonatlari, kredit, investitsiya va boshka moliyaviy operatsiyalardan olingan xorijiy valyutadagi daromadlarni chet elga va chet eldan foiz, dividend va boshka kurinishdagi utkazmalar;
- nosavdo tUSDagi (ish xaki, nafaka, meros va shu kabilarni) utkazmalar, shuningdek, shunga uxshash boshka operatsiyalar kiradi.

### **Kapital xarakati bilan boglik valyuta operatsiyalari:**

- investitsiya, shu jumladan, chet eldan xarid kilingan va chet elga sotilgan kimmatbaxo kogoslar;
- berilgan va olingan xalkaro kreditlar;
- jalb kilingan va xisobvaraklarga va jamgarmalarga joylashtirilgan mablaglar;
- valyuta kimmatliklarida tulovni amalga oshirish uchun moliyaviy operatsiyalar yoki ma'lum vaktndan sung, ularning mulkiy egalik xukuki kiradi.

Xorijiy valyutadagi bitimlar dunyoning kuplab banklarida, taxminan, ertalab soat 9<sup>00</sup> da boshlanadi, biroq, dilerlarning ish faoliyati bu bitimlarni tuzishdan kamida bir soat oldin boshlanadi. Xar kuni ertalab, chet el valyutasi buyicha mas'ul xodim (bulim boshligi) uzining xodimlarini bitimlar tuzish buyicha me'yoriy xujjatlar, xamda zaruriy ma'lumotlar va yangiliklar bilan ta'minlaydi. U uzi yunalishni kayta kurib chikadi (bozorni bir necha oy oldin taxlil kiladi) va kuyidagi omillar asosida uz taktikasini aniklaydi:

a) Flouting tizimida ayirboshlash stavkalarida aniklovchi valyuta va foiz stavkalarining iktisodiyotda uzgarishi asosiy omillardan bulib kolmokda. Bunda, ularbitimlar muddatini kursning tushishi bilan xisoblashish-masa, u xolda xuddi shu bitimlar kursining oshishi bilan xisoblashishga majbur buladilar.

b) Siyosiy omillar. Mazkur omillarga ijtimoiy xolat, xukumatning almashishi va shu kabi valyuta bozoriga ta'sirini kursatishi mumkin bulgan omillar kiradi. Kupchilik xolatlarda, ushbu omillar bozor xolatini belgilovchi eng muxim omil bulishi mumkin.

v) Bankning chet el valyutasidagi uz pozitsiyasi.

Bozor iktisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda, kurs asosan, yirik banklar va yirik milliy xamda transmilliy kompaniya va korporatsiyalarning market-meykerlari tomonidan, kutilayotgan talab va taklif urtasidagi farkka boglik xolda urnatiladi.

**Market-meykerlar** — bu turli valyutalarni bitimlar buyicha sotib olish va sotish kurslari kotirovkasini doimiy ravishda amalga oshiruvchi moliya muasassalari xisoblanadi. Bozorning passiv ishtirokchilari sezilarli darajadagi kapital bilan katnashayotgan bulsalarda, bozor xolatiga kuchsiz ta'sir kursatadilar va ularning faoliyati ochik bozordagi kurslarni professionallar tomonidan tartibga solishga majbur kilishi mumkin. Albatta, market-meykerlar fakatgina chet el valyutalarini milliy valyuta bilan solishtirmaydilar, balki ular milliy valyutaga tegmagan xolatda chet el valyutalarini uzlarini kotirovkalarini xam amalga oshirishlari mumkin. Umuman, ma'lum bir valyutalarni emitenti bulgan mamlakatlarda shu valyuta buyicha market-meykerlar mazkur mamlakatda joylashgan buladi. Evro buyicha etakchi market-meykerlarni Germaniyadan, Shveysariya franki buyicha esa, Shveysariyadan topish mumkin. Market-meykerlar uzi mutaxassis bulib xisoblangan valyutani oldi-sotdi kursi kotirovkasini amalga oshiradi. Nisbatan kam banklar, butun dunyo buyicha valyuta kotirovkasini beradilar, shunday bulsada, Buyuk Britaniyaning keng tarmokli kliring banklari kabilarni uz mijozlariga keng kulamda kotirovkalarini taklif etadi. Valyuta bozorida kam uchraydigan valyuta bilan boglik operatsiyalarni tijorat banklarida diling bulimini uzi emas, balki kushimcha bulimlar amalga oshiradilar. Kam uchraydigan valyutalar, asosan, valyuta bozori rivojlanmagan mamlakatlarda

yoki chet el valyutasi bilan boglik operatsiyalarga ma'lum bir cheklovlar kuyilgan mamlakatlarda uchraydi. Albatta, bunday cheklovlar mamlakat xududiga valyuta kirib kelishiga emas, balki kuprok chikib ketishiga joriy kilinishi keng kullaniladi. Agar, banklar ushbu (kam kullaniladigan) valyutalar buyicha mijozlarning talablarini bajara olmasa, ular uzlarining filiallari yoki boshka valyutalarda pul kabul kilish yoki tulovni amalga oshirish maksadida vakillik banklardan foydalanadilar.

Tijorat banklariga xorijiy valyutada operatsiyalarni amalga oshirish uchun Uzbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1998 yil 28 martda 31-son bilan tasdiklangan «Xorijiy valyuta operatsiyalarni amalga oshirish uchun tijorat banklariga litsenziya berish tartibi»ga asosan, uch xil litsenziya berilishi kuzda tutilgan:

- Bosh litsenziya. Ushbu litsenziyaga ega bulgan vakolatli banklar Uzbekiston Respublikasi xududida va xorijda barcha valyuta operatsiyalarini amalga oshirish xukukiga ega;
- Ichki litsenziya. Ushbu litsenziyaga ega bulgan vakolatli banklar Uzbekiston Respublikasi xududida tulik yoki chegaralangan valyuta operatsiyalarini amalga oshirish xukukiga ega;
- Bir martalik litsenziya. Ushbu litsenziyaga ega bulgan vakolatli banklar xorijiy valyutada anik bir operatsiyalarni amalga oshirish xukukiga ega.

Iktisodiyotning erkinlashuvi va xalkaro valyuta bozorlariga integratsiyaning kuchayishi natijasida, valyuta operatsiyalari, mamlakatimizda, tijorat banklarining yana bir daromad topish manbasini vujudga keltirmokda.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Tulov balansi nima uchun tuziladi va unda kaday kursatkichlar uz aksini topadi?
2. Amerikalik iktisodchilar Vasserman va Ueyr tulov balansiga kaday ta'rif berishgan?
3. Rezident kim?
4. Norezident kim?
5. Ushbu tushunchalarni Uzbekiston Respublikasi konunchiligida kabul kilingan ta'riflar bilan takkoslang.

### 5.3. EVROPA VALYUTA TIZIMI

Evropa valyuta tizimi - bu jaxon (xududiy) valyuta tizimi bulib, u iktisodiy integratsiya doirasida amal kiladigan iktisodiy munosabatlarning umumiy yigindisi; <umumiy bozor> mamlakatlari integratsiya jarayonlarini ragbatlantirish va valyuta kurslarini barkarorlashtirish maksadida valyuta munosabatlarini tashkil etishning davlat-xukukiy shaklidir.

Evropa valyuta tizimi - jaxon valyuta tizimining (Yamayka) kuyi shaklidir. Garbiy Evropa integratsiya majmuining uziga xos jixatlari, uning Yamayka valyuta tizimidan farklanuvchi kuyidagi tarkibiy tamoyillari bilan tavsiflangan edi:

- Evropa valyuta tizimi, evropa valyuta birligi - EKYuga asoslanadi;
- Oltinning amaldagi zaxira aktivlar sifatida ishlatilishi;
- Valyuta kurslarining tartibi belgilangan, uzaro tebranishlar doirasidagi valyutalarning <evropa valyuta iloni> shaklidagi suzishiga asoslanishi;
- Evropa valyuta tizimida valyutaning davlatlararo xududiy tartibga solinishi, markaziy banklarga valyuta intervensiyasi bilan boglik bulgan tulov balanslarining vaktinchalik takchilligini koplashga kreditlar ajratish yuli bilan amalga oshiriladi.

EKYu bilan SDRning takkoslama tavsifi, ularning umumiy va farkli jixatlarini ochib beradi. Umumiylik ularning: xalkaro xisob-kitoblarda jaxon kredit pullar sifatidagi kurinishida; banknotlarda emas, balki nakd pulsiz shaklda amal kilishida; ular shartli qiymatini aniklashda valyuta savati usulidan foydalanishda; schetlarda chegaradan ortik saklagani uchun emitentni mamlakatlarga foiz tulashi zarurligi kabilarda namoyon buladi. EKYu va SDRning farkli jixati sifatida kuyidagilarni ajratib kursatish mumkin:

1. EKYuning emissiyasi, SDRnikidan farkli ravishda, Evropa valyuta ittifokiga a'zo mamlakatlar oltin va dollardagi rasmiy zaxiralarining 20 foizini birlashtirish orkali ta'minlangan edi;
  2. EKYuni emissiyasi SDRnikiga karaganda egiluvchan edi. EKYuni chikarish summasi oldindan rasmiy belgilan-magan edi va u Evropa valyuta ittifokiga a'zo mamlakatlar oltin-dollar zaxiralarining uzgarishiga karab tartibga solingan; EKYuni emissiya xajmi SDRnikidan ancha yukori edi;
  3. Valyuta savati nafakat EKYuning kursini aniklashga xizmat kilgan, balki u birorta xam xalkaro valyuta birligi bajarmagan xisob-kitoblarda valyutaning paritet setkasi vazifasini bajargan;
  4. EKYuning kurs tartibi, uzaro tebranishlar doirasida (<evropa valyuta iloni>) birgalikda suzishga asoslangan edi. Bu EKYu va boshka evropa valyutalarning barkarorligini ta'minlardi;
  5. SDRdan farkli ravishda, EKYu nafakat rasmiy, balki xususiy sektorda xam kullanilgan. EKYu faoliyat doirasining kengayishiga kuyidagi sabablar bor edi:
- EKYu valyuta savati va <evropa valyuta iloni>, valyuta riskini pasaytirardi;
  - xar kaday bank EKYuni valyuta savatiga mos ravishda <nazorat kila olardi>. Bank uz mijozi bilan kelishgan xolda valyuta savatiga valyuta kushishi yoki undan olishi mumkin edi;
  - EKYu barkaror valyuta sifatida, mukobil jaxon valyutasi xisoblangan nobarkaror dollardan kura kuprok jaxon xujaligining extiyolarini kondira olardi.

Bir-necha yil davom etgan kizgin tortishuvlardan sung, 1987 yilda valyuta integratsiyasining rivojlanishida muxim rol uynagan, Yagona evropa akti imzolandi. 1991 yil <Delor rejasi> asosida, valyuta-iktisodiy ittifokni boskichma-boskich shakllantirishni kuzda tutuvchi, Evropa ittifoki tugrisidagi Maastrixt shartnomasi ishlab chikildi. 1992 yilning fevralida Maastrixtda (Niderlandiya) 12 ta mamlakat tomonidan Evropa ittifoki shartnomasi



ruyxatdan utkazildi va 1993 yilning 1 noyabridan ishga tushdi. Keyinchalik EIga Avstriya, Finlandiya, Shvetsiya kushildi.

Maastrixt shartnomasiga asosan, iktisodiy va valyuta ittifoki uchta boskichda amalga oshiriladi.

**Birinchi boskich** (1990 yil 1 iyul - 1993 yil 31 dekabr) - EI iktisodiy va valyuta ittifokining tashkil topishi. EIn tashkil etish buyicha barcha tayyorgarlik ishlari ishlab chikildi. Shuningdek, bu davrda EI ichida va EI bilan boshka uchinchi mamlakatlar urtasida kapitalning xarakatlanishi buyicha barcha tusiklar olib tashlandi. EIga a'zo mamlakatlar iktisodiy rivojlanish kursatkichlarini yakinlashtirish buyicha, shuningdek, inflyatsiyaga karshi va davlat byudjeti siyosatini muvofiklashtirish buyicha kator chora-tadbirlar ishlab chikildi.

**Ikkinchi boskich** (1994 yil 1 yanvar - 1998 yil 31 dekabr) a'zo-mamlakatlarni evroni kabul kilish buyicha xarakatlari yanada aniklashtirildi. Ushbu boskichda, Evropa Markaziy bankining(EMB) xukukiy, tashkiliy, moddiy-texnik xolatini belgilash uchun Evropa valyuta instituti tashkil etildi.

Shuningdek, mazkur boskichda:

- a'zo mamlakatlarning markaziy banklari tomonidan davlat sektori korxonalariga yordam kursatish xamda davlat karzlarini sotib olishni ta'kiklovchi konunlar kabul kilindi; Xuddi shu ta'kiklar EVI tashkil etilishining uchinchi boskichiga kelib, EMBga tegishli buldi;
- davlat sektori korxonalarining moliya institutlarini mablaglaridan foydalanishdagi imtiyozlari bekor kilindi;
- a'zo mamlakat davlat sektorining majburiyat-larini boshka mamlakat yoki EI tomonidan olinishi ta'kiklandi; Bu tadbir <kafolatlashdan bosh tortish tugrisidagi kelishuv> degan nom oldi;
- ishtirokchi-mamlakat davlat byudjetidagi takchillikning me'yoridan (davlat byudjeti takchilligi YaIMga nisbatan 3 foiz, davlat karzlari YaIMga nisbatan 60 foizdan) oshirmasligi talabi kuyildi;
- zarur bulganda, markaziy banklarga xuddi EMB kabi makom va mustakillik berish kabul kilindi.

1998 yil 2 mayda Evropa Ittifoki EVIning uchinchi boskichida kaysi mamlakatlarga evroga utishga ruxsat berish xakidagi karorni kabul kildi.

**Uchinchi boskichda** (1999-2002yy.)1999 yilning 1 yanvaridan boshlab, evro xududiga kiruvchi ishtirokchi mamlakatlarning milliy valyutalari evro kursiga nisbatan belgilandi, evro ularning umumiy valyutasi buldi. U EKYuni xam 1:1 nisbatda almashtirdi. Ishtirokchi-mamlakatlar uchun yagona pul-kredit siyosatini yurituvchi EMB uz faoliyatini boshladi.

Yagona pul-kredit siyosatining instrumentlari orkali, tijorat banklari va yirik kompaniyalarni evroda operatsiyalarni amalga oshirishi ragbatlantirildi.

1999 yilning 1 yanvaridan boshlab, xisob-kitoblar uchun, evro xududiga kiruvchi mamlakatlarning milliy valyutalarini evroga nisbatan kattik kursi belgilandi:

<b>Valyuta</b>	<b>1 evroga teng bulgan milliy valyutalar birligi</b>
Belgiya franki	40,3399
Nemis markasi	1,95583
Ispan pesetasi	166,386
Frantsuz franki	6,55957
Irlandiya funti	0,787564
Italiya lirasi	1936,27
Lyuksemburg franki	40,3399
Gollandiya guldeni	2,20371
Avstriya shillingi	13,7603
Portugaliya iskudosi	200,482
Finlandiya markasi	5,94573

1999-2002 yillarda uzaro nakd pulsiz xisob-kitoblarda evro va unga boglangan milliy valyutalardan foydalanildi, xududning barcha davlat xamda xususiy sektor aktiv va passivlari evroda nominatsiya kilina boshladi. Evro ittifokni yagona pul-kredit va valyuta siyosati yuritila boshlandi xamda EIning umummilliy bank institutlarining faoliyati boshlandi.

2002 yilning 1 yanvarida muomalaga evro banknoti va tangalari chikarildi, u milliy pul birliklari bilan parallel ravishda faoliyat yuritdi va milliy pullarni evroga almashtirish amalga oshirila boshlandi.

2002 yilning 1 iyulidan milliy valyutalar muomaladan chikarilib, ishtirokchi mamlakatlarning xujalik aylanmasi butunlay evroga utdi. Lekin, evro xududiga Buyuk Britaniya, Shveytsariya va Daniya mamlakatlari kirishni xoxlamadilar.

**Elining yagona valyuta va kredit bozorida kator moliya operatsiyalarining davlat tomonidan tartibga solinishini birxillashtirish va erkinlashtirish kutilmokda, xususan:**

- sugurta va pensiya fondlari endilikda, evro xududida investitsiya faoliyati bilan shugullanishda bir xil xukukka ega buladilar. Bu ularni majburiy tarzda davlat kimmatbaxo kogoslarini sotib olishga bulgan amaldagi tartibdan kutulib, uz portfellarini diversifikatsiya kilish imkoniyatini beradi;
- davlat kimmatbaxo kogoslarini joylashtirish buyicha birlamchi dilerlar, chegaralangan milliy ustunligini yukotadilar;
- ayrim mamlakatlarda, xozirgi kunda maxsus ruxsat talab etiladigan va kuchmas mulk garovi evaziga beriladigan kreditlar, evro xududida erkin va tez kuchib utuvchi tus oladi;
- xozirgi kunda, milliy pul-kredit siyosatining manfaatlarini kuzlab, uz xududida xamkor-mamlakat banklari faoliyatini nazorat kilish amaliyoti bekor buladi;
- EIda solik tizimlarining integratsiyasi jadallashadi.

Umuman, mutaxassislarning fikricha, evroning muomalaga kiritilishi bilan xalkaro iktisodiy, jumladan, moliya munosabatlarida sezilarli uzgarishlar amalga oshishi bashorat kilinmokda. Evro xududida pul va kapital bozorida taklifning kengayishi kutilmokda, chunki evro xududi mamlakatlari valyuta zaxiralarini oldingi xajmda saklashga extiyoj bulmaganligidan, valyuta zaxiralari xajmini kiskartirish amalga oshirilmokda. Bu xolat, mazkur bozorlarni yanada erkin va dinamik bulishiga olib keladi, unda asosiy xal kiluvchilik roli davlatdan, xususiy karz beruvchilarga utadi. Investitsiyalarning asosiy okimi esa, davlat majburiyatlariga emas, balki korxonalar kimmatbaxo kogoslarini sotib olishga yunaltiriladi. Bu, fond bozori bilan ishlab chikarishni boglab, kapital aylanmasini tezlashtiradi.

Evroni kiritilishi banklar uchun EIda yagona bank xizmati bozorini, shuningdek, yagona davlat va korporativ kimmatbaxo kogoslar bozorini vujudga kelishini bildiradi.

Sanoat korxonolari uchun, evroning kiritilishi, undan baxo va tulov vositasi sifatida foydalanish, shuningdek, xisob-kitoblar xamda valyuta riskini sugurtalash bilan boglik xarajatlar pasayishini bildiradi. Bu ayniksa, moliya korxonalarini soglomlash-tirishda muxim rol uynaydi. Ular aktsiyalarining daromadligi oshadi va nisbatan yaxshi rivojlanmagan Janubiy Evropa davlatlari iktisodiyotini Shimoliy davlatlar darajasiga tenglashishini tezlashtiradi.

Jaxon moliya markazlari masalasida esa, agar Buyuk Britaniya evro xududiga kushilmasa, unda etakchilik mavkei Londondan Frankfurt-Mayn va Parijga utishi kutilmokda. Elining valyuta va iktisodiy birlashuvi, kelgusida jaxon xujaligida kuchlar nisbatini <yangi Evropa> foydasiga karab uzgarishiga xamda AKSh va Yaponiyaning jaxondagi mavkeining kuchsizlanishiga olib kelishi mumkin.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Tulov balansining koldigi nima?
2. Tulov balansi moddalarini XVF usuliga kura tasniflash kanday amalga oshiriladi?
3. Joriy operatsiyalar balansi kontseptsiyasining kanday asosiy jixatlari mavjud?
4. Bazisli balans kontseptsiyasini tushuntiring.
5. Kanday sabablarga kura likvidlilik kontseptsiyasi yuzaga kelgan?
6. Yakuniy balans kontseptsiyasi kachondan boshlab kullanila boshlandi va uning oldingi kontseptsiyalardan kanday farkli jixatlari bor?
7. Valyuta kursi uzgargan paytda, davlat valyuta organlari valyutani kullab-kuvvatlash buyicha operatsiyalarni amalga oshirmasa, rasmiy xisob-kitoblar balansi moddalarida kanday uzgarishlar yuz beradi?
8. Fakat joriy operatsiyalar buyicha tulov balansi koldigini ulchashga kaytishga sabab nimada?
9. Nima maksadda XVF tulov balanslari tugrisidagi ma'lumotlarni nashr etib boradi?
10. Kursatkichlarni kayta xisoblashda kaysi usuldan foydalaniladi?

### **SOSA-SOLA VA MICROSOFT DUNYONING ETAKCHI BREND (MARKA)LARI SIFATIDA TAN OLINDI**

Business Week jurnali va Interbrand maslaxat kompaniyasi tomonidan tuzilgan dunyoning brendlari ruyxatida Coca-Cola etakchilik kilmokda. Kuchli unlikdan, shuningdek, Microsoft IBM, General Electric, Intel, Nokia, Disney, McDonald's, Malboro va Mercedes joy olishdi.

Ushbu reytingga bir-kancha talablarga javob beruvchi kompaniyalar kiritildi. Jumladan: birinchidan, kiymati milliard dollardan ortik bulishi, ikkinchidan, ushbu marka ostida sotilayotgan tovarlarning 20 foizidan ortigi xorijiy bozorlarda sotilishi kerak.

Yana bir majburiy shart — ushbu brend xakidagi marketing va moliyaviy axborotlarni olish imkoniyatlari bulishi lozim (mazkur talabga javob bermaganligi uchun Visa International, BBC va Mars reyting ruyxatidan chikarildi).

Reyting tuzish jarayonida amalga oshirilgan tadkikotlar natijasiga kura, Samsung, Nivea, Harley-Davidson, Starbucks kabi brendlar sezilarli muvaffakiyatlarga erishayotganligi kuzatilgan. Ericsson, Ford, AT&T, Boeing, Merrill Lynch kabilar esa, omadsizlar safidan joy olishgan.

## 5.4. TO'LOV BALANSINI TARTIBGA SOLISHNING ASOSIY USULLARI

To'lov balansi kadimdan davlat tomonidan tartibga solinadigan ob'ektlardan biridir. Bunday bo'lishiga quyidagilar sabab bo'lib xizmat qiladi:

**birinchidan**, to'lov balansiga tengsizlik, muvozanatsizlik xos bo'lib, bu xolat ayrim davlatlarda uzoq muddatli takchilik va xaddan tashkari aktiv koldik ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu nomutanosiblik valyuta kursi dinamikasiga, kapital kuchishiga, iktisodiyot xolatiga kattik salbiy ta'sir kursatadi. Masalan, AKSh joriy operatsiyalaridagi takchilikni milliy valyuta bilan koplash natijasida, inflyatsiyani boshka davlatlarga eksport qilishga erishgan. Xalkaro aylanmadagi dollar ortiqchaligini keltirib chikardi va XX asrning 70-yillarida Brettonvud tizimining izdan chikishiga olib keldi;

**ikkinchidan**, XX asrning 30-yillarida oltin zaxiralari bekor kilingandan so'ng, to'lov balansini tenglashtirishning baxo mexanizmi ish bermay kuydi. Shu sababli xam, to'lov balansini davlat tomonidan ma'lum tadbirlar orkali boshkarilishi maksadga muvofik bo'lib kolmokda.

**uchinchidan**, xo'jalik alokalari globallashib borayotgan bir davrda, iktisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimida to'lov balansining roli borgan sari ortib bormokda. Bu balansni tenglashtirish vazifasi — davlatning iktisodiy o'sish jadalligini ta'minlash, inflyatsiyani jilovlab turish va ishsizlikni kamaytirish kabi vazifalari bilan bir katorda tan olinmokda.

To'lov balansini tartibga solishning moddiy asosi bo'lib quyidagilar xizmat qiladi:

- rasmiy oltin-valyuta zaxiralari;
- milliy daromadning davlat byudjeti orkali taksimlanadigan kismi;
- davlatning xalkaro iktisodiy munosabatlarda kapital eksport kiluvchi, kreditor, kafolat beruvchi, karz oluvchi sifatida bevosita katnashishi;
- tashki iktisodiy operatsiyalarni me'yoriy xujjatlar va davlat organlari yordamida tartibga solish.

Mamlakatlar to'lov balansini tartibga solishda tez-tez uchrab turadigan muammolar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin.

To'lov balansini tenglashtirish bo'yicha kaysi davlatlar (aktiv koldikka yoki takchilikka ega bo'lgan) zaruriy chora-tadbirlarni kullashlari zarurligi. Bu masalada, nazariyotchilar va amaliyotchilarning fikrlari turlichadir. Odatda, bir-kancha ichki va tashki omillarning bosimi ostida tulov balansida takchilik mavjud mamlakatlarda uni tenglashtirish muammosi turadi. Aktiv balansga ega bo'lgan davlatlar, xalkaro xisob-kitoblarga kirishuvchi mamlakat-larni «o'z uyida tartib o'rnatishini» talab kiladi: inflyatsiyani jilovlash, defilyatsion siyosatni ko'llashga zarurat, eksportni ragbatlantirish, importni cheklash va boshkalar. Ikkinchi Jaxon urushidan sung AKSh, Garbiy Evropaning tulov balansida asoratli takchilikka ega mamlakatlariga nisbatan mana shunday talablarni kuydi. Ammo, 1980-yillarga kelib, vaziyat uzgardi. Endi EI AKShga nisbatan yukoridagi talablarni kuydi.

Takchilikli to'lov balansiga ega bo'lgan davlatlar esa, aktiv balansga ega bo'lgan o'z xamkorlaridan import bo'yicha cheklovlarni kamaytirish, mazkur mamlakatlarga kapital chikarilishini ragbatlantirish kabilarni talab kiladi.

To'lov balansining davlat tomonidan tartibga solinishi — bu, davlatni to'lov balansining asosiy moddalarini shakllantirishga xamda paydo bulgan takchilikni moliyalashtirishga yunaltirilgan iktisodiy, jumladan, valyuta, moliya, pul-kredit tadbirlarini amalga oshirishga yunaltirilgan faoliyatining umumiy yigindisidir.

Mamlakatning xalkaro xisob-kitoblari va valyuta-iktisodiy xolatiga boglik xolda to'lov balansini boshkarishning, tashki iktisodiy operatsiyalarni ragbatlantirish yoki kiskartirishga yo'naltirilgan turli usullari mavjud.

To'lov balansida takchillik mavjud bulgan davlatlar tomonidan, eksportni ragbatlantirish, import kilinayotgan tovarlarni kamaytirishga, xorijiy kapitalni jalb kilishga, kapitalni olib chikib ketishni chegaralashga karatilgan kuyidagi tadbirlar ko'llaniladi:

**Deflyatsion siyosat.** Bu siyosat, ichki talabni kamaytirishga yo'naltirilgan xolda, o'z ichiga byudjet mablaglarini axoliga kamrok ishlatish, baxolarni va ish xaklarini muzlatish kabilarni kamrab oladi. Uning eng asosiy instrumentlaridan biri bo'lib, moliyaviy va pul-kredit choralari xisoblanadi: byudjet takchilligini kamaytirish, Markaziy bankning xisob stavkalarini uzgartirishi (diskont siyosati) kredit cheklovlari, pul muassasining o'sib borishiga chegara ko'yish. Iktisodiy pasayish, ishsizlikning yukori ko'rsatkichi va tula foydalanilmayotgan ishlab chikarish kuvvatlari sharoitida deflyatsiya siyosatini ko'llash, ishlab chikarish va bandlikning yanada pasayishiga olib keladi. Bu esa, axolining turmush darajasiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatib, vaziyatni yumshatish buyicha tezkor chora-tadbirlar kulanilmasa, ijtimoiy nizolar kelib chikadi.

**Devalvatsiya.** Milliy valyuta kursining pasaytirilishi. Bu tadbir milliy eksportni ragbatlantirish va importni jilovlash bilan boglik maksadlarda amalga oshiriladi. Ammo, to'lov balansini tartibga solishda devalvatsiyaning roli, uni o'tkazish tartiblari va ularga xamkorlik kiluvchi mamlakatning umumiktisodiy va moliyaviy siyosatiga boglik bo'ladi. Devalvatsiya fakatgina, rakobatbardosh tovarlarning eksport potentsiali va jaxon bozoridagi kulay vaziyatlarning mavjudligi sharoitidagina tovarlar eksportini ragbatlantirishi mumkin. Devalvatsiyaning importni cheklashga ta'siri esa, takror ishlab chikarish jarayonining baynalmilallashuvi xamda xalkaro ixtisoslashuv darajasining rivojlanishi bilan, mamlakatning importni cheklash buyicha keskin choralar kullash imkoniyatlari pasayishidan kelib chikadi. Shundan kelib chikib aytish mumkinki, xamma mamlakatlarda xam import urnini bosuvchi tovarlar ishlab chikarish siyosati muvaffakiyatli chikavermaydi.

Devalvatsiya importni cheklashi bilan, mamlakat ichida tovarlar ishlab chikarish xarajatlari ortishiga, narxlarning kutarilishiga va okibatda, tashki bozorlarda rakobatbardoshlik kobilyatining yukolishiga olib keladi. Shuning uchun, bu tadbir mamlakatga vaktinchalik ustuvorlik berishi mumkin, ammo u tulov balansining takchilligini keltirib chikaruvchi sabablarni bartaraf etishga kodir emas. Kutilgan natijani olish uchun, devalvatsiya etarli darajada bulishi zarur. Aks xolda, u valyuta spekulyatsiyasini kuchaytiradi va valyuta kursini kaytadan kurib chikishga majbur kiladi. Masalan, 1967 yil noyabr oyida funt sterlingni 13,4 foizga devalvatsiyasi va 1971 yil dollarning 7,89 foizga devalvatsiya kilinishi, ushbu valyutalarga bulagan chaykovchilik bosimni yuk kilaolmadi. Ammo, xaddan ortik darajada amalga oshirilgan devalvatsiya, boshka valyutalar kursini xam tushirishga olib keladigan, zanjirli reaksiyani amalga oshiradi. Va natijada, devalvatsiyani amalga oshirgan mamlakat, rakobatda uzi kutgan ustuvorlikka ega bulaolmasligi mumkin. Ayrim mamlakatlar, ba'zi paytda turli valyuta kurslarini kullaydi, masalan, ikkita valyuta bozorini tashkil etish, yoki yashirin devalvatsiya shaklidagi. Suzib yuruvchi kurslar tartibining kulanilishi, tulov balanslarini tenglashtirish imkonini bermadi. Tarkok va ba'zi xolatlarda kulaniladigan devalvatsiya amaliyotidan voz kechish, xalkaro xisob-kitoblarda spekulyativ kapital bosimini pasaytirdi. Ammo, uni suzib yuruvchi kurs sharoitida eksport va import narxlarining bozorda pasayish nisbatiga ta'sir etmadi. Shuning uchun, kurgina rivojlanayotgan mamlakatlarda, devalvatsiyaning samarasini oshirish maksadida, tabakalashirilgan poshlinalar xamda eksport-importga subsidiyalar berish amaliyoti kulanilmokda.

**Valyuta cheklovlari.** Ushbu tadbir eksport kiluvchilar-ing xorijiy valyutalardagi tushumlaridan foydalanishni cheklash, xorijiy valyutani import kiluvchilarga sotishni litsenziyalash orkali amalga oshiriladi. Shuningdek, u valyuta operatsiyalarni maxsus ruxsatnomaga ega bo'lgan banklarda amalga oshirilishi xamda tulov balansidagi takchillikni kamaytirish maksadida, kapital eksportini chegaralash va uning okib kelishini ragbatlantirish, tovarlar importini chegaralashga karatilgan tadbirlar yigindisidir. XX asrning 70-yillari oxiri 80-yillarining boshlarida joriy operatsiyalar buyicha yuritilayotgan siyosatning erkinlashuviga karamasdan, konvertirlanadigan valyutaga ega bulgan mamlakatlarning deyarli 90 foizida kapitallarning xalkaro xarakatida turli xil cheklovlar mavjud bulgan. Elining kupchilik davlatlari ushbu cheklovlarni fakatgina utgan asrning 90-yillaria kelib bekor kildi.

**Moliya va pul-kredit siyosati.** To'lov balansidagi takchillikni bartaraf etish maksadida eksport kiluvchilarga byudjet subsidiyalari beriladi, proteksionistik (ichki ishlab chikaruvchilarni ximoyalash) maksadlarida import bojlari oshiriladi, mamlakatga pul okimining kirib kelishini ragbatlantirish maksadida kimmatli kogoslar egasi bo'lgan xorijliklardan olinadigan soliklarni bekor kilish kabi chora-tadbirlardan keng foydalaniladi. Shuningdek, pul-kredit siyosati, bank xisob siyosati va muomaladagi pulning massasini belgilash tadbirlari yukoridagi maksadlardan kelib chikkan xolda amalga oshiriladi.

**To'lov balansining maxsus moddalarini shakllan-tirish** jarayonida davlat tomonidan ko'rsatiladigan maxsus ta'sir choralar — savdo balansi, «ko'rinmas» operatsiyalar xamda kapitallar xarakati xisobvaraklari buyicha olib boriladi.

**Savdo balansi** — tartibga solishning muxim ob'ekti bo'lib xizmat kiladi. Xozirda davlat nazorati, nafakat muomala soxasini, balki eksport tovarlari ishlab chikarish jarayonini xam o'z ichiga kamrab olmokda. Sotish boskichida tovarlar ekportini ragbatlantirishga, fakatgina ularning narxiga ta'sir ko'rsatish orkali erishish mumkin. Eksport kiluvchilarning tovarlarni eksport kilishdagi kizikishini jonlantirish maksadida, davlat ularga eksport kreditlarini beradi, ularni iktisodiy va siyosiy risklardan sugurtalaydi, kapitalni imtiyozli amortizatsiya kilishga sharoit yarataadi va boshka moliyaviy imtiyozlarni takdim etadi.

Jaxon bozoridagi rakobatning kuchayib borishi bilan, eksportbop maxsulotlar ishlab chikarishni tartibga solish borasida tarmok ichidagi ixtisoslashuvni kuchaytirish va milliy firmalarni xorij firmalari bilan kooperatsiyalashuvini amalga oshirish lozim bo'ladi. Xalkaro ixtisoslashuvni kuchaytirish maksadida, barcha mamlakatlarda xukumat kichik va o'rta biznes vakillarining eksport faoliyatini ragbatlantirmokda.

Uzbekiston Respublikasida kishlok xo'jalik maxsulot-larining eksportini kuchaytirish, mashina va uskunalar kurinishidagi ilgor texnologiyalarga asoslangan ishlab chikarish kuvvatlarini kengaytirish ragbatlantirilmokda.

Bugungi kunda, eksportni davlat tomonidan tartibga solinishi, tovarlarning chet eldagi bozorlarini o'rganishdan boshlab, ularni sotuvdan keyingi xorijiy xizmatlarini ta'minlashni xam o'z ichiga olmokda. Eksportni ragbatlantirish usullarining kullanilishi tobora kompleks ravishda tus olmokda. Ular o'z tarkibiga valyuta, kredit, moliyaviy-tashkiliy ko'rinishda eksportni ko'llab-kuvvatlash va reklama, axborot, kadrlar tayyorlash kabilarni xam kamrab oladi. Mazkur vositalar yordamida kapital olib chikib ketishni cheklash xamda tovarlar eksportini ragbatlantirishda foydalanilmokda. Passiv to'lov balansiga ega bo'lingan xolatlarda, importni tartibga solish, mamlakat ichkarisida importning o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chikarishni kengaytirish mexanizmlaridan foydalanish amaliyoti xam mavjud.

Xozirgi kunda, importni cheklashda tarifsiz cheklovlar ko'llanib kelinayotgan bo'lib, kontragentlar bilan ularning uz xoxishi bilan eksportni chegaralashga bitim tuziladi (masalan, AKSh bilan Yaponiya, Ispaniya, Meksika, Braziliya o'rtasida XX asrning 80-yillarida tuzilgan bitimlar).

Tulov balansining «ko'rinmas» operatsiyalari bo'yicha to'lovlar va tushumlar bilan boglik bo'lgan operatsiyalarni tartibga solish maksadida kuyidagi choralar ko'llaniladi:

- mazkur davlat sayyoxlari tomonidan valyuta olib chikib ketish me'yorlarining chegaralanishi;
- xorijiy sayyoxlarni jalb kilish maksadida mamlakatda sayyoxlikni yo'lga ko'yish uchun davlatning bevosita yoki bilvosita aralashuvi;

- «Transport» bandi bo'yicha xarajatlarni kamaytirish maksadida;
- byudjet mablaglari orkali dengiz transportini kurishga ko'maklashish;
- ilmiy–texnikaviy bitimlar, litsenziyalar, savdo patentlari va boshkalar savdosi orkali tushumni rivojlantirish maksadida ilmiy izlanish ishlariga davlat xarajatlarini oshirish;
- ishchi kuchi kuchishini tartibga solish, jumladan, xorijiy ishchilar almashuvini kiskartirish uchun immigrantlar chikishini cheklab ko'yish.

Kapital xarakatining tartibga solinishi, bir tomonlama milliy monopoliyalarning tashki iktisodiy ekspansiyasini ragbatlantirishga, boshka tomonlama esa, to'lov balansini muvozanat xolatiga keltirish uchun xorijiy valyuta okimi va milliy kapitalni repartitsiya kilishni ragbatlantirish lozim. Shu maksadda, xukumat chet ellik xususiy investorlarga kulay investitsiya muxitini tashkil etish orkali kapital olib kiruvchilar va tovar olib chikib ketuvchilarni ragbatlantiradi. Investitsiyalar buyicha xukumat kafolatlari, tijorat va siyosiy risklarni sugurtalash orkali amalga oshiriladi.

Davlat shuningdek, kapital «kochishi»ni chegaralashga karatilgan chora-tadbirlarni kuradi. Bular tarkibiga: mamlakatdagi iktisodiy va siyosiy barkarorlik, milliy valyuta va xukumatga ishonchni oshirish, davlatchilikni mustaxkamlash, «kora» bozor va korruptsiyaga karshi kurashish kiradi. Kapitalning «kochishi»ni kamaytirishning eng samarali yullaridan biri, kapitalning xalkaro xarakati ustidan davlat nazoratini urnatish, shuningdek, uning olib chikib ketiladigan xajmini chegaralash va dividend xamda foizlarni uz vaktida repartitsiya kilishni talab kilish xisoblanadi.

Xalkaro amaliyotda kapitalning «kochishi»ni chegaralash, pul kapital operatsiyalarni va xorijga investitsiyalarni konuniy me'yorlar, ma'muriy va moliyaviy nazorat kilishning birgalikda amalga oshirish orkali erishiladi. Banklar nazoratni amalga oshiradilar va chet el banklariga utkazilgan shubxali summalar, tashki iktisodiy soxta shartnomalar buyicha bunaklar xamda tulovlar yuzasidan davlat organlariga xabar beradilar. Eksport bitimlari sub'ektlarining yagona zanjirini xosil kilish (eksport kiluvchi—bojxona—bank), xisob-nazorat mexanizmi, xisobotlarni bixillastirish (xususan, eksport yuklari va ularni etib berish tugrisidagi) kapital «kochishi»ni chegaralashga kumaklashadi. Kapitalning chetga chikib ketishini chegaralovchi yana muxim bir vosita, valyuta va eksport nazoratini samarali yuritishdir. Bu erda, nazorat organlari funksiyalarni, vakolat va javobgarlikni anik bulib olishi, muvaffakiyat garovi xisoblanadi. Kapital «kochishi»ning oldini oluvchi muxim omil — ushbu kapitallar borib joylashadigan mamlakatlar bilan valyuta va eksport nazorati buyicha xalkaro shartnomalar tuzish xamda xamkorlik kilishdir.

Aktiv tulov balansini mavjud bulganda, davlat tomonidan tartibga solish, asosan, yuzaga kelishi mumkin bulgan uta aktiv koldikka barxam berishdan iborat. Shu maksadda, yukorida kurib utilgan usullar — moliya, kredit, valyuta va boshkalar, shuningdek, valyutani revalvatsiyasi, importni kengaytirish, tovarlar eksportini kamaytirish, kapital eksportini oshirish (shuningdek, rivojlanayotgan mamlakat-larga yordamlar va kreditlar) va kapital importini cheklash kulllaniladi.

Odatda, tulov balansini muvozanatlovchi tartibga solish usuli kulllaniladi, ya'ni ikkita bir-biriga mutlok karama-karshi tadbirlar: restriksion (kreditlarni chegaralash, jumladan, foiz stavkalarini oshirish, pul massasi usishini, tovarlar importini, kapital «kochishi»ni chegaralash) va ekspansion (tovarlar, xizmatlar eksportini, kapitallar xarakatini ragbatlantirish, devalvatsiya va x.k.). Davlat nafakat tulov balansining ayrim moddalarini, balki uning koldigini xam tartibga soladi.



## **UZINI-UZITEKSHIRISH UChUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Nima sababdan tulov balansi tartibga solinadi?
2. Takchillikli tulov balansiga ega mamlakatlarda, uni tartibga solish uchun kandy asosiy chora-tadbirlar kullanyladi?
3. Deflyatsion siyosat xamda devalvatsiyadan kuzlangan maksad nima?
4. Valyuta cheklovining asl moxiyatini tushuntiring.
5. Savdo balansi kandy tartibga solinadi?
6. Passiv tulov balansi sharoitida import-eksport operatsiyalari kandy tartibga solinadi?

## 5.5. TO'LOV BALANSLARINI MUVOZANATLASH USULLARI

Rasmiy jixatdan, to'lov balansi xar kanday balans kabi muvozanatda, chunki asosiy muvozanatga olib keluvchi omillar o'zaro bir-birini koplaydi. Agarda, joriy xisobvaraklar bo'yicha takchilik kelib chikadigan bo'lsa, u xolda bu xisobvaraklarni muvozanatlashtirish, tenglashtiruvchi — to'lov balansi koldigini tartibga soluvchi moddalar orkali amalga oshiriladi. Odatda, bunday maksadlar uchun joriy karzlar va kapital kiritilishidan foydalaniladi. Tulov balansi takchilligini koplash uchun XVF zaxira kreditlarini takdim etadi. Bu kreditlar mikdori unchalik ko'p bo'lmaydi, ya'ni badalning 25 foiz mikdorida. Bundan xam kuprok mablaglar olish uchun, XVF tomonidan ko'yilgan ko'plab me'yorlarni bajarish talab kilinadi.

Rivojlangan mamlakatlar o'z to'lov balanslari takchilligini koplash maksadida, jaxon bozorida banklar konsortsiumlarining kreditlari, obligatsion karzlarini jalb kiladi. Ushbu turdagi karzlarni takdim etishda tijorat banklari etakchilik kilmokda.

Xalkaro valyuta fondlari kreditlaridan bank kreditlarining farki, banklar xech kanday barkarorlashtiruvchi dasturlar bajarilishini talab kilmasligi xamda ularning ommaviyligidadir. Ammo, bank kreditlari kimmat va yirik tashki karzlari mavjud mamlakatlar uchun, u kiyinlik tugdiradi. Masalan, amerika banklari vakti-vakti bilan rivojlanayotgan mamlakatlarning ayrimlarini «kora» ruyxatga kiritishganini e'lon kilishadi va bu mamlakatlarga bank kreditlarini berish tavsiya etilmaydi. Shuningdek, keyingi yillarda xususiy banklar bilan xalkaro moliya-kredit tashkilotlari urtasida, kreditlar berishni muvofiklash-tirish amaliyoti kuchayib bormokda.

Mamlakat to'lov balansining passiv koldigini koplash uchun «svop» bitimi orkali, kiska muddatli kreditlardan foydalaniladi va bu kreditlar, Markaziy banklar bilan o'zaro kelishuv orkali milliy valyutada olinadi.

Utgan asrning 70-yillari o'rtalaridan 80-yillari o'rtalarigacha, rivojlangan davlatlar o'z tulov balanslaridagi takchilikni moliyalashtirish maksadida bunday kreditlardan foydalanishgan.

To'lov balansi takchilligini moliyalashtirishning vaktinchalik usullaridan biri bo'lib, xorijiy yordam liniyalari orkali olingan imtiyozli kreditlar xam xizmat kiladi.

Oltin monometalizmi davrida, to'lov balansining passiv koldigini tulash oltinning mamlakatdan olib chikilishi orkali amalga oshirilgan bulsada, ammo kimmatbaxo metallning xarakati xech kachon to'lov balansining xolatiga tugridan-tugri boglik bulmagan. Agar, mamlakat oltin kazib chikaruvchi bulsa, mamlakatdan oltinning olib chikib ketilishi, tulov balansining passivligini bildirmaydi. Oltin andozasining bekor kilinishi bilan, tulov balansining takchilligini moliyalashtirishda, undan foydalanish ancha kiskardi. Oltinning rasman demonitizatsiya kilinganligi sharoitida, undan umumiy tulov vositasi sifatida kuyidagi vaziyatlarda foydalanilmokda: birinchidan, noiloj kolingan paytlarda cheklangan mikdorda; ikkinchidan, savdo va kredit bitimlarini bajarishda xalkaro xisob-kitoblarni amalga oshirish uchun kabul kilingan milliy valyutalarni sotib olish uchun, oltinni dunyo bozorlarida sotish orkali bilvosita shaklda foydalanilmokda.

Utgan asrning 50-70-yillarida AKSh o'zining tulov balansidagi takchilligining 1/5 dan 1/3 gacha kismini oltinni mamlakatdan tashkariga olib chikish orkali moliyalashtiradi. Ammo, AKSh tajribasi shuni ko'rsatdiki, xar kanday ulkan oltin zaxirasiga ega bo'lgan davlat xam, bu usul orkali, uzok muddat tulov balansidagi takchilikni koplay olmaydi (mazkur tadbirlar natijasida AKSh oltin zaxirasi 1949 yildagi 24,6 mlrd. AKSh doll. dan 1985 yilga kelib 11 mlrd. AKSh doll.ga kamayib ketdi).

Ayrim davlatlar (Italiya, Portugaliya, Urugvay va boshkalar) oltin zaxiralaridan foydalanish xukukini uzida saklab kolish maksadida, oltindan fakatgina kreditlar ta'minoti sifatidagina foydalandi. Bu oltin-ning favkulodda pul sifatidagi funktsiyasining iktisodiy moxiyatini saklab kolganligini yana bir bor isbotlaydi. 1974 yilda Italiya 3,5 mlrd. AKSh doll.ga ega bulgan xolda, tulov balansini tenglashtirish uchun Germaniyadan ikki yil muddatga oltinni urtacha bozor baxosida kredit ta'minoti sifatida kuyib kredit oldi (usha davrda bir untsiya 120 AKSh doll.ga teng bulgan). Germaniyaning talabi bilan, oltin AKShdagi omborlardan olinib, Nemis Federal bankiga deponentlashtirilgan. Yana bir misol, 1976 yilda Portugaliya banki Germaniya va Shveysariyaning kator banklaridan 580 mln. AKSh.doll.

mikdorida kredit oldi. Kreditning ta'minoti esa, mamlakat oltin zaxirasining 20 foizidan iborat edi.

Konvertirlanadigan xorijiy valyuta zaxiralari mamlakat tulov balansini balanslashtirishning eng asosiy vositasi bulib xizmat kiladi. Ikkinchi Jaxon urushidan sung, AKSh va Buyuk Britaniya tulov balanslaridagi takchillik milliy valyuta xisobidan moliyalashtirildi. Chunki, Brettonvud kelishuvida dollar va funt sterlingga xalkaro zaxira valyutasi makomi berilgan edi. Mazkur imtiyoz natijasida, AKSh urush vaktida va undan keyin jamgargan ulkan oltin zaxirasining yarmini saklab koldi. Utgan asrning 50-60-yillarida AKSh tulov balansidagi takchillikni moliyalashtirishda 70-80 foiz, 1971 yilda dollarni oltinga konvertirlanishi bekor kilinishi bilan 100 foiz uz milliy valyutasidan foydalandi. Mazkur xolat, muomaladagi oltinning xajmini ortib ketishiga va uning kadrini davriy ravishda tushishiga olib keldi. AKShdan farkli ravishda, boshka mamlakatlar tulov balansidagi takchillikni moliyalashtirish uchun, zaruriy mikdordagi konvertirlanadigan valyutani milliy boyligining ma'lum kismini eksport kilish orkali «ishlab topishi» lozim. Mamlakatlar urtasida valyuta zaxiralarning notekis taksimlanganligi, tulov balansini tenglashtirish imkoniyatlarini chegaralaydi.

1970 yillardan boshlab, tulov balansidagi takchillikni moliyalashtirish uchun zaruriy valyutani sotib olishda, XVFDagi bir mamlakatning xisobvaragidagi SDRni, ikkinchi mamlakatning xisobvaragiga utkazish orkali amalga oshirilmokda. SDRning emmissiyasi sezilarsiz va uning xalkaro likvid zaxiralardagi ulushi 1,9 foizni tashkil etadi. U notekis taksimlangan, XVFinig a'zolari urtasida, ularning badallariga karab, SDR mikdori belgilangan.

Tulov balansidagi takchillikni moliyalashtirishning yana muxim manbasi — subsidiya va in'omlar kurinishidagi xorijiy yordamlar xisoblanadi. Masalan, 1947 yilda Garbiy Evropa mamlakatlarning tulov balansidagi takchillikning 75 foiziga yakini AKShning siyosiy va iktisodiy yordami bilan kopladi. Xozirgi kunda, kurgina rivojlanayotgan mamlakatlarning tulov balansidagi takchillikni koplashda, kuprok mazkur usuldan foydalanilmokda.

Tulov balansidagi aktiv koldik, asosan, mamlakatning tashki karzini tulashga (shu jumladan, muddatidan oldin), boshka mamlakatlarga karzlar berishga, rasmiy oltin-valyuta zaxiralarni oshirishga, xorijda ikkinchi iktisodiyotni tashkil kilish maksadida chetga kapital olib chikish maksadlariga yunaltirilmokda.

Utgan asrning 70-yillariga kelib, dunyo xujaligining globallashuvi va iktisodiyotni milliy darajada tartibga solishning samarasi etishmasligi kabilar natijasida, tulov balansini davlatlararo tartibga solish amaliyoti yuzaga chikdi.

Takror ishlab chikarish tashki omillarining ta'sirini kuchayishi xamda mamlakatlar tulov balansida uzok vakt davom etadigan tengsizliklar, mamlakatlar iktisodiyoti va jaxon xujaligida nomutanosibliklarni keltirib chikarmokda. Shuning uchun xam, etakchi mamlakatlar, tulov balansini xamkorlikda tartibga solish yullarini ishlab chikmokda. Tulov balansini tartibga solishning davlatlararo usullariga kuyidagilar kiradi: davlat tomonidan eksportni kreditlashning shartlarini kelishish; ikkitomonlama xukumat kreditlari; «svop» bitimlariga asoslanib, Markaziy banklarning milliy valyutadagi uzaro kiska muddatli kreditlari; XVF va boshka xalkaro moliya institutlarining kreditlari.

Davlatlarning jaxon xamjamiyati oldidagi karzlarining oshib ketishi, birinchi navbatda iktisodiy va sungra, siyosiy muammolarni keltirib chikarmokda. Bozor tomonidan shunday davlatlarga kredit borasida cheklovlar kuyiladiki, ularning to'lov balansidagi takchillik, fakatgina, shartli kreditlar evazigagina koplanishi mumkin. Masalan, XVFinig kreditlari ma'lum barkarorlashtiruvchi dasturlarni bajarish shartlarini kuysa, ayrimlari kreditor yoki xalkaro tashkilotlarning karz oluvchi mamlakat iktisodiy va siyosiy xolatiga aralashuvini nazarda tutadi. Shu sababli xam, karz olgan davlatlar o'z karamligiga chek ko'yish maksadida, o'z tashki karzlarini kamaytirishga xarakat kiladi.

Evropa Xamjamiyatida to'lov balansini davlatlararo tartibga solish kuyidagi usullar orkali amalga oshiriladi:

- bojxona bojlarini bekor kilish (1968 y. 1 iyuldan boshlab, bojxona Ittifoki tuzilgan, boshka uchinchi tomonlar uchun yagona tashki tarif belgilangan);
- solik tizimining birxillashtirilganligi;

- tovarlar eksportini kreditlashtirish talablarining kelishilganligi.

Shunday kilib, to'lov balansini tartibga solish birmuncha murakkablashdi. Kullaniladigan instrumentlar kengaydi, ularni iktisodiy siyosatning boshka shakllari bilan uygunlashtirilgan xolda ko'llash tizimli tus oldi. Odatda, tulov balansini barkarorlashtirish — iktisodiyotni soglomashtirish, inflyatsiyani cheklash, byudjetdagi takchillikni kiskartirish va boshka tadbirlar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Ammo, tulov balansidagi takchillikni kamaytirish vazifasi aksariyat xollarda, xujalik faoliyatini kengaytirish, byudjet xarajatlarini oshirish, foiz stavkalarini pasaytirish kabilarni talab kiluvchi iktisodiy siyosat — iktisodiy usish va bandlikni ta'minlash vazifasi bilan tuknashadi. Tulov balansining eng samarali soglomashtirish vositasi — bu, xarbiy xarajatlarni, shu jumladan, tashki xarbiy xarajatlarni kiskartirish orkali erishiladi.

Tulov balansini tartibga solishning xalkaro tajribasi, milliy iktisodiyotni bir vaktning uzida xam ichki, xam tashki tenglikka erishishning kiyinligidan dalolat beradi. Bu aktiv va passiv tulov balansiga ega mamlakatlarning uzaro munosabatlarida ikki an'anani—xamkorlik xamda murosaga kelishning kiyinligini kuchaytiradi.

## **UZINI-UZITEKSHIRISH UChUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Kaysi moddalar tulov balansini koldigini tartibga soluvchi moddalar bulib xisoblanadi?
2. Rivojlangan mamlakatlarda to'lov balanslari takchilligini koplash kandy usulda amalga oshiriladi?
3. Xalkaro tashkilotlar tomonidan beriladigan kreditlar, tijorat tuzilmalarining kreditlaridan kaysi farkli jixatlari bilan ajralib turadi?
4. Oltin monometalizmi davrida, to'lov balansining passiv koldigini moliyalashtirishda oltin kandy rol uynagan?
5. Konvertirlanadigan xorijiy valyuta zaxiralari mamlakat tulov balansini balanslashtirishda kandy axamiyatga ega?
6. Tulov balansini tartibga solishda SDRning rolini kursating.
7. Tulov balansidagi takchilik, tashki karzlar bilan kandy alokada?
8. Evropa Xamjamiyatida to'lov balansini davlatlararo tartibga solishga kaysi usullardan foydalaniladi?

## YaPONIYA PUL MABLAGLARINING TAKSIMLANISHI

1987 yilda Yaponiya xukumati tulov balansida yuzaga kelgan 30 mlrd. AKSh dollari miqdoridagi aktiv koldikni, rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam tarikasida kayta taksimlashini e'lon kildi. Ushbu mablaglarni 10 mlrd. va 20 mlrd. AKSh dollari xajmdagi ikkita yirik transhga bulish muljallandi. Birinchi transh uchta kismdan iborat: JTTB da 2 mlrd. AKSh dollari xajmdagi Yaponiyaning maxsus fondini tashkil etish; Yaponiya xukumati tomonidan XVFga 3 mlrd. SDR miqdorda kredit ajratish; Yaponiya xukumati tomonidan Xalkaro Rivojlanish Agentligiga 2,6 mlrd. AKSh dollari miqdordagi AMR-8 (pul mablaglarini sakkizinchi jamlanishiga tegishli bulib, JTTBning filiali xisoblanadi. Bu mablaglar Xalkaro rivojlanish Assotsiatsiyasiga tegishli va 24 donor mamlakat xisobidan tuldiriladi) va Osiyo rivojlanish fondiga 1,3 mlrd. AKSh dollari kuyilma ajratish; Yaponiya Maxsus fondi JTTB tomonidan amalga oshirilayotgan loyixalarni kullab-kuvvatlash va texnik yordam kursatish uchun 30 mlrd. ien miqdoridagi dotatsiyani xam uz ichiga oladi. Shuningdek, fond Yapon kapital bozoriga JTTB karzlari uchun keng imkoniyatlarni yuzaga keltirdi va ushbu kapital miqdori 300 mlrd. ienni (2 mlrd. AKSh dollari) tashkil etib, 3 yil muddatga muljallangan buladi.

Ikkinchi transh 1990 yilgacha, uch yil muddat ichida rivojlanayotgan mamlakatlarga berilishi kerak edi. 20 mlrd. AKSh dollaridan 8 mlrd. AKSh dollari miqdoridagi mablag JTTB va Yaponiya xukumatining kelishuviga kura, Tokio bozorlariga JTTB tomonidan kushimcha takdim etilgan mablaglarni tashkil etardi;

ORBda va Amerika rivojlanish bankidagi Yaponiya maxsus fondlari, xuddi JTTBdagi fond tarikasida tashkil etilgan. Shuningdek, bu summaga kuptomonlama rivojlanish banklariga beriladigan dotatsiyalar xam kiradi. 9 mlrd. AKSh dollaridan ortik mablag rivojlanayotgan mamlakatlarni tartibga soluvchi dasturlarini xamkorlikda moliyalashtirishni amalga oshirish uchun ajratildi. Kamkorlikda moliyalashtirishni amalga oshiruvchi muassasalarga Yaponiya eksport-import banki, chet ellar bilan iktisodiy JTTB va boshka kuptomonlama rivojlanish banklari bilan xamkorlik fondi (ChIKF) va Yaponiya tijorat banklari kiradi. Mazkur dasturlarni amalga oshirishda, ChIKF kushimcha tugridan-tugri kreditlarni takdim etishi mumkin. Kolgan 3 mlrd. AKSh dollari mablag Yaponiya eksport-import banki tomonidan ishlab chikilgan, rivojlanayotgan mamlakatlarga tugridan-tugri boglik bulmagan kreditlarni takdim kilish sxemasiga asosan yunaltiladi.

Shu yul bilan Yaponiya rivojlanayotgan mamlakatlarga kursatayotgan yordam miqdorini ikki barobarga oshirish va ushbu kursatkichni 1990 yilda 7,6 mlrd. AKSh dollariga etkazishni muljallagan. Yaponiya rivojlanishga kumaklashish buyicha Frantsiyadan ilgarilab, dunyo buyicha AKShdan keyin ikkinchi uringa chikib oldi. Odatda, Yaponiya Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlariga uz yordamini kursatib kelardi, ammo keyingi yillarda Afrika davlatlariga kursatilayotgan yordamlar miqdori xam ancha kengayganligini kuzatish mumkin.

## **5.6. RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARNING TULOV BALANSLARI. ULARNI TUZISHNING UZIGA XOS USULLARI**

Rivojlanayotgan mamlakatlarning tulov balansi, mamlakatning xalkaro tulov munosabatlaridagi turli operatsiyalarini umumlashtirib, ularni ma'lum bulim va moddalarga bulib aks ettirishga asoslangan, XVF andoza chizmasi buyicha tuziladi.

«Joriy operatsiyalar balansi» bulimida taxlil davridagi eksport va importning uzgarishi xakida tasavvur xosil kiladigan «savdo balansi» moddasi muxim urin egallaydi.

Lekin, rivojlanayotgan mamlakatlar tulov balanslarida eksport va import xakida keltirilayotgan ma'lumotlar birlamchi statistik ma'lumotlar noanikligi tufayli ma'lum darajada notugri buladi.

Misol uchun, xamma konuniy tashki savdo operatsiyalarida tovarlar eksporti yoki importi paytida bojxonada, etarli darajadagi aniklik bilan kayd kilinadi. Keyin bojxona statistikasini tulov balansi talablariga muvofiklashtirish uchun, mamlakat valyuta organlari kerakli uzgartirishlar kiritadilar. Xususan, Sif importni Fob importga kayta xisoblaydilar. Ya'ni, tovar sotib olishga bulgan tugridan-tugri xarakatdan fraxt va sugurta uchun bulgan xarajatni ajratadilar, bojlar olinib tashlangan narxlar buyicha importni xisobga oladilar, yordam doirasida olingan tovarlar kiymatlarini valyuta statistikasidan chegirib tashlaydilar va x.k.

Bundan tashkari, kup davlatlarda, tashki savdoning salmokli ulushi kontrabanda yullari bilan amalga oshiriladi va ular bojxona xamda valyuta statistikalarida kayd kilinmaydi. Umuman, kuppina rivojlanayotgan mamlakatlar tashki savdo operatsiyalarini manfiy savdoga olib keladi. Bu esa, ularning xalkaro tulovlarining umumiy balanslashtirilmaganligining muxim sabablaridan biridir.

«Kurinmas» operatsiyalar shakli va iktisodiy mazmuni jixatdan, turlicha bulgan moddalarni birlashtiradi. Shunday kilib, transport operatsiyalari uz ichiga fraxtni, temir yul, xavo va avtomobil transportidan foydalanilgan tashishlarni, shuningdek, kuvurlar ekspluatatsiyasi bilan boglik tashishlarni oladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning tashki savdo yuklarining salmokli xissasi kemalardan va Garb mamlakatlarining chizikli kompaniyalar tariflari buyicha tashiladi. Bu tariflar, kup xollarda diskriminatsion buladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar xissasiga jaxon dengiz savdosidagi 50 foiz yuklangan va 20 foiz tushirilgan yuklar tugri keladi. Ular jaxon savdo flotining 15 foizdan kamrok yuklariga egadirlar.

Yuk aylanmasining xajmi usib borgan sari, fraxt uchun tulovlar, tulov balanslariga ogir yuk bulib tushadi va bu xozirgi vaktida, fraxt daromadlaridan 3 barobarga ortik bulib, «kurinmas» operatsiyalar buyicha umumiy tulov summalarining 30 foizini tashkil kiladi.

Xatto, uz flotiga ega davlatlarning (Misr, Xindiston, Birlashgan Arab Amirliklari, Eron va boshkalar) xorijiy tonnaj buyicha fraxt xarajatlari tulov balansi takchilligining 30-35 foiziga etadi. Bu xol, xarbiy murosasizliklar va siyosiy ziddiyatlar davrida avj oladi.

Bir kator rivojlanayotgan mamlakatlarda, xorijiy valyuta tushumining salmokli manbai sayyoxlik bulib, uning xissasiga jaxon sayyoxlik daromadining 1/5 kismi tugri keladi. Bu modda buyicha katta daromadlar, aloxida ekzotikaga ega davlatlar (Keniya, Xindiston, Misr, Saudiya Arabistoni, Filippin, Bermud orollari, Bagata orollari va boshkalar) uchun xos. Sayyoxlikning rivojlanishiga rivojlanayotgan mamlakatlarning geografik uzokligi, ularning sayyoxlik ob'ektlarining etarli darajada tayyor emasligi, tez-tez yuz berib turadigan siyosiy va xarbiy ziddiyatlar, teroristik xodisalar xalakit beradi.

«Sugurta» moddasini kuzdan kechirib, sugurtasiz xech bir tashki savdo bitimi amalga oshirilmasligini kurish mumkin. Rivojlanayotgan mamlakatlarning sugurta buyicha tulovlari yiliga 4 mlrd. AKSh dollaridan oshadi. Bu esa, ularning tulov balanslari xolatini yomonlashtiradi. Keltirilgan rakam takribiydir, chunki xalkaro sugurtalash va kayta sugurtalash buyicha tulovlar xakidagi umumlashgan rasmiy ma'lumotlar mavjud emas.

Joriy operatsiyalarga shaxsiy va davlat «utkazmalar»i va «transfert» tulovlari kiradi. «Shaxsiy utkazmalar» moddasi Turkiya, Pokiston, Braziliya, Janubiy Koreya, Filippin,

Xindiston kabi kup sonli xorijda faoliyat yurituvchi ishchilar armiyasiga ega mamlakatlarda sezilarlidir.

Bu mamlakatlarning chet elda ishlayotgan ishchi va mutaxassislarining uz vataniga utkazayotgan ish xaklari, chet el valyutasi salmokli darajada tushishini ta'minlaydi (yiliga 20 mlrd. AKSh dollariga yakin). «Xukumat utkazmalari» moddasi xam, kupgina rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muxim. Asosiy operatsiyalar, bu erda, chet eldagi diplomatik apparat subsidiyalar tarkibini tashkil kiladi, ya'ni tulov balansining joriy operatsiyalarida aks etadigan begaraz yordamlar. Bu zayomlar shaklidagi yordamlardan fark kiladi, chunki zayomlar tulov balansining kapitallar xarakati balansida aks etadi. Kursatilan subsidiyalar, ma'lum darajada joriy balansning moddalari buyicha takchillikni kamaytiradi. Tovarlar xarakatini uzida aks ettirgan begaraz yordamlar rivojlanayotgan mamlakatlar importida aks etadi.

Ayrim ozodlikka chikkan mamlakatlar uchun «xizmatlar» moddasi ma'lum mazmunga ega. Bunga, ular xududida chet el xususan, AKSh, Buyuk Britaniya va Frantsiya xarbiy bazalari va kushinlarini saklashdan keladigan daromadlar kiritiladi. Chet el kurolli kuchlari mavjudligi Kipr, Tailand, Turkiya, Baxrayn, Janubiy Koreya, Samali va boshkalarga xosdir. Ushbu mamlakatlarda bu modda buyicha tushumlar mikdori bir kancha mlrd. AKSh dollariga etadi. «Xizmatlar» moddasida ilmiy-texnikaviy ayirboshlash operatsiyalari xam aks etadi, ya'ni litsenziyalar va patentlardan foydalanish buyicha tulov tushumlar (texnik yordam, texnik va boshkaruv tajribasini berish (nou-xau). Kupgina rivojlanayotgan davlatlarga kursatilgan operatsiyalar buyicha manfiykoldixos, chunki bu mamlakatlar ilmiy-texnika tarakkiyotidan(ITT) ortda ekanliklari sababli, chet eldan katta mikdorda litsenziya va patentlar sotib olishadi va bu soxada, deyarli xech narsa chetga sotmaydi. Bu modda ITT sharoiti muximligi sababli, mamlakatning «texnologik balansi» deb nomlanadi.

«Kurinmas» operatsiyalarning muxim moddalaridan biri — bu «foydalarni chet el kapitaliga utkazish»dir. Jalb kilingan investitsiyalar va kreditlar buyicha (yiliga 150 mlrd. AKSh dollaridan kup) foiz va dividendlar tulash (asosiy karz bilan birga) rivojlanayotgan mamlakatlar tulov balanslari xolatini ogirlashtirib kuymokda. Lekin, Fors kurfazidagi neft kazib oluvchi mamlakatlar (Kuvayt, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari), chet elda joylashtirilgan yirik kapitallari tufayli bu modda buyicha musbat koldikka egalar.

«Kurinmas» operatsiyalar balansi buyicha koldik, tulov balansi yakuniy natijasi shakllanishida katta rol uynaydi.

Bu operatsiyalar buyicha rivojlanayotgan mamlakatlar takchilligi 1990 yillarda yiliga 40 mlrd. AKSh dollaridan oshardi.

Rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarning kapital xarakati balansi moddalari, tarkibiy nuqtai nazardan deyarli fark kilmaydi. Kapital xarakati xususiy, bank va rasmiy kapitallar xarakatlariga bulinadi. Rasmiy kapitallarga davlatlararo kreditlar, davlatlararo valyuta-kredit va moliya tashkilotlarining zayomlari kiradi. XVF kreditlari esa, rasmiy likvid zaxiralar moddasida aks etadi. 1995 yilda rivojlanayotgan mamlakatlar uzok muddatli resurslarning umumiy okimi 205 mlrd. AKSh dollarini tashkil kildi, shu jumladan, davlat yunalishlaridan 55 mlrd. va xususiy kanallardan 150 mlrd. AKSh dollari mikdorida. Bu mamlakatlardagi tugridan-tugri chet el investitsiyalarining umumiy yigilgan summasi 620 mlrd. AKSh dollari mikdorida baxolandi.

Tadbirkorlik va ssuda kapitalining importi, rivojlanayotgan mamlakatlar tulov balansiga murakkab va karama-karshi ta'sir kiladi.

Joriy investitsiya operatsiyalarining birlamchi va ikkilamchi ta'sir omillarini farqlash kerak. Boshlangich boskichda kapital importi, import kiluvchi davlatning tulov balansini yaxshilash an'anasiga ega. Bu birlamchi ta'sir, keyinchalik, chet el investorlariga tegishli korxonalarda ishlab chikarilayotgan tovarlar esportini ikkilamchi usishi bilan mustaxkamlanishi mumkin. Ikkilamchi ta'sir shundan iboratki, bir kancha vaktan keyin rivojlanayotgan mamlakatning tulov balansi, uning axvolini yomonlashtiruvchi an'ana ta'sirini seza boshlaydi.

Birinchidan, ishlab chikarish shaklidagi import rivojlanayotgan mamlakat yangi sanoat kurulishi uchun asbob-uskuna, xom-ashyo va materiallarning kelib tushishini ragbatlantiradi, ya'ni import usadi.

Ikkinchidan, mamlakat litsenziyaga, patentlar va chet el kapitali importi bilan boglik boshka xizmatlar tuloviga valyuta sarflashga majbur buladi. Keyinchalik jalb kilingan chet el



kapitali kulami usishi bilan, mamlakat bu kapitaldan foydalanishdan tushgan daromaddan, chet elga bulgan ajratmalarni oshirishga majbur.

Nixoyat, kup rivojlanayotgan mamlakatlarda, uzgaruvchan siyosiy sharoitda ilgari kuyilgan chet el kapitalining rivojlangan mamlakatlarga kaytishi sezilarli darajada ortadi.

Odatda, rivojlanayotgan mamlakat tulov balansiga ijobiy ta'sir, asosan, kapitalni jalb kilish buyicha amalga oshirilgan boshlangich operatsiya davrida kuzatiladi. Lekin, keyingi yildan boshlab, uning tulov pozitsiyalari usish tartibda yomonlasha boshlaydi va kiska vakt utgandan keyin, mamlakat xar yili chet el investitsiyasini jalb kilishdan sof zarar kuradi. Fakat bir nechta rivojlanayotgan davlatlar (yangi sanoat mamlakatlari va uzok Shark xududlari) mamlakat ichida chet el kapitalidan samarali foydalanarlari va tovar eksportini kuchaytir-ganliklari tufayli, kuzatilayotgan modda buyicha tulovlarning salbiy natijalarini oldini ola boshladilar. Aytilganlardan kuyidagi xulosalar kilish mumkin:

1. Kapital importining rivojlanayotgan mamlakat tulov balansiga ta'sirining umumiy ta'siri, chet el investitsiyalarining usish jadalligiga, kapital foydasiga bulgan me'yorlar va chet elga chikarilayotgan xamda mamlakatda koldirilayotgan foyda urtasidagi mutanosibliklarga boglik xolda uzgaradi;

2. Chet elga chikarilayotgan foydaning usish jadalligi, yangi chet el kapital kuyilmalarining usishidan oshsa, tulov balansi ma'lumot chizigida kumulyativ salbiy ta'sirni sezadi;

3. Yangi kapital okimi va chet elga utkazilayotgan foyda urtasidagi mutanosiblik mamlakat uchun salbiy tus olishi bilan, mazkur ta'sirning paydo bulishi shunchalik tez buladi;

4. Va aksincha, kapitalning okimi, chetga chegirilayotgan daromadlarga va foyda me'yorining usishi jadalligiga karaganda kanchalik tez bulsa, chet el kapitali okimining tulov balansiga bulgan salbiy ta'sirini shunchalik yumshatadi.

Chet el investitsiyalari okimi, uni kabul kiluvchi mamlakatlarning sanoat rivojlanishini va ular iktisodiyoti umumiy zamonaviylashuvini tezlashtiradi. Shu bilan birga, xorijiy tajribadan ma'lumki, chet el kapitalini jalb kilish, rivojlanayotgan mamlakatlar oldida turgan muammolar echimini topishga olib kelmaydi. Aksincha, ushbu muammolardan ayrimlari avj olganligini kurish mumkin. Investitsiyalarni, birinchi navbatda, foydali joylashtirish istikboli mavjud bulgan mamlakatlarga yunaltirilishi natijasida, rivojlanishning notekisligi kuchayadi. Ushbu xorijiy investitsiyalarning fakatgina oz mikdori nixoyatda kolok va ularga muxtoj davlatlarga tushmokda.

Bir kator rivojlanayotgan mamlakatlar, 1970 yillar oxiridan boshlab, uz kapitalini eksport kilishga kirishdilar. Uning yillik xajmi 1990 yillar urtasida 30-35 mlrd. AKSh dollari mikdorida, deb baxolangan. Bu guruxga birinchi navbatda neft kazib oluvchi mamlakatlar, xamda Janubiy Koreya, Malayziya, Braziliya, Meksika, Xindiston va boshkalar kiradi.

«Kreditlar va zayomlar» moddasini taxlilida shu narsani nazarda tutish kerakki, oddiy maksadlarga chet eldan olinadigan kreditlar tulov balansining takchilligi sifatida kurilmaydi. Birinchidan, kup rivojlanayotgan mamlakatlar uchun kredit va zayomlar doimiy tusga ega, ikkinchidan, kreditlar odatda, ma'lum loyixalar uchun beriladi. Salbiy valyuta-moliyaviy kursatkich bulib, katta moliyaviy kreditlar va zayomlar, ular ichida eski karzlarni koplash uchun, yangi mablaglar (kayta moliyalashtirish) olish xisoblanadi. Jalb kilingan moliyaviy mablaglarning umumiy summasidagi, kayta moliyalashtirish uchun kreditlarning salmogi, mamlakat moliyaviy axvolining muxim kursatkichi xisoblanadi.

Kapitallar xarakati balansini taxlil kilishning bosh maksadi — tulov balansi joriy operatsiyalar takchilligini koplash manbalarini xamda aktiv koldik summasidan foydalanish yunalihsini aniklashdan iboratdir. Tulov balansini muvozanatlashtirish uchun, agarda, joriy bitimlar balansi passiv bulsa, kapital xarakati balansi buyicha aktiv koldikka erishish lozim.

Bayon kilinganlardan kelib chikkan xolda, XVF andoza chizmasi buyicha, rasman kursatish shart bulmagan rivojlanayotgan mamlakat tulov balansini umumiy koldigini xisoblab chikish mumkin.

U joriy operatsiyalar buyicha, kapitallar xarakati va «xatolar» moddalari buyicha koldiklarning yigindisiga teng. Boshkacha aytganda, tulov balansining umumiy koldigi, uziga valyutali va valyutasiz operatsiyalarni, xamda turli xil elementli balanslantiruvchi moddalarni oladi. Bu tulov balansining umumiy koldik kursatkichini sun'iy xosil kiladi va taxlilda, uning

kiymatini tushiradi. Shuning uchun, bu kursatkich bilan bir katorda, rivojlanayotgan mamlakatning xalkaro xisoblari xakida tulakonli ma'lumot beruvchi, joriy operatsiyalar balansini koldigini xam doimo e'tiborga olish kerak.

**Rivojlanayotgan mamlakatlar tulov balanslarini tuzish usullarining uziga xos tomonlari.** Tulov balansining andoza sxemasi, xar biri uz tartib rakamiga ega bulgan, iloji boricha, kup tashki iktisodiy operatsiyalarni kamrab oladigan, balanslarni tuzishni kuzda tutadi. XV F chizmasi fakatgina tulov emas, balki xisob balansini xam uz ichiga oladi. Joriy operatsiyalar buyicha valyuta xisob-kitoblari, valyutasiz operatsiyalar bilan, kapitallar xarakati, xamda xisob davrida valyuta mablaglarining xarakati bulmagan, koplanmagan uzaro operatsiyalar bilan birlashadi. Tulov balanslarining andozaviy chizmasi, uni moddalarining yagona nomenklaturasini kuzda tutadi. Joriy operatsiyalar balansida xar bir modda kuyidagi yozuvlarga ega buladi: debet (tulovlar), kredit (tushumlar) va natijaviy (koldik). Kapitallar va oltin xarakatining balansida majburiyat-larni oshiruvchi (kapitalning okib kelishi +) yoki kamaytiruvchi (kapitalning okib ketishi -) yozuvlar aks etgan. Mos ravishda, mamlakat aktivlarini oshiruvchi (kapitalning okib ketishi -) yoki kamaytiruvchi (kapitalning okib kelishi +) xamda koldik yozuvlari mavjud.

XV F chizmasidan tashkari, ayrim mamlakatlar operatsiyalarni valyutalarga bulgan xolda, balanslarni bulimlarga ajratib tuzishadi. Birinchi navbatda, bu valyuta guruxiga kiruvchi yoki uzining xalkaro xisob-kitoblarida ma'lum bir valyutani muljal kiladigan rivojlanayotgan mamlakatlarga tegishli. Rivojlanayotgan mamlakatlar tulov balansini tuzishning ayrim uslubiy tomonlari, ular statistik xisoblarining etarli darajada emasligidan kelib chikadi. Shu tufayli, ayrim operatsiyalar balanslarda uz aksini topmasliklari va kayd kilinmasligi mumkin. Ayrim xollarda, operatsiya kisman aks etishi mumkin, misol uchun, fakat debet yoki kredit shaklida. Tulov balansini moddalarida aks etuvchi summalar mikdori, xajmi kup xollarda oshirilib yoki kamaytirilib kursatilishi mumkin.

XV F chizmasi buyicha tulov balanslarini tuzish uslubi, kredit va debet yozuvlarining mos kelishi talab kilinganligi bois, rivojlanayotgan mamlakatlar, bu maksadlarda, «xatolar» moddasidan foydalanadilar. U orkali, bir kator mamlakatlarning valyuta organlari, statistik ma'lumotlar yoki birlamchi xisob xatolarini koplaydilar. Kursatilgan bu modda buyicha, kup xollarda, katta summalar utadi va shuning uchun, rivojlanayotgan mamlakatlar tulov balanslarida, xalkaro xisoblar buyicha real xolat tulik aks etmaydi. Shu bois XV F, agarda valyuta tulovlar bazasida xisoblangan, kursatilgan modda buyicha utadigan summa mamlakatning importi yoki eksportining 10 foizidan oshmasa (bu kiymatlarning eng kattasi xisobga olinadi), tulov balansini konikarli tuzilgan deb xisoblaydi. «Xatolar» moddasi buyicha katta koldik, tulov balansini sezilarli xatolar bilan tuzilgani xakida dalolat beradi. Lekin, kurilayotgan moddaning yirik xajmdagi koldigi xam, aniklik kafolati bula olmaydi, chunki bitim tulov balansida kayd kilinmasa (misol uchun, kontrabanda), uning ma'lumotlari anik bulmaydi. Lekin, «xatolar» moddasi bilan yukotish kerak bulgan, muvozanatsizliklar yuzaga kelmaydi. Bu moddaning kattaligi xam, mamlakatdagi valyuta nazoratining va statistikaning xolati bilan boglik. Umuman, rivojlanayotgan mamlakatlar tulov balanslari ma'lumotlari, rivojlangan mamlakatlarnikiga karaganda, kup xollarda, ishonchsizrok buladi. Kup rivojlanayotgan mamlakatlar xisob balansini xam tuzishadi (xalkaro talablar va majburiyatlar mutanosibliigi). Bu balanslar koldigi, odatda, bir-biriga tugri kelmaydi. Misol uchun, kapitallar chikimini amalga oshirayotgan OPEK a'zolari bulgan mamlakatlarning xisob balanslari aktivdir, tulov balansini esa, neft narxini tushishi paytida, passivdir. Misol uchun, 1980-yillar urtasi va 1990-yillar oxirida, neft import kiluvchi bulgan rivojlanayotgan mamlakatlarga, ikkala balansning xam passiv koldigi xarakterlidir. Bu balanslarning farki, kapitallar va kreditlar xarakati bilan boglik bulgan operatsiyalarning ularda aks etishi bilan namoyon buladi. Agar, AKSh Braziliyaga 100 mln. AKSh dollari mikdorida kredit bersa, kapitallarning okib ketishi sifatida bu summa kreditor-mamlakatning tulov balansining passiviga yoziladi, xamda uni kelajakda tulashi kerak bulgan mamlakatga talab sifatida, xisob balansining aktiviga yoziladi. Braziliya kredit olgani bois, bu uning tulov balansining aktivida va mamlakat karzi kayd kilingan xisob balansining passivida aks etadi.

## **UZINI-UZITEKSHIRISH UChUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Kandal operatsiyalar «kurinmas» operatsiyalar tarkibga kiradi?
2. «Shaxsiy utkazmalar» «xukumat utkazmalari»dan nimasi bilan farqlanadi?
3. Kapital xarakati moddalarida kaysi kapitallar rasmiy kapitallar xarakati deyiladi?
4. Joriy investitsiya operatsiyalarining birlamchi va ikkilamchi ta'sir omillari kandal farqlanadi?
5. Chet el investitsiya okimi, uni kabul kiluvchi mamlakatga kandal ta'sir utkazadi?
6. Kapitallar xarakati balansini taxlil kilishning bosh maksadi nima?
7. Rivojlanayotgan mamlakatlar tulov balanslarini tuzish usullarining kandal uziga xos tomonlari mavjud?
8. Xisob balansi nima?

## 5.7. RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR TULOV BALANSIGA TA'SIR KILUVCHI OMILLAR

Tulov balansiga ta'sir kiluvchi ichki va tashki omillar farqlanadi. Bir tomondan, bu farqlar mamlakatda yuz berayotgan jarayonlar ta'siri ostida shakllanadi va mamlakatning xalkaro mexnat taksimotida ishtiroki, tashki iktisodiy alokalarining kengligi, tarkibi va xarakteri xakida tasavvur xosil kiladi. Boshka tomondan, rivojlanayotgan mamlakatlar tulov balansi jaxon xujaligi, valyuta tizimi, rivojlangan mamlakatlardagi siyosiy xolat bilan boglik omillarni kuchli ta'sirini sezadi. Tulov balansi xolatiga kuyidagi asosiy omillar ta'sir kiladi:

**1. Rivojlanayotgan mamlakatlarning jaxon xujaligidagi karamlik xolati.** Ular xissasiga dunyo eksportining 37,6 foizi tugri keladi. Bu mamlakatlarning kupchiligining eksportida, xaligacha, dunyo bozorida baxosi katta tebranishga ega bulgan xom-ashyo, energiya tashuvchilar, tropik monomadaniyatlar katta salmokka ega.

**2. Rivojlangan mamlakatlar iktisodiyotining doiraviy uzgarishlari.** Utgan asrning 70-90-yillardagi dunyo iktisodiy va moliyaviy inkirozlari, rivojlanayotgan mamlakatlar tulov balanslarining nobarkarorligini oshiradi, birinchi navbatda ular maxsulotiga bulgan talabining va ular narxlarining tushib ketishiga olib keldi.

**3. Xarbiy xarakatlar.** Xarbiy yunalishdagi tovarlar importining oshishi, rivojlanayotgan mamlakatlar tulov balanslarining axvolini yomonlashishiga olib keladi. 1990-yillarning birinchi yarmida, bu mamlakatlar yiliga 30 mlrd. AKSh dollarini chet eldan, asosan AKSh, Frantsiya, Buyuk Britaniyadan kurol-yarog sotib olishga sarflashganlar.

**4. Rivojlanayotgan mamlakatlarning tashki moliyaviy manbalarga boglikligi.** Chet el kapitallarining okib kelishi, ular tulov balanslariga ikki tomonlama ta'sir kiladi, oldingi tushumlar kupayadi, lekin tulovlar muddati etib kelgani uchun, karzdor mamlakatlar karz summasini xamda foizlar va dividendlar tulashga majbur bulishadi.

**5. Dunyo savdosi shart-sharoitlaridagi uzgarishlar.** Rivojlangan mamlakatlarning rivojlanayotgan mamlakatlar bilan teng xukukli bulmagan savdosi, rivojlanayotgan mamlakatlarning tulov balanslariga salbiy ta'sir kursatadi. Jaxon bozoridagi monopoliyalarning baxo kutarish siyosati natijasida, rivojlanayotgan mamlakatlarga eksport kilinayotgan tovarlar narxlar indeksining usishi, bu mamlakatlardan olib chikilib ketilayotgan maxsulotlar baxo indeksining oshishidan ancha baland. Bundan tashkari, «boglangan» yordam xisobiga tashilayotgan tovarlar narxi, odatda, bozordagi urtacha narxlardan 20-40 foiz yukori.

TMKlarning faoliyati, rivojlanayotgan mamlakatlar iktisodiyoti va tulov balanslarining nomutanosibliigi xamda nobarkarorligini kuchaytiradi. Xalkaro monopoliyalar, firma ichidagi usayotgan aylanmadan uz maksadlarida foydalanadilar. Bu esa, baxolar darajasiga, xalkaro iktisodiy munosabatlar tuzilmasiga, xalkaro mexnat taksimotidan keladigan foydani taksimlashga ta'sir kursatadi, xamda rivojlanayotgan mamlakatlarda bojxona proteksionizmining kuchayishiga olib keladi. TMKlarning yashirin va ochik operatsiyalari, rivojlanayotgan mamlakatlar tulov balanslariga salbiy ta'sir kursatadi.

Kator tovarlar jaxon narxlarining vakti-vakti bilan bulib turadigan keskin kutarilish yoki pasayish chizigi buyicha portlashlari, kup rivojlanayotgan mamlakatlar tulov balanslarining nobarkarorligini oshiradi. Energetik inkiroz va jaxon inflyatsiyasi sharoitida, energiya tashuvchilar, birinchi navbatda neft narxlari usishi, neft import kiluvchilar bulgan, rivojlanayotgan mamlakatlar tulov balansiga yomon ta'sir kiladi. Vaktincha neft eksport kiladigan OPEK mamlakatlarining tulov balanslarida yirik mikdorda ijobiy koldik shakllandi.

1980-yillar urtasida neft baxosining keskin tushib ketishi (1982 yildagi 1 barrel uchun 33,8 dollardan, 80-yillar oxiri va 90-yillarning ikkinchi yarmida 14-16 dollargacha) OPEKka a'zo bulgan mamlakatlar tulov balansining yomonlashuviga olib keldi.

**6. Valyuta-moliyaviy omillar.** Etakchi valyutalar, xususan AKSh dollarining va narxlarning nobarkarorligi rivojlanayotgan mamlakatlar tulov balanslarining nobarkarorligini oshiradi. 1971-1973 yillardagi dollarning ikki devalvatsiyasi xamda uning kursini ketma-ket tushishi, valyuta foydasini pasaytirib, ularga kushimcha ziyon olib keldi. 1990-yillarning birinchi yarmida, dollar kursining kutarilishi tufayli, rivojlanayotgan mamlakatlar — import kiluvchi va karzdor sifatida ziyon kuradilar, chunki xalkaro majburiyatlarni koplash uchun

Amerika valyutasini sotib olish ularga kimmatga tushar edi. 1990-yillarning ikkinchi yarmida, yapon ienasi kursining tushib ketishi, Janubiy-Sharkiy Osiyoning bir kator mamlakatlarining (xususan, Indoneziya, Tayland va Filippin kabi) valyuta-moliyaviy axvolini ancha yomonlashtirib kuydi. Natijada, ular uz pul birliklari devalvatsiyasini utkazishga majbur buldilar. Umuman olganda, rivojlanayotgan mamlakatlar valyutasining devalvatsiyasi eksportni ragbatlantiradi va tovarlar importini ushlab turadi. Lekin, kupchilik mamlakatlarning eksport potentsiyali va tovarlar rakobatbardoshligi unchalik katta emas, importga bulgan extiyoji esa, juda katta. Bularning xammasi, devalvatsiyaning ular tulov balanslariga ijobiy ta'sirini pasaytiradi.

**7. Rivojlanayotgan mamlakatlarda inflyatsiya tulov balanslariga salbiy ta'sir kursatadi**, chunki narxlarning oshishi, milliy firmalar rakobatbardoshligini pasaytiradi, eksportni ogirlashtiradi, tovarlar importini ragbatlantiradi va kapitallar okib kelishiga yordam beradi.

**8. Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarning, rivojlangan davlatlar tomonidan savdo-siyosiy diskriminatsiya kilinishi.** Aksariyat vaziyatlarda, savdo iktisodiy munosabatlar yaxshi rivojlanishiga, AKSh va uning sheriklari tomonidan olib borilayotgan iktisodiy sanksiyalar siyosati, xattoki ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan boykot e'lon kilinishi, mazkur mamlakatlarning yanada kashshoklanishiga olib kelmokda. Utgan asrning 80-90-yillari oraligida, shu kabi sanksiyalar Liviya, Nikaragua, Kuba, Afgoniston, Irokka karshi amalga oshirilgan va ayrimlari xanuzgacha saklanib kolmokda.

**9. Rivojlanayotgan mamlakatlar tulov balanslarini muvozanatlashtirish usullari.** Mavjud takchillikni koplash uchun, odatda, vaktinchalik usullardan foydalaniladi: chet el kreditlari va kapitalini olib kirish. Rivojlanayotgan mamlakatlar Evropa bozorlarida kredit olishga xarakat kilishadi, lekin bu manbalarga bulgan imkoniyat cheklangan. Odatda evrobanklar, oz bulsada XVFDan kredit olgan mamlakatlarga kredit berishadi va uning nazorati ostida barkarorlashtirish dasturini amalga oshiradi. Xususiy banklardan olinishi mumkin bulgan kreditlar kimmat, ayniksa katta karzi bulgan mamlakatlar uchun bu samarasizdir. 1980-yillardan boshlab (keyinchalik asrimiz boshlarida takroran) yukoridagi mamlakatlarning ayrimlarini Garb mamlakatlari «kora» ruyxatga kiritishdi. Sanoati ilgor mamlakatlar nazorati ostida bulgan xususiy banklar va xalkaro valyuta-kredit va moliyaviy tashkilotlar faoliyatining muvofiklashuvi xam rivojlanayotgan mamlakatlarning ssudalar kapitalining xalkaro bozorga kirishi imkoniyatlari cheklab kuyilishiga ta'sir kursatadi. Tulov balanslarini muvozanatlashtirish uchun, chet el kreditlaridan faol foydalanish, rivojlanayotgan mamlakatlar tashki karzlarini sezilarli usishiga olib keldi (1990-yillarda, bu summa jami 2 trln. AKSh dollaridan ortdi). Uni tulash, rivojlanayotgan mamlakatlar valyuta axvoli nobarkarorligini oshiradi.

Tulov balansi takchilligini koplashning yakuniy usuli bulib, rasmiy oltin-valyuta zaxiralaridan foydalanish xizmat kiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar xissasiga jaxon valyuta zaxiralarining 41 foizi, oltin zaxiralarining 17,9 foizi tugri keladi (1997 yil). Ularning katta kismi, OPEKka a'zo mamlakatlarda va ayrim yangi sanoatlashgan davlatlarda tuplangan. Rivojlanayotgan mamlakatlar, chet el valyuta zaxiralari, asosan, Garb mamlakatlarining banklarida saklanganligi bois, kator yosh mamlakatlarga nisbatan, AKSh, Buyuk Britaniya va boshka mamlakatlar kullashi mumkin bulgan valyuta cheklanishlari va valyuta kamallari natijasida, ularni yukotib kuyish xavfi mavjud. Rivojlanayotgan mamlakatlar, juda bulmaganda, xalkaro xisob-kitoblar va tashki karlarzni koplash uchun, oltindan favkulotda pul sifatida foydalanishadi. Aksariyat, rivojlanayotgan davlatlar, XVF tomonidan berilgan (bu tashkilotga kiritilishi vaktidagi «oltin kvotani» kaytarib berish tartibi asosida kaytarib berilgan), ular uchun kapital badalining 10-25 foizga teng bulgan, oltinni sotdi. 1970-yillardan boshlab, tulov balansi takchilligini koplash uchun konvertirlanadigan valyuta sotib olishda SDR kullaniladi. Mamlakatlar Fond orkali kvotalar doirasida SDRni kerakli chet el valyutasiga almashtirib oladilar va ular bilan uz tashki karzlarini koplaydilar. Lekin, rivojlanayotgan mamlakatlar xissasiga SDR emissiyasining fakat 1,4 kismi tugri keladi. Bu mablaglar mamlakatlar orasidagi tulov balansiga karab emas, balki kvota kapitaliga karab avtomatik ravishda taksimlanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning SDR emissiyasini oshirish va valyuta resurslari

etmayotganlarga yordam shaklida, ular taksimoti tartibini uzgartirish kabi talablari, kator rivojlangan davlatlar tomonidan karshilikka uchramokdalar.

Tulov balansi passiv koldigini koplash manbai bulib, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar shaklidagi chet el yordami xam xizmat kiladi. Aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarning xalkaro kreditlarga tobeligidan foydalangan xolda, Garb mamlakatlari tashki yordamini birinchi navbatda, XVFnig siyosiy-iktisodiy talablari bilan boglashadi.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Tulov balansi xolatiga kaday omillar ta'sir kiladi?
2. Rivojlanayotgan mamlakatlarda tulov balansi takchilligini koplashning yakuniy manbasi nima?
3. Rivojlanayotgan mamlakatlar tulov balansiga inflyatsiya kaday ta'sir kursatadi?
4. Mamlakatlar tashki karzlarni kaysi valyutada tulaydilar?
5. Rivojlanayotgan mamlakatlarda tulov balansini muvozanatlash usullari kaday?

## **5.8. RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR TULOV BALANSLARINI TARTIBGA SOLISH USULLARI**

Rivojlanayotgan mamlakatlarda tulov balanslarini tartibga solish uchun, asosan, rivojlangan davlatlardan karz olish, eksportni ragbatlantirish, importni ushlab turish, chet el kapitalini jalb qilish, kapital chikib ketishini cheklashga karatilgan turli usullardan foydalaniladi:

1. Diflyatsion siyosatni yuritish.
2. Milliy valyuta devalvatsiyasi: samaradorlikni ta'minlash uchun rivojlanayotgan mamlakatlar eksport va importga tabakalashtirilgan soliklar xamda subsidiyalar kullashadi, turli valyuta kurslaridan foydalanishadi (ayrim vaziyatlarda ikkita valyuta bozorini tashkil etish orkali).
3. Valyuta cheklovlarini kullash.
4. Moliyaviy va pul kredit siyosatini yuritish (eksport kiluvchilarga byudjet subsidiyalari, importga bulgan soliklarni proteksionistik ravishda oshirish, pul- kredit siyosati instrumentlarini kullash).
5. Asosiy moddalar shakllanishi paytida, davlatning tulov balansiga ta'sir kiladigan maxsus choralarni ishlab chikish. Tartibga solishning muxim ob'ekti, eksportning monomadaniyatli ekanligi va uning diversifikatsiyasini engish chizigi buyicha savdo balansidir. Tartibga solish, asosan, mamlakat tashki savdo tarkibida sifat uzgarishlarga, birinchi extiyoj predmeti bulmagan tovarlar importini cheklashga yunaltiriladi.

«Kurinmas» operatsiyalar buyicha tulov va tushumlarni tartibga solish maksadida, rivojlanayotgan mamlakatlar kuyidagi choralarni kullaydilar:

- sayyoxlik infratuzilmasini yaratish orkali xorijiy sayyoxlarni jalb kilish;
- ishchi kuchi migratsiyasini tartibga solish;
- «transport», «sugurta» va boshka moddalar buyicha xarajatlarni kamaytirish;

Rivojlanayotgan mamlakatlar uz flotini tashkil etishga xarakat kiladi. Ulardan ayrimlari (Panama, Kipr, Gonduras, Xindiston, Liberiya va boshkalar) yirik flotga egalar, lekin uning salmokli kismini boshka bayroklar ostidagi kemalar tashkil kiladi. 1970-yillar urtasidan boshlab, neft eksport kiladigan mamlakatlar uz flotini yaratishga katta xarakat kilyaptilar. Bunda ular, neftni iste'molchiga etkazish yulidagi muxim buginni xalkaro neft monopoliyalari kulidan tortib olish imkoniyatini kuryaptilar. Dengizga chikish imkoniyatiga ega mamlakatlar (Shri-Lanka, Xindiston, Singapur, Yaman va boshkalar), uz portlarida chet el kemalariga xizmat kursatishdan katta daromad olyaptilar. Bundan tashkari, boshka transport xizmatlaridan keladigan valyuta tushumlarini oshirish uchun Suriya, Irok, Livan, Eron va boshka mamlakatlar xududidan utgan neft kuvurlaridan foydalanishni kengaytirmokdalar. Dengizga chikish uchun etarlicha darajada imkoniyatga ega bulmagan mamlakatlar koladi (Nepal, Chad, Ekvador, Markaziy Afrika Respublikasi va kupchilik Markaziy Osiyo mamlakatlari). Ular kushni davlatlar xududidan tashish uchun katta summalar sarf kilishga majbur bulmokdalar.

Sugurta soxasida chet el kompaniyalariga karamlikni kamaytirish uchun, ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda (Suriya, Jazoir, Shri-Lanka, Tanzaniya, Zambiya va boshkalar) davlat sektorida milliy sugurta kompaniyalar tashkil etilgan, ularning chet el sugurta kompaniyalari ustidan nazorati urnatilgan. Bir kator mamlakatlarda (Birma, Eron, Argentina) sugurta buyicha riskning katta kismini davlat uz buyniga oladi. 1965 yildan baxtsiz xodisalar risklarini kayta sugurtalashning turt xavzasini tashkil etish xakidagi Turkiya, Eron va Pokiston urtasidagi uch taraflama kelishuv, 1960 yildan Dengiz sugurtasi buyicha Osiyo sindikati va x.k. amal kilmokda. Arab mamlakatlari neftni kidirish, kazib olish va tashish bilan boglik operatsiyalarga katta e'tibor beradigan Arab davlatlari sugurta federatsiyasini tuzdilar.

Kapitallar xarakatini tartibga solish, odatda, chet el kapitallari okib kelishiga, ularning chikib ketishi chegaralashga va foydani utkazishni ta'minlashga karatilgan chora-tadbirlarni kullamokda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar tulov balanslarini davlatlararo tartibga solish XVF orkali amalga oshiriladi. U makroiktisodiy agregatlar choraklarga bulinadigan mikdoriy muljallar



shaklidagi barkorlashtiruvchi dasturlari ishlab chikiladi. Milliy xususiyatlarni inobatga olmaydigan Fond chora-tadbirlarini andozalashtirish, ularni saylanuvchanligi zaifligini oshiradi. Ayrim xolatlarda, Fond tomonidan tavsiya kilinadigan talabni cheklash kabi an'anaviy deflyatsion choralar, iktisodiy usish imkoniyatlarini pasaytiradi. Iktisodiyotni barkorlashtirishning kat'iy dasturlari, rivojlanayotgan mamlakatlar tulov balansining kapital kuyilmalari sarflanishiga majbur kiladi, bu esa, iktisodiy usishni chegralaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda katta tashki karzlar mavjudligi sharoitida, kreditor davlatlar (Parij klubi) karz olgan mamlakat, fakatgina XVFnig barkorlashtirish dasturini kabul kilgan xoldagina, karzlarni kayta kurib chikishga rozi buladilar.

1970-yillar oxirlarida, tulov balansi takchilligining tarkibiy tusini tan olinishiga asoslangan, uni xalkaro tartibga solish kontseptsiyalarida, iktisodiyotni barkorlashtirish davri uzaytirildi va uning tarkibi uzgardi. JTTB dasturlariga moslashtirilib tuzilgan, XVFnig barkorlashtiruvchi dasturlari, fakat talabga ta'sir kiluvchi choralarni emas, balki taklifga iktisodiyotning tarmok tarkibini zamonaviylashtirish chizigi buyicha, yalpi taklifning kamchiliklariga iktisodiy usish, kapital kuyilmalar strategiyasi bilan boglik tuzatishlarni kiritishni uz ichiga oladi. XVF tomonidan tavsiya kilingan tulov balansini tartibga solish choralari tuplamini kengaytirish, karzdor mamlakat iktisodiyoti tarmok tarkibidagi muvozanatsizliklarni yukotish yuli orkali, barkorlashtiruvchi dasturlarning yangi chizmasi ishlab chikilishida, uning JTTB bilan xamkorligiga yordam beradi. Bundan tashkari, XVF 1990-yillar boshidan, nixoyatda yomon axvolda kolgan mamlakatlarga shoshilinch moliyaviy yordam kursatish buyicha muvofiklashtiruvchilik tashabbusi bilan chikyapti. Takdim kilinayotgan resurslar «tuplamiga» fakatgina XVF mablaglari emas, balki bir kator rivojlangan davlatlar (birinchi navbatda AKSh, Yaponiya va GFR) va yirik xususiy banklar mablaglari xam kiradi. 1995 yilda Meksika iktisodiyotini kutkarish uchun XVF bu mamlakatga 48 mlrd. AKSh dollari xajmida moliyaviy resurslar berishni tashkil kildi. 1997 yilda, xuddi shunday, Tailandga 17,2 mlrd. AKSh dollari, Indoneziyaga 40 mlrd. AKSh dollari va Koreya Respublikasiga 58 mlrd. AKSh dollari mikdorida yordam ajratilgan edi. XVFnig shunday shoshilinch choralari, bu mamlakatlardagi iktisodiy axvol barkorlashishiga yordam bergan bulsa xam, rivojlanayotgan mamlakatlar iktisodiyoti va valyuta moliyaviy axvolidagi salbiy siljishlarni ochib berishi tomonidan, XVF katta nuksonlarga ega ekanligini kursatdi.

**Rivojlanayotgan mamlakatlar tulov balanslari muammolari.** Rivojlanayotgan mamlakatlar tulov balansini taxlil kilganda, ularni ikki asosiy guruxga ajratish maksadga muvofikdir: bir tomondan, bular neft import kilayotgan kupchilik rivojlanayotgan mamlakatlar. Ularning tulov balanslari doim takchildir (1980 yilda 56,5 mlrd. 1990 yilda 17,8 mlrd, 1997 yilda 40 mlrd. AKSh dollaridan ortik); boshka gurux OPEKka kiruvchi, neft ishlab chikaruvchi va eksport kiluvchilardir. Ularning tulov balanslari uzok muddat ichida (1982 yilgacha) aktiv edi, bu esa, ularni katta valyuta zaxiralarni tuplashiga olib keldi.

**Neftni import kiluvchi, rivojlanayotgan mamlakatlar tulov balanslari.** Ular tulov balanslarining doimiy takchilligiga, iktisodiyotning rivojlanishida tashki dunyoga karamlik, xalkaro mexnat taksimotida teng xukuksiz ishtiroki asos buladi. Tashki savdoning muvozanatsizligi — savdo sharoitlari, eksport va import narxlarining yomon mutanosibliigi bilan aniklanadi. Rivojlangan mamlakatlar tovarlari narxlarini oshirish va rivojlanayotgan mamlakatlar an'anaviy eksportidagi kator tovarlar narxlarining pasayishi savdo sharoitini namoyon bulishidan iboratdir.

Rivojlanayotgan mamlakatlar rivojlangan davlatlarga «kurinmas» operatsiyalar buyicha tulovlarni amalga oshirishidan yirik xajmda valyuta yukotadilar. Misol uchun, tashki savdo operatsiyalarini rivojlangan mamlakatlarning sugurta kompaniyalariga sugurta va kayta sugurta kilganlarida, dengizda yuk tashishda rivojlangan mamlakatlarning flotidan foydalanishda va x.k. Rivojlanayotgan mamlakatlarning xarajatlari, ayniksa foiz va devidendlarni utkazish buyicha, foydani utkazish buyicha takchillik usib borayapti (983 yilda 37 mlrd., 1996 yilda 64 mlrd. AKSh dollari).

Neft import kiluvchilar bulgan rivojlanayotgan mamlakatlarning joriy operatsiyalar buyicha tulov balanslari tizimli ravishda passiv koldikka ega bulmokda.

Tulov balansi yomonlashishining oldini olish uchun, rivojlanayotgan mamlakatlar joriy va moliyaviy operatsiyalar buyicha valyuta cheklashlarda deflyatsion siyosat kullaydilar. Lekin, bu

siyosat, iqtisodiy usish uchun zarur bulgan mashina va asbob-uskunalar importi cheklanishi va rivojlanayotgan mamlakatlar axolisi turmush darajasining tushib ketishiga olib keluvchi omilga aylanadi.

**Neft eskport kiluvchi rivojlanayotgan mamlakatlarning tulov balanslari.** Katta valyuta zaxiralarini tulaganlariga karamasdan, bu gurux mamlakatlar tulov balanslari nobarkarorligicha kolmokda. 1970-yildagi ularning xalkaro xisoblar balansining katta aktiv koldigi, 90-yillar boshida neft narxi va unga bulgan talabning tushib ketishi natijasida takchillik tomon uzgardi.

Neft eksport kilishdan kelgan daromadlarning kiskarishi, kator OPEKka a'zo mamlakatlarning ilgor Garb mamlakatlari banklaridan pullarini kaytarib olishiga sabab buldi.

Kator davlatlar (Nigeriya, Eron, Irok, Liviya) jaxon ssuda kapitallari bozoridan mablag olishni oshirishga majbur buldilar.

Aksariyat neft kazib oluvchi mamlakatlarning kapital xarakati balansi salmokli aktiv koldikka ega, chunki chet el monopoliyalari katta foyda sababli, bu mamlakatlarga kapital kuyishga xarakat kilmokdalar. Kapitalning yirik esport kiluvchisi bulgan, ayrim OPEKka a'zo mamlakatlar tulov balansining bu bulimi buyicha passiv koldikka egalar.

OPEKka a'zo mamlakatlar tulov balanslarining axvoli, ularning tabakalanishi sababli bir xil emas. Saudiya Arabistoni, Kuvayt, Birlashgan Arab Amirliklari 1990-yillar urtalarida, tulov balanslarining aktiv kolidigiga va katta oltin-valyuta zaxiralariga ega bulganlar. Shu vaktning uzida, Nigeriya, Venusuela, Jazoir, Gabon va boshka mamlakatlar uz tashki tulovlari takchilligi tufayli, jaxon ssuda kapitali bozoridan karz olganlar.

Shunday kilib, rivojlanayotgan mamlakatlar tulov balanslarining barkaror emasligi, ularning xalkaro mexnat taksimotidagi karamligi va teng xukukli bulmagan ishtiroki xususiyatlaridan kelib chikadigan, fundamental sabablarga ega. Bundan tashkari, bu davlatlarning xalkaro xisoblari nomuvozanatligining muxim sababi — sanoatlashish va iqtisodiy usishni ragbatlantirish maksadida, ularning valyuta resurslariga bulgan extiyojning keskin usganligidir.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Tulov balansini tartibga solish usullarini sanab bering.
2. Nima sababdan, aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar uz flotlarini barpo kilishga intilishadilar?
3. Sugurta soxasida chet elga karamlik deganda nima tushuniladi?
4. Rivojlanayotgan mamlakatlarda tulov balansini davlatlararo tartibga solish kim tomonidan amalga oshiriladi?
5. Barkarorlashtiruvchi dasturlar nima?
6. Rivojlanayotgan mamlakatlar tulov balansidagi asosiy muammolarni tushuntiring.
7. Neft importi bilan shugullanuvchi mamlakatlar tulov balanslari kandy axvolda?

## 5.9. UZBEKISTON RESPUBLIKASINING TULOV BALANSI

Uzbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish tugrisida» gi konuniga muvofik, tulov balansini tuzish 1993 yilda Moliya vazirligi zimmasiga yuklangan. Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 15 maydan «Uzbekiston Respublikasi istikbolni belgilash va statistika Davlat kumitasini, Makroiktisodiyot va statistika vazirligiga uzgartirish tugrisida» gi Farmoniga muvofik, tulov balansini tuzish, uni amalga oshirish ustidan nazorat kilish, ushbu idoraga topshirildi va uning tuzilmasida tulov balansi bulimi faoliyat kursata boshladi.

Yakin kunlarga, tulov balansini tuzish buyicha xar bir idoraning vazifaviy majburiyatlari anik belgilab berilmagan edi. Shu tufayli, ma'lumotlar bir necha bor yigilib kolishga, shuningdek, tulov balansi rasmiy statistikaning ba'zi kursatkichlari buyicha nomuvofik-liklar vujudga keldi.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish maksadida, Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining Karoriga muvofik, Moliya vazirligi, Iktisodiyot vazirligi, Markaziy bank va Tashki iktisodiy alokalar Agentligining mas'ul xodimlaridan muvofiklashtiruvchi idoralararo ishchi guruxi tuzilib, kelishuv bayonnomasi imzolandi xamda tulov balansi ma'lumotlar ba'zasi va statistikani muvofiklashtirish buyicha xamkorlik ishlari rejasi ishlab chikildi.

Mazkur idoralararo ishchi guruxi tomonidan amalga oshiriladigan tulov balansi tuzish jarayoni, uch boskichni uz ichiga oladi:

1. Olingan axborotni xar bir idora darajasida yigish, tekshirish va baxolash;
2. Kompyuter vositalaridan foydalanib, kodlashtirish umumiy tizimini kullash asosida, turli manbalar buyicha ma'lumotlarni tekshirish. Ushbu usuldan savdo statistikasi ma'lumotlarini yigishda foydalanilmokda: bojxonadan olingan ma'lumotlar, korxonalaridan olingan axborot bilan solishtirilmokda. Bu boskichda, Markaziy bank vazifasiga tijorat banklari takdim etgan xisob-kitoblarni kayta ishlash yuli bilan, kassa asosida tulov balansini tuzish kiradi. Bu erda, bank xisobotlari orkali olingan axborotni korxonalaridan olingan axborot bilan takkoshlash mumkin;
3. Bitimlarga asoslangan tulov balansining sunggi variantini, kassa asosida, tulov balansidan ajratish yuli bilan ishlab chikiladi va surovnomma ma'lumotlari moddiy resurslar ruyxatga olingan axborot bilan almashtiriladi. Ushbu boskichga, zarurat bulganda, kushimcha tuzatishlar kiritish va baxolash mumkin. Axborot yigishni yaxshilash uchun, tulov balansini tayyorlashda, Uzbekiston Markaziy banki rezident va nerezidentlar orasidagi bitimlar buyicha xisob-kitoblarga asoslangan, bank xisobotlar tizimini takomillashtirishni rejalashtirmokda. Bundan tashkari, XVFining maxsus missiyasi, tulov balansining statistikasiga doir texnik yordam kursatish maksadida, nerezidentlar xisobvaraklari va bitimlari pozitsiyalari buyicha integratsiyalangan statistika xisobotlari berishni bildiruvchi, yopik tizimdan foydalanishni tavsiya etdi.

### **Tulov balansining asosiy muammolari:**

Respublikaning asosiy sanoat tovarlari buyicha importga karamligi, valyuta kurslarining yukoriligi — tulov balansining xolatiga ta'sir etuvchi jiddiy **makroiktisodiy muammolardan biridir**. Paxta, oltin, boshka rangli metallar soxasida kudratli iktisodiy imkoniyatlarga ega bulgan Uzbekiston, ushbu tovarlarning jaxon narxlaridagi pasayish an'anasi davomiyligidan aziyat chekmokda.

Muammoning ikkinchi tomoni shundaki, mamlaktning asosiy eksport maxsulotlari bulgan — paxta, oltin, mis ishlab chikarishni tuxtovsiz kupaytirib borish mumkin emas. Uchinchidan, xalkaro tajriba shuni kursatadiki, iktisodiy usish sur'atlari yukori bulishi uchun importni oshirish talab kilinadi. Import cheklangan bir paytda, iktisodiy usishda yukori sur'atlarga erishish kiyin buladi. Birok, importning eksportga nisbatan yukori sur'atlarda usishi, tulov balansining takchilligiga xamda mamlakatning makroiktisodiy axvoli bekaror bulishiga olib keladi. Valyuta kurslarining yukori bulishi, rasmiy, tijorat, «kora» kurslarning mavjudligi, rasmiy kurs bilan «kora» kurs urtasidagi farkning katta bulishi, valyuta daromadlari okilona kayta taksimlanmasligiga olib keladi.

Iktisodiyotning sanoat sektorini ma'lum darajada ragbatlantirishni chetlab, foydaning asosiy kismi, valyuta mablaglarini konvertirlash maksadida yoki import iste'mol tovarlarini sotib olish yullariga ega bulgan savdo tuzilmalariga, chet el kompaniyalariga va axolining nisbatan boy katlamlariga utib ketadi. Bundan byudjet, kishlok axolisining kupchilik kismi yutkazadi.

## UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR

1. Uzbekiston Respublikasida tulov balansi tuzishning xukukiy asoslari nimalardan iborat?
2. Mamlakatimizda tulov balansini tuzuvchi organ kim?
3. Tulov balansini tuzish nechta boskichdan iborat?
4. Uzbekiston Respublikasida tulov balansining asosiy muammolari nimalardan iborat?
5. Uzbekiston Respublikasida eksport va import operatsiyalarining tulov balansiga ta'sirini izoxlab bering.

### **«XOFFMAN LYa ROSH» (HOFFMAN LA ROCHE) VA «DJENENTEK» (GENENTECH INC.)NING BIRLASHUVI**

AKSh biotexnologiya sanoatining faxri — «Djenetek Ink», 1990 yil fevralida uz aktsiyalarining asosiy kismini Shveysariyaning tibbiyot maxsulotlari ishlab chikaruvchi yirik kompaniyasi «Rosh Xolding» (Roche Holding)ga sotilishini e'lon kildi.

Bitim buyicha «Rosh» «Djenetek»ning 60 foiz aktsiyasini sotib olishga 2,1 mlrd. dollar sarflanishi lozim edi. «Djenetek»ning asosiy maxsulotlari — bu, infarktdan keyingi jaroxatlarni davolash uchun va usishdan tuxtagan bolalarga muljallangan garmonlardir. Kompaniya tomonidan ishlab chikariladigan eng mashxur dori-darmonlar sifatida «Valium» (Valium) va Librium (Librium) kabi trunkvilizatorlarni kursatish mumkin.

Biotexnologiya sanoatini larzaga solgan ushbu bitim, Uoll Stritda ma'kullandi.

Mazkur bitim, yangi dorilarni ishlab chikarish va chet elda sotish xarajatlarini xamkorlikda moliyalashtirish maksadida, farmatsevtika kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladigan birlashuvlardan biridir. Bitimga, yangi texnologiyalarni ishlab chikaruvchi amerika kompaniyalarini xorijliklar sotib olishidan tashvish ortayotgan paytda erishildi. Biotexnologiya sanoati AKSh sanoatining yirik soxalaridan biri xisoblanib, unlab uncha katta bulmagan korxonalaridan tashkil topgan.

«Djenetek» va «Rosh»ning rasmiy vakillari «Djenetek» avtonom xolda ishlaydi, uning aktsiyalari esa, oshkora sotiladi, shuning uchun xam ushbu bitim muammo keltirib chikarmaydi, degan fikrda edilar.

Cungi 2 yil davomida aktsiyalarining narxi tushib ketgan «Djenetek», xorijiy xamkor bilan birlashish, birjadagi urinishlardan kura, kuprok moliyaviy mablaglar okimini yuzaga keltiradi degan karorga keldi. 1987 yilgi moliyaviy inkirozdan sung, kupchilikbiotexnologik kompaniyalar moliyaviy mablaglar okimini jalb kilish masalasida kiynalib kolgan edilar.

«Rosh» kompaniyasi «Djenetek»ning kolgan aktsiya-larini xam keyingi 5 yil ichida butunlay sotib olishni kuzlagan bulsada, ayni paytda korxonani mustakil xolda faoliyat yuritishi xamda amaldagi boshkaruvni saklab kolish fikriga ega ekanligini e'lon kildi. 13 a'zodan iborat «Djenetek» direktorlar Kengashida «Rosh» atigi 2 ovozga ega buldi.

Odatda, yirik kompaniyalar bilan uncha katta bulmagan, yukori texnologiyali kompaniyalarning birlashuvi, kichikrok kompaniyadan olimlar va menejerlarni ishdan ketishiga sabab buladi. Buning oldini olish xamda «Djenetek» xodimlarining tadbirkorlik tashabbusini saklab kolish maksadida, «Rosh» yukoridagicha karorni kabul kildi.

Kelishilgan bitimga muvofik, «Rosh» muomaladagi «Djenetek» aktsiyalari yarmini, xar bir aktsiya uchun 35 dollar tulab (shunday 65% aktsiyani yopilish kiymatini 21,75 dollarga tengdan ortik baxoda) olish kerak edi. Ushbu shartlar e'lon kilingandan keyingi savdo kunida aktsiyalar baxosi 8,125 dollarga usib, yopilish baxosi 29,875 dollarni tashkil etdi. «Rosh» shuningdek, «Djenetek» kapitalini kengaytirishga 492 mln. dollar kuyilma kilishi xamda yangi chikarilgan aktsiyalarni sotib olish orkali «Djenetek» kapitalidagi ulushini 60 foizga etkazishi kerak edi.

«Djenetek» boshkaruvining ta'kidlashicha, kompaniyaning moliyaviy axvoli unchalik yomon bulmasada, yangi maxsulotlar ishlab chikarish uchun kompaniyaning investitsiyalarga extiyoji ortgan. Ikkala kompaniya rasmiylari — mazkur bitim «Rosh»ni biotexnologiya soxasidagi eng tajribali xisoblangan «Djenetek» ning ilmiy potentsiali va tajribalaridan foydalanishiga imkoniyat berilishinibildirishgan. Kompaniyalar mustakil ravishda faoliyat yuritsada, endi ular maxsulotlarni bir-biriga sotish vaqida cheklangan tuzishlari xamda «Djenetek»ning Evropa

bozorida marketing pozitsiyalarini mustaxkamlashlari mumkin. Kompaniyalarning fikricha, kushmakelishuvlar munozaralar orkali ishlab chikilishi va uzaro xurmat asosida kurulishi kerak.

Farmatsevtika soxasidagi birlashuvlarning natijasi sifatida «SmitKlayn Bekmen korporeyshn» (SmitKline Beckman Corporation, CShA) va «Bichem grup Pi El Si» (Beecham Group P.L.C., Buyuk Britaniya)ni birlashuvini, «Bristal-Mayers Kompanii» (Bristol-Myers Company, AKSh) va Skuibb korporeyshn (Squibb Corporation) urtasidagi bitim, shuningdek, «Ron-Pulenk Es A» (Rhone-Poulenc S.A., Frantsiya) va Rorer grupp (Rorer Group, AKSh)larning birlashuvini kursatish mumkin.

1980-yillarning oxirida, yangi texnologiyalarni ishlab chikish xarajatlarini kompaniyalar urtasida taksimlash maksadida, transmilliy kushma bitimlar natijasi sifatida bir kancha konsortsiumlar tashkil etildi.

Mazkur bitimlar investitsiyalarni kabul kilayotgan retsipient mamlakatda yangi korporativ kushma korxonalarini tashkil etishga olib kelmagan bulsada, ular kelajakda kushma korxonalar tashkil kilish maksadini kuzlaydilar.

Masalan, AyBiEm (IBM) va «Simens» (Siemens) birgalikda kompyuter xotirasi uchun mikro sxemalarni takomillashtirish kushma loyixasini amalga oshirmokda. Ushbu xamkorlikdan kuzlangan asosiy maksad — Yapon kompaniyalarini yarimutkazkich uskunalar bozorida monopoliyasiga barxam berish xamda dinamik operativ eslab koluvchi kurilmalarning integral sxemalarga asoslangan, yangi avlodini yaratish bilan boglik xarajatlarni kompensatsiyalashdan iborat.

1990 yilda kompaniyalar kushma loyixani e'lon kilganlarida, bozor integral sxemalarning 4 Mbit (mln. bit) xajmli turi keng tarkalgan edi. AyBiEm va «Simens»firmalarining xamkorlikdagi sa'y-xarakatlari natijasida 64 Mbit xajmli sxemalar ishlab chikarildi.

## VI BOB. XALKARO MOLIIYA TASHKILOTLARI VA DAVLAT FONDRLARI

### 6.1. XALKARO SAVDONI AMALGA OSHIRISHDA TUKNASH BITIMLAR

Xalkaro savdoni moliyalashtirish xar doim xam etkazib berilgan tovar yoki kursatilgan xizmatlar uchun pulli xisob-kitob yordamida amalga oshirilavermaydi. Xalkaro savdoning bunday shakllari (kurinishlari) uchun tuknash bitimlar kullaniladi. Nazariya va amaliyotda «tuknash bitimlar» tushunchasi barcha bitimlar kurinishini uz ichiga oladi, bunda tovarlar yoki xizmatlarni eksport kiluvchi, import kiluvchi (yoki import kiluvchi mamlakatning boshka mol etkazib beruvchisi)ning tovarlarni (yoki xizmatlarini) kabul kilib olish majburiyatini oladi. Shunday kilib, eksportga mol etkazib berishlar, kisman yoki tulik moliyalashtiriladi, yani kompensatsiyalanadi. Shu sababli «kompensatsiyalar» tushunchasi kupincha tuknash bitimlarning barcha kurinishlari uchun umumlashtiruvchi (jamlovchi) birlik sifatida ishlatiladi. Umuman tuknash bitimlar 4 guruxga ajratiladi:

1) **barter** — bu ikkita sherik, masalan, mol etkazib beruvchi (eksport kiluvchi) va sotib oluvchi (import kiluvchi) urtasidagi tugridan-tugri (bevosita) tovar ayirboshlashdir.

2) **kompensatsiya** — bu uzi etkazib bergan mol uchun, kisman yoki tulik tovar (yoki xizmat) bilan tulashga roziligidir (bu erda, uchinchi sherik yoki bir necha firmalar kushilishi xam mumkin. Va ularga, kompensatsiya buyicha mol etkazib berish majburiyati yuklatiladi):

- tulik;
- kisman.

3) **tuknash xaridlar** (counterpurchase) (bir-biriga mol etkazib berishlar, parallel, uzaro boglik, majburiyat yuklaydigan, majburiyatli ikki tomonlama bir-birini takozo kiluvchi bitimlar). Bu erda mol etkazib beruvchi, eksport kiluvchi belgilangan muddatda uzi etkazib bergan tovarlar kiymatining muayyan foizi mikdoridan tovarlarni uzi yoki uchinchi shaxs orkali sotib olish majburiyatini oladi.

4) **Maxsulot orkali tulash**. Bu tushuncha barcha bitimlarni uz ichiga oladi, bunda sotib oluvchi (import kiluvchi) mol etkazib berish kiymatini, xususan, tovarlar savdo-sotigining kelajakda shu tovar ishlab chikariladigan asbob-uskuna va dastgoxlar kiymatini tulik yoki kisman tulaydi.

**Uzbekistonda xalkaro savdoni moliyalashtirish**. Uzbekiston savdo alokalarini moliyalashtirishni rivojlantirishga zarurat sezmozda. Buning uchun tegishli iktisodiy boshkaruv muayyan darajadan joriy operatsiyalar buyicha xisoblarning takchilligi, urta muddatli kapitalga bulgan muxim talab, xukumatning investitsiya dasturi tomonidan moliyalashtirishga kafolat berishi lozim. Xalkaro munosabatlarga kirishishda Uzbekiston nol (ya'ni, sof) balans bilan ish yurita boshladi. 1992 yil noyabr oyida u nol variantli bitimni imzoladi va ushbu bitimga kura, sobik SSSRning tashki mablaglari va majburiyatlari Rossiyaga berildi. 1995 yil oxiriga kelib, Uzbekiston xalkaro agentliklardan muxim axamiyatga ega bulgan mablaglarni oldi va bu mablaglarning kreditorlari, savdoni moliyalashtirishni ta'minlaydigan tijorat banklari buldilar. Jaxon banki tomonidan muxim moliyalashtirishlar uchun yul ochib bergan XVFnning krediti kelishib olindi. Uzbekiston ETTBdan bir kancha kreditlar olgan. Deyarli, kupchilik karzlar davlat tomonidan olingan, lekin ularning orasida xususiy sektor tomonidan olingan ayrim karzlar xam bor. Moliya vazirligi tashki karzlari buyicha shartnomalarni tuzishni nazorat kilishga javobgardir. Bu soxada muxim operatsion javobgarlik Uzbekiston Milliy bankiga yuklatiladi va u davlat manfaatlariga mos kredit bitimlarini tuzadi xamda xukumatga karzlarni boshkarish buyicha texnik yordamni ta'minlaydi. Uzbekiston zaxiralari mamlakatimizda va shuningdek, rivojlangan Garb mamlakatlarining etakchi banklarida xukumat zaxiralari sifatida saklanadi. Jaxon banking Markaziy Osiyodagi rasmiy missiyasi utkazgan tadbirkotlariga kura, Uzbekistonning tashki moliyalash-tirishga bulgan umumiy extiyoji 1993-99 yillarda taxminan 5



mlrd. AKSh dollarini tashkil etdi. Xalkaro bank respublikaga 1 mlrd. AKSh dollari mikdorigacha mablag berishga tayyor ekanligini bildirdi. Iktisodiy isloxotlarning samaradorligi, bozor iktisodi rivojlanish yutuklari va xorijiy investorlarning ishonchini kozongan xolda missiya umumiy tulovlar mikdori 3-3,5 mlrd. AKSh dollariga etishi mumkinligini ta'kidladi.

Uzbekistonda oxirgi ikki yilda, tashki savdoni erkinlashtirish yunalishida muxim kadamlar kuyildi: eksport kilishda cheklangan tovarlar sonini 176 tadan 4 tagacha kamaytirildi; respublikalararo savdoga kuyilgan cheklashlar kiskartirildi; sobik Ittifok respublikalari bilan ikki tomonlama bitimlar imzolandi. Madomiki, tovarlar importi katta kismi davlatning ulgurji buyurtmalariga boglik bulib, strategik tovarlar eksporti esa, davlat tomonidan nazorat kilinar ekan, ushbu soxani erkinlashtirishga karatilgan siyosat yuritilishiga karamasdan, tashki savdoningn markazlashganlik darajasi xali xam yukoriligicha kolmokda. Bu ayniksa, paxta masalasida anik kurinadi. Davlat maxalliy ishlab chikarishning 60 foizgacha sotib oladi.

Tashki iktisodiy alokalar Agentligi (shu nom bilan ataladigan sobik vazirlik), uzining 10 ga yakin savdo kompaniyalari bilan eksport-import operatsiyalari buyicha asosiy xamkorlik kiladi. Bu tashkilot davlat zaxiralardan paxta sotib, tashki savdo buyicha eng katta tovar aylanmasiga ega. Eksport va import kiluvchilar tashki iktisodiy faoliyat katnashchisi litsenziyasini olish uchun Tashki iktisodiy alokalar Agentligida ruyxatdan utishlari shart. Xorijiy firma import yoki eksportga litsenziya olishi uchun kuyidagilarni Tashki iktisodiy alokalar Agentligida kurib chikish uchun takdim etilishi shart. Xarid kilish(sotish) xakidagi imzolangan bitim nusxasi, tovarning kelib chikishi tugrisidagi guvoxnoma yoki xujjat rasmiy bayonoti, Moliya vazirligining guvoxnomasi — nizom, xorijiy xissadorlar tugrisida umumiy ma'lumot, ya'ni kompaniya nomi, rasmiy manzillar, ruyxatdan utkazish joyi va vakti, kompaniyaga xizmat kursatiladigan bankning tavsianomalari, boshkaruvchining ismi va familiyasi xamda millati kursatiladi. Tashki iktisodiy alokalar Agentligi shuningdek, litsenziyalashni talab kiladigan tovarlar xamda xukumatlararo bitimlarda kursatilgan tovar buyicha shartnoma va bitimlar buyicha ruyxatdan utkazadi va maslaxatlar beradi. Tashki savdo faoliyatini erkinlashtirish, eksport-import operatsiyalarini tarifli va notarifli boshkarishni yaxshilash, eksport maxsulotlarini ishlab chikarishni kengaytirishni ragbatlantirish maksadlarida 1997 yilning 10 oktyabrida Uzbekiston Respublikasi Prezidentining «Tovar (ish va xizmatlar) eksportini ragbatlantirish buyicha kushimcha chora-tadbirlar tugrisida»gi Farmoni kabul kilingan. Respublika eksport potentsialini oshirishni ta'minlash masalasini echish bilan birga, 1997 yil 1 noyabrdan boshlab, Farmonga muvofik, maxsus maxsulotlarning bir necha guruxlaridan tashkari, barcha tovarlar uchun xamda tovarlar eksportini litsenziyalash uchun eksportga boj tulovlari bekor kilinadi. Rakobatbardosh va kayta ishlashning yukori darajasiga ega bulgan maxsulot ishlab chikarishni kengaytirishni iktisodiyotni islox kilishning ustuvor yunalishlaridan biri, deb xisoblangan xolda, 1997 yil 1 noyabrdan boshlab, uz ishlab chikarishi maxsulotini erkin kovertirlanadigan valyutada eksport kilayotgan korxonalariga kushimcha imtiyozlar berildi. Xususan, ularga uz maxsulotini oldindan tulovsiz va akkreditiv ochmasdan, vakolatga ega bulgan banklarning kafolatlari bilan, xaridorlarga xizmat kursatuvchi ishchilarsiz va amaldagi konunchilikda kuzda tutilgan valyuta tushumlari kirimi muxlatiga amal kilmasdan eksport kilish xukuki beriladi. Agar maxsulot eksporti bozor naxlaridan past narxlarda amalga oshirilsa, korxonalar uchun solikka tortiladigan bazasi eksport maxsuloti sotuvining xakikiy narxlaridan kelib chikkan xolda xisoblanadi. Agar, eksport kilinayotgan tovarlar sotuvining umumiy xajmidagi ulushi 30 foiz va undan kuprokn tashkil etsa, daromad soligi stavkasi amaldagi stavkaga karaganda 2 barobarga pasaytiriladi. Eksport kiluvchi korxonalar uchun kulay sharoitlar yaratishga karatilgan ragbatlantiruvchi omil bulib, Farmonda kabul kilingan MDX davlatlariga uz ishlab chikarishi maxsulotini erkin kovertirlanadigan valyutaga eksport kiladigan korxonalarni aktsiz soligi va kushimcha kiymat soligidan, agar xukumatlararo bitimlarda boshkalar kuzda tutilmagan bulsa, ozod kilish karori xisoblanadi.

Urnatilgan imtiyozlar manzilli yunalishga ega va kayta ishlashning yukori darajasi bilan eksportga tayyor maxsulot ishlab chikaradigan korxonalarni ragbatlantirish uchun kabul kilingan. Shu boisdan, kursatib utilgan imtiyozlar savdo-vositachilik tashkilotlari, shuningdek, xom-ashyo (rangli va kimmatbaxo metallar, kora metallar prokatiga, neft, tabbiy gaz, paxta tolasi) eksport kiladigan korxonalariga taallukli emas.

Tashki bozorlarning marketing tadqiqotlarini ta'minlash va ishlab chikarilayotgan maxsulotni reklama qilish maksadida, Farmonga muvofik, barcha mulk shaklidagi, uz ishlab chikarishning maxsulotini eksport kiluvchi ishlab chikarish korxonalariga xorijda konsignatsiya shartlarida tovarlarni etkazib berish asosida, savdo uylari va vakolatxonalariga ochishga ruxsat etiladi.

Mamlakatda tovar ishlab chikaruvchilar manfaatini ximoya kilishni ta'minlash va ichki bozorda ular ishlab chikarayotgan maxsulotning rakobatbardoshligini oshirish maksadida, importga yangi, birxillashtirilgan boj tulovlari kayta kurib chikildi va tasdiklandi. Bunda 1998 yil 1 yanvardan boshlab, bojxona tulovlari stavkasi tovar (ish, xizmat)ning bojxona kiymatida xisoblanadi.

Eksport-import operatsiyalari bilan shugullanadigan korxonalar va tashkilotlarning axborot ta'minotini yaxshilash maksadida manfaatdor vazirlik va idoralarga joriy yilda davlat tashki savdo statistikasi ma'lumotlarini tuplash va kayta ishlash tizimini takomillashtirish buyicha zarur choralarini amalga oshirish vazifasi yuklatilgan.

Mamlakatlar va tashkilotlar uchun xech kandy imtiyozli ta'rif stavkalari mavjud emas. Kompaniyalar imtiyozli soliklar uchun talabnoma berishlari mumkin; bu talabnoma fakat Uzbekiston Respublikasining Vazirlar Maxkamasi tomonidan kondirilishi mumkin.

Uzbekiston 1994 yilda bosh kelishuvda kuzatuvchi yuridik makomini olishga talabnoma bergan bulsa xam, uning tarif tarkibi «Tariflar va savdo buyicha bosh kelishuv» bilan boglik emas. Bundan tashkari, mamlakat xali tariflarning muvofiklashtirilgan tizimini ishlab chikkani yuk.

Uzbekiston Respublikasining Vazirlar Maxkamasi farmoyishlari asosida, Tashki iktisodiy alokalar Agentligi tomonidan berilgan litsenziyalar buyicha, eksport-importi amalga oshiriladigan maxsus tovarlar ruyxati:

1. Kurol-yarok va xarbiy texnika xamda ularni ishlab chikarish uchun maxsus butlovchi maxsulotlar.

2. Kimmatbaxo metallar, ulardan ishlangan maxsulotlar, kotishmalar, kontsentratlar, chikindilar, kimmatbaxo tabiiy toshlar va ulardan ishlangan maxsulotlar; marvarid va undan ishlangan buyumlar, kaxrabo va undan ishlangan buyumlar.

3. Uran (fakat uranning kontsentrantlari) va boshka radioaktiv moddalar, ulardan ishlangan buyumlar va ularning chikindilari.

4. Radioaktiv moddalar foydalanilgan asbob-uskunalar.

#### **Imtiyozlar joriy kilingan eksport kilinadigan xom-ashyo tovarlarining ruyxati:**

1. Rangli metallar, ularning prokati, ularning parchalari va chikindilari;
2. Kora metall prokati, ularning sinik parchalari va chikindilari;
3. Kimmatbaxo metallar;
4. Neft tabiiy gaz;
5. Paxta tolasi.

#### **Eksport kilish ta'kiklangan buyum va maxsulotlarning ruyxati:**

1. Don: bugdoy, javdar, arpa, sulii, guruch, makkajuxori, grechka.
2. Non maxsulotlari: (un, konditor maxsulotlari, pirojniylar, uz ishlab chikarishining pishiriklaridan tashkari).
3. Un, yorma.
4. Chorva, parranda.
5. Gusht va ozik-ovkat uchun gusht maxsulotlari.
6. Kuruk sut.
7. Choy xom-ashyosi, choy maxsuloti.
8. Shakar.
9. Etil spirti.
10. Muxim badiiy san'at, tarixiy, ilmiy yoki boshka madaniy boyliklarning ifoda etuvchi kadimgi buyumlar, tasviriy xaykaltaroshlik asarlari (Madaniyat vazirligi xulosasiga kura).

11. Usimlik yogi (texnik moylardan tashkari).
12. Charm xom-ashyosi (andozasidan tashkari).

**Uzbekiston Respublikasiga import kilish (olib kirish) ta'kiklangan buyumlar ruyxati:**

Davlat ijtimoiy tuzumni buzish, xududiy yaxlitlik, siyosiy mustakillik va davlat suverenitetini buzish, urushni, terrorizm, zuravonlik (kuch ishlatish), milliy ustunlik yoki diniy nafrat, irkchilik va uning kurinishlari (sionizm, antisemitizm, fashizm)ga yunaltilgan matbuot asarlari, kulyozmalar, rasmlar, fotosuratlar, fotopilyonkalar, negativlar, kino, video va audio maxsulotlar, gram zapislari, ovoz yozish materiallari.

**Uzbekiston Respublikasi orkali olib utish (tranzit) ta'kiklangan predmetlar ruyxati:**

1. Kurol-aslaxa predmetlari, uk-dorilar va xarbiy kurol-aslaxalar.
2. Uchuvchi apparatlar, ularning kislari xamda ularga uskuna va anjomlar.
3. Kurol-aslaxa (kurollanish) predmetlari, uk-dorilar va uchuvchi apparatlarni ishlab chikarishga karatilgan dastgox va mashinalar.
4. Portlovchi moddalar.
5. Kuchli ta'sir kiluvchi zaxarli moddalar.
6. Uzbekiston Respublikasiga olib kirish ta'kiklangan predmetlar:

**Izox:** Yukorida sanab utilgan predmetlar tranziti Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi bilan kelishilgan xolda, Uzbekiston Respublikasi Tashki Iktisodiy Alokalar Agentligi tomonidan beriladigan tranzitga (olib utishga) ruxsatnoma buyicha amalga oshirilishi mumkin.

**Tashki savdo buyicha tulovlar:**

Agar boshka davlatlar bilan bitimlar anik belgilangan balsa, Uzbekiston Respublikasi Tashki Iktisodiy Faoliyat milliy banki «ICC 500» xalkaro andozalariga tugri keladigan akkreditivlar ochishni taklif kiladi. Nakd pulli xisob-kitoblar xujjatlarning kursatish bilan amalga oshiriladi.

Konsignatsiya savdosi, asosan, kompyuter va elektronika, mebel va kiyim-kechaklarga nisbatan foydalaniladi.

Uzbekiston Respublikasi uchun tashki xisob-kitoblarda kuprok AKSh dollaridan foydalanilmokda. Masalan, 1993 yil umumiy tulovlarning 90 foizi shu valyutada amalga oshirilgan.

Odatda, sobik Ittifok mamlakatlari bilan buladigan savdo Markaziy bank tomonidan imzolangan banklararo kelishuvlarga muvofik xolda moliyalashtiriladi.

Eksport kreditlari va Uzbekistonga eksport buyicha sugurta dasturlari bir necha mamlakatlardan, masalan:

AKSh Eksimbanki eksportni moliyalashtirish va kiska va uzok muddatli eksportni moliyalashtirish xamda asbob- uskuna eksportini, ozik-ovkat maxsulotlarini ulgurji etkazib berishni sugurtalashni taklif etadi. Hermes eksportni moliyalashtirishni ochdi, KFW 400 mln. nemis markasidan ortik majburiyatlarni (karz) berdi.

Isloxotlarning dastlabki yillarida Turkiya Eksim banki 375 mln. AKSh dollariga kredit liniyasini ochdi, uning yarmi loyixalarni moliyalashtirishga, boshka kismi ozik-ovkat va xalk xujaligi tovarlariga muljallangan. Yaponiya Eksimbanki naft va gaz soxasidagi loyixalarni 300 mln. AKSh dollari summasida moliyalashtirishga jalb kilingan.

Frantsiya, Shveysariya, Buyuk Britaniyaning eksport kredit agentliklari asbob-uskuna va iste'mol tovarlari sotib olish uchun eksport kreditlar berishga tayyor ekanliklarini bildirishmokdalar.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Kanday bitimlar tuknash bitimlar deyiladi?
2. Barter nima?
3. Uzbekistonda xalkaro savdoni moliyalashtirish mexanizmi kandy amal kiladi?
4. Xalkaro savdoni moliyalashtirishda, xalkaro tashkilotlar kreditlari rolini tushuntiring.
5. Uzbekistonda tashki savdoni erkinlashtirish borasida kandy ishlar amalga oshirilmokda? Sizning fikringizcha, ushbu soxada yana kandy amaliy ishlarni bajarish ijobiy natijalar beradi?
6. Markazlashgan eksport nima?
7. Eksport kiluvchi korxonalarga nisbatan respublika-mizda kandy ragbatlantirishlar mavjud?
8. Imtiyozlar joriy kilingan eksport kilinadigan xom-ashyo tovarlarini sanab bering.
9. Uzbekiston Respublikasida kaysi tovarlar eksporti takiklangan?
10. Uzbekiston Respublikasi bilan xamkorlikni yulga kuyayotgan xorijiy davlatlarning banklari faoliyati xususida fikringizni bildiring.

## **6.2. UZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALARINI MOLİYALASHTIRISH MEKANIZMI**

Uzbekiston Respublikasida eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirish, asosan, banklar yordamida, xususiy yoki davlat (xukumat) mablaglari xisobidan amalga oshiriladi. Bugungi kunda, respublikada tovar va xizmatlar importi uchun kredit ajratish amaliyoti mavjud. Eksport munosabatlarida fakatgina muddati utgan tulov sifatidagi kredit mavjud.

Chet el mamlakatlaridan tovar sotib olinganda tulovlar, asosan, erkin ayirboshlanadigan valyutada amalga oshiriladi. Chet eldan keltirilayotgan tovarlarning asosiy kismini, xalkaro me'yorlarga javob beruvchi, xalk iste'moli tovarlarini ishlab chikaruvchi, mashina va asbob-uskunalar tashkil kiladi. Bu xaridlar bank kreditlari xisobidan amalga oshiriladi.

Mazkur uskunalar bilan savdo kilish, kichik va urta biznesni rivojlantirish uchun asosiy omillardan biri bulib xisoblanadi va davlat tomonidan nazorat kilinadi.

Uskunalar importi, ya'ni bank krediti xisobiga sotib olish loyixasi davlat tomonidan tasdiklanadi. Bu kreditlar karz oluvchiga karz beruvchilarning uz mablaglari yoki kredit liniyalari xisobidan beriladi.

Buning uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

Iktisodiyot vazirligidan, uning tarkibida tasdiklangan umumiy xodimlar soni doirasida kichik va urta tadbirkorlikni investitsiyalashga kumaklashuvchi Markaz tashkil etilayotganligi tugrisida taklif kabul kilinadi va unga quyidagilar yuklatiladi:

- respublikaning turli xududlari va turli soxalarda, kichik va urta tadbirkorlikni rivojlantirish buyicha takliflarni urganish xamda umumlashtirish, shuning asosida bankda investitsiya loyixalarga talab va takliflar buyicha ma'lumotlar tashkil kilish, davriy axborot byulleten chikarish va uni manfaatdor tuzilmalar urtasida tarkatish;
- kichik va urta biznes sub'ektlariga, xududlar va soxalarning rivojlanishini istikbolli yunalishlari, xom-ashyo resurslari va zarur infratuzilma mavjudligini xisobga olgan xolda, ishlab chikarishni samarali joylashtirishga kumak berish;
- loyixalarning maksadga muvofikligini baxolash va Uzbekiston Respublikasi investitsiya dasturiga kiritilishi tugrisidagi takliflarni Iktisodiyot vazirligiga tayyorlash.

Uzbekiston Respublikasida xukumatning, kichik va urta korxonalarni jalb kilinayotgan kreditlar xisobidan, olib kirilayotgan texnologik uskunalarga import uchun bojxona bojlarini tulashdan ozod kilish buyicha imtiyozlari mavjud.

Loyixalarni tanlab olish, kichik va urta biznesni rivojlantirish uchun jalb kilinayotgan xorijiy kredit liniyalari xisobidan, kichik va urta korxonalariga kredit berish tartibi.

Kuyidagilarni kuzda tutuvchi investitsiya loyixalari, xorijiy valyutadagi kreditlar xisobidan moliyalashtirish xukukini kulga kiritishi mumkin:

- yangi kichik va urta kushma korxonalarni tashkil kilish, faoliyat kursatayotganlarini rivojlantirish;
- eksportga yunaltirilgan maxsulotlar ishlab chikarish;
- kishlok xujaligi maxsulotlarini kayta ishlashni rivojlantirish;
- kushimcha ishlab chikarish va noishlab chikarish infratuzilmasini kishlok joylarda tashkil etish.

Investitsiya takliflari tashabbuskorlari urnatilgan namunadagi loyixa goyasini uzida jamlagan, ariza-anketani rasmiylashtiradilar va uni Uzinvestloyixa bulimlari yoki Uzbekiston banklari Assotsiatsiyasining Bankinvestloyixa bulimiga takdim etadilar. Respublika xududida, turli soxalar rivojlanishining istikbolli yunalishlari, ishlab chikaruvchi kuchlar joylashishi va chizmasi, xom-ashyo resurslarining mavjudligi, ishlab chikarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivoji, xamda preferentsiya tizimi tugrisidagi ma'lumotlarni investitsiya taklifi tashabbuskorlari Iktisodiyot vazirligi tarkibidagi kichik va urta tadbirkorlikni investitsiyalashga kumaklashish

Markazi xamda vazirlikning xududiy bulinmalaridan olishlari mumkin. Uzinvestloyixa bulinmalari yoki Bankinvestloyixa xizmati uchun xak olmasdan 10 kunlik muddat ichida takdim kilingan xujjatlarni kurib chikadi. Ishlab chikarish bazasida tekshiruv utkazadi va urnatilgan tartibda kichik va urta biznes rivojlanishi xamda jalb kilingan xorijiy kredit liniyalari kriteriyalariga muvofik, moliyalashni ochish uchun tijorat banklari talab kiladigan xujjatlar tuplamini tayyorlashning maksadga muvofikligi xakida xulosa tayyorlaydi. Loyixa tashabbuskorining uz kapitali, xorijiy kredit liniyalari doirasida moliyalash uchun tijorat banklari kuyayotgan talablarga etmay kolganda investitsiya institutlari (Uzbekiston banklari uyushmasi tarkibidagi Bankinvesttrast va boshkalar) loyixa tashabbuskorining etarli darajadagi nizom fondini shakllantirishda katnashishlari mumkin.

Investitsiya takliflari tashabbuskorlari, zarurat tugilganda, injineriing xamda konsalting kompaniyalarini jalb kilib, investitsiya oldi tekshiruvlarini amalga oshiradilar. Ushbu tekshiruvlar kuyidagilarni uz ichiga oladi:

- talab va taklif prognozini xisobga olgan xolda, maxsulot bozorini baxolash;
- iste'mol kilinayotgan resurslar va prognoz kilinayotgan xom-ashyo zaxiralari baxolash;
- infratuzilma ob'ektiining joylashgan joyini baxolash;
- loyixaning atrof-muxitga ta'sirini baxolash;
- ishlab chikarish kulamini optimizatsiyalash;
- optimal texnologik karorni tanlab olish;
- loyixaning xayotiyligi va iktisodiy natija-viyiligini baxolash;
- loyixaning xukukiy, tashkiliy va moliyaviy asosini shakllantirish.

Loyixaning Uzinvestloyixa tasdiklagan va uning tavsiyalariga muvofik tayyorlangan texnik-iktisodiy asosi (TIA) loyixa tashabbuskori tomonidan tijorat banki (lizing kompaniyasi)ga takdim etiladi.

Tijorat banki, zarur bulganda, Uzbekiston banklari Uyushmasining konsalting firmalari (Bankinvestloyixa, Bankxukukxizmat, Bankinformreyting, Bankkonsaltdiit)ni jalb kilib, loyixaning TIA xamda biznes rejasini, loyixa tashabbuskorining kreditga layokatligini baxolaydi, loyixaning xukukiy, tashkiliy va moliyaviy tarkibini xamda kredit ta'minoti etarligi ekspertizasini amalga oshiradi

Tijorat banki (lizing kompaniyasi) 30 kunlik muddat ichida loyixa tashabbuskoriga loyixani moliyalashtirish imkoniyatlari tugrisida xabar beradi. Tijorat banki (lizing kompaniyasi) kredit kumitasining karori ijobiy bulsa, loyixa tashabbuskori urnatilgan tartibda shartnomalarni rasmiylashtiradi va ruyxatdan utkazadi. Adliya vazirligida garov shartnomasini rasmiylashtiradi va ruyxatdan utkazadi, Iktisodiyot vazirligi bilan Investitsion dasturga kiritish imkoniyatlarini muvofiklashtiradi. Mulk sugurtasi va tadbirkorlik risklari va tijorat banki (lizing kompaniyasi) talablari oldida karzdorning javobgarligini sugurtalashning boshka shakllarini rasmiylashtiradi.

**Investitsiya loyixalarini moliyalashtirish.** Loyixa tashabbuskori tomonidan tijorat bankiga (lizing kompaniyasiga) kredit ta'minoti buyicha tula xujjatlar tuplami urnatilgan talablarga muvofik takdim kilinganda, tijorat banki (lizing kompaniyasi) 10 kunlik muddat ichida loyixani amalga oshirishni ta'minlovchi kator xarajatlar buyicha moliyalashtirishni amalga oshiradi. Loyixa tashabbuskorida sugurtalash va TIAni ishlab chikish buyicha xizmatini tulash uchun etarli mablag mavjud bulmaganda, ushbu xizmatlarga buladigan xarajatlarning 50 foizidan oshmagan kismini kredit summasiga kiritish mumkin. Loyixa tashabbuskori, karzga olingan mablaglarning maksadli ishlatilishi, ishlab chikarish kuvvatini uzlashtirish va kreditning urnatilgan muddatlarda kaytarilishi uchun amaldagi konunlarga asosan javobgar xisoblanadi.

Tijorat banki (lizing kompaniyasi) ajratilgan mablaglarning maksadli ishlatilishi ustidan nazorat urnatadi. Bank amaliyotida kabul kilingan koidalarga mos xolda, kreditning uz vaktida kaytarilishi monitoringini amalga oshiradi. Ajratilgan kredit mablaglari maksadli ishlatilmaganda xamda kredit uz vaktida kaytarilmagan xollarda tijorat banki (lizing kompaniyasi) kuyidagi choralarni kuradi:

- loyixa tashabbuskori xisobvaragida mablag mavjud bulsa, undagi xar kandy valyutadagi mablaglarni ogoxlantirishsiz olish;

- loyixa tashabbuskori xisobvaragida etarli miqdordagi mablag mavjud bulmaganda, e'tiborni garovga kuyilgan mulk va loyixa tashabbuskori tomonidan takdim kilingan boshka ta'minotni undirishga karatadi;

- loyixa tashabbuskori mansabdor shaxslari lavozimini suiste'mol kilganda va konunda kuzda tutilgan boshka shunga uxshash xollarda, ushbu mansabdor shaxslarni jazolash yuzasidan amalga oshiriladigan javobgarlikka tortish.

Uzbekiston Respublikasida barcha kredit munosabatlari mavjud konunlar va xukumat xamda Uzbekiston Respublikasi Markaziy Bankining me'yoriy xujjatlari bilan tartibga solinadi.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Mamlakatimiz importi tarkibi asosini nimalar tashkil etadi va mazkur tovarlar uchun tulov kaysi valyutada amalga oshiriladi?
2. Asbob-uskunalar importini moliyalashtirish manbalari nimalardan tashkil topgan?
3. Kaysi investitsiya loyixalarini amalga oshirish xorijiy valyutadagi kreditlar orkali moliyalashtiriladi?
4. Investitsiya oldi tekshiruvlari nimalardan iborat?
5. Loyixaning kreditga layokatligini tekshirishda, tijorat banklariga kumaklashadigan tashkilotlarni sanab bering.
6. Investitsiya loyixalarini moliyalashtirish kandy amalga oshiriladi?
7. Berilgan kreditlar maksadli ishlatilmaganda tijorat banklari kandy chor-tadbirlarni amalga oshiradilar?



### 6.3. UZBEKISTON XALKARO SAVDO VA XALKARO KREDIT MUNOSABATLARI MUXITIDA

Uzbekiston mustakillikka erishgandan keyin, respublika oldida xalkaro integratsiya jaryoniga jalb kilingan iktisodiyot, milliy davlatchilikni shakllantirish bilan boglik bir kator masalalar paydo buldi. Shu munosabat bilan respublikaga xalkaro moliya munosabatlarning tula ishtirokchisi bulishga imkon beruvchi kator maksadlar belgilab kuyildi. Bularning ichida eng muximi sifatida, bozor iktisodiyotini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb kilishni kursatish mumkin.

Uzbekistonda chet el investorlariga yaratilayotgan investitsiya imkoniyatlari, respublika xukumati siyosatining xorijiy investitsiyalarni jalb kilish masalalaridagi muxim yunalishini belgilaydi.

Uzbekiston Respublikasi mustakil davlatchiligini kulga kiritganiga kup bulmaganligini, shuningdek, kapital, investitsiyaga talab butun dunyoda usayotganini xisobga olgan xolda, mamlakatda xorijiy investorlarga yaratilayotgan investitsiya imkoniyatlarini xalkaro ishbilarmonlar doirasida yoyish buyicha faol ishlar olib borilmokda. Xususan, 1994 yilning martida Toshkentda BMT vakolatxonasi bilan xamkorlikda «Uzbekiston Respublikasiga xorijiy investitsiyalarni jalb kilish buyicha ochik mulokot» xalkaro konferentsiya utkazildi.

Londonda 1994 yildan beri utkazilayotgan «Doing business in Uzbekistan» konferentsiyasi endi an'anaviy bulib koldi. 1995 yilning oktyabrida Uzbekiston xukumati BMT institutlari bilan xamkorlikda Jenevaning Millatlar Saroyida xususiylashtirish jarayonida investitsiyalarni jalb kilish muammolariga bagishlangan konferentsiya utkazildi. 1996 yilda Frankfurt-Maynda Uzbekistonning investitsiya imkoniyatlari tugrisida vakillik konferentsiyasi utkazildi va u yigilgan nemis biznesining 300 dan ortik vakiliga katta kizikish uygotdi. Uzbekiston iktisodiyotining tog-kon sanoati, neft va gaz soxalarining AKShdagi takdimoti xam muvaffakiyatli utdi.

**Investitsiya muxiti.** Ma'lumki, xar kanday mamlakatdagi investitsiya muxiti, avvalambor, siyosiy barkarorlikka boglik buladi. Aynan shu omil, investorga uz faoliyatini puxta rejalashtirishga, uzok muddatli investitsiya rejalarini amalga oshirishni aniklashga imkoniyat yaratadi. Uzbekistonda investitsiya muxitining muxim xususiyati, uning Markaziy Osiyo xududidagi eng barkaror davlatlardan biri ekanligi xisoblanadi.

Mamlakat xukumati tomonidan utkazilayotgan makroiiktisodiy siyosat investitsiya jarayonlarini jadallashtirishning xam muxim omili bulib xisoblanadi. Uzbekiston Jaxon banki va XVF bilan yakin munosabatlar urnatishga xarakat kilmokda. Jaxon banki institutsional isloxotlarni, shuningdek, Uzbekiston milliy valyutasining tulov kobilyatini kullab-kuvvatlash maksadida xamkorlikni boshlab yubordi.

Uzbekistonning ushbu tashkilotlar bilan samarali va konstruktiv munosabatlari, chet el investorlari uchun, respublikada amalga oshirilayotgan iktisodiy isloxotlar barkarorligining bosh kafili buladi. Bugungi kunda, Uzbekiston Respublikasi Milliy banki tomonidan respublika iktisodiyoti uchun muxim bulgan investitsiya loyixalarini kreditlashga muljallangan ETTB, OTB, Xindiston, Shveytsariya, Turkiya, Chexiya, Koreya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiya, Yaponiya, AKSh banklari, sugurta kompaniyalari va xalkaro moliya institutlari tomonidan berilgan va umumiy kiymati 2,9 mlrd. AKSh dollari bulgan 14ta kredit liniyasiga xizmat kursatilmokda.

Birgina, 1996 yilda kuyidagi yangi kredit liniyalari ochildi:

- Cheyz Manxetten Banki (AKSh) Keys firmasi traktor va kombaynlarini sotib olish uchun 58 mln. va Boeing 767 samolyotlari lizingiga 172 mln. AKSh doll.ga;
- Jeneral Banki (Belgiya) 32 mln. AKSh doll.ga;
- Yaponiya Eksimbanki Fargona neftni kayta ishlash zavodini moliyalashtirish uchun 87 mln. AKSh doll.ga;
- Turk Eksimbanki (Turkiya) 78 mln. AKSh doll.ga SamKOChavto KK (39mln. AKSh doll.), KK Kosonsoy-Tekmen (24 mln. AKSh doll.) va Interkontinental mexmonxonasi (15 mln. AKSh doll.) kurulishini yakunlash uchun.

- Milliy bank GERMES sugurtasi vositasida nemis banklari bilan faol xamkorlik olib bormokda. Mazkur yilda umumiy qiymati 595,6 mln. Dm bulgan 25 kelishuv imzolangan.

Uzbekistonda ETTB ishtirokida umumiy qiymati 1,05 mlrd. AKSh dollari bulgan 33 loyixa amalga oshirilmokda va ulardagi ETTBning xissasi 529,1 mln. AKSh dollari. Respublika iktisodiy kursatkichlarining barkarorligi, xorijiy kreditlarni kaytarish buyicha respublikaning uziga olgan majburiyatlarining kat'iy bajarilishi, ETTBga 1996 yilning dekabr oyida Uzbekiston Markaziy bankiga davlat kafolatisiz 60 mln. AKSh dollariga yangi kredit liniyasini ochish xakida karor kabul kilish imkoniyatini berdi. Shuningdek, frantsuz sugurta agentligi KOFAS xam Uzbekiston Respublikasi TIF Milliy bankiga davlat kafolatisiz 30 mln. frantsuz frankiga kredit liniyasini ochdi.

Uzbekistonda kichik va urta tadbirkorlikni rivojlantirishga aloxida axamiyat berilmokda. Utgan yilda ETTB tomonidan ochilgan kredit liniyasining muddatidan oldin uzlashtirilishi yakunlandi, uning ochilishi nafakat ETTBning Uzbekistondagi faol faoliyatini boshlanishi, balki shakllanayotgan mayda tadbirkorlar sinfining rivojlanishiga muxim xissa kushdi.

Xorijiy kredit liniyalari orkali paxtani kayta ishlash, va ozik-ovkat maxsulotlarini kayta ishlash, kurilish mollarini ishlab chikarish soxalarini moliyalashtirishga ustuvorlik berilmokda. Kichik va urta biznesni kullab- kuvvatlash buyicha birinchi kredit liniyasining muvaffakiyatli amalga oshirilishi natijasida, ETTB Uzbekiston uchun 120 mln. AKSh dollari mikdoridagi ikkinchi liniyani ochishga rozilik berdi. Shu bilan birga, makroiktisodiy isloxotlar moliyaviy infratuzilmasining rivojlanish soxasi va xorijiy investitsiyalarni ximoya kilish soxasidagi xukukiy bazasidagi ijobiy uzgarishlarni e'tiborga olgan xolda, yangi kredit liniyasi Uzbekiston Respublikasi xukumatining suveren kafolatisiz berildi.

Uzbekistonda kichik va urta biznesni rivojlantirish soxasida faol xamkorlik kilayotgan kompaniyalardan yana biri Keys kompaniyasidir. U uzbek xamkorlari bilan birgalikda «UzKeysagrolizing» (Toshkent sh.) xalkaro kushma kompaniyasini tashkil kildi. Kompaniyaning nizom kapitali 5 mln. AKSh dollarini tashkil kildi:

Uzbekiston banklari uyushmasi	2,45 mln. AKSh dollari	49%
-------------------------------	------------------------	-----

«Keys Kredit Xolding Limited» (AKSh)	2,55 mln. AKSh dollari	51%
--------------------------------------	------------------------	-----

«UzKeysagrolizing» kompaniyasi faoliyatining yunalishi — xususiy mulk egalari, tadbirkorlar va korxonalarni kishlok xujaligi soxasida muvaffakiyatli ishlashlari uchun barcha zarur fondlar bilan ta'minlashlari bilan boglik.

OTB Missiyasining 1996 yilning yozidagi tashrifidan sung, Milliy bankka Uzbekiston kishlok xujaligi soxasida kichik va urta tadbirkorlikni kullab-kuvvatlash uchun 50 mln. AKSh dollariga kredit liniyasi ochildi.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Uzbekiston Respublikasiga xorijiy kreditlarni jalb qilish buyicha utkazilayotgan anjumanlar va ulardan kuzlangan asosiy maksad xakida uz fikringizni bildiring.
2. Investitsiya muxiti nima?
3. Uzbekistonga ajratilayotgan xalkaro kreditlar kaysi yunalishlarga jalb etilmokda?
4. «UzKeysagrolizing» kompaniyasining Uzbekiston iktisodiyotida tutgan urni kanday?

## 6.4. EKSPORT OPERATSIYALARINI DAVLAT TOMONIDAN KREDITLASH

Xalkaro tajriba shuni kursatadiki, davlat kreditlari nafakat milliy eksport kiluvchilarga, balki import kiluvchilarga xam takdim etilishi mumkin. Bunday xolatda kreditlar bir davlat (odatda, rivojlangan) xukumati tomonidan boshka (rivojlanayotgan) davlat xukumatiga eksport kiluvchilarga yaxshi muxit yaratish uchun ajratiladi. Mazkur kreditlar imtiyozli xisoblanadi. Kreditlarni berishning davlatlararo shartlari, karzdor bilan kelishishning shartlarini ishlab chikish manfaatdor mamlakatlarning Markaziy banklari zimmasiga yuklatiladi. Mazkur shartlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- kreditning maksadi;
- uning mikdori va valyuta turi;
- kredit liniyasi tarkibiga kiruvchi tovar va xizmatlar turi;
- kreditlar buyicha foizlar, ularni tulash muddati;
- karzdor tomonidan kafolatlar.

Sanoat jixatdan rivojlangan mamlakatlarda eksport kreditlarini davlat tomonidan kullab-kuvvatlash utgan asrning 50-yillaridanok keng rivojlandi.

Bugungi kunda beshta etakchi davlat (AKSh, Frantsiya, Germaniya, Yaponiya, Angliya)dan beriladigan urta va uzok muddatli kreditlar IXRT tomonidan beriladigan kreditlarning 75 foiziga tugri keladi. Eksport kreditlarini uzlashtirishning 70 foiziga yakini rivojlanayotgan mamlakatlar xissasiga tugri keladi.

Utgan asrning 80-yillari urtalaridan boshlab butun dunyoda davlat kreditlarining salmogi pasayishi kuzatilmokda. Mazkur jarayon «Sotslager» guruxiga kiruvchi mamlakatlarda butun tizimni kayta kurishga olib kelgan, aksilmarkazlashtirish xarakterlarining natijasida yuz berdi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda eksport krediti salmogining kiskarishi bir-necha sabablar bilan boglik.

*Birinchidan*, sotsialistik mamlakatlar — asosiy rakiblarning siyosat maydonidan yukolishi yangi bozorlarni ochib berdi va ekspansiya siyosatini ancha «arzon» usullar bilan amalga oshirish imkonini berdi.

*Ikkinchidan*, ayrim sabablarga kura, davlat kreditini joylashtirishning an'anaviy soxalari, bank va firma krediti orkali moliyalashtirilmokda.

*Va nixoyat*, aloxida olingan milliy loyixalarni moliyalashtirishda Jaxon bankining roli sezilarli usdi. Shunga karamasdan, eksportni davlat tomonidan kreditlash uzining salmokli xissasini saklab koldi va u xalkaro dastaklar, me'yorlar va shartnomalar asosida kattik tartibga solib turiladi.

Angliyada Sanoat va savdo vazirligi koshida eksport kreditlariga xizmat kursatuvchi maxsus boshkarma faoliyat yuritadi (Export Credit Guarantee Department (ECGD)). Ushbu boshkarma eksport kiluvchilarga kafolatlar berish orkali ularni kreditga layokatini ta'minlaydi. Agar mazkur import kiluvchilar Buyuk Britaniya banklarining xorijiy filiallaridan kredit olsalar, unda ushbu davlat kafolatlari Buyuk Britaniya tovarlarini import kiluvchilarga xam kullaniladi. ECGD bilan xamkorlik kilish eksport korxonalarini uchun kiska muddatlarda yirik xajmlarda kredit olishni kafolatlaydi. Mazkur boshkarma past foizlarda bergan kreditlari va tijorat banklaridan jalb kilingan mablaglari urtasidagi farkni davlat byudjetining mablaglari xisobidan koplaydi. 1978 yildan boshlab, ECGD eksport kreditlarini berish xamda uni kayta moliyalashtirish bilan bevosita shugullanadi.

AKShda kupchilik eksport kiluvchi firmalar uzining yirik mablaglariga va turli xil kredit tashkilotlari bilan mavjud keng alokalariga tayangan xolda eksport operatsiyalarini moliyalashtiradilar. Davlatning eksport operatsiyalari, asosan, kichik va urta korxonalariga muljallangan bulib, ularga AKSh eksport-import (Eksimbank) banki xizmat kursatadi. Ushbu bankning bugungi kundagi asosiy funksiyasi — uzok muddatli eksport kreditlarini kayta moliyalashtirish, tashki savdo operatsiyalari va eksport uchun tugridan-tugri berilgan kreditlarni kafolatlashdir (tashki savdo operatsiyalari kiymatining 30-55 foizi mikdorida). Shuningdek,

ushbu bank tijorat banklari tomonidan takdim etilgan kreditlar kaytarilishini kafolatlashni amalga oshirish bilan, ularni sugurtalaydi. AKSh Eksimbanki bilan 60 ta bank va eksport kiluvchi firmalarni birlashtiradigan Xususiy eksport fondi birgalikda xamkorlikni amalga oshiradi (*Private Export Funding Co*). Eksportni moliyalashtirish bilan boglik siyosiy va tijorat risklarini sugurtalashda Eksimbank tarkibiga kiruvchi tijorat kreditini sugurtalash Assotsiatsiyasining roli katta. Eksimbankning nizom (va zaxira) kapitali byudjet mablaglari xisobidan tashkil topgan. Ammo, asosiy kredit resurslarini bankning uzi, davlat kafolatlari va Federal moliya bankining kafolatlari tayangan xolda tashkil etadi. Xar besh yilda AKSh kongressi Eksimbankning nizomini kreditlash va sugurtalashning umumiy summasiga teng xolda tasdiklaydi. Bank tomonidan takdim etiladigan kreditlarning asosiy kismi rivojlanayotgan mamlakatlarga eksport kiluvchi korxonalar xissasiga tugri keladi.

Frantsiyada eksportni kreditlash banki fakatgina uzok muddatli kreditlarni kullab-kuvvatlash xamda ularni kayta moliyalashtirish bilan shugullanadi. Eksportning kolgan kismi, asosan, tijorat banklari tomonidan kullab-kuvvatlanadi. Frantsiya eksportni kreditlash banki milliy kapital bozorlaridan bush resurslarni jalb kiladi va yagona imtiyozga ega: bank tomonidan beriladigan eksport kreditlari bilan tijorat banklardan jalb kilingan foiz stavkalari urtasidagi farkni byudjet mablaglari xisobidan koplash.

Germaniyada eksport kiluvchi firmalarning kupchiligi sezilarli darajada yirik mablaglarga ega. Tijorat banklari bilan an'anaviy yakin alokalar, davriy mablaglarga extiyojni kondirishga kumaklashadi. Eksport operatsiyalarini moliyalashtirishda davlat ulushi xech kachon 25 foizdan ortmagan. Agar nemis eksport tovarlarini asosan rivojlanayotgan mamlakatlar bozoriga yunaltiril-ganligi xisobga olinadigan bulsa, davlatning ushbu ishtiroki sezilarsizdir. Tiklanish banki tomonidan takdim etiladigan eksport kreditlari Germaniyaning an'anaviy eksport tovarlarini rivojlanayotgan mamlakatlarga realizatsiyasida xamda nemis firmalarining chet ellardagi bulimlarini moliyalashtirishda muxim rol uynaydi. 60 dan ortik tijorat banklarini uzida birlashtirgan bank sindikati DKA uch xil turdagi eksport kreditlarini takdim etadi: A, B, C. Birinchi tur kreditlar sindikat a'zolariga, ikkinchi tur kreditlar — Germaniya Bundesbankidan kayta moliyalashtirish xukuki bilan tashki kontragentlarga beriladi. Kreditlar takdim etilishining maksimal muddati: A turdagi kreditlar — 10 yil, B turdagi kreditlar — 4 yilga. Odatda, kredit ulushi shartnoma summasining 70 foizidan ortmaydi. C turdagi kreditlar chet ellik tovar sotib oluvchilarga takdim etiladi.

Yaponiyada Eksport-import davlat banki faoliyat yuritadi. Ushbu xolat nizom kapitalini shakllantirishga xamda davlatning yordamiga tayanib ish kurish uchun yaxshi ta'sir etadi. Utgan asrning 70-80-yillarida mazkur bank eksport operatsiyalarining 50 foizdan ortikrok kismini kredit mablaglari bilan ta'minladi. Ushbu kreditlar turli soxalarga takdim etiladi: eksportni tugridan-tugri kreditlash; chet ellik sotib oluvchilarga takdim etilgan firma kreditlarini kayta moliyalashtirish; davlat kreditlarini takdim etish; chet el banklari kreditlari va kapital kuyilmalarini kayta moliyalashtirish. Odatda, kreditlar ikki yildan un yilgacha muddatlarga takdim etiladi va ular buyicha foiz stavkalari belgilab kuyiladi. Kreditning xajmi shartnoma summasining 70 foizigachani tashkil etadi. Yaponiyaning tashki savdo va sanoat vazirligidagi eksportni sugurtalash boshkarmasida shartnomani sugurtalash, kredit takdim etilishining majburiy sharti xisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda eksportni kreditlash soxasidagi tajribalarni umumlashtirib, shunday xulosa kilish mumkin. Birinchidan, eksportni kiska muddatli kreditlash, asosan, tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur tijorat banklarining faoliyati kuprok ichki bozorga karatilgan bulib, eksportni kreditlash bilan yirik ixtisoslashgan banklar shugullanishadi. Ikkinchidan, eksport operatsiyalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari tizimi tomonidan takdim etilayotgan kreditlar mikdori chegaralangan va xar doim xam etarlicha emas. Uchinchidan, rivojlangan mamlakatlarda tovar va xizmatlar eksporti uchun urta va uzok muddatli kreditlarga bulgan talab ortmokda. Shundan kelib chikkan xolda, ushbu masalani echishda korxonalariga davlatning yordami ortmokda.

Aksariyat xolatlarda eksport operatsiyalarini kreditlashga ixtisoslashgan maxsus moliya institutlarini tashkil etish amaliyoti keng tarkalmokda. Ushbu tashkilotlar tulik davlat ixtiyoridagi, aralash mulkchilikka asoslangan, yoki

xukumat tomonidan maxsus vakolat berilgan bulishi mumkin. Ammo, xar kaysi vaziyatda xam ushbu fondlar davlatning nazorati ostida buladi. Kupchilik mamlakatlarda xuddi mana shunday moliya tashkilotlari eksport kiluvchilarga kredit takdim etadilar, eksport kreditlarini kayta moliyalashtiradilar va import kiluvchilarga kreditlar beradilar. Mana shu tuzilma orkali eksport va import kiluvchilarga turli kurinishdagi imtiyozlar takdim etiladi.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Eksport va import kiluvchilarga beriladigan kreditlardan kuzlangan asosiy maksad nimadan iborat?
2. Eksport kreditlarini berish buyicha kaysi mamlakatlar etakchilik kiladi?
3. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda eksport krediti salmogining kiskarishi kandy sabablari bor?
4. Angliyada Sanoat va savdo vazirligi koshida eksport kreditlariga xizmat kursatuvchi maxsus boshkarma (Export Credit Guarantee Department (ECGD))ning asosiy faoliyati nimalardan iborat?
5. AKShda eksport kiluvchi firmalarni kullab-kuvvatlash kandy tashkil etilgan?
6. Yaponiyada Eksport-import davlat banki faoliyati nimadan iborat?
7. Eksport operatsiyalarini kreditlashga ixtisoslashgan maxsus moliya institutlari kim tomonidan tashkil etiladi?
8. Uzbekistonda eksport operatsiyalarini davlat tomonidan kullab-kuvvatlashning tashkil etilishi va uning samaralilik darajasi xususida uz fikringizni bildiring.

## **6.5. XALKARO SAVDONING RIVOJLANISHI — IKTISODIY USISHNING ASOSI**

Xalkaro savdo turli mamlakatlar urtasidagi mamlakatlar urtasidagi savdo sifatida kadim zamonlarda paydo bulgan. U kuldorchilik davrida xam, feodalizmda xam olib borilgan. Ammo, usha davrlarda xalkaro muomalaga ishlab chikarilayotgan maxsulotlarning kam kismi kelib tushardi: asosan dabdabali buyumlar (kimmatbaxo matolar, kimmatbaxo buyumlar), shirinliklar, mineral xom-ashyolarning ayrim turlari va x.k. Kapitalistik tizimgacha bulgan iktisodiy jamiyat tizimlari natural xujalikka asoslangan va shuning uchun maxsulotlarning asosiy kismi aloxida xujaliklar, jamoa yoki kichik xududlar doirasida ishlab chikarilgan va iste'mol kilingan.

Xalkaro kredit jaxon xujaligida yuz berayotgan integratsion iktisodiy uzgarishlarning muxim jixatini uzida ifodalaydi. Bush mablaglarning xarakatini va eng istikbolli xamda rivojlanishga muxtoj tarmoklar, xududlarga kapitalning okimini ta'minlagan xolda, xalkaro kredit kapitalning milliy xujaliklar iktisodiyoti va umuman, jaxon iktisodiyoti rivojlanishi uchun taksimlanishiga imkon beradi.

Xalkaro kredit uzida tovar va valyuta resurslarini etkazib berish bilan boglik xalkaro iktisodiy munosabatlar doirasida ssuda kapitalining xarakatini ifodalaydi.

Xalkaro kredit XIV-XV asrlarda xalkaro savdoda vujudga kelgan, ayniksa, Evropadan Yakin va Urta Sharkka, keyin Amerika va Xindistonga dengiz yullari uzlashtirilishidan keyin uning doirasi kengaygan.

Pul-kredit siyosati, valyuta kursini muvofiklash-tirishni amalga oshirish, sumning joriy operatsiyalar buyicha konvertirlanishiga erishish, davlat iktisodiy siyosatining ustuvor vazifalari xisoblanadi. Xalkaro moliya institutlari bilan xamkorlikning chukurlashuvi valyuta zaxiralarini tuldirish va ularni milliy valyutani mustaxkamlashga yunaltilish uchun moliyaviy yordam olishga imkon berdi.

Iktisodiy isloxohtlar davridagi murakkab masalalar echimida tijorat banklarining axamiyati muxim. Banklarga xorijiy investitsiyalarni jalb kilish jaxon moliya bozori tarkibiga Uzbekiston integratsiyasi kabi mas'uliyatli vazifa topshirilgan. Banklar eksport-import banki, davlat axamiyatiga ega bulgan soxalar va investitsiya loyixalarini moliyalashtiruvchi banklar funktsiyasini, shuningdek, keng mijozlar doirasiga xizmat kursatuvchi universal tijorat banklari funktsiyasini xam bajaradilar. Funktsiyalarning bunday birikmasi yirik massivli kredit resurslarining yigilishiga imkon beradi. Bu esa, iktisodiyotni intensiv rivojlanish davrida moliya resurslarini jamlash va bank aktivlarining diversifikatsiyasi uchun juda muximdir.

Banklar aktivlarni mamlakat ichida faol joylashtirish siyosatini amalga oshirmokda, bu birinchi navbatda yirik investitsiya loyixalarini kreditlash va Uzbekiston tashki savdo operatsiyalarini ustirishga yunaltililgan. Shu bilan birga, kreditlashning konservativ tamoyillari va investitsion loyixalar tanlovi, shuningdek, kreditlarning maksadli ishlatilishi va ularning kaytarilishi ustidan kat'iy nazorat urnatish tarafdorlari bulib xisoblanadi. Bank yuritayotgan siyosat kiska muddatli xorijiy kreditlarni rad etish va kredit portfeli sifatini oshirishga imkon berdi.

Uzbekiston Respublikasi tijorat banklari, asosan, Uzbekiston Respublikasi TIF Milliy banki doimiy ravishda kushimcha foyda olishga imkon beruvchi va mijozlar manfaatiga mos keluvchi yangi moliyaviy instrumentlar kullamokda va bugungi kunda u AKSh, Germaniya, Yaponiya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Koreya, Xitoy, Indoneziya, Turkiya banklari kredit liniyalariga xizmat kursatmokda.

Bankning e'tiborli xalkaro moliya institutlari- Jaxon banki guruxi, Evropa Tiklanish va Tarakkiyot banki, Osiyo Tarakkiyot Banki, MFK bilan faol xamkorligi anik loyixalarda amalga oshiriladi.

Loyixalar uziga ketgan xarajatlarni koplashi, atrof-muxitni ximoyalash talablariga javob berishi, import urnini bosa olishi, mamlakat eksport potentsiali tez usishiga imkon berishi lozim. Bularning puxta tekshiruvu bizga kreditorlar va karzdorlarga barcha majburiyatlarni suzsiz bajarilishini ta'minlash xukukini beradi. Iktisodiyotning kuyidagi yunalishlari buyicha loyixalar ustuvor sanalmokda:



- paxtani kayta ishlash va engil sanoatning rivoji;
- meva va sabzavotlar etishtirish va kayta ishlash;
- don ishlab chikarish va kayta ishlash;
- neft va gaz kazib chikaruvchi sanoat;
- tog-kon sanoati - kimmatbaxo va rangli metallar kazib chikarish va kayta ishlash;
- kimyo texnologiyasi majmui;
- kurilish mollari ishlab chikarish;
- kichik va urta biznes korxonolari;
- transport tarmoklari rivoji;
- turizm sanoatini kengaytirish;
- zamonaviy telekommunikatsiya tarmoklarini yaratish.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Xalkaro savdoda xalkaro kredit munosabatlari kachon yuzaga kelgan?
2. Uzbekiston Respublikasida tijorat banklarini xalkaro savdoni kreditlash operatsiyalari kandy maksadlarga yunaltirilgan?
3. Iktisodiyotning kaysi yunalishlari buyicha loyixalarni amalga oshirish ustuvor sanalmokda?

**RISKLARNING ASOSIY TURLARI – TASHKI SAVDODA ULARNI  
KISKARTIRISH ChORA-TADBIRLARI**

<b>RISK</b>	<b>1. KREDIT RISKI</b>	<b>2. VALYUTA RISKI</b>	<b>3. XUDUDiy RISK</b>
<b>TA'RIFI</b>	Sotib oluvchini tulovga nokobilligi yoki uni amalga oshirishni xoxlamasligi	Eksport kiluvchi yoki import kiluvchi xolatiga salbiy ta'sir kursatadigan, valyuta kursining uzgarishi	Import kiluvchi mamlakatida sodir bulgan siyosiy va iktisodiy vokealar ta'sirida, sotuvchiga tulovni vaktincha amalga oshirmaslik
<b>RISKNI KISKARTIRISH ChORALARI</b>	a) akkreditivlardan foydalanish	a) forvard valyuta xejerlashdan foydalanish	a) tasdiklangan akkreditivlardan foydalanish
	b) nakd depozitlarni olish	b) opsiyon bozorida fyucherslardan foydalanish	b) eksport kreditlarini sugurtalash
	v) eksport kreditlarini sugurtalash	v) uz valyutasida chek yozish	
		g) shartnomaviy ta'minot	

## VII. XALKARO SAVDONI MOLIIYALASH TIRISH

### 7.1. XALKARO XISOB-KITOB-LAR TUSHUNCHASI VA ULARNING TURKUMLANISHI

**Xalkaro xisob-kitoblar** deganda, turli mamlakatlar urtasidagi iktisodiy, siyosiy va madaniy alokalar natijasida yuzaga keladigan pullik talablar va majburiyatlar yuzasidan tulovlarni amalga oshirish tizimi tushuniladi. Xalkaro xisob-kitoblarning turli shakllari mamlakatlarning yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan keng qullaniladi.

Tovarlar ishlab chikarish va ularni sotish jarayonlarining baynalmilallashuvi, xalkaro xisob-kitoblarning mazmunida yangi uzgarishlar paydo bulishiga olib keldi. Xalkaro xisob-kitoblar keng kamrovli bulib, u eksport-import operatsiyalari, tijorat tusiga ega bulmagan tulovlar — sayyoxlik, sport, fukarolar tomonidan xorijiy davlatlarga pul utkazishlar, xorijiy davlatlarda diplomatik va savdo vakolatxonalarini ochish, uzga davlatlar xududida xarbiy kismlarni saklash xamda kapitallar va kreditlarning xarakati buyicha amalga oshiriladigan xisob-kitoblarni uz ichiga oladi.

Xar kuni jaxon valyuta bozorlarida 1 trln. AKSh dollari mikdorida xalkaro xisob-kitoblar amalga oshiriladi. Shuni 40 foizi AKSh dollarida amalga oshiriladi. Dunyo buyicha jami konversion operatsiyalarning 90 foizi 5 ta valyutada amalga oshiriladi. Jumladan:

1. AKSh dollari (USD). - 40%
2. evro (EURO) - 30%
3. Yaponiya ienasi (JPY). - 15%
4. Angliya funt-sterlingi (GBP). - 8-10%
5. Shveysariya franki (SNF). - 1-2%.

Xalkaro xisob-kitoblar 2 guruxga bulinadi: *xujjatlashtiriladigan; xujjatlashtirilmaydigan* tulovlar.

Xujjatlashtiriladigan tulovlarga:

1. Xujjatlashtirilgan akkreditiv;
2. Inkasso bilan amalga oshiriladigan xamma tulovlar kiradi.

Xujjatlashtirilmaydigan tulovlarga:

1. Tulov topshiriknomasi;
2. Cheklar;
3. SVIFT (SWIFT) kiradi.

Xujjatlashtirilmaydigan tulovlarni turkumlashda mezon shartlarini tulov shartlari utaydi. Agar, xar kandy xisob-kitob kuyidagi 3 tulov asosida amalga oshirilsa, bu xujjatlashtirilmaydigan xisob-kitob bulib xisoblanadi:

1. Oldindan tulash;
2. Tovarni olgandan sung tulash;
3. Ochik xisobvaraklar buyicha xisob-kitoblar.

Xalkaro xisob-kitoblarning asosiy shakli sifatida kuyidagilarni kursatish mumkin:

1. Tulov topshiriknomalari;
2. Cheklar;
3. Xujjatlashtiriladigan akkreditiv;
4. Inkasso.

**SVIFT (SWIFT)** — bu ma'lumotlarni uzatish va operatsiyalarni amalga oshirish tizimi bulgani uchun, uni xisob-kitoblarning mustakil shakli sifatida xisobga olish maksadga muvofik emas.

MDX davlatlarida valyutalar kotirovka kilinadigan doimiy valyuta birjalarining mavjud emasligi, ushbu davlatlarning valyutalaridan davlatlararo xisob-kitoblarda foydalanishga tuskinlik kiladi. Erkin almashinadigan valyutalar (EAV) bilan xisob-kitob kilishga asoslangan tizim eng kulay tizim xisoblanadi. Lekin, EAVning etishmasligi sababli, bu tizimdan tulik foydalanishning imkoni yuk edi. MDX davlatlari urtasidagi xisob-kitoblar muammosini xal kilish uchun, 1994 yilda Minskda Davlatlararo bank tashkil etildi. Bu bank kliring markazi

vazifasini utashi kerak edi. Lekin, Markaziy banklarning faoliyatida muvofiklik bulmaganligi tufayli, ushbu bank xakkoni faoliyat kursatmayapti.

Xalkaro xisob-kitoblarda katnashuvchi **sub'ektlar** bulib, xukumatlar, davlat organlari, Markaziy banklar, tijorat banklari, maxsus moliya-kredit institutlari (Pensiya fondlari, sugurta kompaniyalari, kredit ittifoqlari, lombardlar va x.k.), korporatsiyalar, xalkaro va xududiy moliya-kredit tashkilotlari (XVF, JTTB, ETTB, ORB va x.k.) xisoblanadi.

Xalkaro xisob-kitoblarni amalga oshirish buyicha, birinchi urinni tijorat banklari egallaydi. Sababi shundaki, xalkaro operatsiyalarning asosiy kismi — tashki savdo operatsiyalari va kapitallar xamda kreditlarning xarakati buyicha amalga oshiriladigan xisob-kitoblarga tugri keladi. Ushbu xisob-kitoblarda ishtirok etuvchi tijorat tuzilmalarining milliy va chet el valyutalaridagi joriy xamda depozit xisob-rakamlari, tijorat banklarida joylashgan. Markaziy banklar esa, tijorat tuzilmalariga kredit-xisob-kitob xizmatlarini kursatish xukukiga ega emas. Demak, tijorat banklari orkali tijorat tusidagi operatsiyalarning asosiy kismi amalga oshiriladi.

Tijorat banklarining xalkaro xisob-kitoblarni amalga oshirishdagi mavkei, ularning moliyaviy jixatdan mustaxkamligiga, elektron aloka tizimlari bilan yaxshi jixozlanganligiga, obrusiga, rivojlangan, keng tarmokli xorijiy filiallar va bulinmalari, kup sonli vakillik xisob-rakamlariga ega ekanligiga boglik. Tijorat banklarining xorijiy bank va korporatsiyalar bilan amalga oshiradigan xar kanday operatsiyalari talab va majburiyatlar orkali utadi. Masalan, Uzbekiston Respublikasidagi tijorat bankining mijozi Avstriyaga paxta tolasini eksport kildi, deylik. Bunda import kiluvchi uz bankiga, ya'ni Avstriyadagi tijorat bankiga junatilgan tovarlar summasini tulash tugrisida kursatma beradi. Avstriya banki tulov summasini uzidagi Uzbekiston bankining vakillik xisob-rakamiga utkazadi. Ushbu vakillik xisob-rakami, Uzbekiston tijorat banki uchun «Nostro» deb ataladi, Avstriya tijorat banki uchun «Vostro» deb ataladi. Xar kanday tijorat banki xar bir valyuta turi uchun bittadan vakillik xisob-rakami ochadi. Odatda, ushbu xisob-rakamlari, xalkaro xisob-kitoblarda keng kullanuvchi erkin almashinadigan valyutalarda ochiladi. Xozirgi kunda xalkaro xisob-kitoblarda eng keng kullanuvchi beshta davlatning milliy valyutasini kursatish mumkin(5-jadval).

Valyuta kursining doimo tebranib turishi sababli, tijorat banklari ularni diversifikatsiya kilib turadi. Valyuta kurslarini diversifikatsiya kilish deganda, zaxiralar tarkibidagi nobarkaror valyutani sotish va ularning urniga barkaror valyutalarni sotib olish tushuniladi. Xozirgi kunda diversifikatsiya, asosan, uchta valyuta — evro, Yaponiyaning ieni va Shveysariyaning franki xisobidan amalga oshirilmokda.

**Xalkaro xisob-kitoblarda kullaniluvchi asosiy valyutalar**  
(tartib rakami valyutalarning xalkaro xisob-kitoblardagi salmogiga karab belgilangan)

<b>№</b>	<b>Valyutalarning turi</b>	<b>Xalkaro savdo buyicha xisob-kitoblarda salmogi, foizda</b>	<b>Valyutalarning xalkaro mikyosda tan olingan belgilanishi</b>	<b>Valyutalarga nisbatan kullaniluvchi koeffitsientlar</b>
1	AKSh dollari	40	USD	1
2	Evro	30	EURO	100
3	Yaponiya ienasi	15	JPY	100
4	Buyuk Britaniya funt sterlingi	8-11	GVR	1

Xalkaro xisob-kitob shakllaridan mamlakat xududida foydalanish tartibini, odatda, Markaziy bank belgilaydi. Masalan, cheklarni amal kilish muddatini belgilash, chet el valyutasidagi bank pozitsiyasiga nisbatan limitlar urnatish tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

1976 - 1978 yillarda Yamaykaning Kingiston shaxrida turtinchi jaxon valyuta tizimi yuzaga keldi. Ushbu davlatlararo kelishuvning muxim natijalaridan biri —oltindan bevosita va tugridan-tugri xalkaro xisob-kitoblarda ishlatish ta'kiklandi. Ya'ni, oltin kuymalar va oltindan yasalgan buyumlar bilan davlatlararo tulovni amalga oshirishga chek kuyildi.

Xozirgi kunda davlatlar uz oltinlarini jaxon oltin bozorlarida sotib, undan tushgan valyuta mablaglari xisobidan xalkaro xisob-kitoblarni amalga oshiradilar. Jaxon oltin bozorlarida sotiladigan oltinlarning 50 foizdan ortikrogi London va Tsyurix bozorlarida sotiladi. London oltin bozorlarida beshta bank xar kuni ikki marta auktsion utkazadi. Ushbu auktsionlarda oltining bozor baxosi aniklanadi.

Tashki iktisodiy bitimlarning, shu jumladan, tashki savdo bitimlarining amalga oshishi, ya'ni ularni uz vaktida va kam xarajat sarflagan xolda amalga oshirish shartnomalari moliyaviy va tulov shartlariga boglik. Shu sababli, tashki savdo munosabatlarida ishtirok etuvchi sub'ektlar, shartnomani imzolash paytida, uning barcha jixatlarini puxta kelishib oladilar. Bunda, odatda, eksport kiluvchi va import kiluvchi manfaatlarining karama-karshiligi yuz beradi. Masalan, eksport kiluvchi tulov summasining ma'lum kismini oldindan tulab kuyilishini, kupchilik xollarda talab kiladi. Ushbu tulov summasining mikdorini aniklashda karama-karshilik yuzaga keladi. Eksport kiluvchi imkoniyat darajasida kuprok summani oldindan tulashni talab kiladi, import kiluvchi esa, iloji boricha, kamrok summani oldindan tulashga xarakat kiladi, chunki bu summa ma'lum vakt import kiluvchining xujalik aylanmasidan chikib ketadi. Yoki xisob-kitob shakllarini tanlash masalasini olaylik. Eksport kiluvchi imkon kadar tulov kafolatlanadigan xisob-kitob shaklini tanlashni taklif kiladi. Masalan, xujjatlashtirilgan akkreditiv ana shunday xisob-kitob shakli. Import kiluvchi uchun

esa, bu shakldan foydalanish makbul emas. Chunki, bunda import kiluvchining chikimi kupayadi. Masalan, xozirgi kunda Garbiy Evropa mamlakatlarining tijorat banklari xujjatlashtirilgan akkreditiv xizmati kursatganligi uchun 3-5 foiz miqdorida xizmat xaki oladi.

Tashki savdo shartnomasining kuyidagi turt moliya- tulov shartini ajratib kursatish mumkin:

1. Baxo valyutasi;
2. Tulov valyutasi;
3. Tulov sharti;
4. Xisob-kitob shakli.

**Baxo valyutasi** — bu tovarning baxosi ulchanadigan valyuta. Ushbu valyutani tanlashda tovarning turi, xukumatlararo shartnomalarning shartlari, va ayniksa, valyutaning barkarorligi xisobga olinadi. Shartnomada kursatilgan baxo tarkibiga tovarlarni ishlab chikarish, uni yuklash, import kiluvchi mamlakat portiga tushirish, omborxonalariga joylashtirish, import kiluvchiga uni etkazib berish xarajatlari kiradi. Tovarlar baxosini shartnomada belgilashning 5 asosiy usuli mavjud:

1. Kat'iy belgilangan baxolarni urnatish. Ushbu baxo shartnoma imzolanayotgan vaktida urnatiladi va shartnoma ijro etilishi mobaynida uzgarmsdan koladi.

2. Tovarlar baxosini, shartnoma imzolanayotgan paytda yuzaga kelgan bozor baxosida xisobga olish. Agar xom-ashyo eksport kilinayotgan bulsa, ularning biron-bir tovar birjasida (London yoki Nyu-York tovar birjalari va x.k.) xorijiy baxosi asosida shartnoma ijro etiladi.

3. Baxo kat'iy belgilab kuyilishi. Ammo, shartnoma imzolanayotgan paytda tovarlarning baxosi keskin uzgarsa, belgilangan baxo uzgartiriladi.

4. Tovarlar baxosi katiy belgilab kuyiladi, ammo xarajatlar tarkibida uzgarish bulgan takdirida belgilangan baxo uzgartiriladi. Bu usul, kupchilik xollarda, asbob-uskunalarini sotishda kullaniladi.

5. Aralash shakl. Tovarlarining ma'lum kismi kat'iy belgilangan baxolarda, ma'lum kismi uzgartiriladigan baxolarda sotiladi.

**Tulov valyutasi** — bu xakikatda import kiluvchining majburiyati tulanadigan valyuta. Agar, tulov valyutasi nobarkaror valyuta bulsa, unda shartnomada tovarlarning baxosi barkaror valyutada ulchanadi.

**Tulov shartlari** — bu tulov nakd valyutalarda yoki nakdsiz shaklda, ochik xisob-rakamlari orkali, kredit shaklida yoki veksellar orkali amalga oshirilishi mumkinligini kelishiyu olishdir.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Xalkaro xisob-kitoblar nima?
2. Xalkaro xisob-kitoblar kaysi operatsiyalarni uz ichiga oladi?
3. Xar kuni jaxon valyuta bozorlarida amalga oshiriladigan xisob-kitoblar mikdori kancha va u kaysi valyutalarda amalga oshiriladi?
4. Xalkaro xisob-kitoblar kandy guruxlarga bulinadi?
5. Xalkaro xisob-kitoblarning asosiy shakllarini ayting.
6. SVIFT nima?
7. MDX davlatlari urtasidagi xisob-kitoblarni amalga oshirishdagi muammolar kandy xal kilingan?
8. «Nostro» va «Vostro» xisobvaraklari moxiyatini tushuntiring.
9. Tashki savdo shartnomasining kandy moliya-tulov shartlari majud?



## 7.2. TASHKI IKTISODIY FAOLIYATDA INKASSODAN FOYDALANISHNING UZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xujjatlashtirilgan inkasso ikki bank-vakillik vositachiligida amalga oshiriladi: inkasso kiluvchi, eksport kiluvchi banki va tulovchi bank. Banklar inkasso amaliyotlarida eksport kiluvchi va import kiluvchi urtasida ishonch vositachilar bulib xizmat kiladi. Ularning majburiyatlari xujjatlarni tulovga yoki aktseptga karshi yuborish, kabul kilish va topshirish bilan chegaralanadi. Xujjatlashtirilgan akkreditivdan farkli ularok, inkassoda banklar xaridor tulaolmaganligi yoki uning xisob-kitoblarini bajarmaganligi uchun mas'ul emasdir. Shu bilan birgalikda, banklar uz xodimlarining suiiste'molligini xisobga olmaganda, xabarlarining ob'ektiv sabablariga kura, ushlanib kolishi, yoki yukolishiga xam javob bermaydi.

**Inkasso** — bu banklar tomonidan olingan yuriknoma-lar asosida moliyaviy yoki tijorat xujjatlari bilan birgalikda kuyidagi operatsiyalarni bajarish maksadidagi amaliyotdir:

- 1) tulov (aktsept) olish yoki,
  - 2) tijorat xujjatlarni tulovga (aktsept) karshi yoki boshka shartlarda berish.
- Shunday kilib, inkassoda kulaniladigan tulov shartlari kuyidagilardir:

- 1) xujjatlarni tulovga karshi berish;
- 2) xujjatlarni aktseptga karshi berish;
- 3) vekselga karshi xujjatlar, yoki majburiyatlarga karshi xujjatlar.

Birinchi xolatda, muddatiga tegishli bulgan tulov shartlarida takdim kilinganda yoki urnatilgan muddatda yoki belgilangan kundan kechikmasdan kursatilishi mumkin.

Ikkinchi xolatda, eksport kiluvchi tulov uchun import kiluvchiga uzok muddat berishi mumkin va import kiluvchi eksport kiluvchi tomonidan unga kuyilgan utkazma vekselni aktseptlashga karshi xujjatlarni olishi mumkin.

Uchinchi xolatga kelganda, import kiluvchi xujjatlarni inkasso kiluvchi bank vositasida, unga anik bir muddatga yoki belgilangan davrga tulovni yozma majburiyat bilan berish orkali xujjatlarni oladi.

Moliyaviy xujjatlar termini uz ichiga tulovni olishda ishlatiladigan utkazma veksellarni, oddiy veksellarni, cheklarni, tulov raspiskalarni yoki shunga uxshash xujjatlarni oladi.

Tijorat xujjatlari deyilganda esa, xisobvaraklar, tovar junatish xujjatlari yoki moliyaviy xujjat bulib xisoblanmagan boshka xujjatlar tushuniladi.

Inkasso ikkiga bulinadi: **sof inkasso** (fakat moliyaviy xujjatlar bulsa) va **xujjatlashtirilgan inkasso** (tijorat xujjatlari bilan birga bulgan moliyaviy xujjatlar inkassosi).

Ishtirok etuvchi tomonlar:

- 1) uz bankiga inkasso buyicha amaliyotni topshiruvchi mijoz (doveritel — ishonchnoma egasi);
- 2) bank-remitent — ishonchnoma egasi inkasso buyicha amaliyotni topshirgan bank;
- 3) inkasso banki — inkasso topshiriknomasini bajarishda ishtirok etuvchi remitent-bank bulmagan, boshka bank;
- 4) takdim kiluvchi bank — tulovchiga topshiruvchi inkasso banki;
- 5) tulovchi inkasso topshiriknomasiga kura, unga topshirik beriladigan shaxs.

Xujjatlashtirilgan inkasso shakli tanlangandan sung, xalkaro xisob-kitob buyicha eksport kiluvchiga xaridor tomonidan tulaolmaslik yoki aktseptlanmaslik xataridan ximoya kilinishini ta'minlash zarur. Agarda, sotuvchi tijorat krediti shaklida maxsulotni yuborsa, mazkur xolatda unga sarf-chikimlarni aktseptlanmaslik xavf-xataridan sugurta kilish xakida uylashi kerak. Bu bilan sotuvchi xaridor bankidan, yoki birinchi darajali bankdan xaridor tomonidan aktseptlangan sarf-chikim takdimi buyicha tulov kafolatlashini surashi lozim. Xujjatlarni rasmiylashtirish davrida, sotuvchi xujjatlashtirilgan inkassoning kuyidagi elementlarini xisobga olishi lozim.

- yuk yuborish xisobvaragi xaridor maxsulotiga rasmiylashtiriladi;
- maxsulot xukukiy xisobvaragi egasi nomiga yuboriladi;
- xaridor sarf-chikim aktsepti yoki xisobvaragi tulovidan sung maxsulotni oladi.

Yukorida kursatib utilgan xujjatlarning rasmiylashtirish tamoyillarining buzilishi, xalkaro xisob-kitoblarda muammolarni keltirib chikaradi.

Tugri rasmiylashtirilgan inkasso topshiriknomasi, turli xil kelishmovchiliklarning oldini oladi, sababi— xujjatlarning shartnoma shartlari bilan tugri kelmasligi mijozning sarf-chikim aktseptidan, yoki tulovdan voz kechishgacha olib keladi. Natijada, sotuvchi kushimcha xarajatlar kilishiga tugri keladi.

Inkasso topshiriknomasini rasmiylashtirishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- inkasso olingan bank rekvizitlari, xususan, uning tulik nomi, manzili (pochta va SVIFT), teleks, telegraf, faks rakami xamda izoxlar rakami;
- ishonchnoma egasining rekvizitlari — uning tulik nomi, pochta manzili xamda zarur xisoblanganda telefon, teleks va faks rakamlari;
- tulovchi rekvizitlari — tulik nomi, pochta manzili va yuridik manzili (u buyicha xujjat takdim kilinadi);
- takdim kiluvchi bank rekvizitlari — tulik nomi, pochta manzili;
- inkasso kilinadigan valyuta kiymati;
- xar bir xujjat nusxalari va ilova kilinadigan xujjatlar ruyxati;
- olinadigan tulov va aktseptning sharti va tartibi, shu bilan birga, xujjatlar berish shartlari (tulovga va aktseptga karshi);
- stavkani va foizlar xisoblash davrini xisobga olgan xolda olinishi lozim bulgan foizlar;
- tulov turi va uning xabar berish shakli;
- tulov tulanmaganda, aktseptlanmaganda va boshka yuriknomalarga tugri kelmagan xolatlardagi kursatma.

Inkasso topshiriknomasida tulovchining tulik manzili kursatilishi lozim. Agarda, manzil tulik bulmasa, unda inkasso kiluvchi bank tugri manzilni aniklashi mumkin, lekin bu safar uziga xech kanday majburiyatni olmaydi. Agarda, manzil tulik bulmasa, u xolda bank inkasso kiluvchi bank muddat uchun javob bermaydi.

Inkasso topshiriknomasida tulovchi kachon xarakat kilishi uchun, anik bir vakt kursatilishi kerak.

Xujjatlar kabul kilib olingan shunday shaklda, ular tulovchiga takdim kilinadi. Inkasso kiluvchi bank ishonchnoma egasi tomonidan kursatiladi, agarda kursatilmagan bulsa, unda bank-remitent yoki uzi, yoki bank tanlovi buyicha, tulovni amalga oshirishi zarur bulgan davlatda yoki boshka shartlar bajariladigan davlatda buladi. Inkasso kiluvchi bank xujjatlarni va inkasso topshiriknomasini bank-remitentdan yoki boshka bank orkali oladi. Agarda, takdim kiluvchi bank kursatilmasa, unda u inkasso kiluvchi bank tomonidan tanlanadi. Takdim kiluvchi bank kechiktirmasdan, agarda takdimotda kursatilgan bulsa, xujjatlarni tulovga takdim kilishi lozim, agar boshka muddat bulsa, tulov muddati kelmasdan aktsept yoki tulovga takdim kilinishi lozim.

Shartnoma tuzilgandan sung, xaridor uz bankiga maxsulot xujjatlashtirilgan inkasso kullangan xolda amalga oshirilishi xakida ma'lumot beradi. Xususan, xaridor bankka inkasso shartlari, xujjatlar turlari xakida ma'lumot beradi. Bundan tashkari, u bankka unga maxsulot kelayotganligi xakida ma'lumot berishi lozim. Uz navbatida, bank uz mijozini maxsulot kelganligi tugrisida xabar beradi.

Birinchi kelishuvdan to, bitimning tulik amalga oshirilishigacha sotuvchi va xaridor urtasida kuppina aloxida kadamlar zarur bulib xisoblanadi. Shunga karamasdan, bu jarayonni uch boskichga ajratish mumkin:

1. Inkasso shartlari buyicha kelishuv — eksport kiluvchi uz taklifida, oldi-sotdi shartnomasida tulov shartlarini xaridor bilan birgalikda urnatadi;
2. Inkasso topshiriknomasini topshirish va xujjatlarni takdim kilish;
3. Tulovchiga xujjatlarni takdim kilish. Inkasso kiluvchi bank, xaridorga xujjatlar kelganligi va ularning sotib olish shartlari xakida xabar beradi. Xaridor uning tulovni yoki aktseptni kabul kiladi va unga xujjatlarni topshiradi. Tulangan summa inkasso buyicha bank-remitentga utkaziladi, u esa uz navbatida, eksport kiluvchi summasini kreditlaydi.

«Yagonalashgan koidalar»ga binoan, inkasso amaliyotlari uchun import kiluvchi banki inkasso topshiriknomasida kursatilgan, maxsulot biriktirilgan xujjatlari mavjudligini tekshiradi. Bundan tashkari, tulovchining banki quyidagilarni bilishi lozim:

1. Eksport kiluvchi bankining ruksatsiz, xaridorning bankidan, import kiluvchi tulovning bir kismini kabul kilish xukukiga ega emas.

2. Import kiluvchi banki tulov bulmasa, yoki aktsept bulmasa, bu xakida tezda xabar berishi lozim. Bu xakda xabar olgan sotuvchi banki, xujjatlarni kaytib berish yuriknomasini beradi. Agarda, zaruriy yuriknoma xabar berilgan kundan boshlab, 90 kun mobaynida olinmasa, u xolda xaridor banki xujjatlarni eksport kiluvchi bankiga kayta yuborishga majbur buladi.

3. Xaridorning banki xisob-kitob shartlariga binoan, xaridorga uz vaktida xujjatlar berilishidan tashkari, xech kanday majburiyatni olmaydi. Tekshiruvdan sung, bank import kiluvchiga, uning nomiga inkasso topshiriknomasi kabul kilinganligi xakida tezda xabar beradi. Bu bilan, amaliyotni bajarish buyicha bankning majburiyati chegaralanadi. Import kiluvchi bankiga kelgan xujjatlarni tekshirishning asosiy jarayoni maxsulotni sotib oluvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Bunda xujjatlar mazmuni va mikdori, shartnoma shartlariga tugri kelishi shart. Bundan tashkari, xaridor:

- xujjatlar tugri rasmiylashtirilganini;
- barcha xujjatlar berilganligini;
- xujjatlarda shartnoma tomonidan kursatilgan talablar xisobga olinganligini;
- mas'ul shaxslar tomonidan barcha xujjatlar imzolanganligini;
- xaridor nomiga schet-faktura, sugurta xujjatlari va veksel rasmiylashtirilganligini tekshiradi.

Xujjatlarni tekshirishda xaridor quyidagi xisob-kitob elementlariga e'tibor berishi lozim:

- xisobvarakni tulashdan avval, xujjat mazmuni va tarkibini tekshirish;
- eksport kiluvchi bankining ruxsatisiz xaridorga sotuvchi tomonidan quyilgan xisobvarakni tulovigacha, maxsulot xolatini tekshirishga ruxsat berilmaydi;
- agarda import kiluvchi yaxshi va barkaror mijoz bulsa, bank unga ishonch buyicha kelgan xujjatlarni topshirishi mumkin. Ammo, bu bankdan xujjatlarni bajarilmagan xolatidagi zarari, yoki kaytib kelishi mas'uliyatidan voz kechilmaydi.

*Xujjatlashtirilgan inkassoning turli shakllari mavjud: tulovga karshi xujjatlar, sarf-chikim aktseptiga karshi xujjat, xat-majburiyatga karshi xujjatlar.*

**Xujjatlashtirilgan inkasso** (tulovga karshi xujjatlar) — bu import kiluvchi banki xaridorga, u tomonidan eksport kiluvchi xisobiga tulovga karshi maxsulot kuzatib boruvchi xujjatlarni topshirilishidir. Mazkur shaklni tanlashdan avval, xamkorlar maxalliy konunchilikni xisobga olishlari zarur. Sababi, ular yaxshi bajarilishga tuskinlik kiluvchi muammolarni kelib chikishi mumkin. Misol uchun, mamlakat konunchiligi tulovga karshi xujjatlarni milliy valyutada berishi mumkin va milliy valyutaning konvertirlanishi kattik nazorat ostiga olingan bulishi mumkin. Amaliyot shuni kursatmokdiki, ayrim xaridorlar ataylab xujjatlarni olishga shoshilishayotganligi yuk va maxsulot kelguncha tulov muddatini chuzishga xarakat kilishmokda. Bunday xolatlarda, xisob-kitob shartlariga zarur bulgan kelishuvlarni kiritish lozim.

**Xujjatlashtirilgan inkasso** (aktseptga karshi xujjatlar) — bunda xaridor banki, import kiluvchiga sarf-chikimni, aktseptiga karshi xujjatlarni junatishdir. Odatda, tulov muddati 60 kundan 180 kungacha chuzilishi mumkin. Mazkur shakl xaridor uchun foydali bulib xisoblanadi, sababi u tulovni amalga oshirguncha maxsulot oladi. Bu esa, uz navbatida, unga sarf-chikimni tulovigacha maxsulot kayta sotish imkoniyatini beradi. Bunda, sotuvchi summani ololmaslik xavfiga xam duch keladi. Mazkur ish buyicha eksport kiluvchiga sarf-chikimni tulash uchun birinchi darajali bank kafolatini talab kilish zarur buladi.

**Xalkaro savdoda xujjatlashtirilgan inkasso** (xat-majburiyatiga karshi xujjatlar) shakli juda kam kullaniladi. Uning asosiy mazmuni shundan iboratki, xujjatlar xaridorga u tomondan xat-majburiyatni olgandan sung topshiriladi. Xat mazmuni,unda eksport kiluvchi banki tomonidan majburiyatlar belgilanadi.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Xujjatlashtirilgan inkasso kandy amalga oshiriladi?
2. Inkasso nima?
3. Inkassoda kandy tulov shartlari kullaniyadi?
4. Kandy xujjatlarga tijorat xujjatlari deyiladi?
5. Inkasso topshiriknomalari kay tartibda rasmiylashtiriladi?
6. Inkasso amaliyotida «Yagonalashgan koidalar» deganda nima tushuniladi?
7. Xujjatlashtirilgan inkassoningkandy shakllari bor?

### **7.3. EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALARIDA INKASSODAN FOYDALANISH YUNALISHLARI**

Xalkaro xisob-kitoblar bilan banklarning kafolat amaliyotlari, xisob-kitoblarning aloxida shakllari (inkasso, ochik buyicha, avans) bilan chambarchas bog'likdir. Bular shartnoma buyicha uzlariga olingan tashki savdo xamkorlarining uzaro majburiyatlarini bajarishda, kushimcha ta'minot rolini uynaydi. Xalkaro xisob-kitoblarning tarixan kuyidagi uziga xos xususiyatlari aks ettirilgan:

1. Import kiluvchi va eksport kiluvchilar, ularning banklari tashki savdo shartnomasidan aloxida bulgan rasmiylashtirish, yuborish, maxsulot biriktirilgan va tulov xujjatlarni kayta ishlash, tulovlarni amalga oshirish bilan bog'lik bulgan munosabatlarga kirishishadi. Ular urtasida mas'uliyatlarning taksimlanishi va majburiyatlar xajmi xisob-kitoblarning anik bir shakliga bog'lik buladi.

2. Xalkaro xisob-kitoblar milliy konunchilik me'yoriy aktlari, shu bilan birga, xalkaro bank koidalari va tamoyillari bilan tartibga solinadi.

3. Xalkaro xisob-kitoblar — xujalik alokalarining baynalmilallashuvi, bank amaliyotlarining universal-lashuvi bilan bog'lik bulgan yaxlitlashtirishning ob'ekti bulib xisoblanadi. Misol uchun, inkasso buyicha koidalar 1936 yilda ishlab chikilgan, 1967 yil va 1978 yillarda (1979 yil 1 yanvaridan kuchga kirgan) kayta ishlangan. Jaxonning kupgina banklari mazkur koidalarga kushilganligi xakida e'lon kilishgan.

4. Xalkaro xisob-kitoblar, odatda, xujatlashtirilgan tusga ega, ya'ni moliyaviy va tijorat xujjatlarga karshi amalga oshiriladi. Bank mazkur xujjatlar mazmuni va tulikligini tekshiradi.

5. Xalkaro tulovlar turli valyutalarda amalga oshiriladi. Shu sababli, ular valyuta amaliyotlari xamda valyutaning oldi-sotdisi bilan chambarchas bog'likdir. Ushbu tulovlarning samarali amalga oshirilishiga valyuta kurslarining dinamikasi ta'sir kiladi.

Xalkaro xisob-kitoblar shakllarining tanloviga kuyidagi omillar ta'sir etadi:

- tashki savdo bitimi ob'ekti bulgan maxsulot turi (mashina va uskunalarni junatish, misol uchun ozik-ovkatlarda xisob-kitoblar shakli bir-biridan fark kiladi); ayrim maxsulotlarning junatilishi buyicha (yogoch, don) amaliyot bilan ishlab chikilgan an'anaviy shakllar kullaniladi;
- kredit shartnomasining mavjudligi;
- tomonlar urtasida kelishuv tusini belgilaydigan tashki savdo bitimlari buyicha kontragentlarning tulovga kobilyatliligi va obru-e'tibori;
- jaxon bozorida, mazkur maxsulotga bulgan talab va taklif darajasi.

Oldi-sotdi shartnomasi asosidagi eksport bitimlari. Bunday bitimlar 2 usulda amalga oshiriladi. Eksport kiluvchi bevosita, import kiluvchiga chet elga tovar sotishi mumkin yoki chet elda marketing tashkilotini tuzib va biznesni diler, agentlar, shaxsiy bulimlari va kompaniyalari orkali amalga oshirishi mumkin.

Eksport kiluvchining ikkala shakli xam, uz afzalliklariga ega. Birinchi shakli, tovarlar eksporti ichki savdoga nisbatan ikkinchi darajali axamiyatda bulsa, yoki eksport alokalari uncha axamiyatga ega bulmasa, ya'ni chet elda tashkilotning doimiy vakolatxonasiga zaruriyat yukligida kullash ma'kuldir. Ikkinchi shakli esa, urta va yirik korxonalariga tugri keladi va eksport savdosi epizodik xaddan yukorirok xolda uz afzalliklarga ega bulgan xolda ma'kuldir. Bu ikki shaklning kup variantlari mavjud. Eksport bitimlari muntazam ravishda amalga oshirilishi mumkin, lekin tashki bozorga chikishda yagona operatsiya bulishi xam mumkin.

Oldi-sotdi shartnomasi asosida tuzilgan savdo va chet eldagi vakillar orkali savdo eksport savdosining yagona yuli va usullari emas, xakikatda, ular bir-birini tuldirib turadi, xolos. Chet elda doimiy vakili tayinlangandan sung, eksport kiluvchi ular bilan, yoki ular orkali oldi-sotdi shartnomasini tuzish bilan eksport bitimlarini amalga oshiradi. Masalan, Kanadada uz kompaniyasini tashkil etgan va Shvetsiyadagi import kiluvchiga aloxida (ruxsat) savdo xukukini bergan eksport kiluvchi, Kanada kompaniyasi va shved import kiluvchiga sotish orkali tovarlarni kursatilgan mamlakatlarga eksport kiladi.

Shartnomalarda xalkaro xisob-kitoblar shartlari va shakllari belgilanib olinadi. Eksport bitimi kupincha xalkaro tovarlar oldi-sotdi shartnomasiga asoslangan buladi. Eksport kiluvchi Uzbekiston Respublikasi ishlab chikaruvchisidan tovar sotib olsa, bu oldi-sotdi shartnomasi ichki bitim bulib xisoblanadi, agar u tovarlarni kayta chet el sotuvchisiga sotsa, bunday oldi-sotdi shartnomasi eksport bitimi bulib xisoblanadi. Agar, chet el sotib oluvchisi, bevosita yoki agentlar orkali Uzbekiston Respublikasidan ishlab chikaruvchiga buyurtma bersa, bunda gap eksport bitimi tugrisida ketadi.

Xalkaro tovarlar oldi-sotdi shartnomasi kator tavsiflarni uziga mujassamlantiradi va ular ichki savdo shartnomalarida ishtirok etmaydi. Ular boshka shartnomalar bilan boglik buladi, ya'ni suv, temir yul va transport sugurtasi shartnomalari.

Xalkaro savdoda kulllaniladigan xisob-kitob shakllaridan biri xujjatlashtirilgan inkasso xisoblanadi.

Xujjatlashtirilgan inkasso ikki bank-vakillik vositachiligida amalga oshiriladi: inkasso kiluvchi eksport kiluvchi banki va tulovchi bank. Banklar inkasso amaliyotlarida eksport kiluvchi va import kiluvchi urtasida ishonchli vositachilar bulib xizmat kiladilar. Ularning majburiyatlari xujjatlarni tulovga yoki aktseptga karshi yuborish, kabul kilish va topshirish bilan chegaralanadi. Xujjatlashtirilgan akkreditivdan farkli ularok, inkassoda banklar xaridor tulaolmaganligi, yoki uning xisob-kitoblarini bajarmaganligi uchun mas'ul emasdirlar. Shu bilan birgalikda, bank uz xodimlarining suiiste'molligini xisobga olmaganda, xabarlarining ob'ektiv sabablarga kura, ushlanib kolishi yoki yukolishiga xam javob bermaydilar. Shuni esda tutish kerakki, inkasso karzlarni inkasso kilish emas, aksincha, bu kogozlarni inkasso kilishdir. Bank eksport kiluvchiga xorijiy xaridorga yuborilgan maxsulot uchun tulanishiga etarli tarzda kafolat bermaydi. Bank barcha xujjatlar yuborilganligi va takdim kilinganligi, tulangan pul mablaglari eksport kiluvchi xisobrakamiga utkazilganligiga ishonch xosil kilishi lozim.

Shu sababli, banklar moliyaviy xujjatlar inkasso kilinganligini, ularning asosida yotgan tijorat bitimlari moxiyatiga aralashmasdan tekshiruvga javob berishlari lozim. Boshka bir muxim vaziyatni e'tiborga olgan xolda, inkasso uzida xisob-kitob usulini namoyish kilib, unda:

- a) yoki eksport kiluvchi xorijiy mijozdan tulovni olish uchun kursatma beradi;
- b) yoki import kiluvchi xorijiy maxsulot etkazib beruvchiga tulash majburiyatini oladi;

Inkasso nafakat importga tegishli, u eksportga xam tegishli bulib, inkasso buyicha yaxlitlashgan koidalar, ikkala xolda xam ishlatiladi. Xujjatlashtirilgan inkassoda bank uziga, sotuvchi uchun tegishli bulgan summani olish buyicha xujjatlarni berishga karshi majburiyatni oladi.

Xujjatlashtirilgan inkasso, kachonki, eksport kiluvchi ochik xisobvarak buyicha maxsulotni yuborgisi kelmasa va shu bilan birga akkreditiv yordamida riskning oldini oladigan sugurtaga ega bulmasa, tulovlarni amalga oshirish lozim buladi. Ochik xisobvarak buyicha maxsulot yuborishga nisbatan, xujjatlashtirilgan inkasso katta xavfsizlikni ta'minlaydi, ya'ni u xaridorni maxsulot uchun tulovni amalga oshirmasdan yoki vekselni aktseptlamasdan uziga olish xukukiga tuskinlik kiladi. Bunday xolatda, banklar tulovni amalga oshirish majburiyatini olmaydilar. Lekin, xujjatlashtirilgan inkasso, sotuvchini inkasso bilan boglik bulgan kuppina ma'muriy ishlardan ozod kiladi va unga banklararo alokadan foydalangan xolda foyda olishni ta'minlaydi. Inkasso juda kam rasmiy kat'iylikni talab kilganligi sababli, akkreditivga nisbatan kam xarajat kiladigan xizmat tulov shakli xisoblanadi.

Yukoridagilardan kelib chikkan xolda, inkassoning tulik ta'rifini berish mumkin. Inkasso — bu banklar tomonidan olingan kursatmalar buyicha kuyidagi xujjatlarni kayta ishlashdir:

- a) aktseptni olish yoki agarda zarur bulganda tulovni;
- b) tijorat xujjatlarini aktseptga karshi yoki kerak bulganda tulovga karshi takdim kilish;
- v) xujjatlarni boshka talab va shartlar asosida takdim kilish.

Moliyaviy xujjatlar termini, uz ichiga tulovni olishda ishlatiladigan utkazma veksellarni, oddiy veksellarni, cheklarni, tulov yozishmalarni, yoki shunga uxshash xujjatlarni oladi.

Tijorat xujjatlari deyilganda xisobvaraklar, tovar ortish xujjatlari yoki moliyaviy xujjat bulib xisoblanmagan boshka xujjatlar tushuniladi.

Inkasso ikkiga bulinadi: sof inkasso (fakat moliyaviy xujjatlar bulsa) va xujjatlar inkasso (tijorat xujjatlar bilan birga bulgan moliyaviy xujjatlar inkassosi).

Xujjatlashtirilgan inkassoda, sotuvchi maxsulotni yuborishgacha bulgan vaktgacha, xaridor xakikatan xam, tulovni amalga oshirishiga ishonch xosil kilmasligini xisobga olsak, u kuyidagi xollarda tulovni amalga oshiradi:

- sotuvchi bilan yaxshi munosabatlarga tayangan xolda, xaridorni tulovga kobilyatligiga va tulovga tayyorligiga ishonishi lozim. Bu xamkorning anik bir xizmat va majburiyatlarni bajarishi boshka sabablarga kura, ishonchsizlik xosil kilmaydi;
- import kiluvchi davlatning siyosiy, iktisodiy va xukukiy shartlari barkaror bulib xisoblanadi;
- xaridor davlati importga turli chegaralarga (misol uchun, valyutaviy nazorat) ega bulmaydi, sababi u barcha zaruriy ruxsatlarni bergan buladi.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Xalkaro xisob-kitoblar shakllarining tanloviga kandy omillar ta'sir kiladi?
2. Oldi-sotdi shartnomasi asosidagi eksport bitimlari necha xil usulda amalga oshiriladi?
3. Uzbekiston Respublikasida xujjatlashtirilgan inkkaso kandy kullaniladi?
4. Xujjatlashtirilgan inkkasoni amalga oshirishda kaysi xolatlarda banklar tulovni amalga oshirish majburiyatini olmaydilar?
5. Sof inkkasso bilan xujjatlar inkkassosining farki nimada?



## 7.4. TASHKI IKTISODIY FAOLIYATDA INKASSODAN FOYDALANISH MEXANIZMI

Sotuvchi va xaridor urtasida birinchi kelishuvdan tortib, bitimning bajarilishigacha bulgan davrda, kuppina aloxida ishlar zarur bulib xisoblanadi. Shunga karamasdan uchta davrni ajratib olsa buladi:

### **1 davr — inkasso shartlari xakida kelishib olish**

Eksport kiluvchi uz taklifida tulovning shartlarini belgilaydi yoki ularni oldi-sotdi shartnomasida xaridor bilan aniklab oladi.

### **2 davr — inkasso topshiriknomasini berish va xujjatlarni takdim kilish**

Buyurtma olingandan yoki oldi-sotdi shartnomasi tuzilgandan sung, sotuvchi buyurtma kilingan maxsulotni bevosita xaridor manziliga, yoki inkasso kiluvchi bank manziliga ortadi. Bir vaktning uzida u barcha zaruriy xujjatlarni (faktura, konosament, sugurta sertifikati, maxsulotni kelib chikshi tugrisidagi ma'lumotnoma va boshkalar) tayyorlaydi va ularni uz bankiga (bank remitent) inkasso topshiriknomasi bilan birgalikda takdim kiladi. Remitent bank inkasso kiluvchi bankka zaruriy kursatmalar bilan xujjatlarni yuboradi.

### **3 davr — tulovchiga xujjatlarni takdim kilish**

Inkasso kiluvchi bank (takdim kiluvchi bank) xujjatlar kelganligi xamda ularni sotib olish shartliri xakida xaridorni xabardor kiladi. Xaridor uning tulovini yoki aktseptini kabul kiladi va bankka xujjatlarni beradi. Inkasso buyicha tulanagan summa bank tomonidan remitent bankka yuboriladi. Remitent bank esa, uz navbatida, eksport kiluvchi schetini kreditlaydi.

#### *Ishtirok etuvchi tomonlar:*

Agarda, tulov xujjatlashtirilgan inkasso shaklida amalga oshiriladigan bulsa, u xolda, turt tomon ishtirok etadi:

- eksport kiluvchi;
- remitent bank;
- takdim kiluvchi bank (inkasso kiluvchi bank: inkasso kiluvchi bank — bu bank remitentdan tashkari, inkasso topshiriknomasini bajarishda ishtirok etuvchi xoxlagan bank. Takdim kiluvchi bank — bu tulovchiga xujjatlarni takdim kiluvchi inkasso kiluvchi bankdir;
- import kiluvchi.

**Xujjatlashtirilgan inkassoning xukukiy asoslari.** Xujjatlashtirilgan inkasso, Shveysariya banklari, 1979 yil 1 yanvaridan beri amal kilib kelayotgan «Inkasso buyicha yagonalashgan koidalar»ga tayanadilar (Parijda Xalkaro savdo palatasi tomonidan kabul kilingan).

Mazkur koidalarning xukukiy asoslari akkreditiv xukukiy asoslaridek, xali tulik xajmda kabul kilinmagan. Shunga karamasdan kuppina davlatlarning bank ittifoklari inkassoning yagona koidalarini kabul kilishgan. Topshiriknoma formulyarida belgilangan belgiga kura, ular mijoz (ishonchnoma egasi) va bank urtasidagi shartnomaning tarkibiy kismiga aylanadi.

Mazkur koidalar, banklarning asosiy koidalari va inkasso topshiriknomasini uziga kabul kilgan majburiyatlarini tartibga soladi. Misol uchun, topshiriknoma tugrisidagi Shveysariya majburiy xukuklarining 394-moddasiga kura, remitent banki mijozining kursatmalari inkasso kiluvchi bankka berilishi buyicha majburiyatlarni uziga oladi. U buladigan xatolar uchun majburiyatni uz buyniga olmaydi. Banklar uziga tulov majburiyatlarini olmaydilar va fors-major sharoitiga, xabar yoki xujjatlar berilishi vaktida kechikish yoki yukotish bulgan xolatlarda javob bermaydilar.

**Inkasso shartlari buyicha kelishib olish.** Import kiluvchi eksport kiluvchi korxonasidan anik bir maxsulot taklifi tugrisida suraydi.

Sotuvchi taklifida va oldi-sotdi shartnomasida tulov shartlari urnatiladi, misol uchun, «nakd pul tuloviga karshi xujjatlar», «aktseptga karshi xujjatlar» (takdim kilingandan sung 60 kun mobaynida).

Oldi-sotdi shartnomasida va taklifida tulov tugrisidagi kelishuv kuyidagi inkasso turlaridan biriga taalluklidir:

1) Tulovga karshi xujjatlarni takdim kilish (documents against payment, D/P).

Takdim kiluvchi bank tulovchiga fakat, uz vaktidagi tulovga karshi xujjatlarni takdim kilishi mumkin. "Tezda", xalkaro koidaga kura "eng uzokdan maxsulot kelganida" degan

ma'noni anglatadi. Agarda sotuvchi uz mablaglarini kup kutishni xoxlamasa, u inkasso topshiriknomasida xujjatlar takdim kilinishi bilan tulov amalga oshirilishini talab kilishi mumkin. Ammo, oldi-sotdi shartnomasi xamda tulov uz ichiga, inkasso kiluvchi bankka xujjatlar kelganidan sung, tezda ular tulovchiga takdim kilinishi lozimligi tugrisidagi nizomda aytib utilishi lozim.

Tulov muddatiga tegishli bulgan tulov shartlarida, takdim kilinganda yoki urnatilgan muddatda, yoki belgilangan kundan kechikmasdan kursatilishi mumkin.

2) Aktseptga karshi xujjatlarni takdim etish.

Takdim kiluvchi bank tulovchiga 30-180 kun mobaynida, takdim kilingandan sung, tulov amalga oshirilishi lozim bulgan sarf-chikimni, yoki anik bir muddatga amalga oshirilishi lozim bulgan sarf-chikimni aktseptlashga karshi xujjatlarni takdim kiladi. Takdim kiluvchiga aktseptlanadigan veksellarni, kvitantsiyaga karshi nakd pul tulovi bilan tenglashtirish mumkin. Shunday kilib, trassat tulov amalga oshirilgach, maxsulot egasiga aylanadi, u tezda maxsulotni sotib yuborishi mumkin va bu bilan veksels tulovi uchun zarur bulgan summani olishi mumkin. Bunda, aktsept unga tulov muddatini belgilaydi va ombordagi zaxiralarni kiska muddatli kreditlashdan ximoya kiladi.

Sotuvchi uchun maxsulotni bergandan sung ta'minot sifatida trassat aktsepti xisoblanadi. Shunday kilib, veksels buyicha tulov muddati davrigacha, u tulov amalga oshirilmasligi xavf-xatariga duch keladi. Ammo u, aktsept inkasso kiluvchi bank yoki boshka birinchi darajali bankning kushimcha avali bilan ta'minlashini talab kilishi mumkin. **Aval** — bu veksels buyicha kafolatnomadir, u vekselsning oldi tomonidagi imzo bilan yoki aval xakida veksels aylanmasi kismida anik bir belgi bilan beriladi. Bu bilan sotuvchiga tulov amalga oshirilishiga kafolati, yoki uning urtacha muddatga amal kilishini xisobga olgan xolda, vekselsni forfetlash yoki bunak olish imkoniyati oshadi.

Ikkinchi xolatda, eksport kiluvchi tulov uchun import kiluvchiga uzok muddat berishi mumkin va import kiluvchi eksport kiluvchi tomonidan unga kuyilgan utkazma vekselsni aktseptlashga karshi xujjatlarni olishi mumkin.

3) Tulovga karshi xujjatlar bilan birga aktseptni takdim kilish.

Mazkur uchinchi tur inkasso amaliyotdan kura, kuprok maxsus adabiyotlarda uchraydi. Asosan, Uzok Shark davlatlaridan keladigan bunday inkasso topshiriknoma-larida, sotuvchi trassat xujjatlarni takdim kilinishi bilan vekselsni aktseptlashni talab kiladi. Misol uchun, takdim kilingandan 60 kundan sung, tulovni amalga oshirish muddati bilan buladi. Ammo, xujjatlar veksels tulovini amalga oshirgandan sung, xaridorga takdim kilinishi mumkin. Bu paytgacha maxsulot saklanib turishi lozim, ushbu xolatda, import kiluvchi xujjatlarni inkasso kiluvchi bank vositasida, unga anik bir muddatga yoki belgilangan davrga, tulovni yozma majburiyat bilan berish orkali xujjatlarni oladi.

**Inkasso topshiriknomasi berilishi va xujjatlar takdim kilinishi.** Maxsulot uchun buyurtma olingandan sung, yoki oldi-sotdi shartnomasi tuzilgandan sung, sotuvchi maxsulotni yuborishi mumkin. Kerakli tarzda schet-faktura, yuk xujjatlari, sugurta va boshka xujjatlar takdim kilinadi.

Sotuvchi uchun, bu bankka inkasso topshiriknomasini berish uchun asos buladi. Unda sotuvchi tulik va tushunarli tarzda kursatmalarni berishi lozim, sababi remitent banki inkasso kiluvchi bank singari amaliyotni utkazish vaktida fakat inkasso topshiriknomasiga tayaniladi. Kiyinchilik yuz bergan xolda bank buyruk beruvchi kursatmalarni berishi lozim.

**Inkasso topshiriknomasi.** Eksport kiluvchiga inkasso topshiriknomasini berishni engillashtirish uchun, Kredit Sviss maxsus topshiriknoma formulyar — xujjatlashtirilgan rimessani ishlab chikdi:

Inkasso topshiriknomasini rasmiylashtirishda kuyidagilarga e'tibor berish lozim:

- inkasso olingan bank rekviztlari, xususan uning tulik nomi, manzili (pochta va SVIFT), teleks, telegraf, faks rakami xamda izoxlar rakami;

- mijoz rekviztlari — uning tulik nomi, pochta manzili xamda zaruriyat tugilganda telefon, teleks va faks rakamlari;

- tulovchi rekviztlari — tulik nomi, pochta manzili va yuridik manzili (u buyicha xujjat takdim kilinadi);

- takdim kiluvchi bank rekviztlari — tulik nomi, pochta manzili;

- inkasso kilinadigan valyuta qiymati;
- xar bir xujjat nusxalari va ilova kilinadigan xujjatlar ruyxati;
- kanday shart va tartibda olinadigan tulov va aktsept, shu bilan birga, xujjatlar berish shartlari (tulovga va aktseptga qarshi);
- stavkani va foizlar xisoblash davrini xisobga olgan xolda, olinishi lozim bulgan foizlar;
- tulov turi va uning xabar berish shakli;
- tulamaganda, aktseptlanmaganda va boshka yuriknomalarga tugri kelmagan xolatlar buyicha kursatmalar.

**Tulovchining manzili.** Inkassoni anik bajarish maksadida, tulovchining tulik va anik manzili kursatilishi lozim. Mazkur moddadagi xatolik, katta muammolarni keltirib chikaradi («Koida»ning 8 moddasi).

**Xujjatlarni takdim kilish usullari.** Bank extiyotkorlikdan kelib chikkan xolda, tulovchiga tulovga qarshi inkasso uchun takdim kilingan xujjatlarni, boshka xech kanday kursatmalar berilmagan xolda berishi mumkin. Aktseptga qarshi xujjatlar (documents against acceptance D/A) inkasso topshiriknomasida anik kursatilgan xolatda takdim kilinadi. Agarda shunday bulsa, takdim kiluvchi bank veksel tulik va rasmiy anik aktseptga ega bulishligini nazorat kilishi lozim. Bank imzolar tugriligi, yozuvlardagi uzgartirishlar yoki trassatni tulovga kobilyatliligi uchun mas'ul bulmaydi.

**Xujjatlar.** Xujjatlar turi va mikdori import kiluvchi davlatdagi buyruklar bilan belgilanadi. Agarda, bunday ma'lumotlar buyurtma yoki oldi-sotdi shartnomasida mavjud bulmasa, u xolda eksport kiluvchi import kiluvchi davlatida konsullik vakolatxonasidan ma'lumot olishga xarakat kiladi. Agarda, zarur xujjat mavjud bulmasa, xaridor yaxshilab sinchiklab tekshirgandan sung, xujjatlarni kabul kilishi (yoki tulashi) mumkin yoki buni kilmasligi mumkin. Barcha xujjatlarda rakam va belgilar bir xil bulishi, tovar uralishi va saklanishi xalkaro andozalarga tugri kelishi darkor.

Maxsulotlarni xavo transporti, pochta, temir yullari yoki avtomobil transporti orkali yuborishda, bevosita tulovchi manziliga, u inkasso xujjatlarini tulaganligiga yoki tulamaganligiga karamasdan yuboriladi. Shu sababli, eksport kiluvchi maxsulotlarni takdim kiluvchi bankka, yoki boshka inkasso kiluvchi bankiga junatishi mumkin. Albatta bu xolda, mazkur bankning oldindan roziligini olish lozim.

Agarda, inkasso kiluvchi banki, maxsulotni uz manziliga yuborishiga rozilik bersa, u xolda tulovchi tomonidan tulov amalga oshirilmasa, u remitent bankiga tezda xabar berishi zarur. Maxsulotni omborga kuyish, junatish va orkaga junatish eksport kiluvchining, yoki uning vakilining belgilangan mamlakatdagi vazifasi bulib xisoblanadi. Ayrim xolatlarda inkasso kiluvchi bank yordam berishga tayyor ekanligini bildirishi mumkin. Yuzaga keladigan xarajatlarni eksport kiluvchi kutaradi.

**Bank manzili.** Agarda eksport kiluvchi tulovchi bankini bilsa yoki inkasso anik birgina tomonidan amalga oshirilishini zarur deb xisoblasa, u xolda inkasso topshiriknomasida u bankning tulik manzili kursatiladi. Agarda, oldingi tajribalarga yoki import kiluvchi davlatdagi chegaraluvchi nizomlarga suyanan xolda remitent banki, bank tanlovidan rozi bulmasa, u xolda eksport kiluvchi bilan boglanib, boshka tugri keladigan inkasso kiluvchi bankni taklif kiladi.

**Veksel.** Xaridorga takdim kilingan utkazma vekselni, eksport kiluvchi xujjatlarga ilova kiladi. Inkasso topshiriknomasida kursatilgan kursatmalardan kelib chikkan xolda, inkasso kiluvchi banki aktseptlangan vekselni remitent bankiga eksport kiluvchi xisobiga yuboradi, yoki uziga tulov muddati kelgunga kadar, mas'ul saklashga koldiradi. Aktseptlangan veksel tulovidan sung, u inkasso buyicha summani remitent bankiga utkazadi va remitent banki eksport kiluvchi xisobvaragini kreditlaydi.

**Komissiyalarni va xarajatlarni olish.** Agarda boshka kursatmalar bulmasa, remitent banki eksport kiluvchidan unga va inkasso kiluvchi bankiga tegishli inkasso buyicha bulgan komissiya va xarajatlarni oladi. Eksport kiluvchi esa, uz navbatida, bu mablaglarni tulovchidan talab kiladi. Agarda tulovchi, tulovdan voz kechsa, u xolda takdim kiluvchi bank xujjatlarida inkasso buyicha komissiya va xarajatlarni tulovidan sung, berilishi kerak deb, inkasso topshiriknomasida kursatilishiga karamasdan, unga xujjatlarni takdim kilishi lozim.

**Uchinchi shaxs manzilini kursatish.** Ishonib topshiruvchi shaxs uchinchi shaxs sifatida belgilangan davlatda vakil, yoki agentni kursatishi kerak. Bu esa, uz navbatida, tulov amalga

oshirilmagan xolatda maxsulotni saklash, sotish yoki orkaga kaytarish buyicha shugullanishi lozim. Shu bilan birgalikda inkasso kiluvchi bank, mazkur «uchinchi shaxs»dan kandy kursatmalarni olishni kursatishi kerak (misol uchun, xujjatlar va maxsulotlarni boshkarish yoki shartlarni uzgartirish).

**Muxim izoxlar.** «Muxim izoxlar» rubrikasi ostida, ishonib topshiruvchi shaxs, uz bankiga kuyidagi kursatmalarni berishi mumkin:

- agarda tulov yoki aktsept amalga oshirilmasa karshilik bildirish shartmi? Agarda xujjatlar takdim kilinganda tulovchi tulovdan, yoki aktseptdan bosh tortsa, takdim kiluvchi bank remitent banki orkali, bu xakda ishonib topshiruvchi shaxsni xabardor kilishi zarur.

- agarda aktseptlangan sarf-chikim tulanmagan bulsa, karshilik bildirish zarurmi?

- takdim kiluvchi bank, tulovchiga maxsulotni tekshirishga ruxsat berishi mumkinmi?

- xorijiy valyuta amaliyotida, valyuta kursini sugurta kilish maksadida, muddatli shartnomani tuzish bilan boglik bulgan xarajatlarni tulovga kiritishi shartmi?

**Kreditlanadigan xisobvarak.** Kandy tarzda inkasso tushumi, ishonib topshiruvchi shaxsga tulanishi lozimligi tugrisidagi kursatma, tulovlar amalga oshirilishini tezlashtiradi va kelishmovchiliklarning oldini oladi. Agarda, inkasso tushumi xorijiy valyutada kelib tushsa, u xolda benefitsiar uchun xorijiy valyutadagi xisobvarak ustun bulib xisoblanadi. Unda, unga tegishli bulgan summa original valyutada kreditlanadi.

**Xujjatlarni tekshirish.** Uz bankiga inkasso topshiriknomasini berishdan avval, eksport kiluvchi xujjatlar tulikligi va tugri tuldirilishini tekshirishi lozim. Bank bu ishni amalga oshirishga majbur emas, uning vazifasi xujjatlarni takdim kilish, shu bilan birga, inkasso topshiriknomasini sifatli va tugri bajarishdir. Ammo, bank topshiriknomada keltirilgan xujjatlar mavjudligini tekshirishi lozim.

Eksport kiluvchi kuyidagilarga e'tibor berishi lozim:

- xaridor tomonidan talab kilingan, yoki oldi-sotdi shartnomasida aytib utilgan barcha xujjatlar mavjudmi?

- import kiluvchi mamlakat xujjatlarining takdim kilinishida oldindan yozishmalar xisobga olinganmi?

- barcha xujjatlar kerakli tarzda imzolanganmi?

**Inkasso kiluvchi bankka xujjatlar berilishi.** Remitent banki, tulovchi mamlakati bankiga zarur bulgan kursatmalar bilan xujjatlarni topshiradi. Kup xollarda, import kiluvchi banki xujjatlarni bevosita tulovchining uziga topshiradi. Ayrim sharoitlarda, u boshka bankka xujjatlarni takdim kiladi. Avval aytib utilganidek, tulovchiga xujjatlarni takdim kiluvchi, inkasso kiluvchi banki — takdim kiluvchi bank xam deb ataladi.

**Tulovchiga xujjatlar takdim kilish va tulov.** Takdim kiluvchi bank, tulovchiga unga xujjatlar kelganligi tugrisida xabar beradi. Xabarda avizo va xujjatlar fotonusxalarida tulovchi unga yuborilgan maxsulot xakidagi ma'lumotdan xabardor buladi. Bundan tashkari, u avizodan bankdagi mavjud bulgan xujjatlar asosida maxsulot olishni va boj tulashi mumkinligi tugrisida ma'lumotni kurishi mumkin.

**Xarajatlar.** Xujjatlashirilgan inkassoni amalga oshirishda, xizmat uchun kompensatsiya sifatida, takdim kiluvchi bank va inkasso kiluvchi bank komissiya va ustama xarajatlar xisoblanadi. Eng asosiy mavzu, komissiyalar xakida kuyidagilar uchun:

- aktsept va tulovga karshi xujjatlar takdim kilish;

- aktseptni tulash;

- bank ixtiyoriga bank va transport agentiga junatilgan yuklangan maxsulotni ozod kilish.

Inkasso amalga oshirilishiga karab, veksel muddati uzaytirilganligi uchun, xujjatlar xakida kushimcha ma'lumotlar uchun, xujjatlar kaytarilishi, karshilik bildirish, pochta yigimlari va boshka xarajatlar uchun kushimcha ustama xarajatlar va komissiyalarni xisoblashlari mumkin.

Juda kam mikdordagi xarajatlar uchun, bank mijozi yaxshi ekvivalentni oladi. Sababi, bank nafakat uzining tajribali mutaxassislari xizmatini, xatto keng vakillik alokalarini xamkursatadi.

Yukorida inkasso topshiriknomasida nimalarga e'tibor berish xususida ma'lumotlar bayon kilib utildi.

Inkasso shaklining eksport kiluvchi va import kiluvchilarga foydali jixatlari va mavjud kamchiliklarini organish zarur.

Eksport kiluvchilar uchun mazkur shakl sezilarli ravishda kamchiliklarga ega. Birinchidan, eksport kiluvchi import kiluvchining tulovdan bosh tortishi xavf-xatariga duch kelishi mumkin. Bu esa, tulovchining moliyaviy sharoiti va bozor konyunkturasining yomonlashuvi sababli bulishi mumkin. Shu sababli, inkasso shaklining sharti, eksport kiluvchining import kiluvchiga bulgan ishonchi va uning vijdonligiga boglik buladi. Ikkinchidan, inkasso buyicha valyuta tushumi kelib tushishi va maxsulot yuborilishi urtasidagi vaktida juda katta tafovut mavjud. Bu, asosan, yukni uzok vakt tashish bilan boglik. Inkassoning mazkur kamchiliklarini bartaraf kilishda amaliyotda quyidagi shartlar kulllaniladi:

1) Import kiluvchi eksport kiluvchi banki telegrammasining inkassoga maxsulot xujjatlarini kabul kilish va yuborishiga karshi tulovni amalga oshiradi;

2) Import kiluvchi topshirigiga kura, bank eksport kiluvchi xisobiga tulov kafolatini beradi. Uz navbatida, eksport kiluvchi oldida import kiluvchi tomonidan tulov amalga oshirilmasa, inkasso summasini tulash majburiyatini oladi. Odatda tulovning kushimcha garantiyasi tijorat krediti buyicha kulllaniladi. Sababi, tulov muddatining kechiktirilishi, tulovchi moliyaviy sharoitida uzgarishlar bilan boglik bulgan, import kiluvchi tomonidan tulaolmaslik riskini keltirib chikaradi. Ba'zan, import kiluvchi banki vekselni aval kiladi. Aval kiluvchi bank vekselning oldi tomoniga imzo chekib, kim uchun tulov kafolati berilganligini aytib utgan xolda, uziga tulov uchun majburiyatni kabul kiladi. Bulmasa aval utkazma veksel beruvchisiga berilgan deb xisoblanadi.

3) Eksport kiluvchi bank kreditiga jamlanmagan zaxiralarni koplashda murojaat etadi.

Shu bilan birgalikda, inkasso shakli import kiluvchiga ma'lum bir imtiyozlarni beradi. Import kiluvchining asosiy majburiyati, unga maxsulotga egalik kiluvchi xukukini beruvchi, maxsulot xujjatlariga karshi tulovni amalga oshirishidir. Bu xolatda oldindan uz aylanmasidan mablaglarni jalb kilishga extiyoj bulmaydi. Ammo, eksport kiluvchi import kiluvchi tomonidan tulovni amalga oshirguncha, agarda maxsulotni tezda olish uchun, konosament originallaridan birini xaridorga bevosita yuborish amaliyoti kullanilmaydigan bulsa, maxsulotga egalik kiluvchi yuridik xukukka ega bulishni davom ettiraveradi.

Yukoridagilarni inobatga olgan xolda yana shuni xam ta'kidlab utish lozimki, xujjatlashtirilgan inkasso eksport kiluvchiga mavjud xavf-xatarlardan xisob-kitob ochik schet shakliga nisbatan kuprok sugurtalaydi, biroq akkreditivga nisbatan kamrok sugurtalaydi.

Xujjatlashtirilgan inkasso import amaliyotlarida keng tarakkiy etgan bulib, asosan import kiluvchini boshka shakllarga nisbatan uzining ayrim ustunliklari bilan uziga jalb kiladi.

Xalkaro iktisodiy munosabatlar bilan boglik bulgan xisob-kitoblar shaklini amalga oshirish, uning turli shakl va turlari bilan amalga oshiriladi.

Xalkaro xukuk koidalarining yigindisi bulgan inkasso buyicha yaxlitlashgan koidalar, xalkaro iktisodiy munosabatlarda, xalkaro xisob-kitoblar shakllarini tartibga soladi. Ular me'yoriy tusga ega bulmasada, xalkaro bank amaliyotida keng kullanilmokda. Uzbekiston Respublikasining ichki konunchiligi, xalkaro xisob-kitoblarda uzbekistonlik ishtirokchilarning turli tulovlarni amalga oshirish xukuklarini, shu bilan birga, ruxsatnomalar olgan xolatlarda tartib va shartlarini belgilaydi. Bundan tashkari, konunchilik xalkaro xisob-kitoblarga tegishli bulmagan, ayrim amaliyotlar bajarilish koidalarini xam uz ichiga oladi.

Xalkaro xisob-kitoblar shakllaridan Uzbekiston Respublikasida xujjatlashtirilgan inkasso shakli uncha keng tarkalmagan shakllardan biridir. Sababi, xujalik yurituvchi sub'ektlarda, shu bilan birga tijorat banklari amaliyotida xalkaro iktisodiy munosabatlar va xisob-kitoblarda muammolar mavjud. Mazkur muammolardan biri, Uzbekistonda milliy valyuta va valyuta munosabatlarining xozirgi xolatidir.

Yukoridagilardan kelib chikkan xolda, shuni ta'kidlab utish lozimki, respublikada iktisodiy isloxotlarning asosiy ustuvor yunalishlaridan biri — eksport saloxiyatini kengaytirish, korxonalarini eksport uchun maxsulot ishlab chikaradigan korxonalariga aylantirish, jaxon bozorida uz mustaxkam mavkeini egallashdir. Eksport uchun maxsulot ishlab chikarishni kupaytirish yulini tanlagan korxonalariga xom-ashyo bilan ta'minlanishlarida xam, investitsiyalar bilan ta'minlash, ularga imtiyozli kreditlar berilishida, jaxon bozoriga chikishda, moliyalashtirishda xam imtiyozlarga ega buladi.

Korxonalar jaxon bozorida rakobatga bardosh bera oladigan maxsulot ishlab chikarishni keng kulamda avj oldirishlari uchun ragbatlantiruvchi omillarni vujudga keltirishimiz zarur. Buning uchun kat'iy moliya-kredit siyosatini izchillik bilan utkazish zarur.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Inkassodan foydalanish mexanizmi nechta davrga bulinadi?
2. Xujjatlashtirilgan inkassoda kimlar ishtirok etadi?
3. Xujjatlashtirilgan inkassoni amalga oshirish kandy xukukiy me'yorlarga asoslanadi?
4. Tulovga karshi xujjatlarni takdim etish degandanima tushuniladi?
5. Aktseptga karshi xujjatlarni takdim etish kandy amalga oshiriladi?
6. Tulovga karshi xujjatlar bilan birga aktseptni takdim kilish inkassoning boshka turlaridan nimasi bilan farklanadi?
7. Inkassoda kullaniladigan xujjatlar kim tomonidan belgilanadi?
8. Inkassoda uchinchi shaxs manzilini kursatish nima uchun kerak?
9. «Muxim izoxlar» rubrikasida nimalar aks ettiriladi?
10. Xisob-kitoblarning inkasso shaklining eksport kiluvchi va import kiluvchilarga bulgan yutuk va kamchiliklarini kursating.

## 7.5.UZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INKASSODAN FOYDALANISH MEXANIZMINI TAKOMILLASH TIRISH YULLARI

Uzbekiston Respublikasining xalkaro savdoda eksport kursatkichlari 2000 yil 1 yanvar xolatiga kuyidagi tarzda buldi (6-jadval).

**6-jadval**

(ming AKSh dollarida)

Kursatkichlar nomi	2000 yil yanvar	Um. eksp. foizda	1999 yil yanvar	Um. eksp. foizda
Ozik-ovkat maxsulotlari	8551,9	5,36	7038,9	3,5
Alkogol va noalkogol ichimliklar	684,9	0,4	307,3	0,2
Tamaki va uning urndoshlari	1688,7	1,1	484,8	0,2
Kimyoviy maxsulotlar	1514,8	1,0	2408,3	1,2
Energiya	21454,2	14,0	31746,6	16,0
Farmatsevtika maxsulotlari	229,9	0,1	2677,0	1,3
Mineral ugitlar	586,0	0,4	23587,2	11,9
Parfyumer-kosmetika va yuvuvchi vositalar	84,6	0,1	2201,6	1,1
Plastmassalar va uning maxsulotlari	241,6	0,2	1157,7	0,6
Kauchuk i rezina maxsulotlari	30,2	0,0	328,8	0,2



Tukimachilik va uning maxsulotlari	61252,0	39,9	1524523,6	768,7
Paxta	49859,0	32,5	1467440,0	739,9
shu jumladan, Ipak paxta	46636,7	30,4	1360957,4	686,2
Poyabzal	12,1	0,0	2367,4	1,2
Kora metall va uning maxsulotlari	1293,3	0,8	9905,4	5,0
Rangli metall va uning maxsulotlari	13371,1	8,7	170824,8	86,1
Uskunalar, ularning kislari	1045,3	0,7	13843,4	7,0
Elektr mashinalar va uskunalar	897,2	0,6	47540,5	24,0
Transport vositalari	1197,4	0,8	85161,5	42,9
Boshkalar	18800,8	12,3	920950,6	464,3
shu jumladan, Turli tayyor maxsulotlar	115,6	0,1	776278,8	391,4
Xizmatlar	20236,3	13,2	310117,8	156,4
Umumiy eksport	153415,9	100	198337,0	1589

Agarda kursatkichlarga nazar tashlaydigan bulsak asosiy eksport maxsulotlari tukimachilik maxsulotlari (61252 ming AKSh dollari, jumladan paxta (49859 ming AKSh dollari) xam kiradi), elektr energiya (21454,2 ming AKSh dollari) xamda rangli metallar (13371,1 ming AKSh dollari)dan iborat bulib, utgan yilga nisbatan tukimachilik maxsulotlari (utgan yilgi kursatkich (u.y.)— 1524523,6 ming AKSh dollari), elektr energiya (u.y. 31746,6 ming AKSh dollari), rangli metallar (u.y. 170824,8 ming AKSh dollari) salmogi eksportda kamaygan. Shu bilan birgalikda, ozik-ovkat (u.y. 7038,9 ming AKSh dollari bulgan bulsa, joriy yilda 8551,9 ming AKSh dollarini tashkil etgan, ya'ni 21,5 foizga usgan), tamaki maxsulotlari (484,8 ming AKSh dollari — 1688,7 ming AKSh dollari, ya'ni 248,3 foizga usgan) maxsulotlari salmogi oshgan. Lekin, mazkur maxsulotlarning ulushi eksport salmogida juda xam kam. Bunga asosiy sabab, xamon paxta kabi xom-ashyo maxsulotlari xamda elektr energiya eksporti kupligidadir. Utgan yilga nisbatan, eksport salmogi ancha pasaygan (u.y. 198337 ming AKSh dollarini tashkil etgan bulsa, joriy yili atigi 153415,9 ming AKSh dollarini tashkil etgan, ya'ni 22,6 foizga eksport kamaygan).

6-jadvaldan kurish mumkinki, 2000 yilda deyarli barcha maxsulotlar eksporti 1999 yilga nisbatan kamaygan.

Xozirgi kunda Uzbekiston Respublikasi tashkilotlari va korxonalari amaliyotida eksportni kreditlash shakllaridan biri bulmish chakirib olinmaydigan akkreditiv bilan bir katorda inkassodan foydalanish keng kullanilmokda. Bu shakl eksport kiluvchiga uz vaktida maxsulot uchun tulovning kelishi va import kiluvchi tomonidan maxsulot xujjatlarini sotib olmaslik riskini minimumga olib kelish kafolatini ta'minlaydi. Sababi, mazkur akkreditivni muddati utguncha bekor kilib bulmaydi, shartlarini esa, benefitsiar ruxsatisiz uzgartirib bulmaydi. Chakirib olinadigan akkreditivga kelsak, unda u mijoz kursatmasiga binoan, xoxlagan vaktida uzgartirilib yoki bekor kilinishi sababli, tashki savdo amaliyotida umuman kullanilmayapti. Ammo, inkassodan foydalanishda tijorat banklari ayrim kiyinchiliklarga duch kelishmokda. Buning asosiy sabablardan biri — mamlakat valyuta bozorining tulik erkinlashmaganligidir.

Mamlakatimizda import kiluvchilar asosan aktseptga karshi xujjatlarni takdim kilish (documents against acceptance, D/A) turidan kuprok foydalanishadi.

Bunda takdim kiluvchi bank tulovchiga 30-180 kun mobaynida takdim kilingandan sung, tulov amalga oshirilishi lozim bulgan sarf-chikimni yoki anik bir muddatga amalga oshirilishi lozim bulgan sarf-chikimni aktseptlashga karshi xujjatlarni takdim kiladi. Takdim kiluvchiga aktseptlanadigan veksellarni kvitantsiyaga karshi nakd pul tulovi bilan tenglashtirish mumkin. Shunday kilib, trassat tulov amalga oshirilguncha maxsulot egasiga aylanadi, u tezda maxsulotni sotib yuborishi va bu bilan veksel tulovi uchun zarur bulgan summani olishi mumkin. Bunda aktsept unga tulov muddatini belgilaydi va ombordagi zaxiralarni kiska muddatli kreditlashdan ximoya kiladi.

Sotuvchi uchun maxsulotni bergandan sung, ta'minot sifatida trassat aktsepti xisoblanadi. Shunday kilib, veksel buyicha tulov muddati davrigacha u tulov amalga oshirilmasligi riskiga duch keladi. Ammo, u aktsept inkasso kiluvchi bank yoki boshka birinchi darajali bankning kushimcha avali bilan ta'minlashini talab kilishi mumkin. Ikkinchi xolatda eksport kiluvchi tulov uchun import kiluvchiga uzok muddat berishi mumkin va import kiluvchi eksport kiluvchi tomonidan unga kuyilgan utkazma vekselni aktseptlashga karshi xujjatlarni olishi mumkin.

**7-jadval**

**Uzbekiston Respublikasi 1999 yilda kontinentlar buyicha tashki savdosining taksimlanishi**

Kursatkichlar	Tovar aylanmasi	Shu jumladan		Koldik	Jamiga nisbatan foizda	1998 yilga nisbatan 1999 yil tovar aylanmasi
		Eksport	Import			
Jami	3919,7	2067,2	1852,5	214,7	100	76,8
shu j-dan:						
Evropa	2606,5	1530,9	1075,6	455,3	66,5	85,6
Osiyo	1080,9	473,6	607,3	- 133,7	27,6	60,4
Afrika	1,9	0,1	1,8	- 1,7	0,1	21,8
Amerika	220,9	56	164,9	- 108,9	5,6	84,3
Avstraliya va Okeaniya	9,5	6,6	2,9	3,7	0,2	2,5 marta

Uzbekiston eksport kiluvchilari tomonidan uchun esa, inkasso shakli hozircha kullanilmayapti. Sababi, respublikada mavjud bulgan konunchilikdagi xalkaro xisob-kitoblarda maxsulotni yubormasdan avval avans tulovini olish, akkreditiv ochish yoki kafolat shakli kullanilishi, muddati utgan debitor karzdorlik muammosi (maxsulot ketgandan sung 60 kun muxlat ichida tulov amalga oshirishi shart) inkassoni xalkaro andozalar darajasida kullanilishiga tuskinlik kilmokda.

Mamlakatda iktisodiy isloxotlar chukurlashuvi jarayoni tashki iktisodiy alokalar va xorijiy davlatlar bilan xamkorlik munosabatlari usishi bilan belgilanmokda.

Bu xodisa tashki savdo, xorijiy investitsiya okimi, kushma korxonalar tuzish buyicha imzolangan kelishuvlar dinamikasida yakkol kurinmokda.

Bundan tashkari, xorijiy banklar bulgan UzDEUbank, ABN Amro bank, Uzprivatbank va Utbanklar inkasso shaklidan import kiluvchilar uchun faol ishtirok etmokdalar.

## UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR

1. Uzbekiston Respublikasining eksport kursatkichlarining tarkibi kanday?
2. Uzbekiston Respublikasida eksportni kreditlashning kanday shakllari kullanilmokda?
3. Mamlakatimizda import kiluvchilar tomonidan kullaniladigan aktseptga karshi xujjatlarni takdim kilish (documents against acceptance, D/A) kanday amalga oshiriladi?
4. Aval nima?
5. Uzbekiston Respublikasi banklarining inkasso shaklidan foydalanishni rivojlantirishning kanday imkoniyatlari mavjud?

### SVIFT

SVIFT — bu, xalkaro bitimlar uchun muxim kommunikatsiya tarmogi. SVIFT — xususiy notijorat korporatsiyasi bulib, uning boshkaruv organi Belgiyaning Bryussel shaxrida joylashgan. SVIFTning 2000ga yakin a'zosi bulib, ularning kupchiligi — bank muassasalaridir. Ma'lumotlarni uzatish markazlari Niderlandiyada xamda Kalpere (Virjiniya)da joylashgan. Faoliyat yurituvchi markazlar xalkaro axborot uzatish liniyalari orkali ma'lumotlarni kayta ishlovchi SVIFT a'zolari joylashgan xududiy-protessorlari bilan boglangan. SVIFT xorijiy valyuta bozoridagi bitimlar tugrisida, tulovlarni tasdiklash va kimmatbaxo kogoslar, xalkaro savdo xujjatlari va boshka moliyaviy axborotlar tugrisidagi ma'lumotlarni uzatish buyicha chegaralanmagan imkoniyatlarga ega. SVIFT — bu, axborotlarni xalkaro uzatishda eng kenp kullaniladigan tizim. Ammo, bir kancha mukobil tizimlar xam mavjud. Masalan, Britaniyaning Reyter kompaniyasi. Uning xizmatlari moliyaviy bozordagi joriy axborotlar bilan ta'minlaydi va xamkorlar urtasidagi faoliyatni muvofiklashtiradi.

SVIFT xar kunlik valyuta xisob-kitoblari va kliring tizimi bilan ualbin alokada. Masalan, SVIFT xizmat kursatadigan 140 ta Nyu-York banklari, valyuta va evrodollar bitimlari bilan xisob-kitoblarni banklararo kliring xisob-kitob (BKX) elektron tizimi orkali amalga oshiradi. Valyuta bitimlari buyicha xisob-kitoblar soni va kiymati buyicha BKXlar kursatadigan xizmatlarning yarmidan ortigini tashkil etadi. BKX Nyu-York kliring palatasi Assotsiatsiyalari (New York Clearing House Association) va Nyu-York federal zaxira banki (Federal Reserve Bank of New York) tomonidan boshkariladi.

## VIII.BOB. XALQARO HISOB-KITOBLAR

### 8.1. XALKARO KREDITNING MOXIYATI VA KREDITLASH TAMOYILLARI

Xalkaro kredit ssuda kapitalining jaxon aylanmasidagi xarakati bulib, bu xarakat tovar va valyuta kurinishidagi mablaglarni uch shart asosida, ya'ni:

- kaytarib berishlilik;
- muddatlilik;
- foiz tulashlilik asosida berish natijasida yuzaga keladi.

Xalkaro kredit munosabatlarining **sub'ektlari** sifatida tijorat banklari, Markaziy banklar, davlat organlari, yirik korxonalar, xududiy va xalkaro moliya-kredit tashkilotlari katnashadi.

Xalkaro kreditning yuzaga kelishiga sabab bulib, ishlab chikarishni milliy doira darajasidan oshishi, xujalik aloklarining baynalmilallashuv jarayonining tezlashishi, xalkaro kapitallarning umumlashuvi xamda ishlab chikarishning ixtisoslashishi va kooperatsiyalashuvining natijasi xisoblanadi.

**Xalkaro kredit tamoyillari.** Xalkaro kredit munosabatlarini tashkil kilish kuyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Kaytarib berishlilik: agar olingan mablaglar kaytarilmasa, pul kapitalini kaytarib bermaslik shakli namoyon buladi, ya'ni moliyalashtirish yuzaga keladi;

2. Muddatlilik, ya'ni kredit shartnomasida kursatilgan muddatda kredit kaytarilishini ta'minlash;

3. Ta'minlanganlik, ya'ni olingan kreditni tulashni kafolatlanganligi;

4. Maksadlilik, ya'ni ssudani anik ob'ektlarga yunaltirishni kuzlash, va uni birinchi navbatda, kreditor davlatning eksportini ragbatlantirish uchun kullash.

5. Foiz tulashlilik.

**Xalkaro kreditning funktsiyalari.** Xalkaro kredit xalkaro iktisodiy aloklarda ssuda kapitallari xarakatini uziga xos xususiyatini namoyon etib, kuyidagi funktsiyalarni bajaradi:

1. Takror ishlab chikarishni kengaytirish, iste'molni ta'minlash uchun ssuda kapitallarini mamlakatlar urtasida kayta taksimlash. Ssuda kapitallari xalkaro kredit mexanizmi orkali foydasi kuprok, daromadlirok bulgan tarmoklarga intiladilar. Shu orkali kredit milliy daromadning urtacha daromadga tenglashishiga imkoniyatni yuzaga keltiradi va uning massasi oshishiga olib keladi.

2. Xakikiy pullarni kredit pullarga almashtirish, nakdsiz tulovlarni rivojlantirish va tezlashtirish xamda nakd valyuta aylanmasini xalkaro kredit operatsiyalari bilan almashtirishlar orkali xalkaro xisob-kitoblar muomalasidagi sarf-xarajatlar iktisod kilinadi. Xalkaro kredit bazasida xalkaro xisob-kitoblarning kredit mablaglari yuzaga keldi — veksellar, cheklar, shu jumladan, banklararo utkazmalar, depozit sertifikatlari va shu kabilar. Ssuda kapitali muomalasini vaktincha tejash orkali xalkaro iktisodiy aloklardagi kapitalni ishlab chikarish funktsiyasi usishiga, ishlab chikarish kengayishiga va foydaning oshishiga olib keladi.

3. Kapitalning bir joyga tuplanishi va markazlashishini tezlashtirish: chet el kreditlarini jalb kilish tufayli kushimcha kiymatning kapitalga aylanish jarayoni tezlashadi, shaxsiy jamgarmalar chegarasi kengayadi, bir davlat tadbirkorlarining kapitallariga boshka davlatning mablaglari kushilishi okibatida ular mikdori kupayadi. Xalkaro kredit oldindan yakka korxonalarini xissadorlik jamiyatlariga aylanishiga, yangi firmalar va monopoliyalarni paydo bulishiga xizmat kiladi.

Xalkaro kredit funktsiyalarining axamiyati katta va u milliy xamda jaxon xujaligi rivojlanishiga karab uzgarib turadi. Xozirgi sharoitda xalkaro kredit iktisodiyotni tartibga solish funktsiyasini bajarmokda va uzi xam tartibga solinish ob'ekti bulib xisoblanmokda.

**Ishlab chikarishni rivojlantirishda xalkaro kreditning roli.** Xalkaro kredit uz funktsiyalarini bajarishda ikkiyoklama rol uynaydi (ijobiy va salbiy).

Xalkaro kreditning iktisodiyotdagi ijobiy urni — uni takror ishlab chikarish rivojlanishini ta'minlashda va kengaytirishda namoyon buladi. Xalkaro kredit tashki iktisodiy aloklar

rivojlanishiga turtki bulib xizmat kiladi. Xalkaro kredit ishlab chikarish baynalmilallashuviga va ayirboshlashuviga, jaxon bozorining tashkil topishiga va rivojlanishiga, xalkaro mexnat taksimotini chukurlashuviga olib keladi.

Xalkaro kredit takror ishlab chikarish jarayonini kuyidagi yunalishlar orkali tezlashtiradi:

*Birinchi*dan, kredit mamlakatning tashki iktisodiy alokalarini ragbatlantiradi, shu orkali bozorda kon'yunkturani kutaruvchi talabni yuzaga keltiradi. Tashki savdo kreditda xalkaro me'yor bulib xisoblanmokda. Ayniksa, uzok davr mobaynida tayyorlanadigan, iste'mol kilinadigan va baxosi baland tovarlar uchun. Maxsulotlarning baxosini va jaxon savdosida mashina xamda asbob-uskunalar ulushi oshishi eksport kiluvchilarni xam, import kiluvchilarni xam, tashki savdo kreditlariga bulgan kizikishlarini orttirmokda.

Xozirgi zamon sharoitida kreditor-mamlakatdan eksport etkazib beruvchi «bogliklik» kreditning salmogi oshdi. Kreditlanayotgan davlatning tovarlarini sotib olish uchun kilinadigan xarajat karzning sharti bulib xisoblanmokda. Xuddi shu orkali xalkaro kredit kreditor-mamlakat firmalarining rakobatbardoshligini oshirishga xizmat kiladi.

*Ikkinchi*dan, xalkaro kredit chet el xususiy investitsiyalari uchun kulay muxit yuzaga keltiradi. Chunki, odatda, kreditor-mamlakat investorlariga imtiyozlar berish majburiyatlari kuyiladi. Infrastrukturani tashkil etish, shu jumladan, chet el va kushma korxonalarni faoliyat kursatishi, xalkaro kapitalga alokasi bor milliy korxonona va banklarning pozitsiyasi kuchayishiga yordam beradi.

*Uchinchi*dan, kredit — mamlakatning tashki iktisodiy alokalariga xizmat kiluvchi xalkaro xisob-kitob va valyuta operatsiyalari tuxtovsizligini ta'minlaydi.

*Turtinchi*dan, kredit — mamlakat tashki savdo operatsiyalarini iktisodiy samaradorligini oshiradi va tashki iktisodiy faoliyatning boshka turlari rivojlanishiga turtki buladi.

Xalkaro kreditning iktisodiyotdagi salbiy urni — bozor iktisodiyotini rivojlantirishda uning karama-karshiligi kuchayishida namoyon buladi. Iktisodiyotda nomutanosiblik chukurlashadi, kredit-tovarlar kayta ishlanishi tezlashadi, mamlakatlar urtasida ssuda kapitalarini kayta taksimlaydi xamda iktisodiy kutarilish va davriy pasayish davrlarida ishlab chikarishni juda tezlashtiradi. Xalkaro kredit ijtimoiy ishlab chikarishdagi nomutanosiblikni kuchaytiradi, buning okibatida daromadli tarmoklar rivojlanishi osonlashadi, shu bilan birgalikda chet el kapitali jalb kilinmagan tarmoklarning rivojlanishi sekinlashadi.

Xalkaro kredit — mamlakatlarning xarid bozori rakobati uchun kurash kuroli xamda kapitalni joylash soxasi, xom ashyolar manbalari, ITT soxasidagi yutuklardir.

Kredit siyosati kreditor mamlakatning jaxon bozoridagi urnini kuchaytirishga xizmat kiladi. Bunda:

*Birinchi*dan, xalkaro kreditni karz sifatida olgan mamlakatdagi daromadlarni karz bergan mamlakatga olib utishda foydalaniladi. Shu bilan birga, ssudani kaytaruvchi xar yilgi foiz tulovlari, jamiyatning sof daromadi mikdorini kupaytiruvchi, ishlab chikarish usishini ta'minlovchi jamgarmalarning tashkil topishi, shu jamgarmalarning tashkil topish manbalari karzdor mamlakatlarga salbiy ta'sir etadi.

*Ikkinchi*dan, xalkaro kredit karz oluvchi mamlakat tomonidan kreditor mamlakatlar uchun kulay iktisodiy va siyosiy muxit yaratishni takozo etadi.

Etakchi mamlakatlar uz urnini yanada mustaxkamlash uchun banklar, xukumatlar, xalkaro va xududiy valyuta-kredit va moliya tashkilotlari orkali vakti-vakti bilan ularga mos kelmagan siyosat yuritayotgan davlatlarga nisbatan kredit diskriminatsiyasini va kredit kamalini kullashadi.

**Kredit diskriminatsiyasi** — bu kredit olishda, undan foydalanishda yoki xalkaro kreditni tulashda ma'lum bir karz oluvchilarga iktisodiy va siyosiy bosimni yuzaga keltiruvchi, ogir va kiyin shartlarni kuyishdir.

Kredit diskriminatsiyasining asosiy usullari bulib, kredit buyicha cheklashlar, foiz stavkasini, komission yigimlarni oshirish, kutilmaganda kreditdan foydalanishni tuxtatish yoki kredit summasini kamaytirish xamda iktisodiy va siyosiy tUSDagi chora-tadbirlar kurish shartlari xisoblanadi.

Bozor iktisodiyoti sharoitida xalkaro kreditdan foydalanishda uning ikkiyoklama roli namoyon buladi, bir tomondan, mamlakatlarning uzaro foydali alokalarini rivojlantirsa, boshka tomondan — rakobat kurashi vositasi bulib xizmat kiladi.

Ishlab chikarishning va ayirboshlashning baynalmilallashuvi, jaxon xujaligi alokalarini yangi shakllari vujudga kelishi xalkaro kredit shakllari xilma-xilligi rivojlanishiga ob'ektiv asos bulib xizmat kiladi.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Xalkaro kredit nima?
2. Kimlar xalkaro kredit munosabatlari sub'ektlari xisoblanadi?
3. Xalkaro kredit munosabatlarini tashkil etish kandy tamoyillarga asoslanadi?
4. Xalkaro kreditning funksiyalarini sanab bering.
5. Ishlab chikarishni rivojlantirishda xalkaro kreditning roli kandy?
6. Xalkaro kredit takror ishlab chikarishga kandy ta'sir etadi?
7. Xalkaro kreditlarning iktisodiyotga kandy salbiy ta'siri mavjud?
8. Kredit diskriminatsiyasi nima?



## 8.2. XALKARO KREDITNING ASOSIY SHAKLLARI

Xalkaro kredit shakllarini bir necha turlarga bulib guruxlash mumkin.

Manbalari buyicha tashki savdoni ichki, tashki (chet) va aralash kreditlash va moliyalashtirish buyicha farklanadi.

Vazifalar karz mablaglari xisobidan kandy tashki iktisodiy bitimlar ta'minlanishi buyicha farklanadi:

- tijorat krediti (asosan, tashki savdo va xizmatlar bilan boglik kreditlar);
- moliyaviy kredit (yukoridagilardan boshka maksadlarga ishlatiladigan, shu jumladan, kapital kuyilmalar, investitsion ob'ektlar kurish, kimmatbaxo kogoslar sotib olish, tashki karzlarni uzish, valyutaviy interventsiyaga boglik kreditlar);
- «oralik» krediti (kapitalni olib kelishni aralash shakliga xizmat kilishda belgilangan tovar va xizmatlar, masalan, pudrat ishlarini bajarish kurinishida).

Xalkaro kreditlarni kurinishi buyicha 2 ta asosiy shaklga bulib kursatish mumkin:

1. Xalkaro bank krediti;
2. Xalkaro tijorat krediti.

**Xalkaro bank krediti** asosan, valyuta (pul) kurinishida buladi.

**Xalkaro tijorat krediti** esa, odatda tovar kurinishiga ega.

Ana shu 2 ta asosiy kredit shaklidan kelib chikadigan bir kancha kreditlar mavjud:

1. **Firmaning (tijorat) krediti** — odatda eksport kiluvchi mamlakatning bir firmasi boshka mamlakatning import kiluvchiga tulovni kechiktirish shaklidagi ssuda berishiga tushuniladi. Tashki savdoda tijorat krediti tovarli operatsiyalarga boglik xisob-kitoblarda keng kullaniladi. Tijorat kreditining muddati (odatda 2-7 yil) turlicha buladi va jaxon bozori kon'yunkturasi shartlariga, tovarlar turlariga va boshka bir kator omillarga boglikdir. Mashina va asbob-uskunalar (texnologiya, jixozlar)-ning eksporti kengayishi xalkaro kredit muddati uzayishiga olib keladi. Tijorat krediti odatda, veksel yoki ochik xisobvaraklar buyicha beriladigan kreditlar orkali rasmiylashtiriladi.

2. Vekselli kreditda eksport kiluvchi tovarni sotish xakida bitim tuzib, utkazma veksel (sarf-xarajatlar)ni import kiluvchiga junatadi, import kiluvchi tijorat xujjatlarini olib aktseptlaydi, ya'ni unda kursatilgan muddatda tulovni amalga oshirishga rozilik beradi.

3. Ochik xisobvaraklar buyicha beriladigan kredit. Bu kredit eksport kiluvchi va import kiluvchi urtasidagi kelishuvga asoslanadi. Eksport kiluvchi junatilgan xar bir tovarlar kiymatini import kiluvchining xisobiga karz sifatida kayd kilib boradi. Import kiluvchi shartnomada kursatilgan vaktida kredit summasini tulab boradi. Ochik xisobvaraklar buyicha beriladigan kreditlar fakatgina doimiy alokada bulgan firmalar urtasidagina amalga oshirilishi mumkin.

Tijorat kreditining yana bir turiga import kiluvchining avans tulovi (sotib oluvchining avansi)ni kiritish mumkin. Bunda shartnoma tuzilayotgan paytda import kiluvchi tomonidan chet ellik mol etkazib beruvchiga odatda mashina, asbob-uskunalar (texnologiya)ning kiymatidan 10-15 foizi oldindan tulanadi.

Xarid bunaki eksportni kreditlashning bir shakli bulib xisoblanadi va shu vaktning uzidan boshlab import kiluvchining majburiyatini ta'minlovchi vositaga aylanadi. Chunki, import kiluvchi uzi buyurtma bergan tovarni sotib olishga majbur buladi. Rivojlangan mamlakatlarning import bilan shugullanuvchi firmalari rivojlanayotgan mamlakatlardan farkli ularok, xarid bunagidan shu davlatlarning kishlok xujalik maxsulotlarini olib chikib ketishda foydalanmokdalar.

Bunak tulagan tomonning aybi bilan, shartnoma bajarilmay kolsa, sarf-xarajatlar undirilgan xolda mablag kaytariladi. Agar shartnoma bunak olgan tomonning aybi bilan bajarilmay kolsa, u sotib oluvchiga barcha xarajatlarni tulagan xolda mablagni kaytarishi shart.

**Bunak** — shartnoma bajarilishidan voz kechish mumkin bulgan bitimga nisbatan ragbatlantiradi. Voz kechish mumkin bulgan bitimda esa, zarar kurgan tomonning xarajatlarini tulash majburiyatlaridan ikkinchi tomon ozod buladi. Ba'zan xarid - sotib oluvchining avansi

tulovni kechiktirishga uzaro moslashadi, buning ustiga teng ulushlar bilan ma'lum intervallarga bulinadi (oy, kvartal, 1 yil).

Tijorat krediti sotuvchi va sotib oluvchi urtasidagi munosabatni namoyon kilsada, u odatda, bank krediti bilan kushilib, moslashadi. Mashina va asbob-uskunalarini sotishda tijorat krediti uzok muddatga beriladi (7 yilga), bu esa, uz navbatida, eksport kiluvchining anchagina mablagini jalb kilib oladi. Shu sababdan, eksport kiluvchi konundagidek, bank kreditiga murojaat kiladi yoki uz kreditini banklarda kayta moliyalashtiradi.

Tijorat krediti xajm va moliyalashtirish shartlari buyicha mashina va asbob-uskunalar eksportini kreditlash muammosini tulik echa olmaganligi sababli, bank kreditlarining roli oshadi.

**Bank kreditlari.** Bank krediti — eksport va importni kreditlashda ssuda shaklida namoyon buladi va u tovarlar, tovar xujjatlari, veksellarni, xamda sarf-xarajatni garovga olgan xolda beriladi. Ba'zan, banklar uzlari bilan chambarchas alokada bulgan yirik eksport kiluvchi firmalarga blankli kredit, ya'ni rasmiy ta'minlanmagan kreditlar berishadi.

Xalkaro savdoda bank kreditlari tijorat kreditlariga nisbatan ustunlikka ega. Ular kredit oluvchini olgan mablaglaridan tovarlar sotib olishga mustakil foydalanish imkoniyatini tugdiradilar, mol etkazuvchi firmadan kredit surashdan ozod etadilar xamda oxirgi tovarlarga xisob-kitoblarni bank kreditidan foydalanib tulaydilar. Xususiy banklar kupincha davlat mablaglarini va uning kafolatini olgan xolda eksport kreditlarini 10-15 yilga bozor stavkasidan pastrok stavkada beradilar. Lekin, banklar koida buyicha, kreditdan uz mamlakatlari xududidagina foydalanishni chegaralab, uning intilishini ma'lum maksadli kilib kuyadilar, masalan, fakat uzlarini kiziktirgan firmaning tovarlarini sotib olishga yunaltiradilar. Shu orkali bank krediti firma krediti xususiyatlarini uzida mujassam etadi. Bank kreditini banklar, bankir uylari va boshka kredit muassasalari beradilar.

Tashki iktisodiy operatsiyalarni kreditlash operatsiyalarini muvofiklashtiruvchisi uchun, yirik kredit resurslarini jamlash uchun va bank xavf-xatarini bir maromda taksimlash uchun banklar konsortsiumlar, sindikatlar, bank fondlarini tashkil kiladilar. Banklar eksport va moliya kreditlarini beradilar.

**Eksport krediti** — eksport kiluvchi bankining import kiluvchi bankiga etkazib berilgan mashina, asbob-uskuna va boshka investitsiya kilingan tovarlarni kreditlashga aytiladi. Bank kreditlari pul kurinishida beriladi va «boglik»lik tusiga ega, chunki kredit oluvchi ssudadan fakatgina kreditor mamlakat tovarlarini sotib olishigagina beriladi.

Utgan asrning 60-yillaridan boshlab, eksportni kreditlashning shakli sifatida iste'mol krediti (5-8 va undan ortikrok yil muddatga) yuzaga keldi.

**Iste'mol krediti.** Iste'mol kreditining uziga xos xususiyati bulib, eksport kiluvchi bankning tugridan-tugri milliy eksport kiluvchini kreditlamasdan, balki chet ellik xaridorni, ya'ni import kiluvchi mamlakat firmasi va uning bankini kreditlash xisoblanadi. Shu orkali import kiluvchi kerakli tovarlarni etkazgan mol etkazib beruvchilar tulovni xaridorga yoki bankka karz sifatida kayd kiladi. Odatda, bunday kreditlar ma'lum bir firmaning tovarlari va xizmatlaridan foydalanishda kullaniladi. Bunday kreditlash shartnomasida eksport kiluvchi ishtirok etmaydi, bu esa, uz navbatida, kreditning baxosini oshirish imkoniyatini yukotadi. Bank kreditining xaridorga bulgan narxi, koida buyicha ssuda kapitallari bozoridagi karz mablaglari narxidan ancha past buladi, bu uz navbatida, ularning rakobatbardoshligini oshiradi.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Xalkaro kreditning kandy shakllari bor?
2. Firmaning (tijorat) krediti nima?
3. Vekselli kredit deb kandy kreditga aytiladi?
4. Ochik xisobvaraklar buyicha kredit berishning tartibi kanaka?
5. Kandy kreditlarga bank kreditlari deyiladi?
6. Eksport kreditini takdim etishdan kuzlangan asosiy maksad nima?
7. Iste'mol kreditining iktisodiy moxiyatini tushuntiring.

### 8.3. UZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XALKARO KAFOLATLARNI KULLASH MASALALARI

Xalkaro kafolatlar — tovarlar va kapitallar xarakatini uzluksiz va doimiy xarakat kilinishi ta'minlanishiga xizmat kiladi. Xalkaro kafolatlar import kiluvchilarni sifatsiz tovarlar kabul kilishdan, eksport kiluvchilarni esa, tovarlar xakini ololmay kolish riskidan saklaydi.

Xalkaro kafolatlar xalkaro operatsiyalarning barcha asosiy turlarida kullaniladi. Jumladan, bularga:

1. Xalkaro kreditlar buyicha beriladigan kafolatlar;
2. Eksport-import operatsiyalari buyicha beriladigan kafolatlar;
3. Tugri va portfelli investitsiyalar buyicha beriladigan kafolatlarni kiritish mumkin.

**Xalkaro kafolatlar** Markaziy banklar, tijorat banklari, korporatsiyalar, xukumat va xalkaro tashkilotlar tomonidan beriladi.

Xalkaro kafolatlar banklar va boshka kafolat beruvchi tashkilotlar uchun muxim daromad manbai xisoblanadi, ammo bular yukori riskli operatsiyalar xisoblanadi.

Xalkaro kafolatlarda uchinchi bir tomonning ishtirok etishi shartdir. Aynan mana shu kafolat beruvchi tomonning tulovga layokatliliigi asosiy masala bulib xisoblanadi. Xalkaro kafolatlar xalkaro mikiyosda tan olingan sub'ektlar tomonidan beriladi.

Xalkaro kafolatlarning kuyidagi asosiy turlari mavjud:

1. **Tugri kafolatlar** – bunda kafolat beruvchi tomon bevosita eksport-import operatsiyalariga kafolat beradi. Bunda mazkur tulov buyicha majburiyatlarni tulik uz zimmasiga oladi. Bunday kafolatlar tulov talabnomalari buyicha xisob-kitoblar, xujjatlashtirilgan akkreditiv buyicha xisob-kitoblarda keng kullaniladi.

2. **Vositilashgan kafolatlar**. Bunda kafolat beruvchi uziga xos tarzda vositachilik vazifasini utaydi. Bunday kafolatlar eksport-import operatsiyalarida keng ishlatiladi.

3. **Tasdiklangan kafolatlar**. Bunday kafolatlar berilgan kafolatlarni tasdiklash shaklida namoyon buladi. Masalan, bank uz mijozi bulgan import kiluvchining tulov majburiyatlari buyicha kafolat bergan bulsa, eksport kiluvchining banki xam, ushbu kafolatlar buyicha majburiyatni uz zimmasiga oladi. Bu esa, mavjud kafolatlarni tasdiklash yuli bilan amalga oshiriladi.

Xalkaro kafolatlarning yana kuyidagi *asosiy shakllari* xam mavjud:

1. Tulov buyicha berilgan kafolatlar;
2. Sifatli maxsulotlar etkazib berish buyicha berilgan kafolatlar (jarima, kushimcha xarajatlar).

Uzbekiston Respublikasida xalkaro kafolatlardan foydalanish masalasi eng dolzarb masalalardan biri bulib turibdi. Respublikada katta summada moliyalashtirilayotgan loyixalarning aksariyatida davlat ulushining kupligi sababli, Xalkaro kafolatlar ishlatuvchi sub'ekt xukumatdir. Bunday yirik loyixalarga *Kuk-dumalok neft majmui*, *Zarafshon-Nyumont kushma korxonasi*, *UzDaewooAuto* va boshkalarni misol kilib keltirishimiz mumkin.

Olinayotgan xalkaro kreditlarning asosiy kismi Uzbekiston Respublikasi xukumatining kafolati bilan olinmokda. Xalkaro kafolatlarni berishda tijorat tuzilmalari va banklarning axamiyati kattadir. Uzbekiston Respublikasida Xalkaro kafolatlar urnini bosuvchi majburiyatlarni pul mablaglari bilan ta'minlash tizimi keng kullaniladi. Uzbekiston Respublikasida erga xususiy mulkchilik-ning mavjud emasligi va bir kator yukori likvidli ob'ektlarning yukligi xalkaro kafolatlardan respublika sharoitida foydalanishga jiddiy ta'sir etadi.

**Xukumat obligatsiyalari**, Markaziy bank tomonidan kayta xisobga olinadigan sarf-xarajatlar (utkazma veksellar), xukumat tomonidan kafolatlangan sanoat obligatsiyalarini amaliyotga joriy etish — bevosita xalkaro kafolatlarning instrumentlari kengayishiga va undan foydalanish samaradorligining oshishiga olib keladi.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Xalkaro kafolatlar nima?
2. Xalkaro operatsiyalarning kaysi turlarida xalkaro kafolatlardan foydalaniladi?
3. Xalkaro kafolatlarning kandy turlari mavjud?
4. Uzbekiston Respublikasida xalkaro kafolatlarni kullashda kandy muammolarga duch kelinmokda?
5. Sizning fikringizcha, respublikamizda xalkaro kafolatlarning instrumentlarini kengaytirish uchun kandy ishlarni amalga oshirish zarur?

## **8.4. XALKARO KREDITLAR BUYICHA KARZDORLIK MUAMMOSI VA UNI XAL KILISH YULLARI**

Xalkaro kreditlar buyicha karzdorlik muammosi — umumjaxon axamiyatga ega bulgan muammo sifatida 1982 yilda yuzaga keldi. Chunki, birinchi marta utgan asrning 80-yillarida Meksika davlati uzini rasman bankrot, deb e'lon kildi. Ya'ni, olingan xalkaro kreditlarni kaytara olmasligini ma'lum kildi. Meksikadan keyin bir kator davlatlar Braziliya, Argentina, Paragvay va bir kator Afrika davlatlari uzlarini rasman bankrot, deb e'lon kildilar.

Utgan asrning 90-yillarining boshlariga kelib, birinchi marta kreditlarning foiz tulovi summasi ularning asosiy summasidan oshib ketdi. Buning asosiy sabablaridan biri — berilgan jami xalkaro kreditlarning 60 foizi suzib yuruvchi stavkaga ega ekanligidadir.

Xalkaro kreditlar buyicha ana shunday keskin muammoning yuzaga kelishiga sabab bulgan uch omilni ajratib kursatish mumkin:

1. Kredit olgan mamlakatlar iktisodiyotida xalkaro kreditlardan samarali foydalanishning iloji bulmaganligi. Xalkaro kredit yordamida moliyalashtirilgan yirik loyixalar aksariyat mamlakatlarda uzini oklamadi. Inflyatsiya darajasi nisbatan yukoriligi kreditlarning kaytarish masalasini ogirlashtirdi.

2. Xalkaro kreditlar bergan xususiy tijorat banklari kreditlar buyicha tobora tuplanib borayotgan karz summasini jiddiy taxlil kilmadilar. Tijorat banklari bu mamlakatlarga berilgan kreditlari uchun etarli darjada ta'minlanganlik ob'ektlari va boshka ximoya choralarini kurishga shoshilmadilar. Xalkaro kreditlarning sezilarli kismi moliyalashtirilayotgan ob'ektdan tushadigan daromadlar summasi bilan ta'minlangan edi. Bu ob'ektlarga kilingan xarajatlar ularni ishga tushirish bilan boglik tadbirlardan keladigan daromadlar summasiga nisbatan sezilarli darjada katta edi. Demak, kreditlar mazkur ta'minlanganlik ob'ekti sifatidagi axamiyatini yukotdi. Shunisi e'tiborliki, ayrim tijorat banklari esa, ishonchli kreditlar bergan.

3. Ushbu mamlakatlarda moliyaviy — pul-kredit instru-mentlarida foydalanishda yul kuyilgan xatoliklar pirovard natijada tulov balansi xolatining yomonlashuviga sabab buladi. Bu esa, uz navbatida milliy valyutalarning kursiga ta'sir kiladi. Ikkinchi tomondan, davlat byudjeti takchillik xajmining ortishi pul massasining usishiga olib keladi.

Xalkaro kredit buyicha karzdorlik muammosi keskin ijtimoiy va iktisodiy okibatlariga olib keladi:

1. Xalkaro kreditlar buyicha uz muddatlarida tulanmagan karz summalari va foiz summalari tuplanib borishi natijasida ularni tulash tobora kiyinlashib boradi. Chunki, muddatida tulanmagan kredit summalariga oshirilgan foiz stavkasida xak tulanadi. Ayniksa, suzib yuruvchi kreditlarning kiymati usishiga sabab buladi. Buning 2 asosiy okibatini kurish mumkin:

- mamlakat milliy daromadining asosiy kismi kreditlar va ularga xisoblangan foizlarni tulashga ketadi. Bu esa, mamlakatdagi investitsiya xajmini kiskartiradi;
- xalkaro kreditga asosan, etakchi erkin almashinadigan valyutalarda tulashadi. Karz summasining usishi mamlakatdan chet el valyutasining kuprok chikib ketishini bildiradi. Bu esa, milliy valyutaning kursiga salbiy ta'sir etadi.

2. Mamlakatning jaxon ssuda kapitallari bozorida kredit olishi kiyinlashadi. XVF, Jaxon banki, ETTB kabi tashkilotlar tomonidan beriladigan kreditlar tobora ogir shartli bulib boradi.

3. Inflyatsiya darajasi kuchayadi. Bu esa, axolining turmush darajasining pasayishiga va jamgarmalarning kadsizlanishiga olib keladi.

4. Tulov balansi takchilligi shu darajaga etishi mumkinki, buning natijasida iktisodiyotda bir kator salbiy okibatlar, jumladan, dollar fetishizmi paydo bulishi mumkin.

5. Davlat byudjeti takchilligi kuchayadi. Bu esa, ijtimoiy dasturlarni kiskarishiga sabab bulishi mumkin.

Xalkaro kreditlar buyicha karzdorlik muammosini xal kilish masalalari bilan London va Parij klublari shugullanadi. Agar, karzdor davlat yoki davlat organi bulsa, bu masala Parijda kurib chikiladi. Agar karzdor bulib, xususiy banklar va kompaniyalar xisoblansa, bu masala

London klubida kurib chikiladi. Xar ikkala klub xam, doimiy tashkilot emas, balki vakti-vakti bilan chakirilib faoliyat yuritiladi. Masalan, Parij klubining yigilishlari Frantsiya Moliya vazirligining binosida ma'lum vaqtlarda utkazib turiladi. Yigilishda eng avvalo, karzdor mamlakatlar vakillarining ma'ruzasi eshitiladi. Parij klubida bunday ma'ruzalar xukumat raxbarlari yoki uning rasmiy agentlari — Moliya vaziri yoki Markaziy bank Raisi ushbu ma'ruzalarni ukiydi. Ma'ruzada kreditlarning kaytarilmayotganligini, mamlakat iktisodiyotining axvoli va kreditni kaytarish uchun kandy choralar kullaniyotganligi tulik uz aksini topgan bulishi lozim. Undan sung, kreditorlarning da'volari eshitiladi. Undan sung esa, XVF ning ekspertlari ma'ruza kiladilar. Olib boriladigan munozaralardan sung xar ikkala klubda xalkaro kreditlarni kaytarish buyicha anik chora-tadbirlar belgilanadi.

Xalkaro kreditlar buyicha karzdorlik muammosini xal kilishning eng ma'kul yuli hozirgi kunda ushbu davlatlarga yangi kreditlar berish xisoblanadi. Garchi mazkur usul hozircha yagona samarali usul xisoblansa xam, u karzdorlik muammosini tula xal kilmaydi. Karzdorlik muammosini xal kilishning optimal yullaridan biri — kreditni berishga kirish jarayonida uni tula konli taxlil xisoblanadi. Yirik kreditlar buyicha ta'minlanganlik masalalari muxim urin egallaydi. Ta'minlanmagan ssudalar buyicha risk xamisha saklanib koladi. Demak, olinayotgan xar kandy xalkaro kreditni kaytarish kerakligini xis kilgan xolda undan samarali va okilona foydalanish maksadga muvofik xisoblanadi.

## UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR

1. Xalkaro kreditlar buyicha karzdorlik muammosi kachon yuzaga chikdi?
2. Xalkaro kreditlar buyicha keskin muammolar yuzaga kelishiga kandy omillar ta'sir etadi?
3. Xalkaro kredit buyicha karzdorlikning ijtimoiy va iktisodiy okibatleri kandy?
4. Mazkur muammoni xal kilish bilan kimlar shugullanadilar?
5. Xalkaro kreditlar buyicha karzdorlik muammosini xal kilishning kandy yullari mavjud?

### **JAXON BANKINING EVROPA VA MARKAZIY OSIYOGA KARZLARI ORTMOKDA**

Jaxon Bankining 2002 moliya yilida Evropa va Markaziy Osiyoga (EMO) karzlari rekord summaga — 5,5 mlrd. AKSh dollariga etdi.

Takkoslash uchun: 2001 moliya yilida ushbu kursatkich 2,7 mlrd, 2000 yilda — 3 mlrd. AKSh dollarini tashkil etgan.

2002 yilda Jaxon bankining EMODagi operatsiyalari asosan, investitsiyalarni kullab-kuvvatlash, siyosiy isloxotlar va institutsional rivojlanish, barkaror iktisodiy usishni ta'minlash va xududda kashshoklikni pasaytirishga yunaltirilgan. Jaxon banki kreditleri-ning bunday sezilarli kengayishiga Turkiyada yuz bergan inkiroz okibatlerini tugatish maksadida ajratilgan 3,55 mlrd. AKSh dollari mikdoridagi mablag xam uz ta'sirini kursatdi.

Moliyaviy soxa, kishlok xujaligi va ijtimoiy ximoya kreditlashning asosiy yunalishlerini tashkil etdi. Moliyaviy soxadagi loyixalar uchun kreditlash 2001 yildagi 853 mln. dollardan 2,6 mlrd. AKSh dollariga usdi. Kishlok xujaligi loyixalarni kreditlash, mos ravishda, 235 mln. dollardan 717 mln. AKSh dollariga, ijtimoiy soxadagi loyixalar uchun 439 mln. dollardan 698 mln. AKSh dollariga ortgan.



## **8.5. UZBEKISTON RESPUBLIKASIGA XORIJIY INVESTITSIYALAR JALB KILISHNING XUKUKIY ASOSLARI**

Uzbekistonning tashki iktisodiy faoliyatiga doir xukukiy xujjatlar tizimida xorijiy investitsiyalar masalasiga bevosita taallukli bulgan konunlar muxim urin tutadi. Xorijiy investorlarning samarali faoliyat kursatishi kafolatlarini ta'minlash, xorijiy moliyaviy va boshka resurslarni, zamonaviy chet el texnologiyasi va boshkaruv tajribasini jalb kilish xamda undan okilona foydalanish maksadida, mamlakatning iktisodiy rivojlanishiga, shuningdek, uning jaxon tizimiga integratsiyalashuviga kumaklashish uchun 1994 yil 5 mayda Uzbekiston Respublikasining «Xorijiy investitsiyalar va xorijiy investorlar faoliyatining kafolatlari tugrisida»gi Konuni kabul kilindi. Shuningdek, Uzbekistondagi investitsion takliflarni tayyorlash va amalga oshirishda xorijiy investorlar va maxalliy xamkorlarga amaliy yordam kursatish uchun Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 21 avgustdagi Farmoni bilan noxukumat tashkilot makomiga ega bulgan xorijiy investitsiyalar buyicha Agentlik tashkil etildi. Vakt utishi bilan iktisodiy usishning jadal borishini ta'minlash, respublika iktisodiyotiga xorijiy mamlakatlarning ilgor texnologiyalarini jalb kilish va umuman jaxon andozalariga erishish uchun xorijiy investitsiyalar soxasidagi mavjud konunchilik bazasini kayta kurib chikish zarurati ob'ektiv ravishda paydo buldi.

Shu munosabat bilan 1998 yil 30 aprelda Oliy Majlis tomonidan yangi xujjat — «Xorijiy investitsiyalar tugrisida» Uzbekiston Respublikasi Konuni va «Xorijiy investorlar xukuklarining kafolatlari va ularni ximoya kilish chora-tadbirlari tugrisida» Konun kabul kildi.

Keyingi yillarda respublikaning investitsiya faoliyati ortib borayotganligini xam aytib utish kerak. Xorijiy sarmoyani keng jalb kilish asosan tarkibiy uzgarishlarni yanada chukurlashtirishga, iktisodiy soxani mustaxkam moddiy-texnika bazasini yaratishga, mamlakatning makroiiktisodiy barkarorligini va iktisodiy rivojlanishini ta'minlashga karatilgan.

Xar bir moliya yili uchun Uzbekiston xukumati tomonidan respublikaning 2000 yil uchun investitsiya dasturi ishlab chikiladi va tasdiklanadi. Unda xukumatning kafolati ostida xorijiy investitsiyalar va kreditlar xisobiga investitsion loyixalarning anik muljallangan dasturi aloxida ifodalab beriladi. Masalan, 2000 moliya yili uchun tuzilgan investitsiya dasturiga 2748,4 mln. AKSh dollari mikdoridagi 52 ta loyixa kiritilgan bulib, shundan joriy yil prognozlari buyicha 750,5 mln. AKSh dollari mikdorida sarmoya uzlashtirilishi muljallanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, mazkur dastur amalda respublika iktisodiyotining deyarli barcha tarmoklari va mintakalarini kamrab oladi. Investorlar va kreditorlar sifatida esa, nufuzli xalkaro moliya tashkilotlari, eng yirik banklar va korporatsiyalar ish olib boradi. Ular orasida Yaponiyaning Xamkorlik banki, Kommertsbank (Germaniya), Cheyz Manxetten bank (AKSh) bor bulib, mazkur banklar Shurtan gazkimyo majmui kurulishiga 618,22 mln. AKSh dollari sarflaydi.

Frantsiyaning «Sosete Jeneral» banki Fargona «Azot» birlashmasida natriy xlorat va xlorat magniyli defoliant ishlab chikarish kuvvatini kayta kurish loyixasiga 23,3 mln. AKSh dollari ajratmokda. Ana shu mablaglarni uzlashtirish kishlok xujaligining mazkur kimyoviy vositalar turlariga bulgan extiyojlarini ma'lum darajada kondirish imkonini beradi.

Ijtimoiy soxalarga xam yirik kapital sarmoyalar ishlatilmokda. Respublika shoshilinch tibbiy yordam kursatish markazlarini kurish, rekonstruktsiya kilish va zamonaviy asbob-uskunalar bilan jixozlashga Ispaniya xukumati bilan Germaniyaning KVF banki 37,81 mln. AKSh dollari mikdorida imtiyozli kredit ajratmokda. XTTB «Uzbekiston: toza suv, sanitariya va gigiena» dasturini amalga oshirish uchun joriy yilda 11 mln. AKSh dollari mikdorida mablag ajratiladi. Umuman, loyixa buyicha jami 75 mln. AKSh dollari sarflash rejalashtirilgan.

Koch guruxi (Turkiya), XMK va ETTB 59,5 mln. AKSh dollari mikdoridagi mablaglarni birlashtirib, Samarkanddagi «Sino» AJ bazasida maishiy sovutkichlar ishlab chikarish buyicha «Arsin» kushma korxonasini tashkil etishda yordam kursatilishi muljallangan.

Kichik va urta biznesni rivojlantirish yuzasidan un millionlab dollar mikdorida kredit xisoblari ochilgan bulib, ularda ETTB, XMK, Tashki iktisodiy faoliyat Milliy banki, vatanimizdagi tijorat banklari ishtirok etmokda.

Xorijiy investorlar bilan kushma korxonalar tashkil kilish mamlakatimizga:

- yangi, zamonaviy texnika va texnologiyalarni respublika iktisodiyotiga jalb qilish, ularni ishlab chikarishga joriy qilish esa, necha yillar davomida sifatsiz, xaridor talabiga javob bera olmaydigan maxsulotlar ishlab chikaruvchi eski texnikalardan tezrok kutilish imkonini beradi;
  - yangi ish joylari tashkil qilish va axolining ishsiz kismini ish bilan ta'minlash, shu bilan birga, xorijning ilgor boshkaruv tajribasini joriy qilish imkonini beradi va shu orkali mexnat unumdorligi oshiriladi;
  - jaxon bozorida rakobatlasha oladigan sifatli maxsulotlarni ishlab chikarish va ularni eksport qilish evaziga mamlakatga kadri baland valyutalarning kuprok kirib kelishini ta'minlaydi.
- Yukori texnik saviyadagi tayyor maxsulotlar ulushi oshirilishi kuyidagi jixatlarga boglik:
- xorijiy mamlakatlardagi korxonalar bilan Uzbekistondagi eksport kiluvchi korxonalar urtasida kooperatsiya alokalarining shakllanishiga kumaklashish;
  - yukori texnologiya va ilm talab kiluvchi maxsulotlar ishlab chikarilishi soxa va soxa ichi tizimi yaxshilanishiga xizmat kiladi;
  - eksportning intellektual mulk ob'ektlari litsenziyalarini xamda nou-xau shaklida texnik-tijorat sirlarini sotish, injiniring va lizing soxalarida xizmatlar kursatish kabi turlarini rivojlantirish yuli bilan respublikamizda erishilgan ilmiy-texnik yutuklari-ning jaxon xujaligi aylanmasiga kirib borishini tezlashtirish;
  - ilmiy ishlanmalarga, xususan, amaliy fan va texnologiyalar transferti soxasidagi ilmiy ishlanmalarga bozor yunalishini beruvchi shart-sharoit yaratuvchi innovatsiyalarni kullab-kuvvatlashning samarali tizimini ishlab chikish;
  - innovatsiya jarayonini davlat tomonidan va tijorat usulida kullab-kuvvatlashning eng makbul uygunlashuvi asosiy yullarini belgilab olish xamda ilmiy-texnik ishlanmalarni tijorat axamiyatiga molik natijalar darajasigacha etkazish;
  - uzbek olimlari va mutaxassislarining chet eldagi etakchi institutlar, tashkilotlar va firmalar bilan xamkorligini kengaytirish va chukurlashtirish;
  - yukori darajali marketing tadkikotlari utkazish, tijorat va texnologiya menejmenti soxasidagi yutuklarni urganish, xorijiy bozorlarning konyunkturasi, sigimi xamda rakobatchilarning narx siyosati, kooperatsiya, kushma korxonalar tashkil etish buyicha xamkorlar kidirish yuzasidan taxliliy ma'lumotlarni urganish.

Xorijiy investitsiyalarni iktisodiyotga jalb etish strategiyasi bulajak chet ellik investorlarning manfaatlarini xamda milliy iktisodiyotga zarar keltirmagan xolda ularni kondirish imkoniyatlarini urganishga asoslanadi.

Buning uchun bir tomondan, iktisodiyotni tarkiban kayta kurishga karatilgan bir kator anik loyixalarni amalga oshirish zarur buladi va ikkinchi tomondan, ichki investitsiya resurslari cheklangan bir sharoitda xorijiy investitsiyalarning axamiyati juda yukori baxolanadi.

Uzbekiston amalga oshirayotgan investitsiya siyosatining asosiy yunalishlari orasida quyidagilarni aloxida ta'kidlab kursatish mumkin:

- investitsiya jalb qilish uchun xalkaro me'yorlar va konventsiyalarga mos keladigan, sanoati rivojlangan mamlakatlar investorlari tomonidan tan olinadigan xukukiy shart-sharoitlarni yaratishga intilish;
- respublikaga jaxon darajasidagi texnologiyalarni etkazib beradigan va iktisodiyotning zamonaviy tuzilishini vujudga keltirishga yordam beradigan investorlar uchun ochik eshiklar siyosatini izchillik bilan amalga oshirish;
- ishlab chikarish bilan bog'liq loyixalarga karatilgan, valyutada uzini-uzi koplashni ta'minlaydigan investitsiya-larga kumaklashish;
- mamlakatning kredit kobilyatini, Uzbekistonning birinchi darajali karz oluvchi mamlakat sifatidagi obru-e'tiborini kullab-kuvvatlash;
- mamlakatning ayrim mintakalarida ijtimoiy va ekologiya muammolarini xal kilishga karatilgan investitsiyalarga yordam berish.

Uzbekiston xukumati investitsiya jarayonini takomillashtirishga doimiy e'tibor berib, xorijiy investorlarning fikriga sezgirlik bilan munosabat bildirmokda va ochikdan-ochik xamkorlik kilishga intilmokda. Amerika Savdo palatasi tomonidan tayyorlangan Uzbekiston Respublikasida investitsiya muxitini takomillashtirishga doir tavsiyalar buning tasdigi bula oladi. Tavsiyalarda respublikaga investitsiyalar jalb etish yulidagi asosiy tusiklar taxlil kilib chikilgan .

Ushbu tavsiyalarni muxokama kilishda xorijiy investitsiyalarni jalb etishga muayyan darajada alokasi bulgan deyarli barcha tashkilotlar katnashdi. Mana shunday ikki tomonlama uchrashuvlar xorijiy investorlarga nisbatan ochik eshiklar siyosati izchil olib borilayotganligini yana bir bor tasdiklaydi.

1998 yilda investitsiyalash xukukiy muxitini yaratib beradigan bir kator asosiy konun xujjatlari kabul kilindi. Ular orasida: «Investitsiya faoliyati tugrisida»gi, «Chet el investitsiyalari tugrisida»gi va «Chet ellik investorlar xukuklarining kafolatlari va ularni ximoya kilish choralari tugrisida»gi konunlar mavjudligi mamlakatimiz investitsiyalari borasidagi «xukukiy bushlikni» tuldirdi.

Investitsiya jarayonini ta'minlaydigan institutsion infratuzilma yanada rivojlandi. Xususan, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyixalarni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish maksadida 1998 yil boshlarida respublika Vazirlar Maxkamasi xuzurida Investitsiya dasturlari bulimi tashkil etildi. Ushbu bulim davlat investitsiya siyosatini amalga oshiruvchi tula xukukli idora bulib, uning zimmasiga xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyixalarning amalga oshirilishi ustidan davlat monitoringini tashkil etish vazifasi yuklatilgan. 1998 yil sentyabrda Uzbekiston Respublikasi Prezidenti xuzurida islox kilish va investitsiyalar buyicha Idoralararo muvofiklashtiruvchi Kengash xam tuzildi.

Fond bozori boshkaruvining konunchilik bazasi jadal rivojlanib borayotganligi kayd etilmokda. Bu xol tasodifiy emas. Chunki, davlat kichik xususiyashtirishni muvaffakiyatli amalga oshirib, bevosita navbatdagi boskichga — bir kator yirik va asosiy korxonalarini xususiyashtirishga kirishdi. Bu jarayonda xorijiy investorlarga kattagina urin beriladi. Uzbekiston fond bozorining xalkaro sarmoya bozoriga kushilishiga karatilgan boskichma-boskich xarakatlar rejasi tasdiklandi.

Investitsiyalash shart-sharoitlarini takomillashtirish soxasida bundan buyon kuruladigan chora-tadbirlar xususidagi xukumat rejaları bilan Uzbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis XIV sessiyasidagi ma'ruzasida va 1999 yil birinchi yarmida Uzbekiston iktisodiyotini islox kilish yakunlariga bagishlangan Vazirlar Maxkamasi yigilishidagi ma'ruzasida tanishib chikish mumkin. Bu xujjatlarda tashki iktisodiy faoliyatni tashkil etish tizimini kayta kurib chikish xamda tizimni va milliy valyuta bozorini erkinlashtirish, shuningdek, davlat investitsiya dasturini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish zarurligi kursatib utildi.

Investitsiya muxitini yanada yaxshilash shartlaridan biri bank tizimini takomillashtirish, moliya bozorida rakobatni vujudga keltirish, nakd puldagi va nakd bulmagan puldagi operatsiyalarni amalga oshirishni yaxshilash, shuningdek, xorijiy investorlarni axborot bilan ta'minlashni yaxshilashdan iboratdir.

Investitsiyalarni mamlakatga jalb qilishda xukukiy asoslarga taallukli xozirgi vazifa — bu, xukumatning xorijiy investitsiyalar buyicha uzok muddatli barkaror pozitsiyalarini shakllantirish va uni potentsial xorijiy investorlarga etkazishdan iboratdir.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Uzbekiston Respublikasida xorijiy investorlarning faoliyat yuritishi kandy xukukiy me'yorlarga asoslanadi?
2. «Xorijiy investitsiyalar tugrisida» va «Xorijiy investorlar xukuklarining kafolatlari va ularni ximoya kilish chora-tadbirlari tugrisida»gi Uzbekiston Respublikasining konunlarining kabul kilinishidan kuzlangan asosiy maksad nima?
3. Xorijiy investorlar tomonidan mamlakatimiz iktisodiyotiga yunaltirilayotgan yirik xajmdagi investitsiyalar xususida uz fikrlaringizni tushuntirib bering.
4. Xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilayotgan kushma korxonalarining mamlakat iktisodiyotiga kandy ijobiy ta'siri bor?

## 8.6. XORIJIY INVESTITSIYALAR

Xorijiy investitsiyalarni mamlakatimiz iktisodiyotiga quyidagi *tashkiliy shakllarda* jalb kilinishi mumkin:

- 1) ulush kushib katnashish orkali kushma korxonalar tashkil kilish;
- 2) 100 foiz mol-mulki xorijliklarga tegishli bulgan xorijiy investitsiyali korxonalarni tashkil etish;
- 3) yirik xorijiy kompaniya va firmalarni, shu'ba korxonalarni va filiallarni tashkil etish;
- 4) xalkaro korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish;
- 5) kontsessiya va lizing shartnomalarini tuzish;
- 6) tenderlar e'lon kilish;
- 7) erkin iktisodiy xududlarni tashkil etish;
- 8) moliyaviy aktivlarni sotish va sotib olish.

Kushma korxonalar tashkil etish orkali xorijiy investitsiyalarni jalb kilish keng tarkalgan shakllardan biri xamkorlikda kushma korxonalarni tashkil etishdir. Uzbekiston Respublikasida **kushma korxonalar** deganda, nizom kapitalining kamida 30 foizi xorijiy investorga tegishli bulgan va xorijiy investor fakat yuridik shaxs bulgan, nizom kapitalining eng kam mikdori 150000 AKSh dollariga teng bulgan ekvivalent summani tashkil etgan korxonalarga aytiladi.

Kushma korxonalar chet el investitsiyalari bilan yangitdan tashkil etilishi yoki faoliyat yuritayotgan korxonaning aksiyalar tuplamining 30 foizdan kam bulmagan kismi sotilishi orkali tashkil etilishi mumkin.

Xorijiy korxonalarni tashkil etish orkali chet el investitsiyalarini jalb kilish bugungi kunda kengayib bormokda. Uzbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar iktisodiyotning turli soxalarida tashkil etilishi mumkin. Kishlok xujalik, mashinasozlik, kazilma boyliklarni kazib olish soxasida tashkil etilgan korxonalarga nisbatan keng solik imtiyozlari joriy kilingan. Yirik xorijiy kompaniya va korxonalar uz mol-mulklari bir kismini ajratib, shu'ba korxonalar ochishi mumkin. Bunday shu'ba korxonalariga xam, kushma korxonalarga kuyilgan talablar belgilangan.

Ikki yoki uchdan ortik davlat, yoki korxonalar, tashkilotlar uz kapitalini jamlagan xolda **xalkaro tashkilotlar** tashkil etishi mumkin. Bu tashkilotlarga nisbatan xam, kushma korxonalarga kuyilgan talablar kuyilgan.

**Kontsessiya shartnomalari** — bu tabiiy boyliklarni, ayrim foydali kazilmalarni kazib olish va uzlashtirish uchun tuzilgan shartnomalardir.

**Lizing shartnomasi** esa, chet el investitsiyalari ishtirokida asbob-uskunalarni, texnika-texnologiyalarni uzok muddatga ijaraga olish.

**Tenderlar** esa, tanlov asosida investorlarning investitsiya loyixalarini moliyalashtirishga jalb etilishidir.

**Erkin iktisodiy xudud** — bu ma'lum xududda chet el investitsiyalari erkin kirib kelishi va ularga nisbatan kator imtiyozlar belgilangan xududdir.

**Moliyaviy aktivlar** — bu kimmatli kogoslar bulib, u chet el kapitalini jalb etish, chet el kreditlarini olish va chet el kapitalini bank depozitlariga jalb etish uchun emissiya kilinadi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi kushma korxonalarni tashkil etish uchun, ular asosan, quyidagi uch talabga javob berishi shart:

- 1) xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar nizom jamgarmasining mikdori 150 ming AKSh dollaridan kam bulmasligi kerak. Bunday minimal kiymat sifatsiz maxsulotlarning oldi-sotdisi va ularni respublikaga import kilish ishlari bilan shugullanishga ixtisoslashgan kichik kushma korxonalarning keragidan ortikcha kirib kelishining oldini olish maksadida belgilangan;

- 2) korxonalar ta'sisxilaridan biri xorijiy shaxs bulishi;

- 3) korxonalar nizom fondida xorijiy investitsiyalarning ulushi 30 foizdan kam bulmasligi kerak.

Jaxon tajribasida esa, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni kaerda, kim bilan sheriklar ulushining kanchaligi va kanday maksadlarni kuzda tutib tashkil kilinishiga kura, guruxlarga ajratish mumkin. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni tavsiflovchi va turkumlovchi 4 ta asosiy shakl mavjud. Ular:

1. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonaning joylashgan joyi. Korxonada tashkil topayotganda sheriklarning xech bulmaganda bittasi chet mamlakat (davlat, tashkilot, firma) ning vakili bulishi kerak.

2. Sheriklar tuzilishi. Bunda, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining 3 asosiy shaklini kurishimiz mumkin:

a) fakat xususiy kapital ishtirokida (asosan, rivojlangan mamlakatlarda);

b) firmalar, korxonalar, tashkilotlar va davlat tashkilotlari bilan (asosan, rivojlanayotgan mamlakatlar);

v) milliy va xalkaro tashkilotlar bilan.

3. Sheriklarning chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonada nizomidagi ulushi. Bu erda uzining ijobiy va salbiy kurinishini ifodalovchi 3 ta variantni kurish mumkin:

1) paychilik asosida ulush kushib katnashish. Bunday shakldagi kushma korxonalar ishlab chikarish tarmogi rivojlangan mamlakatlarda tarakkiy etgan. Paychilik asosida tashkil kilingan kushma korxonaning nizom fondida sheriklarning ulushi asosan teng bulib, bu ularning xukukli sherikchiligini ta'minlaydi va bu iktisodiy nuktai nazardan kushma korxonada tuzishning ideal shaklidir.

Lekin, bunday korxonalarining salbiy tomonlari xam bor. Misol uchun, korxonada biron bir masalani xal kilish uchun uziga mas'uliyat oluvchi boshlikning yukligi (favkulotda vaziyatda «yulboshchi» ning yukligi);

2) korxonada xorijiy kapitalning kupligi. Bunday korxonalar xorijiy sheriklarning korxonada faoliyati ustidan nazoratini oshirishga karatilgan maksadlardan kelib chikadi. Maxalliy sherikning korxonada nizomiga kushadigan moliyaviy mablagi kam bulgan takdirde xorijiy investitsiyalarga extiyoj oshadi;

3) korxonada xorijiy investor ulushining kamligi. Bunday shakldagi korxonalar bir kator tadbirkorlar tomonidan yaxshi bulmagan shakldir, deb e'tirof etiladi. Chunki, korxonada faoliyati ustidan nazorat maxalliy sherik kuliga utib ketadi.

4. Faoliyat turi. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonada sheriklarining maksadiga kura:

a) ilmiy-tadkikot yunalishidan kelib chikib, ilmiy tadkikot, yangi maxsulotlar yaratish, «nou-xau» va boshkalar;

b) ishlab chikarish tusiga ega kushma korxonalar. Bu korxonalarda maxalliy ishchi kuchidan foydalanish, yangi texnologiya joriy kilish orkali maxsulot tannarxini pasaytirish va sifatini kutarish va boshkalar;

v) maxalliy bozorda arzon xom-ashyo va materiallarni sotib olib, chet mamlakat korxonalarida kayta ishlab chikarishga ixtisoslashgan korxonalar;

g) yangi maxalliy bozorni urganish (marketing)ga muljallangan kushma korxonalar;

d) kushma korxonalar majmui, ya'ni kushma korxonada joylashgan xudud (mamlakat) konunlariga zid bulmagan xar xil faoliyat bilan shugullanuvchi kushma korxonalar.

Xozirgi kunda mamlakatimiz iktisodiyoti uchun chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining eng ustuvor yunalishi — kiska muddatlarda uz samarasini beradigan maxsulot ishlab chikarishga ixtisoslashgan shakli xisoblanadi. Lekin, respublikada bunday korxonalar soni etarli emas. Shuning uchun, ular xozir uzining kutilgan samarasini bermayapti. 1999 yilda kushma korxonalarining soni 3,5 mingtaga etgan bulsada, lekin amalda bu korxonalarining atigi 52 foizi faoliyat kursatdi. Shundan bor-yugi 592 tasi yoki 31 foizi ishlab chikarish korxonalarini ekanligi yanada achinarli kayfiyat xosil kiladi.

Respublika iktisodiyotining ustuvor tarmoklariga kirib kelayotgan chet el investitsiyalari uchun, shuningdek, eksport maxsulotlari ishlab chikarishga ixtisoslashgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar uchun konvertirlash muammosini xal kilish uzining ijobiy samarasini berishi mumkin.

Yana bir muammo, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining aksariyati yirik shaxarlarda barpo etilganligi bilan boglikdir.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining xududlararo tugri taksimlanishi uchun kuyidagi kursatkichlarni taxlil etib, xar bir xudud uchun aloxida investitsiya siyosatini ishlab chikish uzining ijobiy natijalarini berishi mumkin.

1. Xududning iktisodiy rivojlanish darajasi taxlili. Xududning yalpi ichki maxsuloti, jon boshiga ishlab chikarilayotgan sanoat maxsulotlari xajmi, xududda urtacha ish xaki mikdori,

jon boshiga sarflanayotgan kapital, xududda joylashgan turli mulkchilik shaklidagi korxonalar soni kabi kursatkichlar taxlil etilishi lozim.

2. Xududning ekologik va turli shakldagi jinoyatchilik darajasi taxlili. Bunda xududda sodir etilayotgan iktisodiy jinoyatlarning soni, ekologik jixatdan, zararli chikindilar bilan tabiatni ifloslantirayotgan korxonalarining soni, shuningdek, tugatilmagan kurilish ob'ektlari umumiy kurilishdagi urnining taxlili urganilishi kerak;

3. Xududning geografik joylashishi, boshka mamlakatlar bilan kushnichiligi, kommunikatsiya, yullari va boshka kursatkichlarni puxta taxlil kilib chikish zarur.

Xozirda Uzbekiston Respublikasida 80dan ortik mamlakatdan kelgan investorlar xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarini tashkil etishda katnashmokda. Eng kup ana shunday korxonalar Rossiya Federatsiyasi (378), Turkiya (243), AKSh (186) va Pokiston (106) ishtirokida tuzilgan. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar ishlab chikarayotgan maxsulotlar xajmiga kelsak, uning deyarli 40 foizi Janubiy Koreya ulushiga tugri keladi, AKSh ishtirokidagi korxonalar ulushi 24 foizni, Buyuk Britaniya ishtirokidagi korxonalar ulushi 7 foizni, Turkiya ishtirokidagi korxonalar ulushi 6 foizni tashkil kiladi.

Uzbekiston juda katta iktisodiy imkoniyatlarga ega mamlakat deb tan olinishi natijasida, shuningdek, mamlakatda xorijiy investorlar ishtirokidagi korxonalar uchun imtiyozlar va ragbatlantirish choralari tizimi vujudga keltirilganligi tufayli, ularning respublika iktisodiyotidagi roli salmokli bulib koldi. Masalan, agar xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining YaIM xajmidagi ulushi 1994 yilda 2,6 foizni tashkil kilgan bulsa, 2000 yil yakunlariga kura, 18 foizni tashkil kildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar importining mamlakat umumiy importidagi ulushi shu davr ichida 8 baravar kupaydi va 2000 yilda 35,9 foizga etdi. Bu xol korxonalar faoliyatini kengaytirish uchun investitsiya tovarlari, xom-ashyo, butlovchi kismlar import kilish xajmi kattaligi bilan izoxlanadi. Korxonalar eksportining umumiy eksport xajmidagi ulushi yanada yukori sur'atlar bilan ortib borib, 1994 yildagi 0,6 foizdan 2000 yilda 9,8 foizga etdi, ya'ni 18 baravar usdi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar eksportining respublika eksporti umumiy xajmidagi salmogini butun dunyo uchun olingan (chet eldagi barcha filiallar eksportining jaxon eksportidagi ulushi) shunday kursatkich bilan takkoslash dikkatga sazovordir. Bu salmok xam tuxtovsiz ortib bordi va 2000 yilda 34,3 foizni tashkil etdi. Kurinib turibdiki, Uzbekistondagi bunday korxonalarining ulushi xozircha umumjaxon kursatkichidan taxminan 5 baravar kam. Birok, ushbu kursatkichning usish sur'atlari jaxon kursatkichlaridan ancha yukori: Uzbekiston uchun 2000 yilda tegishli kursatkich 1999 yil kursatkichidan 32 foiz yukori buldi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining utgan yilgi faoliyati ijobiy tamoyillariga karab, shuni kayd etish kerakki, ilgari e'tibordan chetda kolib kelgan tarmoklar, chunonchi, kishlok xujaligi, fan va ilmiy xizmat kursatish tarmoklarining usish sur'atlari ildamladi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish soxasida xamma vakt orkada kolib kelgan mamlakat mintakalarining rivojlanib borayotgan mintakalar katoriga utishi xamdikkatga sazovordir. Bu xol iktisodiy mintakalar buyicha bir tekis usib borishiga olib keladi.

Investitsiya faoliyati uchun shart-sharoitlarni yanada takomillashtirish maksadida xukumat rejalariga tashki iktisodiy faoliyat tizimini kaytadan kurib chikish va valyuta bozorini erkinlashtirish zarurligi kiritilgan. Bular, shubxasiz, mamlakatimizga xorijiy investitsiyalar kirib kelishiga yangi turtki beradi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar iktisodiyotning tarmok tuzilishini uzgartirishga kushayotgan xissasini (7-jadval)dan kurish mumkin.

Shundan xam ma'lumki, sanoat soxasidagi bunday korxonalar maxsulotining ulushi iktisodiyot uchun shunday kursatkichning urtacha kiymatidan ancha yukoridir. Navbatdagi jadval kursatib turganidek, sanoatning bunday kichik tarmoklarini rivojlantirishga xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar ayniksa kup xissa kushdilar.

## **8-jadval**

### **2000 yilda iktisodiyot soxalari buyicha xorijiy investitsiyalarning ishlab chikarish ulushi**



<b>Tarmoklar</b>	<b>Tarmokning jami maxsulot xajmida XIHK ulushi, foiz</b>
Iktisodiyot buyicha urtacha	15,4
Sanoat	67,4
Kishlok xujaligi	0,5
Kurilish	3,6
Transport va aloka	15,8
Savdo va umumiy ovkatlanish	8,1
Boshkalar	3,8

8-jadvaldan kurinib turibdiki, xorijiy investorlar mashinasozlikka, ozik-ovkat, kimyo va neft kimyosi, urmon, yogochsozlik va tsellyuloza-kogoz sanoatiga aniksa kup xissa kushdilar. Yokilgi, energetika va engil sanoat tarmoklari xorijiy investorlar tomonidan kam uzlashtirilgan tarmoklar deb xisoblash mumkin.

Xorijiy investitsiyalar fakat iktisodiy usishga (ishlab chikarish xajmlariga)gina emas, balki respublika iktisodiyotining tarkibiga xam katta ta'sir kursatmokda.

Tarmoklar buyicha dinamik uzgarishlar shuni kursatmokdaki, 2000 yilda fan va ilmiy xizmat kursatish, kishlok xujaligi, kimyo va neft kimyosi tarmoklariga karashli tekshirilayotgan korxonalar maxsuloti xajmi ayniksa baravar usgan. Shunisi muximki, kishlok xujalik tarmogida ishlab chikarish xajmlarining usish sur'atlari 2000 yilda 1999 yildagiga nisbatan 6,4 baravarni tashkil

**8-jadval**

**2000 yilda tarmoklar buyicha ishlab chikarishda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar ishlab chikarishining ulushi**

Tarmoklar	Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar ishlab chikarishining tarmok ishlab chikarishi xajmidagi ulushi, %
Sanoat	14,5
Yokilgi va energetika	0,5
Kora metallurgiya	0,1
Rangli metallurgiya	11,7
Kimyo va neft kimyosi	17,3
Mashinasozlik	59,8
Urmon, yogochni kayta ishlash va tsellyuloza-kogoz	19,4
Kurilish materiallari sanoati	13,6
Engil sanoat	7,6
Ozik-ovkat sanoati	26,9
Boshka sanoat tarmoklari	1,7

Buning tasdigi ularok, Osiyo tarakkiyot banki ishtirokida kishlok xujaligida kichik va urta biznesni rivojlantirishni kullab-kuvvatlashga karatilgan kredit liniyasi (50 mln. AKSh dollari) 1997 yildan uzlashtirila boshlandi va 2000 yilda davom ettirildi. Bundan tashkari, Amerikaning «UzKeysmash» kompaniyasi bilan birga «Keys-2022» va boshka kishlok xujalik texnikasini 13 mln. AKSh dollari miqdorida ishlab chikarish buyicha, turkiyalik investorlar bilan 13,2 mln. AKSh dollari xajmidagi gusht va sut ishlab chikarish majmuini yaratish buyicha bir kator investitsiya loyixalari amalga oshirila boshlandi; isroillik investorlar bilan birga gusht etishtirish uchun 6,8 mln. AKSh dollari xajmidagi parrandachilik xujaliklarini yangilash boshlandi va xokazo.

Kishlok xujaligidagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar ishlab chikarish xajmlari ancha yukori sur'atlar bilan usib borayotganligiga karamay, xali mavjud imkoniyatlarning barchasi ishga solingan emas. Ushbu korxonalarining kishlok xujaligi maxsuloti umumiy xajmidagi ulushi pastligi (0,5 foiz) shundan dalolat berib turibdi. Uzbekiston kishlok xujalik xom-ashyosi etkazib beruvchi yirik davlatdir. Paxta, pilla, korakulteri va boshkalar eksportning an'anaviy moddalarini tashkil etadi. U xorijiy investorlarni ushbu sektorga jalb etish uchun juda katta resurs imkoniyatlariga ega.

Uzbekiston iktisodiyotining tarmok tuzilishini rivojlantirishga xorijiy investitsiyalar kushayotgan xissa ularning soxalar buyicha taksimlanishidan kurinib turibdi. Masalan, 1999 yil boshidagi xorijiy investitsiyalarning 90 foizdan kuprogi neft kimyosi tarmogiga, telekommunikatsiyalarga, transportga, kurilishga, mashinasozlikka va foydali kazilmalar kazib chikarishga yunaltirildi.

2002 yilda kimyo tarmogiga (2000 yildagiga karaganda deyarli 7 baravar) transportga (2,8 baravar), kishlok xujaligiga (deyarli 12 baravar), kichik va urta korxonalar sektoriga (17 baravar), infratuzilma va ekologiya sektoriga (7 baravardan kuprok), mashinasozlikka (2,3 baravar) xorijiy investitsiyalarning ancha oshishi taxmin kilingan. Umuman olganda, xorijiy investitsiyalarning kupayishi 2002 yilda taxminan 70 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan.

30 dan ortik mamlakat investorlari davlat investitsiya dasturida ishtirok etmokda. 2002 yil davlat investitsiya dasturida amalga oshirilayotgan investitsiya loyixalari kiymatining 55 foizi va 2001 yilning uzida uzlashtirilgan xorijiy investitsiyalarning 65 foizi dunyodagi 3 ta etakchi davlat (AKSh, Yaponiya va Germaniya) xissasiga tugri keladi. Birok, ularning ulushi 2002 yilda birmuncha pasayib, 57 foizga tushdi. Shu bilan birga, Uzbekistonga investitsiyani kupaytirishni rejalashtirayotgan asosiy mamlakatlar Germaniya (1,9 baravar), Janubiy Koreya (3,6 baravar), shuningdek, AKSh, Frantsiya, Turkiya, Chexiya, Italiya, turli xalkaro moliya institutlari va boshkalaridir.

Xorijiy investorlarning Uzbekiston iktisodiyotidagi ishtirok etishlari kengayib borgan sari, iktisodiy jixatdan etakchi mamlakatlar buyicha ta'sirning ob'ektiv taksimlanishi anik bulib bormokda. Ayni vaktida, Uzbekiston investitsiya buyicha sheriklar doirasini kengaytira borib va ularni mamlakat iktisodiyotini tarkiban uzgartirishga, korxonalar xamda ishlab chikarishlarni texnika bilan kayta kurollantirish va yangilashga jalb etib, kup soxalarda yutuklarga erishmokda.

## UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR

1. Xorijiy investitsiyalarning kandy shakllari mavjud?
2. Xalkaro tashkilotlar kim tomonidan tashkil etilishi mumkin?
3. Kandy shartnomalar kontsessiya shartnomalari deyiladi?
4. Erkin iktisodiy xududning kandy ijobiy tomoni bor?
5. Moliyaviy aktivlar nima?
6. Uzbekiston Respublikasida xorijiy sherik bilan kushma korxonatashkil etishning kandy shartlari mavjud?
7. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining xududlararo tugri taksimlanishi deganda nima tushuniladi?
8. Uzbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb kilish buyicha xukumat tomonidan kandy chora-tadbirlar amalga oshirilmokda?

### XALKARO DARAJADAGI PORAXURLIK

Davlat amaldorlariga korxonani rakobatdan ximoyalash, turli xil xizmatlardan foydalanish uchun xamda xavfsizlikni ta'minlash maksadida yashirin tarzda tulovlar berish keng tus olgan va bu ma'lum ma'noda poraxurlikning xalkaro darajada namoyon bulish shaklidir.

**Tarkalish kengligi.** TMKlarni ta'siri xususida suz borganda, xammaning yodiga utgan asrning 70-yillarida matbuotda aks ettirilgan, davlat amaldorlariga tulovlar berish vokeasi tushadi. AKShda kimmatbaxo kogoziar buyicha Komissiya tomonidan amalga oshirilgan tekshiruvlar, davlat amaldorlariga beriladigan pora bir-necha million dollarni tashkil etishi aniklagan.

Tankidlar asosan, TMKlarga (ayniksa, AKSh) yunaltirilgan bulib, xakikatda, pora berish amaliyoti fakatgina TMKlar bilan chegaralanmagan. Izlanishlar shuni kursatdiki, porani xalkaro darajada sanoati rivojlangan davlatlarning amaldorlari xam, rivojlanayotgan mamlakatlarniki xam, xorijliklar xam, kommunistlar xam, antikommunistlar xam oladi.

Poraxurlik juda kuplab mamlakatlarda keng tarkalgan, xalkaro firmalarga esa, u bilan tez-tez tuknashishga tugri keladi.

**Motivlari.** Poralar xajmi buyicha biznesni boshlash (aks xolda uni boshlashga ruxsat berilmasligi mumkin) uchun yoki kelajakda yuzaga kelishi mumkin bulgan potentsial rakobatchilarni yukotish maksadlari uchun eng kup beriladi. Shu jixatdan, davlat shartnomalarini kulga kiritish uchun, ayniksa, aviatsiya-kosmik sanoatiga kuprok pul tulunadi.

Ikkinchi urinda, davlat xizmatlaridan foydalanish uchun, ya'ni firmalarga konuniy ruxsat etilgan, ammo amaldorlar tomonidan vakti chuziladigan ishlarni bitkazish uchun beriladigan pullar turadi. Bunday xizmatlarga maxsulotlarni ruyxatdan utkazish, kurilish ishlari uchun ruxsat olish, import tovarlarni bojxonada rasmiylashtirish kabilar kiradi.

Xalkaro amaliyot shuni kursatadiki, ba'zi firmalar solik tulovlari buyicha karzlarini kamaytirish uchun pora bergan. Masalan, "Djeneral Tayr" (General Tire) Marokkoga rakobatchilarni kiritmaslik uchun pul tulagan. Rezinotexnik maxsulotlar ishlab chikaruvchi kompaniyalar guruxi, Meksikada rezinotexnik maxsulotlar ishlab chikaruvchi palata orkali ma'lum summani utkazib, xukumatdan ushbu maxsulot buyicha tartibga solinadigan narxlarni oshirishga erishganligi ma'lum bulgan.

Ayrim firmalar majbur bulganlaridan pora berganligini ta'kidlashgan, bulardan, "Mobil" (Mobil) Italiyadagi neftni kayta ishlovchi zavodning faoliyatini tuxtatish jarayonini tezlashtirish uchun "Boys Keskeyd" (Boise Cascade) "AyBiEm", "Jilett" uz xodimlari xavfsizligini ta'minlash uchun pora bergan. Ba'zi poralar siyosiy partiyalar uchun muljallangan bulib, ayrim davlatlarda bunga ruxsat berilgan. Ammo bunday xarakatlar mamlakatimizda nokonuniy xisoblanadi.

**Usullari.** Odatda bunday barcha tulovlarga nakd pulda amalga oshirilgan, ba'zi xollarda firmalar uz maxsuloti bilan pora berishgan.

Firmalar tomonidan xalkaro darajada pora berish, ba'zan, tugridan-tugri davlat amaldorlariga, kupchilik xolatlarda bunday maksadlar uchun uchinchi mamlakatda joylashgan tashkilotlarga pul utkazish usulidan foydalanishadi. Turli xil usullar kullaniladi. Masalan, xarid xakidagi karor kabul kilishga ta'sir eta oladigan odam yoki uning karindoshi vakti-vakti bilan firma tulov ruyxatida konsultant (maslaxatchi) sifatida aks ettiriladi. Boshka xollarda, vositachi sifatida faoliyat yuritgan odamlarga, odatdagi komission tulovlardan ancha yukori summa tulanadi. Keng tarkalغان usullardan yana biri — vositachiga yoki davlat tashkiloti ortikcha pul tulash va ushbu summani, solikka tortish va xorijiy valyutani ishlatish buyicha nazoratdan kochish uchun, boshka mamlakatdagi shaxsga berishdir. "Pulman" (Pullman) firmasi xattoki, davlat amaldorlariga pora berish uchun uz auditorlaridan xam foydalanganligi ma'lum.

**Ayrim okibatlari.** Poraxurlik buyicha mojarolar Gandurasda, Yaponiyada, Italiyada davlat raxbarlari almashinuviga sabab bulgan.

Gollandiya shaxzodasi Berixard 1,1 mln. doll. mikdorda pora olganlikda ayblangandan sung, uzining barcha jamoat ishlarini bajarish funksiyasidan voz kechgan. Kupgina mamlakatlarda, masalan, Venesuela, Eron, Pokistonda davlat amaldorlarini pora olganliklari uchun kamokka olingan xolatlar mavjud. "Lokxid" (Lockheed) firmasi dunyoning kupgina mamlakatlarida mojarolarga aralashib kolganligi uchun, Shri-Lankada uning samolyotlariga buyurtma bekor kilingan.

Kupgina kuzatuvchilarning fikricha, ushbu mojarolar siyosiy partiyalar xarbiy xarajatlarni kiskartirish buyicha uz maksadiga erishishlariga ta'sir etgan.

**Konuniy ta'kiklar.** 1977 yilda AKShda xorijiy amaldorlarga pora berishni ta'kiklovchi konun kabulkilindi.

Mazkur konunning nomutanosibli shundaki, kompaniyalarni bir vaktning uzida ikkita mustakil tashkilot jazolashi mumkin: Adliya vazirligi, kimmatbaxo kogoqlar va birja buyicha Komissiya. Konunning yana bir kamchiligi — konunga muvofik ravishda biznesga kumaklashuvchiga pora berish mumkin, ammo konunni buzuvchilarga pora berish mumkin emas. Masalan, konuniy yul bilan olib kirilayotgan tovarlarni bojxonada rasmiylashtirish uchun 10 ming dollar pora berish konuniy, ammo bojxona xodimini konundan ozgina chetlab ish kurishiga ta'sir etuvchi davlat vaziriga, xattoki, oz mikdorda pora berish nokonuniy xisoblanadi. Bunday "Ekspeditorlik" poralarini berishga ruxsat, kupchilik mamlakatlarga olib kelinayotgan import tovarlarni konunga mosligini juda uzok muddat tekshirish amaliyotini (aynan pora olish maksadida) mavjudligidan kelib chikkan.

Poraxurlikka karshi noroziliklar juda kat'iydir. Moxiyatan, AKShning boshka mamlakatlarga kursatadigan davlat yordamining ikkinchi tomoni xam bor.

Odatda, bunday mamlakatlarda AKSh firmalarini faoliyat yuritishiga ma'lum imtiyozlar evaziga erishiladi. Bir paytning uzida bunday yordam olayotgan mamlakatlarni, yordamni kabul kiluvchi mamlakat amaldorlarini ushbu mablaglardan uz maksadlari uchun foydalanganligi uchun ayblab bulmaydi.

Korrupsiya ustidan nazoratni amalga oshiruvchi xalkaro tashkilot tomonidan tayyorlangan «Poraxurlik indeksi — 2002» xisobotida kursatilishicha, manfaatli shartnoma imzolash uchun pora taklif kiluvchi kompaniyalarga Rossiyadan keyin, Janubiy Koreya, Italiya, AKSh, Yaponiya kompaniyalari turishadi.

Avstraliya, Avstriya, Kanada va Shvetsiya kompaniyalari biznesni uta ochik va xalol faoliyat yurituvchi sheriklar xisoblanadilar.

## **IX BOB. XALQARO KREDIT VA XORIJIY INVESTITSIYALAR**

### **9.1. XALKARO LIZINGNING IKTISODIY MOXIYATI VA LIZING OPERATSIIYLARI KELIB CHIKISHINING TARIXIY SABABLARI**

Xozirgi kunda lizing bilan boglik barcha iktisodiy xukukiy munosabatlarni xujalik alokalarining yangi boskichiga kiritish an'anaga aylandi. Xakikatda esa, bunday karash tugri emas. Tarixiy xujjatlarning guvoxlik berishicha, ijara (lizing) kadim davrlardan ma'lum bulgan. Shu boisdan bulsa kerak, Garbda biror-bir kadimiy narsa xakida gapirishganda, kupincha «lizing kabi kadimiydir» degan gapni eslashadi.

Lizing suzi iktisodiyot uchun yangilik emas, biroq kadimda lizing (lease) suzi amaliyotda foydalanilmagan. Lizingning mazmuni va moxiyatini ochish — Aristotel davrlariga borib takaladi (taxminan eramizdan avvalgi 384-383-382 yillarni uz ichiga olgan davrlar). Aristotel shunday degan: «Boylik egalik kilishda emas, balki undan samarali foydalanishdadir». Xozirgi zamon tili bilan aytganda, kishining daromad olishi uchun kandaydir bir mulkka albatta egalik kilishi shart emas, balki undan foydalanishi xukukiga ega bulishi va natijada foyda olishning uzi kifoya kiladi.

Tarixning guvoxlik berishicha, kadimda, lizing biror-bir anik mulkni ijaraga berish bilan chegaralanmagan. Va bu davrda, nafakat kishlok xujaligi texnologiyasi va xunarmandchilik asbob-uskunalari, balki xarbiy aslaxalar, kurol-yaroklar xam ijaraga berilgan. Ma'lumotlarning guvoxlik berishicha, lizing bitimi amaliyotda kullanilganligini tasdiklovchi birinchi xujjat 1066 yilga borib takaladi. Bunda, kirol Vilgelm normandlarning kema egalaridan, kemalarni Britaniya orollarini ishgol kilish uchun ijaraga olganligi kayd etilgan. Ikki xaftalik vakt ichida ikki yirik flot (biri norveglar, ikkinchisi normandlar) Angliya kirolligini ishgol kilish uchun etib bordilar. Usha vaktlarda xar ikkala flot juda xaybatli edi. Birok, na norveglarning kirol va na normandlarning gertsogi bunday tadbirni moliyalashtirishga iktisodiy imkoniyati bulmagan. Shuning uchun, zarur bulgan kemalarni va kurol-aslaxalarni olish uchun ijaraning maxsus shakli – ya'ni, «lizing» dan foydalanilgan.

Venetsiyada xam XI asrda lizing operatsiyalariga uxshash bitimlar mavjud bulgan: venetsiyaliklar kema egalariga va sotuvchilarga usha vaktlar juda kimmat xisoblangan kema yakorlarini ijaraga berganlar. Suzish tugagandan sung, "pulat kimmatliklar" egalariga kaytarilgan va yana ijaraga berilgan. XIX asrning boshlarida Buyuk Britaniyada sanoatning rivojlanishi, asbob-uskunalarning turli xillari kupayishi okibatida, lizingga topshiriladigan tovarlar sonining usishi yuz berdi. Bunda temir yul transporti va kumir sanoatining rivojlanishi asosiy urinni egalladi. Kumir konlari egalari uz ishlarini boshlanishida kumirni tashish uchun vagonlar sotib oldilar, biroq, tezlikda buning foydasizligini, va xatto, bunday moliyalashtirishning iloji yukligi ma'lum buldi. Kumirni kazib chikarish xajmining usishi, yangi shaxtalarning ochila boshlanishi juda kuplab vagonlarni talab etardi. Kichik korxonalar bunday kulay sharoitdan foydalanib, maksad kilib kapitalarini shu kabi tarmoklarga xizmat kursatadigan tarmoklarga kuyishdi. Ular kumir tashish uchun vagonlarni sotib olib, uni temir yul kompaniyalariga ijaraga—lizingga berardilar. Shunday kilib, yagona maksadi va faoliyati fakatgina temir yul va vagonlarni lizingga beradigan kompaniyalar yuzaga keldi. Bitimni tuzish vaktida lizingdan foydalanuvchiga, lizingning muddati tugaganidan sung, unga mulkni sotib olish xukukini berishni kuzda tutardi. Buning asosiy sabablaridan biri bulib, foydalanuvchilarning vagonlarni ishlatishda extiyotkorlik va tugri foydalanishga undash edi, chunki, ular keyinchalik shu vagonlarni sotib olishlari mumkin edi. Bunday bitimlar ijara sotuv bitimi nomini oldi. Ingliz tilida «hine-purchase» iborasi tarjima kilinganda «ijara-xarid» ma'nosini anglatadi. Birok, birinchi termin kengrok tarkalgandir. Lizing va ijara sotuvi rivojlanishidagi keyingi boskichlarda lizing bitimlaridan va ijara sotuvlaridan cheklovlarni olib tashlash zaruriyati tugildi. Shu bilan birga, nafakat Evropada, balki AKShda xam turli xildagi texnika va asbob-uskunalar ijarasini moliyalashtirishga talab kuchli edi. Xususiy mulkchilikka tegishli birinchi kayd kilingan ijara bitimi XVIII asr boshida Amerikaning Shimoliy birlashgan shtatlarida kayd kilingan. Bunda ijaraga otlar xamda aravalar berilgan. Buyuk Britaniyada

lizing operatsiyalarining faollashuvi, ushbu davlatda temir yul transportlari rivojlanishi bilan boglikdir. Bunda, investorlar yunaltilgan mablaglar daromadlilikini temir yul va vagonlarini sotib olishni moliyalashtirish orkali ta'minlaganlar. Asbob-uskunalarini boshkarishni trastlar amalga oshirganlar, ularning orkasida esa, banklar yoki ularni tashkil etgan yirik kushma trastlar turgan. Trastlarning sertifikatlari investorlarga sotilgan va investitsiyaning xajmiga karab ma'lum miqdorda fond olish xukuki berilgan.

Xozirgi zamon lizing munosabatlariga uxshab trast boshkaruvchisi, asbob-uskuna tayyorlovchiga tulov tulab, sungra, shu asbob-uskunadan bitim asosida foydalanuvchidan ijara tulovini yigib olar edi. Ijara tulovi uzining xajmi buyicha barcha majburiyatlarni koplagan.

XX asr boshlarida junatiladigan tovarlar xajmining ortishi bilan, kuppina temir yul lizing kompaniyalari vagonlardan foydalanishda monopollik kilish yoki uzok muddatli boshkarishdan kura, asbob-uskunalarini ishonchli foydalanishga berilishni afzal bildilar. Bu mazkur vositalardan, fakatgina kiska muddatda foydalanish talab kilinishiga olib keldi. Trastlar kiska muddatli bitimlar tuzishga xarakat kilishardilar. Bitimning muddati tugaganidan sung, vagonlar ijara beruvchiga kaytarilar, uz navbatida, u mulkiga egalikni uz kulida saklab kolar edi. Bunday ijara tulovlari, xakikiy yoki operatsion lizing yuzaga kelishiga sharoit yaratdi. Xalkaro statistikaning guvoxlik berishicha, xozirda bunday bitimlar lizing bitimlarining asosiy kismini tashkil kiladi.

Avstriyalik iktisodchi V. Xoyer uzining «Evropada kandy kilib biznes kilish mumkin», deb nomlangan kitobida keltirishicha, lizing suzini birinchi ommaviy tarzda ishlatilishi 1877 yillarga borib takaladi. «Bell» nomli telefon kompaniyasi uzining telefon apparatlarini sotish urniga ularni ijara berishni lozim topgan. Ya'ni, ushbu korxonada asbob-uskunani fakatgina ijara tulovi asosida mijozning uyi yoki ish joyiga urnatishni joiz topdi. Ikkinchi jaxon urushi davrida, AKSh xukumati rasmiy rentabellik shartnomalaridan faol sur'atlarda foydalandi. Bu ijara biznesi rivojlanishi uchun, ragbatni ta'minlashga yana bir turtki buldi.

Shu davrda, transport vositalari bilan boglik biznesda lizing operatsiyalari xajmining oshishi yuz berdi. Avtomobillarni lizingga berish — 1918 yilga borib, keng tarkaldi. Undan sung, utgan asrning 30-yillarida Genriy Ford avtomobillar sotish samaradorligini oshirish uchun ijardan foydalandi. Birok, avtomobil lizingi biznesining konuniy tus olishiga Zolli Frenkning xizmatlari katta. U utgan asrning 40-yillari boshida avtomobillarni uzok muddatga ijara berishni birinchi bulib taklif etgan, Chikagolik savdo agentidir.

Xozirgi davrda, transport lizingidan tushayotgan yalpi daromadlar yiliga 50 mlrd. AKSh dollaridan oshib ketmokda.

Ijara sanoat vositalari yoppasiga berila boshlanishi bilan, ijara munosabatlarida xakikiy inkilob yuz berdi. Xususan, texnologik asbob-uskunalar, mashinalar, mexanizmlar, kemalar, samolyotlarni ijara berish keng rivojlandi. AKSh xukumati bu yutukni tugri kabul kilib, lizing mexanizmlarini tezlikda kayta ishlab chikdi va uni ragbatlantirish uchun davlat dasturini kabul kildi.

1952 yilda San-Frantsiskoda tuzilgan «United States Leasing Corporetion» — lizing operatsiyalari asosiy faoliyat turi bulib xisoblangan birinchi xissadorlik jamiyatidir. Bu kompaniyaga Genri Shonfeld asos solgan. Avvaliga u kompaniyani fakatgina bitta maxsus lizing bitimi uchun tuzdi. Ammo, Genri Shonfeld lizing bitimini juda istikbolli ekanligiga tushunib etdi va natijada «United States Leasing Corporetion» vujudga keldi. Lizing operatsiyalari juda kiska vakt ichida AKSh chegarasidan chikib, lizing biznesini rivojlantirishning asosiy tushunchasi xisoblanmish «xalkaro lizing operatsiyalari» yuzaga keldi. Sungra, bunday lizing kompaniyalari boshka mamlakatlarda uzlarining bulimlarini ocha boshladilar.

Jaxonda xalkaro lizing operatsiyalari keng kulamda rivojlangan bulsada, mamlakatimizda uning rivojlanishi mustakillikdan sung keng tus oldi. Xozirgi kunda Uzbekiston Respublikasi moliya bozorida xorijiy kapital ishtirokida bir necha yirik kushma lizing kompaniyalari faoliyat yuritmokda.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Lizing kachon paydo bulgan?
2. Lizing munosabatlari kelib chikishiga zarurat nimadan iborat edi?
3. Utgan asrning boshlarida nima uchun aynan transport vositalari bilan boglik lizing munosabatlari rivojlandi?
4. Birinchi kaysi xissadorlik jamiyatining asosiy faoliyat turi lizing operatsiyalari bulib xisoblangan?



## **9.2. XALKARO LIZING OPERATSIYALARINING XALKARO MOLIYA MUNOSABATLARIDA TUTGAN URNI**

Xujalik alokalari baynalmilallashuvi muxitida xalkaro lizing yangi kurinishlarga ega bulmokda va undan foydalanish xajmi xamda tarmoklari kupayib bormokda.

Utgan asrning 60-70-yillarida Amerika, Garbiy Evropa va Yaponiya mamlakatlari banklari ishtirokida «Orion Lizing Xolding» xalkaro miqyosdagi lizing kompaniyalari vujudga keldi. Bunday lizing kompaniyalari, odatda, lizing oluvchi firmalarga kema, samolyot, asbob-uskunalar va shu kabilarni 3 yildan to, 10-15 yilgacha bulgan muddatda mulkchilik xukukisiz ijaraga beradi.

Xalkaro amaliyotda, asbob-uskunalarini ijaraga berish kuyidagi turlarga bulinadi:

1. Kiska va urta muddatli (renting) — 3 yilgacha. Bunda, andoza asbob-uskunalar, ya'ni avtomobillar, traktorlar, temir yul vagonlari va shu kabilar lizingga beriladi;

2. Urta va uzok muddatli (lizing)da sanoat texnologiyasi bilan boglik asbob - uskunalar ijaraga beriladi.

**Lizingning yukoridagi ikki turi urtasidagi fark kuyidagilarda nomoyon buladi:**

- rentingda shartnomadagi ob'ekt davomli kelishuvlar buyicha ishlatilishi;
- uzok muddatli ijarada esa, ijaraga berilayotgan asbob - uskuna shartnomada belgilangan me'yoriy muddatgacha uzluksiz ishlatilishi mumkindir.

**Xalkaro lizing operatsiyalari bilan ijara orasidagi fark kuydagilarda namoyon buladi:**

- bitim ob'ekti, asbob-uskunani uz xisobiga sotib olgan lizing beruvchi emas, balki lizing oluvchi tomonidan tanlanadi;
- shartnoma muddati tugashida, mijoz imtiyozli stavkada mulkni ijaraga berishni yoki bulmasa ijaraga berilayotgan mulkni koldik qiymati buyicha sotib olishi mumkin;
- lizing muddati asbob-uskuna eskirishi muddatidan kam buladi va odatda amortizatsiya muddatigacha uzaytiriladi;
- lizing beruvchi bulib odatda moliya muassasasi — lizing kompaniyasi katnashadi.

Shuningdek, ijara tulovlari xar oyda, xar chorakda yoki bulmasa yarim yil uchun amalga oshiriladi. Ijara tulovi stavkalari, ijaraga olinayotgan asbob-uskunalar qiymati va xarakteridan kelib chikadi. Bu tulov, oxir-okibatda, ijaraga berilayotgan asbob-uskunani tijorat narxidan oshishi lozim buladi.

Xozir zamonaviy lizing xizmatlari bozorida tuzilayotgan shartnomalarni keng tarkalishi — lizing shakllarining kupligi, uning kursatkichlari tez sur'atlarda usishi bilan izoxlanadi. Jaxon bozorida lizing xizmatlarini asosiy kismi uch markazda joylashgandir. Bular:

1. AKSh;
2. Garbiy Evropa;
3. Yaponiya.

Xalkaro tajriba shuni kursatadiki, lizing operatsiyalari bilan tijorat banklari emas, balki ixtisoslashgan kompaniyalar shugullanadilar.

Mamlakatda lizing xizmatlarini rivojlantirish, iktisodiyotdagi ishlab chikarish tarmoklarini ragbatlantirish va shu orkali ishlab chikarishni rivojlantirishga kuchli turtki buladi. Bundan tashkari, xalkaro lizing xalkaro kreditni bir shakli sifatida banklar va lizing kompaniyalari urtasida rakobat kuchayishiga turtki buladi. Bu uz navbatida, ssuda foizlari tushishiga, va natijada, kapitallarni ishlab chikarish soxalariga okib kirishi uchun kulay zamin yaratadi. Lizingning eng asosiy yutugi — bu kredit doirasida kursatiladigan xizmatlar kengligi bilan tavsiflanadi.

Xalkaro lizing operatsiyalarining jaxon iktisodiyotida tutgan urni va axamiyati bekiyosdir. Yirik xalkaro lizing tashkilotlari xalkaro lizing buyicha keng kulamda xizmatlar taklif kiladilar. Jaxonda eng yirik xalkaro lizing tashkilotlaridan «Ebikliz»ni va Milliy lizing

assotsiatsiyalarining Evropa federatsiyasi – «Lizyurop»ni aloxida ajratib kursatish mumkin. «Ebikliz» tashkiloti Gollandiya, Italiya, Germaniya, Avstriya, Buyuk Britaniya, Belgiya va Frantsiya davlatlaridagi lizing kompaniyalarini uzida mujassamlashtirgan. Bu tashkilot, kupchilik xollarda, xalkaro lizing bitimlarini amalga oshirishda vositachi vazifasini bajaradi. «Lizyurop» 1979 yilda tashkil etilgan bulib, xozirgi kunda 17 ta mamlakatning 700 ta lizing kompaniyasini birlashtiradi. Uning tarkibiga Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Bolgariya, Shveysariya, Germaniya, Daniya, Ispaniya, Frantsiya, Italiya, Irlandiya, Lyuksemburg, Norvegiya, Portugaliya, Shvetsiya, Gollandiya, Finlandiya davlatlarining lizing kompaniyalari kiradi.

Xozirgi kunda, amalga oshiriladigan xalkaro lizing operatsiyalarining teng yarmi AKSh xissasiga tugri keladi. AKShda lizing yuksak sur'atlarda rivojlanishining muxim sabablaridan biri — investitsiyaviy solik imtiyozining mavjudligidir.

Mazkur xalkaro lizing tashkilotlari iktisodiyotda bir-kancha vazifalarni amalga oshiradilar. Ularning asosiylari:

- barcha xukukiy, solik bilan boglik moliyaviy masalalarni xal etish;
- ushbu tashkilotlarga a'zo mamlakatlarning konunchiliklarini urganish va takkoslash;
- lizing firmalarini tashkil etish bilan boglik bulgan masalalarni urganish;
- lizing bitimlarining shartlari tugrisidagi statistik ma'lumotlarni yigish.

Xalkaro lizing milliy iktisodiyotni rivojlantirishda muxim axamiyat kasb etadi. Bunga sabab, rivojlanayotgan davlatlarda ishlab chikarishni rivojlantirish va shu orkali mamlakatga valyuta tushimini oshirishda ishlab chikarish uchun zarur bulgan asbob-uskunalar xamda yangi texnologiyalarga extiyoj seziladi. Ayniksa, oltin-valyuta zaxiralari cheklangan mamlakatlarga xalkaro lizing juda kul keladi. Chunki, asbob-uskunani sotib olishda, lizing oluvchi mamlakat, ishlab chikariladigan maxsulotning eksportbopligini isbotlagan xolda, va valyuta tushumi xakkoniyligini ta'riflab, xalkaro lizing munosabatlarida ishtirok etadi. Aynan, xalkaro lizingning axamiyati shu erda kuzga tashlanadi.

Bozor iktisodiyotiga utishda, Uzbekistonning xalkaro lizing kompaniyalari bilan asosli bitimlar tuzishi va shu orkali sanoatni, ishlab chikarishni rivojlantirish imkoniyatlari kengaymokda. Bu sanoat va ishlab chikarishning samarali va yukori darajada rivojlanishiga, pirovardida iktisodiy usishga olib keladi.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. «Orion Lizing Xolding» deb nomlanadigan xalkaro miqyosdagi lizing kompaniyasi kim tomonidan tashkil etilgan?
2. Xalkaro amaliyotda, asbob-uskunalarni ijaraga berishning kandy turlari mavjud?
3. Nima sababdan, zamonaviy lizing xizmatlari bozorida tuzilayotgan shartnomalar keng tarkalmokda?
4. Xalkaro lizing operatsiyalari jaxon iktisodiyotida kandy axamiyatga ega?
5. «Lizyuop» kachon tashkil etilgan va uning tarkibiga kaysi mamlakatlarning lizing kompaniyalari kiradi?

### **9.3. XALKARO LIZING OPERATSIYALARINI AMALGA OSHIRISHNING XUKUKIY ASOSLARI**

Xalkaro lizing bozorining shakllanishi, unga yangi tarmok va soxalarning kushilishi, shuningdek, xalkaro lizing munosabatlarida katnashayotgan mamlakatlarning sonini ortishi, jumladan, sobik Ittifok va boshka sotsialistik tizim davlatlarining kushilishi munosabati bilan mazkur davlatlarning tashki iktisodiy faoliyatlaridagi ishtirokini muvofiklashtirishda, lizing operatsiyalarini tartibga solish muammosini xukukiy jixatdan xal etish vazifasi turibdi. Mamlakat iktisodiyotini tiklashda xalkaro lizingning urni va axamiyatini oshirish bilan birga, lizing biznesini milliy darajada xam nazariy, xam amaliy jixatdan boyitish zarurati yuzaga chikmokda.

1998 yilning may oyida Kanadaning Ottava shaxrida «Xalkaro moliyaviy lizing tugrisidagi Konventsia» kabul kilindi. Konventsiyadan kuzlangan asosiy maksad – moliyaviy lizing buyicha asosiy terminologiyani aniklash va umumlashtirish xamda lizing bitimida ishtirok etadigan xamma tomonlarning uzaro munosabatlari xukukiy jixatdan tartibga solishdan iborat edi. Ushbu maksaddan kelib chikib, Konventsianing asosiy kismi – lizing munosabatlarini turkumlanishi va tavsifining asosiy jixatlari yoritib berildi.

Konventsiyada lizing buyicha kuyidagi tamoyillar aks etgan:

- kelajakda lizing oluvchi, uziga asbob-uskunani etkazib beruvchini mustakil ravishda tanlaydi;
- lizing kompaniyasidan asbob-uskunani sotib olish, ya'ni lizing ob'ektini oldi-sotdisi amalga oshirilishida asbob-uskunani etkazib beruvchi tomonga, uskunani keyinchalik ijaraga berish uchun olinayotganligi maksadida ekanligi bildiriladi;
- lizing buyicha tulovlarning xisob-kitobi — amortizatsiyaning kabul kilingan shartlari asosida amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, yukorida kayd kilingan Konventsia uch tomon ishtirok etishini kuzda tutuvchi, klassik lizingdan kelib chikib, bitimlarni aniklaydi va tartibga soladi. Mazkur Konventsia «kaytariladigan lizing», deb nom olgan ikki tomonlama urnatilgan lizing bitimlarini uz ichiga olmaydi. Shuningdek, shaxsiy extiyojlarni kondirishga karatilgan lizing xam mazkur Konventsia tomonidan tartibga solinmaydi.

Konventsianing markaziy urni – lizing beruvchi, lizing oluvchi va asbob-uskunalarni etkazib beruvchilarning mulkiy javobgarliklarining xissasiga karatilgan. Lizing oluvchining mulkiy xukuklarining ximoyasi, uni vaktincha foydalanishga olingan mulkning egasi ekanligidan kelib chikiladi.

Kabul kilingan Konventsiyada lizing beruvchining lizing oluvchi oldidagi javobgarlik xissasi lizing beruvchi tomondan lizing oluvchiga asbob-uskunani etkazib beruvchining tanlashda aralashishi yoki lizing ob'ektining aloxida ixtisoslashuvi bilan chegaralangan. Konventsianing shu kismi bilan, bir kator davlatlarning xukukiy amaliyotlari mos kelmaydi. Mazkur karama-karshilikni bartaraf etish maksadida Konventsia — javobgarlik masalalarini milliy xususiyatlardan kelib chikib, muvofiklashtirishga ruxsat beradi.

Lizing oluvchi olingan mulkka egalik xukukini ta'minlab turishi uchun, u mazkur asbob-uskunadan bitimda kursatilgan maksadlardagina foydalanishi va uning ma'naviy xamda jismoniy eskirishlarini xisobga olgan xolda bitim tuzishi lozim. Asbob-uskunadan foydalanuvchi, uz vaktida va kelishilgan jadval asosida, lizing tulovlarini amalga oshirishi shart. Lizing oluvchi tomonidan uz majburiyatlarini bajarilmasligi xolatlarida mulk egasi unga tegishli tulovlar tulanishini va kelishilgan bitimga rioya kilinmasligi okibatida kurilgan zararlarni koplashini talab kilishi mumkin. Tomonlar bitimda kursatilgan kelishuvlar buyicha bitimni bekor kilishlari mumkin.

Konventsia, lizing oluvchining boshka tomondan mulkiy xukukini ximoya kilish bilan birga, agarda mulkdan foydalanuvchidan tashkari, boshka bir uchinchi shaxs kuprok foyda olsa, bu xolda tulik javobgarlik mulkning egasiga utishini kursatadi. Agarda, bu xolat, foydalanuvchining xarakati natijasida yuzaga kelsa, u xolda inobatga olinmaydi.

Respublikamizda lizing munosabatlari uziga xos xususiyatlardan kelib chikmokda. Ushbu lizing munosabatlari jaxon amaliyotida umumiy kabul kilingan lizing munosabatlari bilan muvofiklashtirilgandir.

Uzbekistonda Konventsiya koidalariga asosan, bitim bajarilmay kolganda, ya'ni lizing oluvchining asbob-uskunadan foydalanish davrida, keyinchalik, tulovga layokatsizligi aniklansa, uning sheriklarining u bilan buladigan keyingi munosabatlarini bilishi muximdir.

Uzbekiston Respublikasining bir kator konuniy me'yoriy xujjatlarida karz oluvchining tulovga layokatsizligi aniklansa, uni tulovga noloyik, ya'ni bankrot deb e'lon kilish kerakligi kuzda tutilgan.

Xususan, 1996 yil 25 apreldagi Uzbekiston Respublikasining «Bank va banklar faoliyati tugrisida»gi konunining 35-moddasida shunday deyiladi:

— «bankdan olingan kreditlarni uz vaktida kaytara olmay, majburiyatlarini bajara olmayotgan karzdor bank tomonidan tulovga layokatsiz deb e'lon kilinishi va matbuotda bu xakda chop etirilishi mumkin. Bank bunday karzдорlarni bankrot deb tan olinishini talab kilib, xujalik sudiga murojaat kilishi mumkin».

Birok, xozirgi vaktida MDXning bir kator davlatlarida lizing beruvchi mulkni foydalanishga berilgan tomonning tulovga layokatsizligi aniklansada, uning faoliyatini tartibga solishning xukukiy asoslari tulik urnatilmagan. Lizing oluvchi tomon bankrot, deb e'lon kilinganda, u mulkning xakikiy egasi xisoblanmaydi. Bunday vaziyatda lizing oluvchi tulovni undirish masalasi tulik xal etilmagan. Bankrotlik xolatida, lizing bitimi lizing oluvchining aybi bilan bekor kilingan xisoblanadi. Lizing oluvchi lizing beruvchiga bitim buzilganligi natijasida yuzaga keladigan zararlarni tulik koplashi shart. Bankrot bulgan korxonaga uzining majburiyatlarini tulashda, kontragentlari katoriga lizing beruvchi xam xam kiritiladi. U uziga tulovlarni undirishi uchun navbatga, ya'ni ruyxatga kuyiladi va urnatilgan tartibda tulov amalga oshiriladi.

Konventsiyada bitimda katnashayotganlarning talablariga binoan, «lizing beruvchining mulkiga lizing oluvchining vaktinchalik egaligini kursatuvchi bitimni rasman e'lon kilinishi mumkinligi tugrisida» umumiy koida kayd kilinadi.

Shuningdek, ushbu Konventsiyaga muvofik, lizing oluvchiga xuddi oldi-sotdi bitimida xaridorga beriladigan xukuk doirasi kabi xukuk beriladi. Mulkdan foydalanuvchi asbob-uskunani etkazib beruvchidan mulkni oldi-sotdisi bitimi buyicha urnatilgan tartibda xuddi mulk egasi sifatida etkazib berish shartlarini talab kilish xukukiga ega. Shu bilan u, asbob-uskunani etkazib beruvchining oldida mulkning egasi bulib xisoblanadi. Aslida u xakikiy mulk egasi emasdir. Birok, lizing oluvchi asbob-uskunani etkazib beruvchi bilan urnatilgan oldi-sotdi bitimini bekor kilishni, mulkning xakikiy egasini ogoxlantirishsiz mustakil tarzda amalga oshirolmaydi. Asbob-uskunani etkazib berish buyicha shartlar buzilganada, lizing oluvchi mulkning xakikiy egasidan, u orkali ushbu shartlar bajarilishini ta'minlashini yoki asbob-uskunani etkazib beruvchi va lizing kompaniyasi urtasidagi etkazib berish bitimini bekor kilishni talab kilishi mumkin.

Xozirgi vaktida Uzbekistonda xalkaro lizing munosabatlarini tartibga solishning xukukiy asoslari shakllantirilmokda. Va, yukorida kayd etilgan shartnoma moddalarini bajarish xamda lizing munosabatlarida xukuk va majburiyatlarni taksimlash, xalkaro andozalarga mos ravishda ishlab chikilmokda.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. «Xalkaro moliyaviy lizing tugrisidagi Konventsiya»ni kabul kilishdan kuzlangan asosiy maksad nimadan iborat?
2. Konventsiyada lizing buyicha kandy tamoyillar uz aksini topgan?
3. «Kaytariladigan lizing» nima?
4. Konventsiyada ijaraga beriladigan mulkka nisbatan kandy mulkiy munosabat amal kiladi?
5. Uzbekiston Respublikasida lizing munosabatlari kaysi konuniy-me'yoriy xujjatlarga asoslanadi?

## 9.4. XALKARO LIZING SHAKLLARI

Xalkaro lizing, bir vaktning uzida moliyalash va yangi texnologiyalarni xarid qilish masalalarini xal etish, aylanma mablaglarni tuldurish xamda boshka extiyojlar uchun mablaglarni ozod qilish imkoniyatini beruvchi moliyaviy vositalarning eng muxim shakllaridan biridir.

Xalkaro lizing shakllarini taxlil qilishda uning eng keng tarkalغانlarini (lizing oluvchi va lizing beruvchi urtasidagi munosabatlarni xisobga olib), **bevosita**(tugridan-tugri) va **bilvosita** (egri) lizing turlarini ajratishimiz mumkin.

- Bevosita lizingda, lizing beruvchi bulib — bevosita mulk egasining uzi bitimni amalga oshirilishida ishtirok etishi shart.
- Bilvosita lizingda, ijaraga berilayotgan mulk egasi — uchinchi tomonning ishtirok etishi shartdir.

Xalkaro lizingni kreditlash usuli buyicha **muddatli** va **kayta tiklanuvchi** lizinglarga ajratish mumkin.

Muddatli lizingda ijara bir marotaba amalga oshiriladi. Kayta tiklanadigan lizingda esa, lizing shartnomasi bitimning birinchi muddati tugashi bilan kayta tiklanadi.

Shuningdek, xalkaro lizingni operatsion va moliyaviy lizinglarga bulish mumkin.


**Operatsion lizingda** korxonalar asbob-uskunaga mulk xukukini olmasdan turib, undan foydalanish uchun shartnoma tuzadilar.

**Moliyaviy lizing** deb, asbob-uskunani ijaraga olayotgan firma keyinchalik uni koldik kiymatda tula sotib olishiga aytiladi.

Bunga misol kilib, samolyotlarni lizingga berishni kursatish mumkin. Odatda, lizingga berishni aviakompaniya taklif etadi. Uz navbatida u takliflarini bir kancha lizing kompaniyalari va banklarga tanishish xamda ma'lumot uchun yuboradi. Va ular, uzlarini kreditlash shartlarini va uzlariga mos variantlarini matbuotda keng mikyosda e'lon kiladilar. Lizing bitimi tuzilishida uch tomonning ishtirokini quyidagi chizma kurinishida ifodalash mumkin:

**5-chizma.**

**Uch tomonlama lizing bitimini tuzishda lizing tuzilishining tarkibiy chizmasi**



**Bu erda:**

1. Lizing oluvchi tomonidan ariza kabul kilinishi;
2. Lizing oluvchining tulovga kobilyatliligini va lizing loyixasining samaradorligi aniklash;
3. Ob'ektni (mulkni) etkazib beruvchiga buyurtma berish;
4. Lizing bitimini amalga oshirish uchun ssuda olish;
5. Lizing ob'ektini oldi-sotdisi xakidagi bitimni tuzish;
6. Asbob-uskunani foydalanish uchun olingan xujjatlarni rasmiylashtirish;
7. Lizing bitimini tuzish;
8. Lizingga berilayotgan mulkka texnik xizmat kursatish xakidagi bitimni rasmiylashtirish;
9. Lizingga berilayotgan mulkni sugurtalash bitimini rasmiylashtirish;
10. Lizing tulovlarini amalga oshirish;
11. Lizing ob'ektini kaytarish;
12. Ssudani va uning foizlarini tulash.

Bank (bir uzi yoki konsortsiumdagi boshka banklar bilan xamkorlikda) lizing buyicha maxsus kompaniyani tashkil etadi. Lizing kompaniyasi foydasiga samolyotni sotish shartnomasini tuzish xukuki beriladi va u xukukiy jixatdan mulkning egasi bulib xisoblanadi. Kompaniya fakatgina ma'lum operatsiyani amalga oshirish davri uchun tashkil kilinadi, va odatda, operatsiya tugagandan sung, uning faoliyati tugatiladi. Masalan, Frantsiya davlatida samolyotlarni lizinga berish soxasida bir kancha unlab maxsus kompaniyalar faoliyat yuritadilar. Aviakompaniya ixtisoslashgan kompaniyaning foydasi uchun samolyotni sotib olish xukukini beradi. Bu xukuk shartlari aviakompaniya bilan samolyot etkazib beruvchi urtasida oldindan kelishiladi va samolyotni sugurtalash uz xisobiga amalga oshiriladi. Bank tomonidan kreditlashning asosiy shartidan biri bulib — bankka sugurtalash sertifikatini takdim kilish xisoblanadi.

Lizingga ixtisoslashtirilgan kompaniyalar samolyotni egasi sifatida uni kreditor-bankka garovga utkazishni rasmiylashtiradi va bank krediti xisobiga samolyot etkazib beruvchining foydasiga samolyot qiymatining 100 foiz tulovini amalga oshiradi. Kredit va unga tulanadigan foizlar — aviakompaniya tomonidan samolyotdan foydalanish davrida tushadigan tushumdan tulik koplanadi.

Bu operatsiyada aviakompaniyaning majburiyatlari buyicha kafolat bergan tomon (m-n, xizmat kursatuvchi bank) xam katnashishi mumkin.

Xalkaro lizing operatsiyalarini amalga oshirishda vujudga keladigan risklarni baxolashda odatda kuyidagi omillarni etiborga olish takozo etiladi:

- Lizing oluvchi kompaniyaning moliyaviy xolati va tijorat doirasidagi mavkei;
- Shartnoma baxosining ikkilamchi bozordagi uzgarishi;
- Lizing oluvchi firma tomonidan lizing ob'ektini ishlatilish shart-sharoitlari;
- Kompaniya kirib kelayotgan mamlakatdagi moliyaviy-iktisodiy va siyosiy xolatlarni (yani, milliyashtirish riski, chet elga valyuta mablaglarini utkazishdagi mavjud cheklovlar, garov xukukini amalga oshirishda vujudga keladigan kiyinchiliklar riski va boshkalar).

#### **Ijaraga berilayotgan mulkka nisbatan kuyidagilar ajratib kursatiladi:**

- **Sof lizing bitimi.** Sof lizing bitimida, odatda, ijaraga berilayotgan mulkning xizmat kursatishida, yoki foydalanishda paydo buladigan kushimcha xarajatlarni lizing oluvchi uz buyniga olishi kuzda tutiladi;
- **Tulik lizing bitimi.** Tulik lizing bitimida odatda mulkdan foydalanish bilan boglik barcha xarajatlarni va texnik ta'minot bilan boglik xarajatlarni ijaraga beruvchi uz buyniga oladi.



Ijaraga berilayotgan ob'ektning uziga xos xususiyatlaridan kelib chikib — *xarakatlanadigan* mulkka beriladigan lizingni, *xarakatlanmaydigan* mulkka (ma'muriy binoshootlar, omborxonalar, supermarketlar, garajlar va boshkalar) beriladigan lizinglarga bulishadi.

Odatda, kuchmas mulk lizingidan — kurulishda foydalanadilar. Tadbirkorlar sanoat binoshootlarni kurishda, kupincha uz kapitali etishmasligidan kiynaladilar, yoki ular uzlarining pul mablaglarini aylanishidan olib, uni uzok muddat davomida yangi ob'ektlarni kurishga sarflashni ma'kul kurmaydilar. Sanoat ob'ekti, omborxona kurulishi, mexmonxona kurulishi uchun kup xollarda investitsiyaga kerak buladigan summaning kichik va urta xol firmalarga etmay kolish xavfi tugiladi. Bunday sharoitda, lizing kompaniyalari turli ob'ektlar kurulishini, keyinchalik kuchmas mulkni lizinglash bilan kreditlashadi. Kuchmas mulk ob'ektini kurish va jixozlash majburiyatini lizing kompaniyasi uz buyniga oladi va undan foydalanish natijasida tushgan daromadning sezilarli kismini oladi. Lekin, bu ob'ektdan lizing kompaniyasi foydalanmaydi, balki, ijaraga topshirilgan firma foydalanadi.

Mijozning garovlangan talabi buyicha, lizing kompaniyasi er maydonini sotib olishga ma'lum mikdorda mablag sarflaydi va pudratchiga loyixalash, kurish ishlari va mijozning talablariga muvofik ob'ektni jixozlash kabi ishlarni topshiradi. Ob'ekt kurulishi tugagandan sung, 20-30 yil muddatga mijozga ijaraga beriladi. Bu muddat tugashidan oldinrok, ijarachi ob'ektni tula sotib olishi mumkin. Kuchmas mulkning lizingi, oddiy ijaradan shunisi bilan farklanadiki, ob'ektni jixozlash va kurish, ma'lum mijoz uchun uning barcha talablarini e'tiborga olgan xolda olib boriladi. Kurilgan ob'ektni foydalanishga olgan mijoz, uni ta'mirlash va atrof-muxitni tozalash bilan boglik xarajatlarni uz buyniga oladi. Mijoz bu ob'ektni tula yoki kisman sub ijaraga topshirishi mumkin, biroq unga egalik kilish xukuki lizing kompaniyasida koladi.

Investitsiya lizingi biznesga yunaltirilgan kapitaldan farkli ravishda inflyatsiyadan ximoyalangandir. Chunki, bozor iktisodiyoti sharoitida, odatda, er va kuchmas mulk narxi tinmay usib borish an'anasiga egadir.

Xalkaro lizing operatsiyalaridan jaxon amaliyotida xarakatlanuvchi mulk lizingi keng tarkalgan. U uziga juda kup ob'ektlarni biriktirgandir. Ularning asosiy guruxlariga kuyidagilarni kursatish mumkin:

- transport vositalari (yuk tashuvchi avtomobillar, engil avtomobillar, samolyotlar, kemalar va shu kabi transport vositalari);
- televizion va masofaviy texnik-elektron alokalar vositalari;
- stanoklar;
- kurulish texnikasi;
- kompyuterlar va ma'lumotlarni kayta ishlash vositalari;
- sanoat, ya'ni ishlab chikarish asbob-uskunalari, mexanizmlar;
- litsenziya, nou-xau, kompyuter dasturlari va shu kabilar.

Lizingning muddati, yoki davri deganda — lizing shartnomasining xarakat muddati tushuniladi. Bu davrda, lizing beruvchining balansida lizingga topshirilgan ishlab chikarish vositalari (mashinalar, asbob-uskunalar, transport vositalari va shu kabilar) xisobda turadi xamda lizing oluvchi uzining xujalik faoliyatida lizing kompaniyasi tomonidan urnatilgan tulovlarni tulab, undan foydalanadi.

Lizingning birlamchi va ikkilamchi davrlariga ajratishadi. Lizingning birlamchi davri deyilganda, bitim xarakatining asosiy davri tushuniladi. Bunda lizing oluvchi lizing kompaniyasiga ob'ektning tula amortizatsiya ajratmalari xamda ajratilgan foizlarni tula amalga oshirmagan buladi. Ikkilamchi davrda, lizing oluvchi lizing firmasiga tulik tulovni amalga oshiradi. Birok, lizing firmasi lizing ob'ektiga egalik kilish xukukini bermagan buladi. Lizing oluvchi asbob-uskunani an'anaviy stavkada foiz tulagan xolatda foydalanishda davom etadi. Bu kabi lizing muddatini uzaytirish, lizing shartnomasida albatta kelishilgan bulishi kerak. Nazariy jixatdan, lizingning ikkilamchi davri vakt buyicha cheklovlarga ega emas, biroq, uning muddati asbob-uskunaning xakikiy xizmat muddati bilan chegaralangandir. Asbob-uskunaga e'tibor

karatish va buzilganda uz vaktida kayta ta'mirlash kabi masalalar, ikkilamchi davrni noma'lum muddatga uzayishiga olib kelishi mumkin.

Xalkaro amaliyotda xalkaro lizing shartnomalarining kuyidagi shakllari ishlab chikildi.

1. **Andozali lizing.** Lizingning bu shaklida asbob-uskunani ishlab chikargan shaxs uni lizing kompaniyasiga uzi mustakil tarzda sotadi. Lizing kompaniyasi asbob-uskunani iste'molchiga ijaraga beradi. Asbob-uskunani ishlab chikaruvchi va uni lizingga oluvchi urtasidagi lizing shartnomasi buyicha xukukiy munosabatlar urnatilmaydi. Bu erda asbob-uskunaga texnik xizmat kursatish masalasi tulik xal etilmagan. Bu xolda, asbob-uskunani ishlab chikargan shaxs bilan, lizing oluvchi, uziga xizmat kursatish uchun aloxida bitim tuzishi lozim. Bunga asosiy sabab, lizing kompaniyasi texnik xizmat kursatish masalalariga aralashmaydi.

2. **«Sof lizing».** Bunda asbob-uskunalardan foydalanish bilan boglik asosiy majburiyatlar lizing oluvchi buyniga tushadi. U soliklar va xar-xil yigimlarni, tulovlarni xamda asbob-uskunalardan foydalanish bilan boglik barcha xarajat va sugurta tulovlarini tulaydi. Lizing oluvchi asbob-uskunani ishga soz xolatda saklashi lozim. Shu bilan birga, u ijara muddati tugaganda, lizing beruvchiga asbob-uskunani urtacha eskirishini xisobga olib, yaxshi xolatda kaytarishi shartdir. Lizing beruvchi, lizing oluvchi olgan mulkdan foydalanishi bilan boglik xarakatlarga javob bermaydi. Lekin, u asbob-uskuna ishlatilayotgan mamlakatdagi xukumat va boshka tashkilotlar tomonidan bulishi mumkin bulgan salbiy ta'sirlar uchun javobgardir.

3. **Kaytariluvchi lizing — «liz-bek».** Tijorat nuktai nazaridan lizingning bu shakli firma mablaglarga kuchli extiyoj sezganda kullaniladi. Uning asosiy xususiyati bulib, firmaning moliyaviy xolatini yaxshilashga samarali vosita sifatida namoyon bulishidir. Bu operatsiyaning mazmuni shundan iboratki, asbob-uskunaning egasi, asbob-uskunani lizing kompaniyasiga sotadi, va sungra, undan shu asbob-uskunani ijaraga oladi, ya'ni, asbob-uskunani sotgan shaxs lizing oluvchiga aylanadi. Bunday operatsiyalar asosan, muomalada oldin xam bulgan asbob-uskunalarga nisbatan kullanilishi kayd etiladi.

4. **«Yaxlit lizing».** Bu lizingning uziga xos xususiyatlaridan biri bulib lizing oluvchi uchun lizing beruvchi tomonidan kushimcha xizmatlarni taklif etilishi xisoblanadi. Lizingning bu shakli kimmat. Chunki, lizing beruvchi asbob-uskunani etkazib berish bilan birga ta'mirlash, sugurtalash, ba'zi vaqtlarda ishlab chikarishni boshkarish yoki yokilgi bilan ta'minlash kabi ishlarni xam amalga oshiradi. Odatda, lizingni bu turi yangi asbob-uskunalarni, xususan, kompyuterlar, samolyotlar va boshka murakkab mashina xamda mexanizmlarga nisbatan kullaniladi.

5. **Tula xizmatli lizing.** Bu lizing «yaxlit» lizingga uxshab ketadi, biroq, shartnomada bir kancha kushimcha xizmatlar kursatishi kurib chikiladi. Masalan, lizing beruvchi asbob-uskunani sotib olish masalalarini tadjik kiladi. Bu asbob-uskunani ishlatish uchun zarur bulgan xom-ashyo materiallari bilan ta'minlaydi. Shu bilan birga, asbob-uskunadan foydalanish uchun malakali mutaxassislar yollab beradi va boshka bir kator xizmatlar kursatadi.

6. **Asbob-uskunani koldik kiymati lizingi.** Lizingning bu shakli oldindan foydalanilgan asbob-uskunalarni ijarasi bilan boglik va u dilerlar (savdo agentlari) tomonidan keng foydalaniladi. Lizingning mazkur turi, odatda, 1 yildan 3-4 yilgacha bulgan muddatni uz ichiga oladi.

7. **Mol etkazib beruvchiga lizing.** Bu ijara shakli «liz-bek» lizingi shakliga uxshaydi. Asbob-uskunani etkazib beruvchi ikki yoklama vazifani bajaradi. Ya'ni, u asbob-uskunadan foydalanuvchi bulmasa xam, asbob-uskunani sotuvchisi va ijaraga oluvchisi bulib xisoblanadi. Ijaraga oluvchi, albatta, sub ijarachini topishi va asbob-uskunani sub ijaraga topshirishi kerakdir. Buning uchun, ijaraga beruvchining roziligi shart bulmasada, asbob-uskunani sub ijaraga topshirish shart bulib xisoblanadi.

8. **Kayta tiklanuvchi lizing.** Lizing operatsiyasining bu shaklida lizingga berilgan asbob-uskuna vakti-vakti bilan yangi takomillashgan asbob-uskunaga almashtirib turilishi lozim. Bu model asosan, EXMlar lizingida keng tarkalgandir. Chunki undagi investitsion jarayon (bozorda yangi, takomillashgan turlarining kupayish davri, vakti, muddati) juda kiska sanaladi.

9. **Vendor lizing** (tayyorlovchilar yoki ishlab-chikaruvchilar kooperatsiyasi). Bu erda lizing kompaniyasi bulib, bank yoki lizing kompaniyasi bilan birga asbob-uskunani ishlab chikargan firma xam katnashishi mumkin. Bu model, koida buyicha, bozorda juda kimmat baxodagi asbob-uskunani olib chikishda foydalaniladi. Bunda ishlab chikaruvchi

(tayyorlovchilar) uzlariga mijozni kidirish va lizing ob'ektiga xizmat kursatish majburiyatini oladilar, lizing kompaniyasi esa, loyixani ishlab-chikish, ma'muriy masalalarni xal qilish, maslaxat berish xizmatlari kabi operatsiyalarni amalga oshiradi.

Xalkaro lizing xizmatlarining jaxon bozori — ikkinchi jaxon urushi davridan keyin kuyidagi omillarni xisobga olgan xolda shakllanishi va rivojlanishi boshlandi:

- likvid mablaglar xajmining tulik etishmasligi;
- investitsiyani optimallashtirishni talab kiluvchi rakobatning kuchayishi;
- ishlab chikarish kengaytirilishi uchun korxonalarda etarli mablaglar ajratilishida, uning foydasini chegaralanganligi;
- iktisodiy usishni ragbatlantirish, xususan, investitsiya usishiga shart-sharoit yaratilishi uchun xukumat va moliyaviy organlar tomonidan lizing operatsiyalari rivojlanishiga xukumat organlarining kumaklashishi.

Xozirda, jaxon bozorida xalkaro lizing operatsiyalariga talab juda katta. Chunki, lizing bitimida ishtirok etayotgan xamma tomonlar uzi uchun ustunlikka, yoki yanada tugrirogi, afzalliklarga ega.

Lizing oluvchi tomon uchun afzalliklarni kuyidagicha ifodalash mumkin:

- lizing ishlab chikarishni amalga oshirish, uning xajmii kupayishini ta'minlaydigan asbob-uskunaga egalik kilish uchun kapital tulovini amalga oshirish yoki kapital kuyilmani muzlashishi kabi xolatlardan ozoddir;
- ijaralanayotgan mulkning zarar kurish yoki yukolish riski uning egasida, ya'ni lizing beruvchida;
- asbob-uskunani ta'mirlash va unga xizmat kursatish, uning egasi tomondan amalga oshiriladi. Gap bu erda murakkab asbob-uskuna xakida borayapti, va shubxasizki, ijrochi uzi unga xizmat kursatish imkoniyatiga ega emasdir;
- lizing asbob-uskunani almashtirish va zamonaviy-lashtirishni osonlashtiradi, shuningdek, ijarachiga zamonaviy asbob-uskunadan foydalanish imkoniyatini beradi;
- tulovlar bir vaktida amalga oshirilmaydi, balki kelishilgan muddatlarda kislarga bulib tulanadi;
- lizing — solikka tortilish nuktai nazaridan juda xam samaralidir (ya'ni, solikdan bir kator imtiyozlarga ega);
- lizing moliya-kredit operatsiyasi sifatida sotib oluvchiga kreditdan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Xususan, kredit muassasalaridan kredit olish imkoniyati bulmaganda uning axamiyati ortadi;
- lizingda ijara tulovi, asbob-uskuna korxonaga urnatilganidan va ma'lum mikdorda ishlab chikarishga erishilganidan keyin amalga oshirilishida namoyon buladi.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Xalkaro lizing nima?
2. Bevosita va bilvosita lizing turlari bir-biridan kandy farklanadi?
3. Xalkaro lizingni kreditlash usuli buyicha uning kandy shakllari bor?
4. Operatsion va moliyaviy lizingning iktisodiy moxiyatini tushuntirib bering.
5. Uch tomonlama lizing bitimini tuzishda kimlar ishtirok etishadi?
6. Xalkaro lizing operatsiyalarini amalga oshirishda vujudga keladigan risklarni baxolashda kaysi omillarga e'tiborni karatish zarur?
7. Xalkaro amaliyotda xalkaro lizing shartnomalarining kandy shakllari mavjud?
8. Lizing oluvchi lizing munosabatlaridan kandy manfaatlarni kuzlaydi?

## 9.5. LIZINGGA IXTISOSLASHGAN XALKARO KOMPANIYALAR

Jaxonda bir necha mingdan ortik xalkaro mikyosda ishlovchi lizing kompaniyalari va firmalari mavjud. Mazkur lizing kompaniyalari va firmalarining faoliyati lizing operatsiyalarining ixtisoslashuvi, xajmi, potentsiali, xududiy joylanishiga va boshka shu kabi bir kator omillarga boglikdir.

Kuyidagi 9-sonli jadvalda Evropadagi lizing kompaniyalarining faoliyati chegarasi va ularning mikdori, xajmi buyicha ba'zi bir ma'lumotlarni taxlil kilishga xarakat kilamiz.

Shuni aloxida ta'kidlab utish joizki, respublikamiz iktisodiyotiga nafakat Evropa, balki jaxonning yirik lizing kompaniyalarini xam jalb etish muxim va axamiyatlidir. Uzbekiston Respublikasida lizing kompaniyalari (jadvallarda keltirilgan ma'lumotlar) orkali xalkaro lizing operatsiyalari bilan boglik loyixalar amalga oshirilishga imkoniyat yaratiladi. Bu ma'lumotlar xar bir lizing loyixalari amalga oshirilishi uchun yordam beradi. Shuningdek, bu ma'lumotlar lizing kompaniyalarining rasmiy xisoblanmaydigan reytingini kursatishi bilan axamiyatlidir. Uz navbatida, sheriklar bilan oldindan tanishish imkoni berilishi maksadga muvofikdir.

9-jadval

### Evropa lizing kompaniyalari

MAMLAKATLAR	Kompaniyalarning soni, faoliyat yuritadigan soxa doirasi		
	fakatgina asbob-uskunalar lizingi bilan	kuchmas mulk lizingi bilan	asbob-uskunalar va kuchmas mulk lizingi bilan
1. AVSTRIYA	12	1	21
2. BELGIYA	0	0	54
3. BOLGARIYA	0	0	14
4. BUYUK BRITANIYA	68	0	16
5. VENGRIYA	9	0	4
6. GERMANIYA	87	4	9
7. GRETSIYA	7	0	0
8. DANIYA	17	0	7
9. IRLANDIYA	17	0	0
10. ISPANIYA	20	5	65
11. ITALIYA	19	2	72
12. LYUKSEMBURG	5	5	5
13. MALTA	5	5	1
14. NIDERLANDIYA	20	1	3
15. NORVEGIYA	16	0	3
16. POLSHA	41	0	1
17. PORTUGALIYA	26	4	0
18. SLOVENIYA	11	0	1
19. FINLANDIYA	0	0	5
20. FRANTSIYA	113	158	7
21. ChEXIYA VA SLOVAKIYA	42	0	7
22. ShVETSIYA	30	0	0
23. ShVEYTSARIYA	7	3	2
JAMI:	572	178	285

Kuyidagi 10-jadvalda jaxonning xalkaro lizing operatsiyalari bilan shugullanuvchi eng yirik lizing kompaniyalari keltirilgan. Mazkur jadval ma'lumotlarida nafakat lizing sharnomalarining umumiy summasi kursatilgan, balki yil davomidagi ular tomonidan bajarilgan operatsiyalarining xajmi xam berilgan. Shu sababli, mazkur jadval ma'lumotlaridagi ruyxatga ba'zi bir yirik lizing kompaniyalari tugrisidagi ma'lumotlar kushilmay kolgan.

Masalan, «Japan Leasing Corporation» kompaniyasining yil davomidagi lizing operatsiyalari xajmi 3,269 mlrd. AKSh dollari bulib, u jaxonda 8-urinni egallaydi; «D'Accord Financial» kompaniyasi 2,500 mlrd. AKSh dollari — 17-urin; «Newcourt Credit Corp» 2,468 mlrd. dollar — 18-urin; «Australian Guarantee Corp» 1,390 mlrd. dollar — 31-urinni egallaydi.

10-jadvalda yukoridagi kompaniyalarning kiritilmagan-ligiga sabab — ular portfellarining umumiy summasi xakidagi ma'lumotlarning yukligidir.

Shunday kilib, jaxonning eng yirik 30 ta lizing kompaniyalari portfelinig jami xajmi 280,710 mlrd. AKSh dollarini tashkil etadi va yil davomidagi lizing operatsiyalarining umumiy summasi 103,656 mlrd. AKSh dollariga teng. Ya'ni, birinchi kursatkichga nisbatan 2,6 marta kichikdir.

10-jadval ma'lumotlariga karab xulosa kiladigan bulsak, jaxonning eng yirik lizing kompaniyalari uz faoliyatleri samarasini uch yil muddat ichida kamayishiga sababchi bulmokda.

Yaponiya lizing kompaniyalari orasida yirikrogi xisoblangan «Centery Leasing System, Inc.»ning faoliyatini taxlil kilishga xarakat kilamiz. «Centery Leasing System, Inc.»ning 1993 yilgi xisobotlarining ma'lumotlariga karaganda, bu lizing kompaniyasining operatsion daromadleri taxminan 3,5 mlrd. AKSh dollarini tashkil kilgan.

## Jaxondagi eng yirik lizing kompaniyalari (1994 y.)

№	LIZING KOMPANIYASINING NOMI	lizing shartlari portfelining um.xajmi, mln. doll.da	yil davomidagi lizing oper.ning xajmi, mln. doll.da	lizing portfelini xajmi bilan yil davomidagi oper.lari urtasidagi fark
1	2	3	4	5 = 3 : 4
1	GE Capital	41300	16800	2,5
2	Orix Corporation	24830	9662	2,6
3	Societe General	23928	5810	4,1
4	KG Allgemeine Leasing	21000	3150	6,7
5	Lombard North Central / NatWest Group	16550	7061	2,3
6	Debis Financial	16199	4655	3,5
7	GMAC	13631	10363	1,3
8	Barclays Mercantile	12444	1709	7,3
9	Tokio Leasing Co	10421	3200	3,3
10	AT&T Capital	7661	4250	1,8
11	Diamond Lease Co	6419	2865	2,2
12	ING Lease	5982	2589	2,3
13	Century Leasing Sys, Inc.	5870	2733	2,1
14	IBM Credit Corp	5300	2800	1,9
15	Mercedes-Benz Credit	5300	1876	2,8
16	USL Capital	5300	2145	2,5
17	GEFA Leasing	5289	3148	1,7
18	ABN Amro Lease	4651	2221	2,1
19	Caterpillar Finansial	4511	2183	2,1
20	Volkswagen Financial	4395	378	11,6
21	NWS Bank	4393	2173	2,0
22	Pitney Bowes Credit	4307	1218	3,5
23	Esanda Finance Corp	4213	2602	1,6
24	BNY Leasing Corp	4000	800	5,0
25	UCABAL	3960	965	4,1
26	VR Leasing	3927	1300	3,0
27	Abbey National	3889	567	6,9
28	Comdisco	3840	1582	2,4
29	CITgrup	3694	1040	3,6
30	Korea Dev. Leasing Corp.	3503	1807	1,9
	<b>Jami</b>	<b>280707</b>	<b>103652</b>	<b>-</b>

Shu bilan birga, 1994 yilda bu kompaniyaning lizing operatsiyalari xajmi fakatgina 2,7 mlrd. dollarni, ya'ni birinchi kayd etilgan summaning 77 foizini tashkil etdi.

Yukoridagi ma'lumotlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, demak, lizing kompaniyasi daromadlarining bir qismi lizingga bog'lik bulmagan boshka faoliyatlardan tashkil topmokda.

Jaxonning etakchi banklari lizing bilan boglik biznesga kizikishlari kattadir. Lizing operatsiyalari bilan shugullanish murakkab bulsada, juda samarali xisoblanadi. Lizing kompaniyalari bank guruxlari, xoldinglar doirasida tuziladi.

Shu bilan birga, bitta bankning uzi bir necha lizingga ixtisoslashgan kompaniyalar ochish xollari xam kuplab uchrab turadi.

Frantsiyaning «Societe Generale» banki 1968 yildan boshlab, jaxonda keng tarmokli «Sogelease» lizing guruxini tuzdi. Uning tarkibiga xozirgi vaktida jaxonning turli joylarida joylashgan 30 dan ortik firmalar kiradi. Mazkur bankning shtab-kvartirasi Evropada joylashgani sababli, «Sogelease» lizing guruxi kompaniyasini Evropaning lizing-xolding kompaniyasi deb xisoblashadi. Umumiy xajmi buyicha bu kompaniya jaxonda uchinchi urinda va lizing portfeli kattaligi buyicha Evropada eng yirik kompaniyalardan xisoblanadi. Oxirgi 10 yil ichida lizing operatsiyalarining xajmi 1,6 mlrd. AKSh dollaridan 5,8 mlrd.gacha usdi, ya'ni taxminan turt barobar usishi kuzatildi.

«Sogelease» Germaniya, Avstraliya, Belgiya, Braziliya, Kanada, Xitoy, Ispaniya, AKSh, Italiya, Yaponiya va boshka bir kator mamlakatlarda uz bulimlariga ega. 1996 yilda kompaniya Avstriyada lizing operatsiyalarini amalga oshirish uchun uzining shu'ba bulimini ochdi (firmaning ofisi Venaning eng e'tiborli rayonlaridan biri xisoblangan Shubertingda joylashgandir).

«Societe Generale» bankining tarkibiy tuzilmasida shu'ba lizing kompaniyalari faoliyati bilan maxsus shugullanadigan aloxida ikkita departament mavjud.

«Sogelease» lizingining muddati asbob-uskunaning umriga karab 3 yildan 18 yilgacha urnatiladi. Lizing tulovlarining stavkasi bevosita - LIBOR stavkasi bilan boglikdir.

Lizing buyicha asbob-uskunalarni etkazib berish asbob-uskunalarining turt guruxiga karab amalga oshiriladi:

- transport (kema, samolyot, konteyner va traylerlar);
- neft (platforma, barja, sudna va zavodlar);
- jamiyat ishlariga zarur bulgan shaxar binolari va kerakli asbob-uskunalar;
- sanoat korxonolari va kompyuterlar uchun - yirik investitsiya loyixalari.

Jaxonning eng yirik lizing kompaniyalari reytingida 13-14 urinlarni Yaponiyaning «Century Leasing System, Inc.» kompaniyasi egallagan. Bu lizing kompaniyasi 1969 yilda turta yirik xissadorlar tomonidan tashkil etilgan. Ularga 81,1 foiz aktsiya tugri kelgan:

- jaxondagi etakchi va Yaponiyadagi yirik xisoblangan «Itochu Corporation» savdo kompaniyasi — nizom kapitalga nisbatan 23,5 foiz;
- Yaponiyaning «Dai-Ichi Kangyo Bank» nomli yirik banklaridan biri - 23,5 foiz;
- xayotni sugurtalash buyicha Yaponiyadagi ikki yirik kompaniyalar tomonidan: «Nippon Life Insurance Company» — 23,5 foiz; «Asahi Mutual Life Insurance Company» — 10,6 foiz.

Bulardan tashkari, xissadorlar safiga yana ikki bank («Lohg-Term Creit Bank of Japan» va «Bank of Tokyo») aktsiyalar paketiga 2,2 va 1,9 foizda, kompaniyaning uz xizmatchilari paketning 4,8 foiziga ulush kushishgan va boshkalar. «Century Leasing System, Inc.» kompaniyasi Londonda, Gonkongda, Singapurda uz vakolatxonalariga ega.

Yirik xalkaro lizing kompaniyalarining tarkibiy tuzilishini kuyidagi «Century Leasing System, Inc.» kompaniyasi misolida kurib chikamiz.

«Century Leasing System, Inc.» lizing kompaniyasi boshkaruvini 16 kishilik direktorlar kengashi, prezident va ikki bosh direktor-menejerlari tashkil etadi.

«Century Leasing System, Inc.» boshkarmasining tashkiliy tuzilishi kuyidagi bulimlardan iboratdir:

- audit departamenti (boshkarmaning boshka departamentlaridan avtonom);
- ish yurituvchi bosh departament;
- xodimlar bilan ishlash departamenti;
- korporativ rejalashtirish va muvofiklashtirish departamenti;
- moliya departamenti;



- buxgalteriya xisobi departamenti;
- ilmiy - tadqiqot departamenti;
- boshkarish ma'lumotlari tizimini rejalashtirish departamenti;
- 1-sonli kredit departamenti;
- 2-sonli kredit departamenti;
- xalkaro kredit departamenti;
- marketing divizioni, uning tarkibiga quyidagilar kiradi:
  - 1-sonli marketing divizioni, u uchta marketing departamentidan iborat;
  - 2-sonli marketing divizioni, u uchta elektron-xisoblash va tashkiliy texnika departamentlaridan iborat;
  - 3-sonli marketing divizioni, u ikkita majburiyatlar bilan shugullanuvchi departamentlardan iborat;
  - 4-sonli marketing divizioni, u Tokioda joylashgan marketing departamenti, Shinyuki va Uenodagi filiallaridan iborat;
  - 5-sonli marketing divizioni, u Omia, Iokogame, Nagoe shaharlaridagi filiallardan iborat;
- Yaponiyaning Garbiy kismidagi marketing divizioni, u Osakadagi (yana ikki departament uning tarkibida), Kioto, Xirosima, Fukokedagi filiallaridan iborat;
- tijorat faoliyatini rivojlantirish departamenti;
- xukukiy-shartnoma tuzish departamenti;
- foydalanilayotgan aktivlarni boshkarish departamenti;
- Xalkaro divizion. Uning tarkibiga quyidagilar kiradi:
  - xalkaro alokalar va muvofiklashtirish departamenti;
  - xalkaro moliyaviy faoliyatni boshkarish departamenti;
  - xorijdagi shu'ba kompaniyalarni boshkarish departamenti.

«Century Leasing System, Inc.» boshkarmasining tashkiliy tuzilishini murakkabligi — xalkaro moliya bozorida lizing operatsiyalarini amalga oshirishni yuksak bilim va maxorat talab qiluvchi tashkiliy tuzilmagina ta'minlab bera olishini yana bir bor isbotlaydi.

Globalizatsiya va xalkaro integratsiya sharoitida ushbu yirik lizing kompaniyalari uz xizmat doiralarini kengaytirish maksadida yangi bozorlar kidiradilar. Bunda kompaniyalar xalkaro marketing xizmatlariga tayanib xamda kabul qiluvchi mamlakatdagi siyosiy iktisodiy vaziyatdan kelib chikib uz faoliyatini yuritadilar.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Xalkaro lizing kompaniyalarining faoliyati nimalarga boglik?
2. Nima uchun jaxonning yirik banklari etakchi lizing kompaniyalari bilan xamkorlik kilishga intiladilar?
3. «Sogelease» lizing guruxi faoliyatining asosiy yunalishlarini tushuntirib bering.
4. Jaxonning eng yirik lizing kompaniyalari reytingida 13-14 urinni egallaydigan Yaponiyaning «Century Leasing System, Inc.» kompaniyasining tashkiliy tuzilmasi kanday?

## 9.6. XALKARO LIZING BUYICHA INVESTITSIYA LOYIXALARI

Xalkaro lizing operatsiyalarining amalga oshirilishida tuziladigan bitim yoki shartnomalarda an'anaviy xalkaro kredit operatsiyalari yoki tashki savdo shartnomalaridagi oldi-sotdilarga nisbatan bitimda katnashayotgan tomonlarning soniga taallukli xolatda ularga nisbatan sezilarli darajada kuppina uziga xosliklar va turli-tuman shart-sharoitlar yuzaga keladi.

Xalkaro lizing bitimlarida uziga xos xususiyat bulib andozalashtirish emas, balki aloxidalik xarakteriligi xisoblanadi. Lizing soxasi buyicha mutaxassis bitta shaxsning uzida yaxshi yuristni, moliyachini, buxgalterni, ishbilarmon-tadbirkorni xamda asbob-uskuna turlari buyicha ma'lum darajada bilimga ega bulgan mutaxassislarni jamlashi kerak.

Xalkaro lizing bitimining tarkibi beshta asosiy bugundan iborat:

1. Lizing beruvchi, lizing oluvchi va mol etkazib beruvchi davlatlarning konunchiligidagi xukukiy bilimlarni, xususan, fukarolik xukukini xamda tijorat va solik siyosati;

2. Xarakatlarni xisobga olgan xolda kuyilmalar kiymatini xisoblash va extimoli kuchli risklarni aniklash, asosiy moliyalashtirish sharoitlari doirasida moliyaviy taxlil etish;

3. Lizing ob'ekti sifatida katnashayotganda, bozorning joriy kon'yunkturasi va asbob-uskuna narxini tashkil kilish mexanizmini urganish;

4. Lizing operatsiyalari buyicha buxgalterlik xisob va xisobotlari doirasidagi bilim va amortizatsiya siyosatini taxlil etish;

5. Lizing loyixasini texnik ekspertiza kilish uchun kandy mutaxassislar jalb kilish kerakligini, asbob-uskuna ishlab chikargan korxonalar bilan suxbat utkazish va undan asbob-uskunadan texnik jixatdan foydalanishni kafolatini olish xamda lizing davri buyicha asbob-uskunadan foydalanilishi ustidan davomli nazoratni amalga oshirish va shu kabilar.

Xalkaro lizing operatsiyasini amalga oshirishda, lizing kompaniyasi kuppina tashkiliy ishlarni amalga oshirishi lozim. Xususan, lizing kompaniyasi samarali faoliyat yuritishi uchun lizing operatsiyalarini keng reklama kilishi va lizing oluvchiga uning yutuklarini va foydaliligini kursata olishi, tugrirogi ishontirishi lozim.

Xalkaro lizing buyicha investitsion loyixalarni ekspertiza kilish jarayonida ma'lum turdagi asbob-uskunalariga bulayotgan talab va taklifni, bozor infratuzilmasini va uning asosiy an'alarini taxlil kilish lozim. Shuningdek, bu erda bozordagi asbob-uskunaga bulayotgan talabning yoki narxlarning tebranishiga, lizing xizmatiga tegishli boshka tariflar va baxolar (ta'mirlash ishlari, texnik xizmat)ning, transport tariflarining elektr-energiya va shu kabi omillarni xisobga olish lozim. Lizing beruvchi kompaniyalar uz faoliyatini anik bir tarmokkga ixtisoslashtirishga intiladilar (masalan, kurilish, transport, sanoatning ma'lum turlari, kishlok xujaligi sanoati, savdo va shu kabilar).

Lizing shartnomasi tuzilishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon lizing beruvchi — lizingga extiyoj sezgan korxonani, lizing oluvchi korxonalar esa, lizing beruvchilarni kidirishi bilan boshlanadi. Birinchi kadam bulib, lizing oluvchi mijoz bilan lizingning kaysi shaklini tanlash maksadga muvofikligini muxokama kilish xisoblanadi. Bunga asosiy sabab bulib, lizing bozorida lizing xizmatlari shaklining kupligi va lizing operatsiyalarini tartibga soluvchi xukukiy-me'yoriy xujjatlarning va lizing shartnomalari modellarining turli-tumanligidir.

Lizing shartnomasini tugallash jarayoni odatda kuyidagi davomiylikda buladi:

1. Lizing oluvchi uz extiyojlaridan kelib chikib, uziga kerak bulgan asbob-uskunani olishda ushbu asbob-uskunani ishlab chikaruvchi korxonalar yoki zavodni topadi. Undan tijorat taklifini oladi va uzini kiziktirgan bir kancha masalalar buyicha ma'lumotlar oladi. Bu ma'lumotlarga kuyidagilar kiradi:

- asbob-uskunaning sifati va texnik tavsifi;
- asbob-uskunani ishlab chikarish darajasi kuvvatining muddatli loyixasi;
- etkazib berish muddati, montaj, ishga tushirish bilan boglik ishtar;
- tulov shartlari va shu kabilar.

2. Potensial lizing oluvchi lizing kompaniyasiga asbob-uskunani sotib olish uchun unga kiska, urta yoki uzok muddatga lizingga berishini surab murojaat kiladi.

3. Lizing kompaniyasi lizing oluvchi bilan kelishgan xolda narxlar okilonaligiga, uning hozirgi bozordagi joriy narxlar darajasi bilan solishtiradi, va agar narxlar mos kelsa, kursatilgan asbob-uskuna oldi-sotdisi buyicha bitim tuziladi. Bunda lizing kompaniyasi lizing ob'ekti sifatida uz mulkiy xukukini kulga kiritadi.

4. Bir vaktning uzida lizing kompaniyasi va lizing oluvchi uzlari tomonidan tuzilgan lizing bitimiga muvofik lizingga berilgan asbob-uskunaga egalik kilish, lizingga olingan asbob-uskuna uchun tulovlarni uz vaktida amalga oshirgan takdirda, lizing oluvchiga utadi. Lizing shartnomasi tuzilganidan sung, lizing beruvchi kompaniya asbob-uskuna ishlab chikaruvchi korxonaga zavodlariga, asbob-uskunani lizingga oluvchining manziliga etkazish tugrisida kursatma beradi.

5. Lizing oluvchi va asbob-uskunani etkazib beruvchi aloxida tulov tulash sharti bilan asbob-uskunani texnik ta'mirlash va unga kerakli kushimcha extiyot kislarni etkazish xakida kushimcha bitim imzolashlari mumkin. Ba'zi xollarda bunday xizmatlarni lizing kompaniyasining uzi kursatadi. Bunday xollarda u xizmat xakini lizing tuloviga kushib yuborishi kuzda tutilgan.

Umuman, xalkaro lizingning umumiy kurinishi shunday. Xar kaday lizing bitimini turta boskichga ajratib kursatish mumkin. Birinchi boskichda, lizingning xar bir bitimining uziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarining tula konli taxlili, lizing munosabatlarida katnashadigan tomonlarning tavsifi va shu kabi omillar muxokama kilinadi. Bu boskichda lizing oluvchining arizasi rasmiylashtiriladi, mijozning kreditga layokatligi xakidagi xulosasi va lizing loyixasining samaradorligi xisoblab chikiladi. Ikkinchi boskichda, lizing shartnomasining xukukiy jixatdan rasmiylashtirilishi amalga oshiriladi. Uchinchi boskichda lizing jarayoni, ya'ni lizing ob'ektidan foydalanish davri buladi. Turtinchi boskichda — lizing oluvchi tomonidan lizingga berilgan asbob-uskuna koldik kiymati buyicha sotib olinadi yoki lizing oluvchidan lizingga berilgan asbob-uskuna kaytarilib olinadi.

Xalkaro lizing kompaniyasi, lizing loyixasini ekspertiza kilishda eng barkaror va obruli lizing oluvchiga beradi. Lizing loyixasi samaradorligi masalasi, hozirgi kunda eng muxim va axamiyatli masalalardan biri bulib turibdi. Shuni aloxida kayd etib utish lozimki, loyixa buyicha lizing kompaniyasi menejerining xal etuvchi karori barcha muammolar echimiga, yoki aksiga olib kelishi mumkin.

Taklif etilgan lizing loyixasini amalga oshirish uchun kuyidagi savollarga javob berilishi zarur:

- loyixaning kompaniya maksadi va vazifalariga tugri kelishi;
- rejalashtirilayotgan daromad darajasining etarliligi;
- kuyilgan mablaglar yukolish riskining darajasi.

Yukoridagi savollarga javob topish uchun kompaniyaning strategik rejasini kuyidagicha ishlab chikish zarur:

- lizing kompaniyasining loyixasiga kancha daromad va foyda tugri kelishining minimal xajmi;
- investitsiya darajasining maksimal xajmi;
- loyixalarni amalga oshirish muddati;
- zaxiralarni kaysi va kancha kismi kiska-uzok va urta muddatli loyixalarga yunaltirilishi;
- kompaniya imidjining kaday bulishi va loyixalar shakli unga ijobiy ta'sir etish-etmasligi;
- kompaniyaning vazifalari va asosiy maksadi;
- kaysi risk eng yukori darajaligi;
- loyixani kaday shakli va xajmi kompaniyaning moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlariga tugri kelish-kelmasligi.

Loyixani tanlashda, eng asosiy e'tiborni kelib tushayotgan barcha takliflarning andozali ekanligiga karatish lozim. Xamma loyixalarni bitta andozaviy shaklga keltirish, ekspertiza jarayonini bir tizimga olib keladi, va bu uz navbatida, turli mezonlarga karab turli loyixalarni solishtirish va takkoslash uchun ma'lumotlar bazasini shakllantiradi. Taklif taxlili va kayta ishlash jarayoni kuyidagi boskichlarni uz ichiga oladi va u kup jarayonli boskichdan iboratdir. Bular:

1. Boshlangich ekspertiza-taxlili;
2. Asosiy ekspertiza-taxlili;
3. Yakuniy taxlil (moliyalashtirish xakida karor kabul kilish).

Ishlab chikarish loyixalarining boshlangich ekspertizasi, lizingga olinayotgan asbob-uskunadan foydalanishni va unga tegishli barcha xujjatlar tuplamini taxlil kilish bilan boshlanadi. Tuplamga kuyidagi xujjatlarni kiritish mumkin:

- korxonaning arizasi;
- korxonaning pasporti;
- biznes-reja;
- ta'sis xujjatlarining yuridik jixatdan tasdiklangan nusxasi;
- oxirgi ikki yil davomidagi korxonalar balansi va oxirgi davrdagi barcha xisobotlar;
- xom-ashyo, ish va xizmatlar etkazib beruvchilar va iste'molchilar bilan tuzilgan bitimlar;
- ishlab chikariladigan maxsulotlarga sertifikatlar;
- debitorlar xulosasi;
- lizing oluvchining olgan asbob-uskunasini kuyib foydalanadigan maxsus joyi (binoshooti) mavjudligini tasdiklovchi xujjatlar;
- tavsiya etilgan xatlar, kafolatlar;
- lizing oluvchi tomonidan lizingni taxlil kilishi, iktisodiy asosi va lizing kompaniyasini kiziktiruvchi asosiy xujjatlarni etkazishi.

Lizing loyixasini ekspert baxolashda, lizing operatsiyalariga minimal baxo urnatish keng tarkalgan. Masalan, «Osterayshe lizing Gmbx» Avstriya lizing kompaniyasi, xar bir lizing bitimini, taxminan, 90,0 ming AKSh dollari kiyamatida bulishi kerakligi shartini kuygan. Lizing operatsiyalarida bunday minimal chegara kuyilishiga asosiy sabab bulib — xalkaro lizingning tashkiliy xarajatlarining yukoriligi xisoblanadi. Bu uz navbatida, bitimning samaradorligiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Asosiy ekspertiza — bu tula konli investitsiya taxlili demakdir. Investitsiya jarayonini taxlil kilishda berilgan ma'lumotlarning tugriligi, keltirilgan ma'lumotlar asosida, lizing olayotgan korxonaning likvidliligi va tulovga kobilyatini xamda lizing loyixasining samaradorligi taxlil kilinadi.

Investitsiya loyixasining samaradorligi kursatkichlarini ikki asosiy guruxga bulib kursatish mumkin:

1. Ishlab chikarish faoliyati samaradorligi kursatkichlari xamda loyixani amalga oshirayotgan korxonaning joriy xolati va kelajakdagi moliyaviy xolatining iktisodiy kursatkichlari. Bu ma'lumotlarga manba bulib, balans xamda daromadlar va xarajatlar xolati tugrisidagi xisobot xisoblanadi (ingl. «Balance sheet»);

2. Investitsiyaning samaradorlik kursatkichlari. Bunda xisob-kitoblar pul okimi rejasi ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi (ingl. «cash-flow»).

Daromadlar va xarajatlar xisobotidan loyixani amalga oshirmokchi bulgan korxonaning foydaliligini aniklash mumkin. «Daromadlar va xarajatlar» xisobotini tuzish uchun kuyidagi ma'lumotlar kerak.

1. Maxsulot sotish va xizmat kursatishdan tushadigan tushum xakidagi ma'lumot. Bunga ma'lum davrda sotuv vaktidagi yukotishlar xam kiradi (masalan, yil). Shu bilan birga, daromadlar va xizmatlar xisobotida ma'lum vaktidagi shartnomadagi sotuv summasining xajmi xam kuzda tutiladi:

- nakd sotuv;
- kreditga sotuv;

- joriy davrda sotish kuzda tutilgan maxsulot uchun oldindan tulanagan avans tulovi mablaglari.

2. Xisob-kitob davridagi (oy, chorak, yil) xolatlarni xisobi xakida ma'lumot;

3. Xisob-kitob davridagi xarajatlarning umumiy summasi (options, boshkaruv-savdo). Shu narsani ta'kidlab utish joizki, umumiy (doimiy) xarajatlar uziga kredit buyicha amortizatsiya ajratmalarini uz ichiga oladi.

Shuningdek, balans xujjati uzida ma'lum davrdagi korxonaning moliyaviy xolatini namoyon kiladi. Masalan, 1999 yil 1 yanvar xolati. Balans uzida korxonaning kanchalik darajada barkarorligi (likvidliligi va tulov kobilyati)ni aks ettiradi.

Cash-flow (kesh-flou) suzi korxonaning xisob-kitob xisobvaragidagi joriy pul mablaglari koldigini aniklash uchun ishlatiladi.

Bu koldik kuyidagilar xisobiga shakllanadi:

- maxsulot va xizmatlar sotuvi;
- amortizatsiya ajratmalari;
- korxonona aktivi foyda orkali olingan daromadlar;
- nizom fondiga badallar va karzlar.

Chikimdan kuyidagi xarajatlar:

- maxsulot va xizmat ishlab chikaruvchi xarajatlar;
- korxonaning umumiy xarajatlari;
- karzlarni tulash bilan boglik xarajatlar;
- dividendlar buyicha tulovlar, solik va boshka tulovlar.

Barcha tushum va tulovlar pul okimi rejasida aks etadi. Cash-flow usuli pul okimining rejasi uzida korxonona faoliyati bilan boglik barcha pul mablaglarining xarakatini uzida aks ettiradi.

Shuningdek, bu erda lizing operatsiyalarini sugurtalash masalalarini kurib utish muxim. Kup yillar mobaynida, lizing operatsiyalarida sugurta kompaniyalari ishtirok etmokda. Uzaro xukukiy munosabatlardagi jaxon tajribasining guvoxlik berishicha, lizing shartnomasi tuzish vaktida, lizing oluvchi lizingga olinayotgan asbob-uskunani olib kelishi, uni urnatishi va jixozlash ishlari xamda mulkiy risklarni sugurtalashni uz zimmasiga oladi.

*Lizing bilan boglik mulkni sugurtalash zaruriyati* — «Xalkaro moliyaviy lizing tugrisidagi Konventsiya» da kabul kilingan. Bu konventsiyaga muvofik, xalkaro moliya lizingi ishtirokchilarining uzaro xukukiy munosabatlari tartibga solinadi. Uzbekiston Respublikasining xam bu konventsiyaga kushilishi, mamlakatimizda xalkaro lizing munosabat-larining rivojlanishiga turtki beradi.

Mulkiy sugurtalash shartnomasida kuyidagilar sugurtalanadi:

- yukotishlar, etishmovchilik yoki ma'lum bir mulkning zararlanish riski;
- xayotga, soglikka yoki boshka shaxslar mulkiga zarar etkazish okibatlarini riski;
- tadbirkorlik faoliyatida uz majburiyatlarini kontragentlar tomonidan buzilishi okibatida kuruladigan zararlar riski, yoki bu faoliyatning shartlari tadbirkorga tegishli bulmagan xolatda xam uzgarishi kiradi.

Shu bilan birga, kutilayotgan daromadlarni ololmay kolish riski xam kiradi.

Sugurtalanayotgan mulk shartnoma buyicha (sugurtalovchi yoki foyda oluvchi) shaxsning foydasiga sugurtalanadi. Bu konun buyicha asoslanadi, yoki xukukiy xujjatlarda kayd kilinadi. Mulkn sugurtalash shartnomasi, sugurtalanayotgan shaxsning nomini kursatmasdan xam amalga oshirilishi mumkin. Bunda shartnomani tuzishda sugurtalanayotgan shaxsga «kursatuvchiga» sugurta polisi beriladi. Bu shartnomadagi xukuk buyicha talofat kurgan tomon,

sugurta zararini koplash orkali sugurta kompaniyasidan foydalanishi mumkin. Zarar kursatish javobgarligini sugurtalash shartnomasi, riski zarar kurgan odamga tulanishi kayd etilgan.

Yukoridagilardan shuni xulosa kilish mumkinki, xalkaro lizing buyicha investitsiya loyixalari taxlili — xalkaro lizing operatsiyalaridan foydalanishning samaradorligini oshirishda juda katta axamiyatga ega.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Xalkaro lizing bitimi kandy tarkibiy kismdan iborat?
2. Xalkaro lizing buyicha investitsion loyixalarni ekspertiza kilish jarayonida kaysi omillar inobatga olinadi?
3. Lizing shartnomasi tuzilishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon nimalardan iborat?
4. Lizing shartnomasini tugallash jarayonichi?
5. Xalkaro lizingning umumiy kurinishi kandy elementlardan tashkil topgan?
6. Taklif etilgan lizing loyixasini amalga oshirish uchun odatda kandy savollarga javob kidirish zarur?
7. Ishlab chikarish loyixalarini boshlangich ekspertizasi uchun takdim etiladigan xujjatlar tuplami kandy xujjatlarni uz ichiga oladi?
8. Investitsiya loyixasining samaradorlik kursatkich-larini izoxlang.
9. Loyixani amalga oshirmokchi bulgan korxonani foydaliligini kursatuvchi daromadlar va xarajatlar xisobotini tuzish uchun kandy ma'lumotlar zarur?
10. Lizing bilan boglik mulkni sugurtalash deb nimaga aytiladi



## 9.7. XALKARO LIZING OPERATSIYALARINI UZBEKISTONDA KULLASH VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIKBOLLARI

Jaxon iktisodiy amaliyoti, xalkaro lizingning kapital kuyilmalarni etarli darajada saklab turishga xizmat kiluvchi, moliyaviy vosita sifatidagi yukori samaradorligidan dalolat bermokda. Xalkaro lizingda moliyalashtirishni tijorat banklari negizida tashkil kilinadigan lizing kompaniyalari, yoki banklarning uzi amalga oshiradi. Shubxasiz, biznesning uziga xos bu turi bilan shugullanish banklarning uziga, yoki ularning maxsus bulimlariga, shuningdek, banklar bilan alokador moliyaviy vositachilar uchun kulaydir.

Bugun Uzbekiston Respublikasida lizingning xukukiy asoslari shakllanayotganligini ishonch bilan aytish mumkin. Uzbekiston Respublikasi Fukarolik kodeksi lizing shartnomasining mazmuni, lizing sub'ektlari va ularning xukuk va majburiyatlarini, shuningdek, lizing muomalalarida ishtirok etayotgan sub'ektlarning javobgarligini, lizing ob'ektlarini, sublizing (ijarachining lizingga olingan ob'ektni lizing shartnomasi asosida boshka ijara — lizing oluvchiga berishi)ni belgilab beradi.

Uzbekiston Respublikasining Fukarolik kodeksiga binoan, **lizing tulovi** — bu lizing oluvchi tomonidan lizing beruvchiga tulanadigan xamda lizing ob'ektini sotib olish va lizing stavkasi bilan boglik barcha sarf-xarajatlarni uz ichiga olgan pul summasidir.

Respublika tijorat banklari Uzbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshkaruvining 1997 yil 29 martda 11- sonli bayon bilan kabul kilingan 327- sonli «Uzbekiston Respublikasi banklari tomonidan lizing operatsiyalarini amalga oshirish tartibi» yuriknomasiga amal kiladi. Markaziy bank tomonidan ishlab chikilgan ushbu tartib — lizing operatsiyalarini utkazish jarayonida bank bilan lizing beruvchi, shuningdek, lizing oluvchi bilan lizing ob'ektini ishlab chikaruvchi (etkazib beruvchi) sub'ekt urtasidagi uzaro munosabatlarni tartibga soladi. Birok, mazkur tartib lizing beruvchi bankning lizing ob'ektlarini uz shaxsiy mablaglari xisobiga sotib olishni nazarda tutadi. Vaxolanki, bu banklarga lizing operatsiyalari xajmini jalb kilingan mablaglar xisobiga kupaytirish imkonini bermaydi.

Xozirgi kunda, mamlakatimiz iktisodiyotida lizingning xilma-xil turlarini uchratish mumkin. Birok, shuni unutmashlik kerakki, lizingning shakl va turlarini tasniflash ayrim sabablarga kura kiyin kechadi: turli mamlakatlarning amaldagi konunlari nafakat lizingni, balki uning aloxida turlarini xam uzgacha ta'riflaydi. Shuningdek, lizing bitimlarida lizingning bir necha turlarini birga kushib olib borish kuzda tutilishi mumkin va lizing turlarini aniklashda uning bir kancha alomatlaridan kelib chikiladi. Yukorida kayd etilgan tartibga binoan, lizing bozor sektoriga boglik xolda xam ichki, xam xalkaro lizingga bulinadi.

Jaxon tajribasi, iktisodiyotimizning turli tarmoklarida lizingning turli shakllardan foydalanish imkoniyati yaratilmokda. Xozirgi kunda mamlakatimizda lizingning kuyidagi **shakllaridan** foydalanish mumkin:

1. Moliyaviy lizing.
2. Operativ lizing.

**Moliyaviy lizing** — bu ishlab chikarish vositalarining uzok muddatga ijaraga olishning bir shakli bulib, koidaga binoan, ijaraga olingan mulklar, mulk egasidan ijaraga oluvchi, yoki mulkning ishlatuvchi ixtiyoriga utishi bilan yakunlanadi.

**Operativ lizing** — bu asosiy vositalarni uzok muddatli ijaraga olish bilan boglik bulib, bunda asosiy vositalarni ta'mirlash ishlari, mulk egasi xisobidan yoki shartnomada kursatilgan bulsa, diler firmasi xisobidan amalga oshiriladi.

Xozirgi kunga kelib, lizing operatsiyalari buyicha xarajatlar, umumiy kapital kuyilmalarining AKShda — 30 foizni, Angliya, Frantsiya, Shvetsiya va Ispaniyada — 13-17 foizni, Italiya va Gollandiyada — 12-14 foizni, Avstriya, Daniya, Norvegiyada — 8-10 foizni tashkil etadi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarda kishlok xujaligida, asosan, operativ lizing kullanimokda.

Respublikamizda xam, lizingning ushbu shaklini kullash maksadga muvofik bulishiga karamay, iktisodiyotimizning barcha soxalarida moliyaviy lizing kullashga xarakat kilinmokda. Mamlakatimiz lizingni kompaniyalari oldida, lizing operatsiyalari buyicha xalkaro tajribalarni

urganish va bu soxadagi xukukiy asoslarni bozor iktisodiyoti talablaridan kelib yaikkan xolda shakllantirish vazifasi turibdi. Ya'ni:

- iktisodiyotimizni kup ukladli tizimga utkazish;
- fermer yoki kishlok xujaligini dastlabki kapital bilan ta'minlash;
- kishlok xujaligini usib borayotgan texnikaga bulgan extiyojini kondirish;
- baxo tizimini takomillashtirish, ya'ni kishlok xujaligiga xizmat kiluvchi sanoat korxonolari ulgurji baxolari bilan kishlok xujaligi xarid baxolarining ekvivalentligini ta'minlash kabilarning xal etilishiga salbiy ta'sir kursatmokda.

Xozirgi kunga kelib yukorida kayd etilgan muammolar asta-sekin xal etilmokda, lekin lizing operatsiyalarini kengaytirishga kuyidagi omillar karama-karshi ta'sir etmokda:

- solik siyosatidagi nobarkarorlik;
- kushni mamlakatlardagi siyosiy notinchlik;
- kredit resurslarining etishmasligi;
- lizing firmalarining kamligi, ularning doimiy xarakatlanishi uchun xukukiy bazaning etarli darajada takomillashmaganligi;
- lizing firmalarida xizmat kiluvchi malakali kadrlarning etishmasligi.

Yukoridagi muammolarning xal etilishi bevosita kishlok xujaligida chet el texnikasini kullash va chet el investitsiyasining okib kelishiga yul ochib beradi. Chet el texnikasini kishlok xujaligida lizing shakli orkali kullanilishi eksportli lizing deb ataladi.

Uzbekiston Respublikasida mustakillik yillarida amalga oshirilgan tadbirlar natijasida ochik iktisodiyotni shakllantirish va tashki iktisodiy alokalarni erkinlashtirish uchun mustaxkam xukukiy asoslar yaratildi. Jumladan, «Tashki iktisodiy faoliyat tugrisida»gi, «Chet el investorlar faoliyatining kafolatlari tugrisidagi», «Erkin iktisodiy zonalar tugrisidagi» konunlar, Uzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari va boshka me'yoriy xujjatlar tashki iktisodiy alokalar xamda xalkaro moliya munosabatlarini tartibga solib turadi, chet el investitsiyalarini jalb kilish va ragbatlantirish tartibini belgilab beradi. Xususan, tashki iktisodiy alokalarni amalga oshirishning asosiy tamoyillari va tartiblari «Tashki iktisodiy faoliyat tugrisidagi» Konunda belgilab berilgan. Xalkaro xukukning umume'tirof etilgan me'yorlariga muvofik, mulkchilik shakllaridan kat'iy-nazar, tashki iktisodiy alokalar ishtirokchilarining xukuklari, manfaatlari va mol-mulkklari ximoya kilinadi.

«Chet el investitsiyalari va chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari tugrisidagi» konunda xujalik jamoalari va shirkatlarida, banklar va sugurta tashkilotlarida xissadorlik asosida ishtirok etish, ya'ni mulklarni aktsiyalar va boshka kimmatli kogozlarni sotib olish, shuningdek, erga (jumladan, ijaraga olingan erga) va tabiiy resurslarga egalik kilish va ulardan foydalanish xukuki xam chet el investitsiyalarini amalga oshirish shakllari bulib xizmat kilishi mumkinligi kayd etilgan.

Bu konunning chet ellik sarmoyador xukuklarini kafolatlovchi muxim jixatlaridan yana biri shuki, agar Uzbekiston Respublikasining keyingi konunlari investitsiya sharoitini yomonlashtirib kuyadigan bulsa, u xolda chet ellik investorlarga nisbatan un yilgacha bulgan muddatga investitsiyalar amalga oshirilib turgan paytda amalda bulgan konunlar tatbik etiladi. Shu bilan birga, konunda chet el investitsiyalari milliyashtirish amalga oshirilmaligi kafolatlanadi, shuningdek, ularni majburan sotib olish xam mumkin emas, lekin tabiiy ofatlar, avariylar, epidemiyalar, epizootiyalar (xayvonlar ulati) yuz bergan xollar bundan mustasno. Bunday xollarda chet ellik investorlarga tulanadigan kompensatsiyani keltirilgan zararga barobar bulishi nazarda tutiladi.

Chet ellik sarmoyadorlarning uz investitsiyalarini ixtiyoriy ravishda sugurta kilish xukuki investorlarni uz mulklarining ekspropriatsiya kilinishidan, mamlakat ma'murlarining sugurta tashkiloti bilan investor urtasidagi shartnomaviy munosabatlari aralashuvidan, milliy va boshka valyutalar almashtirishni xamda ularni mamlakat tashkarisiga chikarishni cheklashlardan va boshka xatarlardan muxofaza kilishni ta'minlaydi.

Chet el investitsiyalariga ega bulgan korxonalar uzlari ishlab chikargan maxsulotlarni litsenziyalarsiz xorijga chikarish va extiyojlari uchun chetdan maxsulot keltirish xukukiga egadirlar. Shuningdek, shaxsiy extiyojlar uchun chetdan respublikamizga keltirilayotgan mol-mulkklarga boj tulashdan ozod kilingan.

1996 yilda «Erkin iktisodiy zonalar tugrisida»gi konunning kabul kilinishi xam iktisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirishga karatilgan eng muxim tadbirlardan biri buldi.

Uzbekiston Respublikasining «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tugrisida»gi Konunida kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksport-import operatsiyalaridagi ishtirokini kengaytirish, ularning xalkaro kurgazmalar va yarmarkalarda ishtirok etishlariga kumaklashish tadbirlarini ishlab chikish va amalga oshirish asosida tashki iktisodiy faoliyatni rivojlantirishga yordam berish nazarda tutiladi. 1995 yil 1 oktyabrdan boshlab, tashki iktisodiy faoliyatni tartibga solishning yangi mexanizmi ishga solindi. Bu mexanizm negizida tartibga solishning tarifga asoslanmagan usulidan tarifga asoslangan usuliga utishga, eksport-import operatsiyalarini xalkaro me'yorlar talablariga mos unifikatsiyalashni amalga oshirishga karatilgan tadbirlar majmui yotadi.

Tayyor maxsulotlarning tashki bozorlarga kirib borishiga va eksport krediti mexanizmi shakllanishiga kumaklashish natijasida respublikamiz Prezidentining «Eksportga maxsulot ishlab chikaruvchi korxonalarini ragbatlantirishga oid kushimcha chora-tadbirlar tugrisida»gi Farmoni (1996 yil 20 mart) bilan 1996 yil 1 apreldan kuplab korxonalar tovarlar (ishlar,

xizmatlar) eksport xajmlari oshirilishidan erkin almashtiriladigan valyuta shaklida olingan tushum foydasidan (daromaddan) solik tulashtan ozod kilinadi.

Uzbekiston Respublikasi Prezidentining «Tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportini ragbatlantirish buyicha kushimcha chora-tadbirlar tugrisida»gi (1997 yil noyabr) farmoniga kura, utgan yilning 1 noyabridan boshlab, tovarlarning (ishlar, xizmatlarning) barcha turiga eksport bojxona bojlari xamda tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportini litsenziyalash bekor kilindi. Fakat maxsus maxsulot turlarigagina bu koidadan mustasno kilib kuyildi.

Ushbu Farmonda belgilangan chora-tadbirlar — birinchi navbatda, tashki savdo faoliyatini yanada erkinlashtirishga, eksport-import operatsiyalarida tarif va notarif boshkarish usullarini tartibga solishga va takomillashtirishga karatilgan.

Farmonda kursatilgan muddatdan boshlab, rakobat-bardoshli maxsulot ishlab chikarishni kengaytirish maksadida erkin muomaladagi valyutaga eksport kiladigan korxonalar uchun bir kator kushimcha imtiyozlar berish joriy etilgan, masalan:

- bu korxonalarga uz maxsulotini oldindan pul olmasdan va akkreditiv ochmasdan eksport kilish xukuki beriladi;

- eksport kilinayotgan tovar ulushi maxsulotni sotishning umumiy xajmi 30 yoki undan kuprok foizini tashkil etsa, u xolda korxonalarining daromad soligi stavkasi amaldagi stavkaga karaganda ikki barobar kamaytiriladi;

- korxonalar uz maxsulotlarini ichki bozor narxlaridan arzon narxlarda eksport kilgan sharoitda ulardan olinadigan solik baza eksport maxsulotini sotishdan tushgan amaldagi narx bilan xisob-kitob kilinadi.

Farmonning muxim xususiyatlaridan yana biri shundan iboratki, unda kursatilgan imtiyozlar fakat eksportga tayyor maxsulot ishlab chikarishga astoydil intilgan korxonalarini ragbatlantirishga karatilgan. Keyingi 5 yil ichida respublikada tashki iktisodiy faoliyatni rivojlantirish buyicha muxim ishlar kilindi, uning me'yoriy-xukukiy bazasi yaratildi, tegishli institutsional uzgarishlar amalga oshirildi, iktisodiyotimizni tashki dunyoga yanada kengrok ochish va erkinlashtirishga karatilgan jiddiy kadamlar kuyildi.

Tashki iktisodiy faoliyatning xukukiy asoslari xakida suz yuritganda, bu erda albatta xalkaro bitimlar tugrisida xam biroz tuxtalib utish maksadga muvofikdir. Chunki, ikkita yoki bir nechta xalkaro munosabatlar katnashchilarining xar kandy birgalikdagi faoliyati, kelishilgan, xukukiy kuchga ega bulgan xujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Ikki va undan ortik davlatlar urtasida xalkaro bitimlar tuziladi va ular kuyidagi turlarga bulinadi:

- umumiy tusdagi bitimlar. Ushbu bitim ikki davlat urtasida tuzilgan xalkaro bitim bulib, uz ichiga munosabatlar asosi, diplomatik munosabatlarni urnatish xakida bitimdir. Unda iktisodiy munosabatlar aloxida bulim sifatida ajratilib kursatiladi.
- maxsus bitimlar. Bu bitimlar asosan, iktisodiy masalalar buyicha ikki yoki kup tomonlama tuziladigan kuyidagi bitimlardir:

a) bitimlar va shartnomalar. Bu bitimlar maxsulotlar va xizmatlar eksport-importining umumiy shartlari va tartibini aniklovchi xujjatlardir. Ular katorida aloxida axamiyatga ega maxsulotlar va xizmatlarga taallukli maxsus bitimlar ajratiladi. Masalan, usimlik va xayvonot dunyosiniig yukolib borayotgan turlarining xalkaro savdosi buyicha Konventsiya, shuningdek, ishlab chikaruvchi va iste'molchilar manfaatlarini kuzlagan xolda keskin narx tebranishining oldini olish yoki yumshatish maksadida xom-ashyo resurslari savdosida kullaniadigan kup tomonlama shartnomalar.

Bu bitimlar kontrogentlar yoki xorijiy sheriklar urtasida xalkaro tijorat shartnomalari shartnoma tuzish uchun asos bulib xizmat kiladi.

b) bojxona bitimlari;

v) solik bitimlari. Masalan, ikki marta solik olishning oldini olish maksadida. Xalkaro munosabat katnashchilarining solik solish umumiy koidalari, sharoitlari va tartibi tugrisidagi solik bitimlari;

g) investitsiyalarni ximoyalash xakidagi davlatlararo bitimlar, ya'ni iktisodiy munosabat urnatilayotgan ikki mamlakat urtasida tuziladigan kapital kuyilmalarning uzaro kafolati va ragbatlantirish xakidagi shartnomalardir.

1992-1995 yillarda Uzbekistonning umumiy tashki savdo aylanmasi kariyb 2 marta kupaydi, MDX mamlakatlari bilan iktisodiy integratsiya chukurlashdi, uz navbatida iktisodiy rivojlangan uzok xorijiy mamlakatlar bilan savdo xajmi va geografiyasi birmuncha kengaydi. Uzok xorijiy mamlakatlar bilan eksport xajmi katorida an'anaviy paxta tolasidan tashkari, elektr manbalari chikarish, tukimachilik sanoati maxsulotlari, shuningdek, transport xizmati, sayyoxlik va boshka xizmatlar keng urin oldi.

Import tizimida ozik-ovkat keltirish kamayib, texnika va asbob-uskunalar olib kelish salmogi ortdi.

Uzbekiston Respublikasi tashki savdo aylanmasi (TSA) tugrisidagi ma'lumotlar kuyidagi 19-jadvalda keltirilgan (mln. AKSh dollari)

**19-jadval**

Kursatkichlar	1992y	1993y	1994y	1995y	1996y
TSA	1798,6	1900,0	5299,4	6001,7	9711,3
Eksport	869,3	919,2	2689,9	3109,0	4590,2
Import	929,3	980,8	2609,5	2892,7	4721,1
Koldik	-60,0	-61,6	+80,4	+216,3	-130,9

Respublika tashki savdo aylanmasining eng yukori kursatkichi 1996 yilda kayd etilgan bulib, u 9,7 mlrd. AKSh dollaridan ortigni tashkil etgan. Ammo, 1997-1998 yillarda respublikaning asosiy eksport tovarlari — oltin va va paxtaning jaxon narxlarining pasayishi xamda Janubiy-Sharkiy Osiyo va Rossiyadagi moliyaviy inkirozlar natijasida, tashki savdo aylanmasi sezilarli darajada kiskardi. Ushbu vokealarga karamasdan, 2000 moliya yili yakunlariga kura tashki savdo xajmi, 1999 yildagiga nisbatan 39,4 foizga ortdi. 2000 yilda Uzbekistonning yalpi savdo aylanmasi 6212,1 mln. AKSh dollarini tashkil etdi. Bunda, eksport ulushi 52,5 foiz, import esa, 47,5 foizni tashkil etdi va 317,3 mln. AKSh dollari mikdoridagi ijobiy koldikka erishildi. Mazkur yilda, eksportning moddiy xajmida usish kuzatildi va eksport tarkibida boskichma-boskich diversifikatsiya amalga oshirildi. Natijada, uning tarkibida yukori kushimcha kiymatli tovarlar ulushi jami eksport xajmining 36 foiziga etdi (ushbu kursatkich 1998 yilda 25 foizni tashkil etgan edi).

2000 yilga kelib, tashki savdo operatsiyalarining geografik kengayishida xam jiddiy uzgarishlar yuz berdi. Masalan, 1990-yillarda tashki savdo sezilarli darajada MDX mamlakatlariga yunaltirilgan bulsa (xususan, 1994 yilda respublikaning jami tashki savdo aylanmasining 57,8 foizi ushbu mintakaga tugri kelgan), marketing izlanishlari va bozor segmentatsiyasi buyicha tovarlarni kayta taksimlash natijasida, 2000 yilda tashki savdo aylanmasining 37 foizi MDX mamlakatlari va 63 foizi uzok xorij mamlakatlari xissasiga tugri keldi. Jumladan, umumiy savdo xajmidan: AKSh — 8,1 foiz, Germaniya - 7,6 foiz, Koreya — 6,7 foiz, Shveysariya — 5,8 foiz, Buyuk Britaniya — 5,4 foiz, Turkiya — 4,6 foiz; MDX

mamlakat-laridan: Rossiyaga — 17,3 foiz, Kozogistonga — 3,9 foiz, Turkmanistonga — 2,7 foiz tugri keldi.

Uzbekiston Respublikasi tabiati rang-barang bulib, agrar soxani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar mavjuddir. Bunga jaxon bozorlarida talab yukori va baxosi kimmat bulgan kishlok xujaligi va chorvachilik maxsulotlari etishtirilishi kiradi. Bular paxta tolasi, korakul teri va boshka maxsulotlar xisoblanadi. Asosan, Uzbekistonning eksportida paxta tolasi, korakul teri, mashinalar, kabel maxsulotlari va boshkalar etakchi urinda turadi.

Respublikamizga keltirilayotgan import maxsulotlari esa, kuprok texnika va xalk xujaligi ustuvor soxalarining rivoji uchun xizmat kilishi kerak.

Respublikaning jaxon xujaligi tizimiga shaxdam kadamlar bilan kirib borishi uchun, xorijiy davlatlar va xalkaro tashkilotlar bilan iktisodiy aloqalarining urnatilishi tashki faoliyatni boshkaruv tizimini tubdan uzgartirishni talab kiladi. Ushbu kurinish respublika tashki siyosati oldiga kuyilgan ikki muxim xolat bilan boglik:

Birinchidan, Uzbekiston mustakillikka erishgach, tashki iktisodiy munosabatlar uchun uzining mustakil siyosatini ishlab chikishi va uni amalga oshirishi uchun javobgar bulgan maxsus tashkilotlar tuzish takozo etildi.

Ikkinchidan, Respublikada milliy iktisodiyotni tubdan uzgartirib, kaytadan ishlab chikish, ya'ni kayta kurish jarayoni tufayli tashki iktisodiy faoliyat ishtirokchilari kengaydi, ularga turli soxada tashki iktisodiy bitimlarni tuzishda kengrok xukuklar berildi. Ushbu soxadagi shartnomalarni, bitimlarni fakat davlat idoralari emas, balki mulkchilikning boshka shakllariga asoslangan turli birlashmalar, korxonatashkilotlarga xam tuzish imkoniyati berildi.

Ushbu omillarni xisobga olgan xolda respublikada tashki iktisodiy faoliyat va xalkaro moliya munosabatlarini boshkarish tizimi shakllanmokda xamda uning tarkibiy kismiga kirgan tashkilotlar faoliyati takomillashtirilmokda.

Tashki iktisodiy faoliyatni boshkarishning tarmok tashkilotlari tashki iktisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi vazirliklar, idoralar, yirik korxonalar va tashkilotlarning maxsus idoralar, yirik korxonalar va tashkilotlarning maxsus bulnmalaridan tashkil topgan. Ular tarmok, idora, korxonatashki iktisodiy faoliyatini rivojlantirish dasturini ishlab chikadi, xorijiy sheriklar bilan shartnoma va bitimlar tuzadi, tashki iktisodiy aloqalarni rivojlantirishning anik yunalishlari buyicha Vazirlar Maxkamasiga takliflar tayyorlaydi. Ushbu tashkilotlarga: Kishlok va suv xujaligi vazirligi, Davlat kimyo sanoati kontserni, Davlat metallurgiya sanoati kontserni, «Uzbeksavdo» uyushmasi, «Uzdonmaxsulot», «Uzavtotrans», «Uzbekiston temir yullari», «Uzbekiston xavo yullari», «Dori-darmon» xissadorlik uyushmasi va boshkalar.

Tashki iktisodiy faoliyat boshkarilishida funktsional tashkilotlar xam muxim rol uynaydi.

Butashkilotlarga: Iktisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Markaziy Bank, Davlat solik kumitasi, Mexnat vazirligi, Davlat texnika kumitasi va boshkalar kiradi.

Tashki iktisodiy faoliyatni tartibga solishning bilvosita iktisodiy usullari ichida bojxona bojlari va tariflari juda muxim xisoblanadi. Ular yordamida xalkaro munosabatlarning kkrinishlaridan biri bulgan tashki savdo tartibga solinadi. Tariflarni uzgartirish orkali davlat eksport va importni ragbatlantirishi yoki kiskartirishi, uning tuzilishini vujudga keltirishi, bu orkali esa, milliy ishlab chikarish va iste'mol munosabatlariga ta'sir etishi mumkin.

Bojxona tariflari, asosan, milliy darajada kulaniladi va bunda kator vazifalarni bajaradi.

1. Fiskal, ya'ni davlat byudjeti daromadlarini tuldirish manbai bulib xizmat kiladi;
2. Proteksionistik, ya'ni milliy ishlab chikaruvchilarni chet el rakobatidan ximoya kiladi;
3. Boshkaruv, ya'ni iktisodiyot tuzilishini kayta kurishni boshkarish vositasi xisoblanadi va ular yordamida mamlakat iktisodiyotidagi ilgor siljishlar ragbatlantiriladi.

Shunday kilib, bojxona bojlari va tariflari milliy darajada bulgani kabi millatlararo darajada xam, tashki savdoni tartibga solishning muxim vositalari xisoblanadi.

Xalkaro moliya munosabatlarini tartibga solishning bilvosita, egiluvchan usullari sifatida turli solik turlari xam keng kulaniladi. Bunda fakat tashki solik tizimidagi emas, balki ichki solik tizimidagi solik turlaridan xam foydalaniladi. Fakat tashki iktisodiy bitimlarni tartibga solishda kulaniladigan soliklarga import va eksport soliklari kiradi. Ular olib kelayotgan yoki olib chikayotgan maxsulotlarga, ularning okimlarini tartibga solish ya'ni, ragbatlantirish yoki tuxtatish maksadida belgilanadi.

Kupgina mamlakatlarda import tushumlariga soliklar keng kullanilsa, eksport maxsulotini sotishdan tushumlarga soliklar esa, ma'lum imtiyozlarga egadir. Bu eksportni ragbatlantirishga, ichki va tashki bozorlardagi narxlar farki kup bulganda uz maxsulotlari kabi import maxsulotlarga xam mamlakat ichida sotish uchun bir xil sharoitlar yaratish imkonini beradi.

Xalkaro moliya munosabatlari ichki soliklar tizimi yordamida xam tartibga solinadi. Davlat maxsulot sotilishidan olingan foydaga, pul kapitalidan daromadlarga, kapitalning kushimcha usishiga, kimmatbaxo kogozlarga, ortikcha foydaga va boshkalarga soliklarni belgilab, uzining xamda xorijiy ishlab chikaruvchilarning faoliyati uchun kulay yoki kulay bulmagan sharoitlarni yaratishi mumkin.

Xalkaro moliya munosabatlarini tartibga solishda, egiluvchan iktisodiy vositalar katoriga eksportni ragbatlantirish, Uzbekistonda keng kullanilayotgan valyuta tushumlaridan yarim ajratmalar va sotilishi majburiy bulgan valyuta tushumlari xissasini kiritish mumkin. Jaxon amaliyotida xalkaro moliya munosabatlarini tartibga solishning bilvosita usullariga karaganda, bevosita usullaridan kengrok foydalaniladi. Bevosita usullarni yukorida, uzining mazmuniga kura, iktisodiy, ma'muriy, me'yoriy-xukukiy kurinishga ega ekanligini aytib utgan edik. Asosan, litsenziyalash va kvotalash iktisodiy tusdagi bevosita usullar ichida eng keng tarkalgani xisoblanadi. Tashki iktisodiy operatsiyalarni amalga oshirishga davlat tashkilotlaridan ruxsat olishning ma'lum tartibi bu — litsenziyalashdir.

Litsenziyalash bilan bir katorda, jaxon amaliyotida maxsulotlar, shuningdek, ishchi kuchi eksport va importini chegaralash maksadida kvotalash keng kullaniladi. Bu usulning moxiyati unda vakolatli yoki xalkaro tashkilot aloxida maxsulotlar, xizmatlar, mamlakatlar va mamlakatlar guruxi buyicha ma'lum davrga eksport va importga mikdoriy yoki kiymat chegaralarni (kvotalarini) belgilaydi. Davlat tomonidan tartibga solish tadbiri sifatida kvotalash tulov balanslarini, ichki bozorda talab va taklifni balanslashtirish uchun, muzokaralarda uzaro kelishuvga erishish uchun kullaniladi. Uzbekistonda kvotalash xalk iste'mol mollarini va strategik xom-ashyoning muxim turlarini olib chikishni chegaralash usuli sifatida kullanilmokda. Xalkaro moliya munosabatlarni davlatlararo tartibga solish tadbiri sifatida kvotalash asosan, xalkaro barkarorlashtirish bitimlariga muvofik kullaniladi. Bu bitimlar, kandaydir bir maxsulotni ishlab chikarishda yoki eksport kilishda xar bir ishtirokchi mamlakatning xissasini belgilaydi. Shuningdek, kvotalash fakatgina maxsulotlarnigina emas, balki ishchi kuchi migratsiyasini xam tartibga solishda ishlatiladi. Xozirgi davrda rivojlangan mamlakatlar ichki mexnat bozorini ximoyalash maksadida xorijdan ishchi kuchi okimi importiga xam kvotalar urnatiladi. Respublikamizda kullaniladigan ma'muriy tusdagi tartibga solishning uziga xos choralari sifatida tashki iktisodiy aloka katnashchilarini ruyxatga olish, maxsulotlar bayonnomasi yoki bojxona bayonnomasini takdim etish xisoblanadi. Ruyxatga olish urnatilgan shaklda tuldirilgan ruyxatga olish varakasini takdim etish, ruyxatga olinganlik rakamini berish, tashki iktisodiy aloka katnashchilari rasmiy ravishda chop etiladigan Davlat ruyxatlari tuplamiga kiritish va ruyxatga olinganlik xakidagi guvoxnomani berishni uz ichiga oladi.

Maxsulotlar bayonnomasi — bu tashki iktisodiy aloka katnashchisining maxsulotni davlat chegarasini kesib utayotgani xakida ushbu mamlakatda urnatilgan koidalarga muvofik bergan rasmiy arizasidir. U ikki kurinishda:

1. Bojxona bayonnomasi buyicha;
2. Tovar-transport xujjatlari buyicha amalga oshiriladi.

Uzbekiston xozirgi davrda jaxon buyicha paxta tolasi etishtirishda 5-urinda turadi. 1996-97-yillarda respublikamiz 1,062 mln. tonna paxta tolasi etishtirdi, bu esa, jaxon paxta ishlab chikarishining —6 foiz, (urta tolali — 90foiz) va ingichka tolali — 10 foizini tashkil kildi. Etishtirilgan paxtaning 15 foiz ichki bozorga va kolganlari esa xar xil davlatlarga eksport kilinadi. Paxta tolasi eksporti buyicha Uzbekiston jaxonda ikkinchi urinni egallaydi, bu esa jaxon eksportining 20 foizini tashkil kiladi.

Uzbekiston Respublikasining xalkaro moliya munosabatlarini takomillashtirish va jaxon xujaligidagi uziga xos urnini topishida, tashki iktisodiy alokalarni erkinlashtirishida kuyidagi infratuzilmalarni rivojlantirish muxim axamiyatga egadir:

1. Xalkaro moliya munosabatlarni amalga oshirishning axborot va ilmiy-uslubiy ta'minoti. Ushbu axborot va ilmiy-uslubiy ta'minot uchun kuyidagi vazifalar bajarilishi zarurdir:

- tashkiliy, statistika, ilmiy-ulubiy, davlat boshkaruvi organlari va tashki iktisodiy faoliyat ishtirokchilari buginlari, konyunktura tizimlarini uz ichiga oluvchi tashki iktisodiy faoliyatga xizmat kursatish va markazlashgan avtomatlashtirilgan axborot tizimini tashkil etish;
- anik tizim kursatkichlari buyicha, tashki iktisodiy faoliyat sub'ektlarini tulik statistik kamrab olishni ta'minlash;
- ukuv kullannmalarini nashr kilish va ishlab chikarish;
- tashki iktisodiy faoliyatni tartibga soluvchi va doimiy yangi kushimchalar bilan tuldirilishini inobatga oluvchi konuniy va me'yoriy aktlar chop etilishini markazlashgan xolda bajarish. Xozirgi kunda respublikada jaxonning mashxur «Motorola» (AKSh), «Simens» «Alkatel» (Germaniya), «DEU» (Janubiy Koreya) singari etakchi chet el kompaniyalari ishtirokida telekommunikatsiya tarmoklarini kayta ta'mirlash ishlari faol olib borilmokda. Zamonaviy telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, kompyuter va telekommunikatsiya texnikasini ishlab chikaradigan kushma korxonalar barpo etilmokda. Zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish ustida katta ishlar olib borilmokda, lekin ushbu infratuzilmani barpo kilishda muammolar etarlichadir. Masalan, respublika poytaxti, viloyat markazlari va tumanlar urtasida uzaro telefon alokalari yaxshi yulga kuyilmagan. Tashkilotlarda elektron pochta va jaxon kompyuter axborot turi internet etarlicha darajada foydalanilayotgani yuk. Bu esa, uz navbatida, axborot ta'minotining rivojlanishini sustlashtiradi. Ushbu axborot va ilmiy-uslubiy ta'minot xalkaro moliya munosabatlarning infratuzilmasini shakllantirishda muxim axamiyat kasb etadi.

2. Tashki iktisodiy faoliyatning savdo alokalarini erkinlashtirishda transport infratuzilmasini rivojlan-tirish. Tashki iktisodiy faoliyatda transport infratuzilmasini rivojlantirish muxim masalalardan biridir. Transport infratuzilmasi muammolarini echish uchun, avvalo, kuyidagi vazifalar bajarilishi lozim:

- tashki iktisodiy faoliyat transport infratuzilmasini rivojlantirish dasturini ishlab chikish;
- Uzbekistonning xalkaro kuptomonlama va ikki-tomonlama kelishuvlarga tashki savdo tranzit yuk tashish masalalariga keng kulamda kushilishi (bu erda tashki iktisodiy faoliyat infratuzilmasini rivojlantirishda transport ustuvor yunalishlardan biri, deb karalishi kerak.) «Respublikamizning rivojlangan kommunikatsiyalari tizimining mavjudligi xam Uzbekistonning jugrofiy-strategik mavkeini jozibador kiluvchi muxim omildir». Chunki, transport kommunikatsiyalari davlatning uz oldiga kuygan strategiyasini amalga oshirishda roli kattadir.

Uzbekiston Respublikasidagi temir yul va avtomobil yullari Markaziy Osiyoda eng zich xisoblanadi. Temir yullarning kupgina tarmoklari elektrlashtirilgan. Temir yullarning uzunligi 6,7 ming km.dan ziyoddir. Avtomobil yullarining 80 foizidan ortigi kattik koplamali yullardir. Ushbu yullar xalkaro va davlat axamiyatiga molik bulib, ular takomillashtirilgan koplamaga ega.

Uzbekiston Evropa bilan Sharkiy Osiyo urtasida joylashgan juda istikbolli xalkaro transport tarmogi bulib xizmat kilishi mumkin. Masalan, Germaniyaning Frankfurt-Mayn shaxridagi «Lyuftganza» aeroporti singari katta xalkaro mikyosdagi aeroportlar barpo etilsa, bemalol Evropa va Sharkiy Osiyo davlatlari tranzit yuk tashish tarmoklariga xizmat kilish mumkin. Xozirgi kunda «Uzbekiston xavo yullari» milliy aviakompaniyasi IKAO a'zosi bulib, uning tarkibida Toshkent aeroportidan tashkari, yana 12 ta mintakaviy aeroport mavjud. Shulardan 3 tasi xalkaro toifadagi samolyotlarni kabul kilishga moslashtirilgan. Bulardan tashkari, chet el kapitali ishtirokida va xorijiy mutaxassislarni jalb etgan xolda Toshkent, Samarkand, Buxoro, Urganch, Namangan, Termiz shaxarlaridagi aeroportlar kayta ta'mirlanmokda.

Jaxon xujaligida mamlakatning ishtirok etishi kup jixatdan mamlakatning arzon transport vositalaridan foydalanish imkoniyatlariga xam boglik. Shu nuktai nazardan, eng arzon xisoblanadigan transport turlaridan dengiz orkali yuk tashish Uzbekiston uchun ancha nokulayliklar tugdiradi. Eng kiska yul 3 ming kilometrni tashkil etsa, albatta mamlakatning iktisodiy alokalariga ta'siri juda xam kattadir. Uzbekiston uz yuklarini 2-3 ta davlat orkali tranzit tarzida olib utsa, transport tariflarining yukoriligi Uzbekiston maxsulotlarini jaxon bozorida rakobatga bardoshsiz kilib kuyadi.

Markaziy Osiyo Respublikalari, Iktisodiy xamkorlik tashkiloti (EKO)ga kiruvchi boshka mamlakatlar urtasida xukumatlararo shartnoma tuzildi va uning asosida Tajan-Saraxs-Mashxad temir yulini kurish amalga oshirila boshladi. Bu temir yul Pekinni Istanbul bila boglaydigan Trans-Osiyo magistralining tarkibiy kismi xisoblanadi. Bu yulda ikkala yunalishda 6-8 mln. tonnagacha yuk tashilishi kutilmokda. TRASEKA — TSECSA (Transport Corridor Europe-Caucasus-Central Asia) — Evropa-Kavkaz-Markaziy Osiyo transport koridori loyixasi xisoblanadi. Ushbu loyixa katnashchilari Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya, Kozogiston, Kirgiziston, Tojikiston, Turkmaniston, Uzbekiston va Evropa Ittifokidir.

Markaziy Osiyo va Uzbekiston uchun eng asosiy temir yullarb (Gruziya orkali) Toshkent — Chorjou — Turkmanboshi — Boku — Poti (Botumi) bulib, bu temir yul Turkmanistondan Turkmanboshi bandargoxidan Ozarbayjon Boku bandargoxigacha va keyingi temir yul orkali Gruziyaning Poti yoki Botumi bandargoxiga chikadi. Ushbu yulning uzunligi 2950 km.dir. Xozirgi kunda bu magistralning kuvvati bir sutkada 40 juft poezdning utishini ta'minlashi mumkin, lekin Turkmanboshi — Boku parromchiligining va Kavkazning siyosiy muammolari tufayli, fakat 40-30 foiz imkoniyat bilan ishlamokda.

Uzbekiston temir yullari kurulishida ishtirok etish bilan bir katorda, Xitoy va Pokistonga olib boradigan Andijon — O'sh — Ergashtom — Kashkar, shuningdek, Buxoro — Saraks — Mashxad — Texron va Termiz — Xirot — Kandaxor — Karochi avtomobil yullarini kurish va kayta ta'mirlash ishlariga xissa kushgan xolda katnashishdan xam manfaatdor. Bu yullar orkali Xind okeaniga chikib olish mumkin va EKOga a'zo mamlakatlarga boradigan yulni 3 marta kiskartirish mumkin.

Ushbu kit'alararo magistrallarni vujudga keltirish va ularning texnikaviy xolatini mustaxkamlash nixoyasiga etgach, Uzbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlarining tashki iktisodiy alokalarini amalga oshirish uchun kulay sharoitlar yaratiladi. Osiyo - Tinch okeani mintakasi (ATR) mamlakatlaridan, Xindiston va Xitoydan Yakin Osiyo mamlakatlariga, Turkiyaga, shuningdek, Evropa mamlakat-lariga tranzit yuk va yulovchilar tashishni kengaytirish uchun kulay imkoniyatlar ochiladi. Bundan tashkari, amalda Buyuk Ipak yuli yunalishlariga mos bulgan bunday kommunikatsiyalar orkali dunyoning kupgina mamlakatlari bilan muntazam madaniy, sayyoxlik va amaliy alokalarini yulga kuysa buladi. Shuningdek, MDX va Markaziy Osiyo mintakasi mamlakatlari uchun jaxon bozoriga olib chikadigan «Janubiy yul», Janubiy, Janubiy-Sharkiy Osiyo va Yakin Osiyo mamlakatlari uchun esa, Markaziy Osiyo bozoriga olib boradigan «Shimoliy yul» ochiladi. Xalkaro transport va iktisodiy alokalarini rivojlantirish xamda mustaxkamlash uchun kulay shart- sharoitlar yaratish maksadida Uzbekiston xozirning uzidayok, bir kator tashkiliy-xukukiy va amaliy chora-tadbirlarni kurmokda. Uzbekiston uz manbalari xisobidan xozirgi kunda 2 ta yirik va strategik muxim temir yul magistralining uzunligi 342 km. bulgan Navoiy — Uchkuduk — Sulton Uvays — Nukus xamda uzunligi 223 km. bulgan Guzor — Boysun — Kumkurgon magistrali kurulishini va Angren — Kukon avtomobil yulini ta'mirlashni amalga oshirmokda. Mazkur yullar nafakat tabiiy minerallarning benixoya boy zaxiralariga yul ochadi, balki respublika ichida transport katnovini arzonlashtirish imkonini beradi xamda dengiz bandargoxlariga va xalkaro transport kommunikatsiyalariga chikishni xam ta'minlaydi.

Uzbekiston avtomobilda yuk tashish borasida MDP guvoxnomasini kullagan xolda xalkaro yuk tashish tugrisidagi bojxona konventsiyasi xalkaro yuk tashish shartnomasi tugrisidagi konventsiya, yul belgilari va signallari tugrisidagi konventsiya va yul xarakati tugrisidagi konventsiyasini ratifikatsiya kildi.

Fukaro Aviatsiyasi soxasida bir kancha konventsiyalar ratifikatsiya kilindi. Masalan, xavo kemalarini konunsiz egallab olishga karshi kurash tugrisidagi konventsiya, xavo kemasi ortida ruy beradigan jinoyatlar va ba'zi xatti-xarakatlar tugrisidagi konventsiya, xavo kemalarida xalkaro yuk tashishga doir ba'zi koidalarni uygunlashtirish konventsiyalari ratifikatsiya kilindi.

Xozirgi kunga kelib, aviatsiyada yulovchi va yuklarni xalkaro tashish soxasidagi kushma korxonalar sirasiga: «Osiyo Rianta» (Irlandiyaning «Er Rianta interneynshenl» kompaniyasi va Shennon aeroporti bilan birga); «Askon» (Amerikaning «Konkord» korporatsiyasi bilan birga); «Aero Abda» (Malayziyaning «Abdi APR vreyg SND VXL» bilan birga); «Inter servis Kargo» (Birlashgan Arab amirliklari) va boshkalar kiradi. Uzbekistonning avtomobil transportida xalkaro yulovchi va yuk tashuvchilar Uyushmasi («ASMAP») doirasida xam, shunday transport



korxonalarini tashkil etish soxasida xam samarali transport siyosatini amalga oshirishga yordam bermokda. U respublikaning milliy manfaatlarini ximoya kilinishini ta'minlamokda.

3. Xalkaro moliya munosabatlari soxasida mutaxassis kadrlarni tayyorlash.

Xalkaro moliya munosabatlariga kadrlar tayyorlash soxasida xam, bir kancha murakkab vazifalar kuyilgan edi. Bu vazifalarga kuyidagilarni kiritish mumkin:

- respublikamizda faoliyat yuritayotgan institut va universitetlarning tashki iktisodiy munosabatlari, xalkaro marketing va menejment bulimlarida kushimcha ukuv-konsalting markazlarini tashkil etish;
- universitet va unstitutlarning ukituvchi kadrlarini tayyorlash va malakasini oshirish;
- iktisodiyotning turli soxalarida faoliyat kursatyotgan raxbar xodimlar va mutaxassislarni tashki iktisodiy tarkibda ish olib borishlarini ta'minlash, malakasini oshirish;
- chet el universitetlarida va kompaniyalarida ukish va amaliyotga borishni tashkil etish va xokazolar.

Uzbekistonda ta'lim soxasida xam juda katta uzgarishlar ruy berdi. Respublikaning «Ta'lim tugrisida»gi konuni kabul kilindi va utgan davr mobaynida 300 ta yangi turdagi ta'lim muassasalari ochildi. Respublikada bozor munosabatlarini rivojlantirish, xujalik yuritishning ilgor usullari va ishlab chikarishni ilmiy-texnikaviy rivojlantirish, tashki iktisodiy faoliyat bilan boglik bilim soxalari buyicha mutaxassislar tayyorlash kengaymokda.

Tashki iktisodiy faoliyatning yangi strategiyasi iktisodiyotning tarkibiy kismidagi inkirozni engib utish, iktisodiy tarakkiyot va xalkaro mexnat taksimotida, jaxon savdosida yukori sifatli maxsulotlar bilan ishtirok etish xamda tashki iktisodiy faoliyatni takomillashtirish asosiy vazifalardandir. Buning uchun:

*Birinchi*dan, eksport saloxiyatini tiklash, rivojlantirish va eksport tarkibini yaxshilash. Buning uchun, kiska fursat ichida eksportga muljallangan maxsulotlar ishlab chikarishni kuchaytirish, bu erda nafakat xom-ashyomiz va tabiiy resurslarimiz xisobiga balki, ilmiy-texnikaviy bilimlarimiz, arzon ishchi kuchi xisobiga, ishlab chikarishning ustuvor soxalarini rivojlantirish xisobiga erishish kerak.

*Ikkinchi*dan esa, importni ratsionallashtirish muxim vazifalardan biri bulib, bu erda import siyosati nafakat axolining turmush tarzi va manfaatlarini kuzlab, balki iktisodiyotni yangilash va rakobatbardoshligini ta'minlashga xizmat kiladi. Mashinasozlik importida imkon boricha tayyor mashinalar, transport vositalari va texnologik asbob-uskunalari kuprok foydali kazilmalar kazish ishlari uchun va kayta ishlovchi soxalar uchun sotib olinishi kerak. Importning samarasini oshirilishida yana, Uzbekiston iktisodiyoti uchun zarur bulgan maxsulotlar urnini bosuvchi va kam xarajatlar sarflanadigan (ya'ni, bu erda albatta sotib olish va olib kelish uchun ketgan xarajatlar e'tiborga olinib) maxsulotlar ishlab chikarishni tashkil etish xam asosiy yunalishlardandir.

*Uchinchi*dan, respublikada ishlab chikarilayotgan maxsulotlarning jaxon bozorlarida rakobatbardoshligini oshirishdir. Eksport potentsialini kengaytirishda va jaxon xujaligiga kirishning integratsiya jarayonida, Uzbekistonda ishlab chikarilgan maxsulotlar iloji boricha sifatli va kam xarajat kilingan, jaxon bozori shartlari va talablarini koniktiradigan darajada bulishi shart. Buning uchun esa, asta-sekinlik bilan ichki va jaxon ishlab chikarish andozalari va maxsulotlar sifatini bir-biriga yakinlashtirish kerak.

*Turtinchi*dan, texnologiyani yangilash va kengaytirilgan ishlab chikarish saloxiyatini tashkil kilishga chet el investitsiyalarini jalb kilish. Chet el kreditlari uzok muddatli va katta masshtabli investitsiyalarni ta'minlashning yagona manbasi ekanligi ma'lumdir. Bu masalada anik bir maksad sari intilish kerakligini ta'kidlab utish lozim.

Respublikada chet el sarmoyalarini siyosiy va iktisodiy riskdan sugurta kiluvchi institutlar yaxshi ishlamasa, chet el investitsiyasining respublikamizga kirib kelishi kiyinlashadi. Shuning uchun, respublikamizda chet el investitsiyasi uchun kulay shart-sharoitlar, anik maksad sari yunaltilgan vazifalar yulga kuyilishi zarur.

*Beshinchi*dan, Uzbekiston Respublikasining iktisodiy xavfsizligini ta'minlash. Xalkaro moliya munosabatlari soxasi shartlari tashkil etilishida iktisodiy xavfsizlik asosiy rollardan birini uynaydi. Milliy xavfsizlikni ta'minlashda tartibga solishning asosiy 3 xil kurinishi mavjud:

1. Valyuta nazorati.

2. Eksport va import nazorati.

3. Xom-ashyoning strategik turlari olib chikilishini tartibga solish.

Ushbu soxalarning uziga xos shakllari va tartibga solish uslublari mavjud. Albatta, yukorida keltirilgan fikr-muloxazalarga, taxlily karashlarga xamda nazariy xulosalarga ustuvor yunalish sifatida e'tibor berish, shak-shubxasiz xalkaro moliya munosabatlarni rivojlantirish uchun xizmat kiladi.

## **UZINI-UZI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR VA TOPSHIRIKLAR**

1. Uzbekiston Respublikasi kandy xalkaro ustuvor-liklarga ega?
2. Moliya-valyuta infratuzilmalari tashkil etilishi uz ichiga nimalarni oladi?
3. Xalkaro iktisodiy munosabatlar kandy zamonaviy rivojlanish tamoyillariga ega?
4. Iktisodiyotning eksport buginida davlat tomonidan kullab-kuvvatlashning kandy usullari mavjud?
5. Uzbekiston Respublikasining asosiy strategik maksadlari nimalardan iborat?
6. Tashki iktisodiy faoliyatning xukukiy asoslari nimalardan iborat?
7. Uzbekiston Respublikasining tashki savdo aylanmaiga tavsif bering.
8. Uzbekiston Respublikasining kaysi davlat organlari xalkaro moliya munosabatlari tartibga solinishida ishtirok etadi?
9. Xalkaro moliya munosabatlari rivojlantirilishida kadrlar tayyorlash kandy axamiyatga ega?

## ADABIYOTLAR RUYXATI

1. Uzbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish tugrisida»gi konuni. 1993 yil 7 may.
2. Uzbekiston bank tizimini islox qilish va erkinlashtirish buyicha konunchilik xujjatlari toplami. T.: Uzbekiston. 2000.
3. Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Valyuta bozorini yanada erkinlashtirish chora-tadbirlari tugrisida»gi 2001 yil 22 iyundagi 263-sonli karori.
4. Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Ichki valyuta bozorida almashuv kurslarini birxillashtirish chora-tadbirlari tugrisida»gi 2001 yil 25 oktyabrdagi 422-sonli karori.
5. Sbornik zakonodatelnix i normativnix aktov po valyutnomu regulirovaniyu v Respublike Uzbekistan. T.: Mexnat. 1994.
6. Karimov I.A. Uzbekiston XXI asrga busagasida: xavfsizlikka taxdid, barkarorlik shartlari va tarkkiyot kafolatlari. T.: Uzbekiston. 1997.
7. Karimov I.A. Uzbekiston XXI asrga intilmokda. T.: Uzbekiston. 1999.
8. Artemov N.M. Valyutnie ogranicheniya. M. 2001.
9. Artemov N.M. Valyutnie rinki. Moskva. 2001.
10. Antonov V.A. Mirovaya valyutnaya sistema i mejdunarodnie rascheti. M.: TEIS. 2000.
11. Barinov E.A. Valyutno-kreditnie otnosheniya vo vneshney torgovle. M.: Federativ. Knigotorg. Komp. 1998.
12. Baguslovskiy M.M. Inostrannie investitsii pravovoe regulirovanie. M.: 1996.
13. Burxanov U., Xoshimov K. Nalogovoe regulirovanie vneshneekonomicheskix svyazey. Sushchnost i razvitie mejdunarodnix nalogovix otnosheniy. M.: Aspirant i soiskatel. №1. 2002.
14. Bunkina M.K. Dengi, banki, valyuta. Moskva.: Nezavisimiy institut Rossiyskogo predprini-matelstva. 1993.
15. Borisov S.M. Azbuka obratimosti ili chto nado znat o konvertiruemosti valyut. M.: Nauka. 1999.
16. Vaxobov. A.V. Uzbekiston Respublikasida xalkaro kafolatlarni kullash masalalari. «Xalkaro iktisodiy munosabatlarni rivojlantirishda solik mexanizmi» Xalkaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. Solik va bojxona organlari akademiyasi, Toshkent – 2002 yil.
17. Vito Tanzi. Transition to market. Studies in Fiscal reform. IMF. 1993.
18. Vilkova N. Mujdunarodniy finansoviy lizing. Ekonomika i jizn. №20. 1996.
19. Gazman V.D. Lizing: teoriya, praktika, kommentarii. M.: Fond «Pravovaya kltura». 1999.
20. Gracheva M.V. Analiz proektnix riskov. Uch. Posobie. M.: ZAO «Finstatinform». 1999.
21. Gazibekov D.G. Sabirov O.Sh. Lizing i ego razvitie v Uzbekistane. T.: Moliya. 2001.
22. Djon D. Deniels, Li X. Radeba. Mejdunarodniy biznes. Moskva.: «Delo Ltd». 1994.
23. Djeffri D-Saks, Felipe Loren B. Makroekonomika. Globalniy podxod. M.: «Delo». 1996.
24. European Insurance in Figures. Basic Data 2000. Complete 1999, CEA, Brussels.
25. Exchange arrangements —2000. Washington. Published for the World Bank.
26. Krasavina L.N. Mejdunarodnie valyutno-kreditnie i finansovie otnosheniya. Uchebnik. M.: «Finansi i statistika». 2001.
27. Kruglova V.V. Osnovi mejdunarodnix valyutno-finansovix i kreditnix otnosheniy. M.: INFRA-M. 1998.
28. Ken Messere. The tax system in industrialized countries. Oxford University press. 1998.

- 29.Lizelott Suren. Valyutnie operatsii. Osnovi teorii i praktika. M. Delo. 2001.
- 30.Lorens Dj. Gitman, Maykl D. Djonk. Osnovi investirovaniya. Moskva.: «Delo». 1997.
- 31.Lavan Mahadaeva, Gabriel Sterne. Monetary Policy Frameworks in a Global Context.: Bank of England. 2000.
- 32.Maksimo V.Eng, Frensis A. Lis, Lourens Dj. Mauer. Mirovie finansi. Universitet Sent Djon. M.: «Izdatelsko-konsaltingovaya kompaniya «Deka»». 1998.
- 33.Michael Melvin. International Money and Finance. USA.: Addison-Walsey Educational Publishers Inc. 1997.
- 34.Maurice D. Levi. International Finance. The University of British Columbia. Second edition. 1990.
- 35.Nicolas Barr. Labor markets and social policy in Central and Eastern Europe. Oxford University press. 1998.
- 36.Platonova I.N. Valyutniy rink i valyutnoe regulirovanie. M.: BEK. 1996.
- 37.Simonov Yu.F., Nosko B.P.Valyutnie otnosheniya. Ucheb. Posobie. Rostov-na-Donu.: Eniks. 2001.
- 38.Semenov K.A. Mejdunarodnie valyutnie i finansovie otnosheniya. M.: TEIS. 1999.
- 39.Tojiev R.R., Jumaev N.X. Markaziy bankning monetar siyosati. Ukuv kullanma. T.:TDUI. 2002.
- 40.Shodiev X. Xamroev M. Moliya statistikasi. Darslik. T.: Abu Ali ibn Sino. 2002.
- 41.Shmireva A.I., Kolesnikov V.I., Klimov A.Yu. Mejdunarodnie valyutno-kreditnie otnosheniya. Uchebnoe posobie dlya vuzov. SPb.: «Piter». 2001.
- 42.Xakimova M., Xujaev X., Maxmudov B. Xalkaro iktisodiy munosabatlar. T.: Ukituvchi. 1997.

**«Internet» tarmogi buyicha tavsiya etiladigan veb-saytlar**

1. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/forex/index.htm>
2. <http://www.bankofengland.co.uk/markets/money/index.htm>
3. <http://www.boj.or.jp/en>
4. <http://www.federalreserve.gov>
5. <http://www.cer.uz>
6. <http://www.review.uz>
7. <http://www.uzland.uz>
8. <http://www.imf.org>